

# ZAMONAVIY OZARBAYJON SHE'RIYATI ANTOLOGIYASI



**Toshkent-2016**  
**“Extremum-press”**

**UO‘K: 821.512.162-1(082.2)**

**KBK: 83.3(5Ozar)**

**83.3(5Ozar)**

**Z 31**

**Zamonaviy Ozarbayjon she’riyati antologiyasi.** – T.:  
«Extremum-press», 2016. - 336 b.

Loyiha rahari: **Samir Abbosov**

Tuzuvchi: **Quli Kangarli**

Nashr uchun mas’ul: **Polad Zeynalov**

Dizayner: **Anar Mamedov**

Adabiy aloqalar qadimdan jahon xalqlarini, madaniyatlarini bir-biriga yaqinlashtiruvchi ko‘prik vazifasini bajargan. Buning yorqin misolini e’tiqodi, kelib chiqishi mushtarak bo‘lgan ikki qardosh xalq, dili, tili, tapixi hamohang ozarbayjon – o‘zbek xalqlari timsolida ko‘rish mumkin. Bobolarimiz Nizomiy Ganjaviyni, Fuzuliyni ona tilida oqib hayratlanishgan. Buyuk hazrati Navoiy Nizomiyni o‘ziga ustoz deb bilgan. Navoiy, Lutfiy, Mashrab, Ogahiy asarlari ham ozar xalqining qalbidan joy olgan durdonalar hisoblanadi.

E’tiboringizga havola etilayotgan topamda 20-asr Ozarbayjon adabiyoti o‘rtaligi vakillari ijodi bilan bir qatorda, bugungi kunda mumtoz adabiyot an’analarini muvaffaqiyat bilan davom ettirayotgan, shuningdek, modernistik usullarda ham ijod qilayotgan zamonaviy shoirlar ijodi bilan tanishasiz.

Taqrizchilar: **Mirpo‘lat Mirzo**, shoir, tarjimon  
**Dilshod Rajab**, shoir

Ushbu kitob Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon Madaniyat markazi loyihasi asosida chop etildi.

© Ozarbayjon Madaniyat markazi, 2016.

**ISBN: 978-9943-4790-6-7**

© «Extremum-press», 2016.

## SO‘ZBOSHI

Ozarbayjon Respublikasining O‘zbekiston Respublikasidagi elchixonasi huzuridagi Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon Madaniyat Markazining 2016-yildagi ish rejasida O‘zbekistonda Ozarbayjon adabiyotiga oid kitoblarni, mumtoz adabiyotning taniqli namoyandalari asarlari nashri va tarjima loyihamalarini amalga oshirish nazarda tutilgandi.

Madaniyat Markazimizning 2013-yilning yanvar oyida boshlangan faoliyatidan bu kunlarga qadar qardosh o‘lkada Ozarbayjon adabiyotiga doir ko‘plab nashrlar dunyo yuzini ko‘rdi. Madaniyat Markazi sifatida bu nashrlardan ko‘zlagan asosiy maqsadimiz O‘zbekiston jamoatchiligiga, kitobxonlariga Sharqning adabiyot durdonalariga nihoyatda boy bo‘lgan xalqlardan biri – Ozarbayjon xalqi she’riyati namunalari bilan tanishtirishdan iboratdir. Inson zoti dunyoga keladi, umr suradi va bir kun kelib hayotdan ko‘z yumadi. Lekin dunyoda har bir odam ham shuhrat qozonib, unutilmas nom, abadiy iz qoldirolmaydi. Shunday nodir siymolar borki, dunyo ular bilan faxrlanadi va ular o‘zlaridan so‘ng bir meros, abadiylik tajassumi qoldirib ketadilar.

Ozarbayjon xalqining taqdirida ham bunday shaxslar oz bo‘lman. Ular orasida eng yirik va mashhuri Ganja shahrida yashab, ijod qilgan mohir qalam sohibi, dunyoga dong taratgan faylasuf va mutafakkir Nizomiy Ganjaviydir. O‘zbekistonda ham g‘oyatda sevimli bo‘lgan atoqli shoir, Ozarbayjon xalqining iftixori Nizomiy Ganjaviying yubileyi Birlashgan Millatlar tashkiloti, YUNESKO hamda butun dunyoda keng nishonlandi.

Uning dovrug‘i haqida jahoning ko‘zga ko‘ringan olimlarining so‘zlarini nazarga olsak, biror-bir sharh ilovasiga ehtiyoj qolmaydi. Taniqli sharqshunos olim Agafangel Krimskiy bunday degandi: “Nizomiy Ganjaviy Ozarbayjonning jonajon shoiridir. Ozarbayjon haqli ravishda u bilan faxrlanadi. Shu bilan birga u jahon adabiyotining ham g‘ururi va bezagidir”.

Faylasuf shoir Gyote esa: “She’riyat olamida payg‘ambarlar ko‘p bo‘lgan, ammo Olloh yagona bo‘lgandek, Nizomiy ham yagonadir”, – deya Nizomiyning adabiyot cho‘qqisidagi yuksak o‘rnini e’tirof etgandi.

Ozarbayjon xalqi faqatgina Nizomiy Ganjaviy bilan emas, O‘rta asrlarning buyuk so‘z daholari Imodiddin Nasimi, Muhammad

Fuzuliy, Shoh Ismoil Xatoiy, Mulla Vali Vidodiy, Mulla Panoh Voqif, Sobir, Samad Vurg'un, Baxtiyor Vahobzoda va yana necha-necha shoir va yozuvchilari bilan ham faxrlana oladi.

O'rta asr adabiyoti darg'alaridan yana biri, ustod so'z san'atkori, Ozarbayjonning nomini jahonga doston qilgan Muhammad Fuzuliydir. Fuzuliy mahoratining buyukligi shundaki, u o'z she'rlarida XVI asrga qadar shoirlar ijodining barcha yaxshi tajribalarini o'rganib, ularni yanada rivojlantira oldi. Lirik san'atning dohiyona namunalarini taqdim etish bilan birga go'zal bir adabiy maktab yaratdi. Bu maktab Ozarbayjon she'riyatining badiiy xususiyatlarini nihoyatda yuksak pog'onaga ko'taribgina qolmay, balki klassik adabiyot me'yorlarini ostin-ustun qilgan holda, klassitsizm an'analariga dadil, erkin, mohirlik bilan yondashib, juda katta tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan xizmat ko'rsatdi.

Ozarbayjon xalqiga mansub bo'lgan bu boy adabiyot keyingi davrlarda ham muvaffaqiyat bilan davom ettirildi.

O'zbekistonda Ozarbayjon adabiyotiga g'oyat katta qiziqish bor. O'zbek adabiyotining siyemosiga aylangan Alisher Navoiy hazratlarining Nizomiyni o'ziga ustoz deb bilishi, uning ijodidan ilhomlanib, o'zining shoh asarlari, shuningdek, "Xamsa"ni yaratishi Ozarbayjon – o'zbek adabiy aloqalarining muqaddimasiga, O'rta asrlardan to bu kunlargaCHA yuksalib borayotgan rivojiga sabab bo'ldi. O'zbekistonda Nizomiy Ganjaviyga bo'lgan muhabbat shunchalar buyukki, Toshkent Davlat pedagogika universiteti 1936-yildan beri Nizomiy Ganjaviy nomi bilan yuritiladi. 2004-yilda esa Ozarbayjon va O'zbekiston davlat rahbarlari ishtirokida Universitet qarshisida dohiy Nizomiy Ganjaviy byusti ochildi.

Yuqorida qayd etilgan holatni nazarga olgan holda Madaniyat Markazimiz O'zbekistonda Ozarbayjon adabiyotiga doir nashrlarni amalga oshirdi. Ilk loyiha sifatida Ozarbayjon Madaniyat va Turizm Vazirligi homiyligida O'zbekistonda Ozarbayjon Madaniyat Markazi tomonidan 2016-yilda tarjimon Olimjon Bo'riyev tomonidan "Nizomiy Ganjaviy: Xamsa" kitobi Toshkentda o'zbek tilida nashr etildi.

Bu boradagi ishlar davom ettirilib, O'zbekiston xalq shoiri, taniqli shoir va tarjimon Jamol Kamol tomonidan "Sirlar xazinasi" asari yangidan tarjima etilib, kitob holida nashrdan chiqdi. "Layli va Majnun" asarining tarjimasi yakunlanib, nashriyotga taqdim etildi. Kelajakda Nizomiy Ganjaviyning boshqa asarlarini ham chop etish

rejalashtirilgan. 2015-yilda olim va tarjimon Ergash Ochilov tarjimasida Ozarbayjonning ustod, dohiy shoiri Muhammad Fuzuliyning tanlangan asarlaridan iborat “Qalb gavhari” kitobi dunyo yuzini ko’rdi.

O’zbekistonlik yana bir tarjimon Boboxon Sharifning “XX asr Ozarbayjon she’riyati antologiyasi” kitobi hozirgi zamon Ozarbayjon adabiyotini yoritgan nashrlardan biridir. Kitob 2014-yilda Madaniyat Markazimizning qo’llab-quvvatlashi bilan Toshkentda nashr etilib, uning taqdimoti keng jamoatchilik ishtirokida o’tkazildi.

So’nggi paytlarda bu sohada faoliyat va izlanishlarning miqyosi kengayib, o’zbekistonlik tarjimon Rustam Jabborov tarjimasida “Zamonaviy Ozarbayjon hikoyalari”, yosh yozuvchi Ilg’or Fahmiyning “Aktrisa” asarlarining o’zbek tilidagi nashlari, shoir va tarjimon Usmon Qo’chqor tarjimasida Ozarbayjon yozuvchisi Anorning “Men, sen, u va telefon” kitobi, shuningdek, tarixiy romanlar muallifi Yunus O‘g‘uzning “Amir Temur”, “Malika va jodugar”, “Sulton Alp Arslon” romanlari, yosh yozuvchi Parvinnning “Qor yog‘ajak” kitoblarining o’zbek tilida chop etilishi qardosh o’lkada adabiyotimizga bo’lgan katta qiziqishdan dalolat beradi.

Hozirgi zamon Ozarbayjon adabiyotini tanitish, uni o’zbek kitobxonlariga o’z ona tillarida – o’zbek tilida taqdim etish ishlarini davom ettirmoqdamiz. Toshkentdagি Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon Madaniyat Markazi navbatdagi nashr loyihasini Sizning e’tiboringizga havola qilmoqda. “Zamonaviy Ozarbayjon she’riyati” kitobida XX asr Ozarbayjon she’riyatining ulug‘ namoyandalari – Muhammadhusayin Shahriyor, Baxtiyor Vahobzoda, Zalimxon Yoqub, Qobil, Narimon Hasanzoda, Nusrat Kasamanlidan tortib to bugungi kunga qadar qalam tebratayotgan ozarbayjonlik yosh ijodkorlarning she’rlari o’rin olgan.

Nashrni Sizga taqdim etar ekanmiz, kitob haqidagi fikr va mulohazalaringizni bildirsangiz, mamnun bo’lardik.

**Samir Abbosov,**  
*O’zbekistondagi Haydar Aliyev nomidagi  
Ozarbayjon Madaniyat Markazi rahbari*

## **SAID MUHAMMADHUSAYN BEHJATIY TABRIZIY (MUHAMMADHUSAYN SHAHRIYOR)**



*Muhammadhusayn Shahriyor 1906-yilda Tabriz shahrining Bog'mesha tumani-da, zamonasining taniqli huquqshunosi bo'lmish Hoji Mirog'a Xushkinob oilasida dunyoga kelgan.*

*Shahriyor Tabrizda o'rta maktabni tugatgandan so'ng Tehronga kelib, 1921-yilda Tehron Dorilfununida, so'ng esa Tibbiyot oliygohida tahsil ola boshladi. Biroq fakultetning oxirgi kursida tahsilni chala qoldirib, davlat xizmatiga kirishga majbur bo'ldi.*

*Shahriyording ilk she'riy kitobi 1931-yilda Tehronda uch yirik olim – Malikushshuaro Bahrom, Said Nafis va Paymon Baxtiyorlarning muqaddimalari bilan nashr etildi. Buyuk Ozarbayjon shoiri Shahriyor o'z she'rlarini Ozarbayjon va fors tillarida yozgan. "Haydarboboga salom" dostoni shoirning eng ommalashib ketgan asarlaridan biridir.*

### **HAYDARBOBOGA SALOM**

Haydarbobo, yildirimlar chaqqanda,  
Sellar, suvlar shovqin solib oqqanda,  
Qizlar unga saf tortishib boqqanda,  
Salom bo'lsin bu shavkatli elingga,  
Mening ham nomimni bir ol tilingga.

Haydarbobo, kakliklaring uchganda,  
Ko'l bo'yidan tovushqonlar qochganda,  
Bog'chalaring gul-chechaklar ochganda,  
Mumkin bo'lsa, bizni ham bir yod ayla,  
G'ussali bu yuraklarni shod ayla.  
Bayram yeli chordoqlarni yiqqanda,

Boychechag-u binafshalar chiqqanda,  
Oq bulutlar ho‘l ko‘ylagin siqqanda,  
Bizlarni ham yod aylagan sog‘ bo‘lsin,  
Dardlarimiz osmono‘par tog‘ bo‘lsin.

Haydarbobo, kun terskayni dog‘lasin,  
Yuzing kulsin, buloqlaring yig‘lasin,  
Bolalaring dasta gullar bog‘lasin,  
Olib kelsin gullar atrin yelvagay,  
Balki g‘ofil baxtim shunda uyg‘ongay.

Haydarbobo, sening yuzing oq bo‘lsin,  
To‘rt tomoning buloq bo‘lsin, bog‘ bo‘lsin,  
Bizdan keyin sening boshing sog‘ bo‘lsin,  
Dunyo qazo-qadar, o‘lim-yitimdir,  
Dunyo azal tirnoqqa zor, yetimdir.

Haydarbobo, yo‘llar sendan kechildi,  
Umrin kechdi, borolmadim, kech bo‘ldi,  
Go‘zallarning qay bog‘larda ochildi,  
Bilmas edim, ortga qaytar yo‘lim bor,  
Yo‘qotish bor, ayriliq bor, o‘lim bor.

Haydarbobo, yigit baxti yotmagay,  
Umr o‘tgay, afsus foyda etmagay,  
Nomard inson kabi yashab o‘tmagay,  
Biz ham zinhor unutmadiq sizlarni,  
Ko‘rishmasak, ma’zur tuting bizlarni.

Haydarbobo, Mirajdar bersa ovoz,  
Qishloq ichra kuy yangrasa sarafroz,  
Yangraganda Oshiq Rustam chalgan soz,  
Yodingdadir, qandoq qaynab-jo‘shardim?  
Qush singari qanot bog‘lab uchardim.

Shangilova yurti, bog‘da yurishlar,  
Kentdan borib unda mehmon bo‘lishlar,  
Toshlar otib olma-behi terishlar,  
Shirin tushdek qolib ketgan yodimda,  
Izi qolmish ruhimda-yu zotimda.

Haydarbobo, Quruq ko‘lning g‘ozlari,  
Izg‘irinning tog‘da chalgan sozlari,  
Qishloq-kentning kuzlari-yu yozlari,  
Ko‘z o‘ngimdan o‘tar xuddi kinodek,  
Men tomosha qiladirman qotib tek.

Haydarbobo, Qorachaman havosi,  
Chovushlarning yangrab turgan sadosi,  
Karbaloga yo‘l olganlar nidosi –  
Adashganga bo‘lsin nuri hidoyat,  
Tamaddunning yolg‘onidan shikoyat.

Haydarbobo, shayton yo‘ldan ozdirdi,  
Ko‘ngillardan ishqni quvdi, bezdirdi,  
Peshonaga qora kunlar yozdirdi,  
Qasd ayladi el bir-birin joniga,  
Murosani bo‘yadi o‘z qoniga.

Insof bo‘lsa, oqmasdi ko‘z yoshlar sho‘r,  
Asl inson ko‘tarmagay qurol-qo‘r,  
Ammo, afsus, tutganini qo‘ymas ko‘r,  
Behishtimiz jahannam bo‘lmoqdadir,  
Zulhijjamiz muharram bo‘lmoqdadir.

Xazon yeli yaproqlarni to‘kkanda,  
Bulut tog‘dan qishloq sari oqqanda,  
Shayxulislom dilga otash yoqqanda,  
Jonbaxsh so‘zlar dil toriga tegardi,  
Daraxtlar ham Ollohga bosh egardi.

Toshlibuloq tosh-qum bilan to‘lmasin,  
Bog‘-rog‘lari sarg‘aymasin, so‘lmasin,  
Undan kechgan otliq tashna qolmasin,  
Jo‘shqin buloq, to‘lib-toshib oqarsan,  
Ufqlarga xumor-xumor boqarsan.

Haydarbobo, tog‘-u toshlar sarasi –  
Kaklik sayrar, ko‘kka yetar nolasi,  
Qo‘zilarning oqi, bo‘zi, qorasi,  
Bir ko‘rsaydim tog‘-dalalar yuzini,  
Kuylar edim: “Cho‘pon, qaytar qo‘zini”.

Haydarbobo, Suluv dala-tuzinda,  
Buloq qaynar daryo-chaman ko‘zinda,  
Buloqo‘ti suzar suvning yuzinda,  
Go‘zal qushlar ul maskandan kecharlar,  
Xilvatlanib buloqdan suv icharlar.

Pichan uzra sunbul o‘rgan o‘roqlar,  
Go‘yo zulfni tarayotgan taroqlar,  
Shikorchilar bedanani so‘roqlar,  
O‘rimchilar ayronlarin icharlar,  
Rohatlanib yana pichan bicharlar.

Haydarbobo, qishloqda kun botganda,  
Shom ovqatin yeb bolalar yotganda,  
Oy bulutdan chiqib nozlar otganda,  
Bizlardan ham sen ularga qissa ayt,  
Qissamizda ko‘proq g‘am-u g‘ussa ayt.

Qari momo tunlar ertak aytganda,  
Shamol turib eshiklarni chertganda,  
Tog‘da bo‘ri echkini yeb ketganda,  
Men qaytadan yana bola bo‘lsaydim,  
Koshki guldek yashnab, so‘ngra so‘lsaydim.

Ammajonning bol-halvosin yeyardim,  
Keyin turib choponimni kiyardim,  
Bog‘lar aro qo‘sishiq aytib yurardim,  
Oy yuzimga g‘ussa yopgan kunlarim,  
Yog‘och otni minib chopgan kunlarim.

Hoji xola daryoda kir yuvardi,  
Mamadsodiq tomlarini suvardi,  
Devor oshib, tog‘lar oshib quvnardik,  
Har to‘sinqi pisand qilmay oshardik,  
Tangrim, qandoq g‘am-g‘ussasiz yashardik.

Shayxulislom aytar edi munojot,  
Mashadrahim yaktaklari yelqanot,  
Mashdajali bo‘zboshini ichib shod,  
Biz shod edik bo‘lsin bayram, to‘ylar deb,  
Qolganlari nima bo‘lsa bo‘lar deb.

Malikniyoz dilga otash solardi,  
Ot choptirib yonboshidan chalardi,  
Qirg‘iy kabi cho‘qqidan joy olardi,  
Derazadan qizlar qiyo boqardi,  
Bu manzara jonlarga o‘t yoqardi.

Haydarbobo, qishloq to‘yga yetganda,  
Qiz, juvonlar xino, popuk sotganda,  
Yigit qizga tomdan olma otganda,  
Mening ham ul go‘zallarga ko‘zim bor,  
Oshiqlarning sozlarida so‘zim bor.

Haydarbobo, buloqlarning yalpizi,  
Polizlarning bodringlar-u tarvuzi,  
Attorlarning xo‘rozqand, chanqovuzi,  
Hali-hamon tomog‘imda toti bor,  
Ayro tushgan kunlarimning yodi bor.

Bayram edi, haqqush sayrab chiqardi,  
Qiz sep uchun kuyovbelbog‘ tikardi,  
Har chetidan qizlar igna tiqardi,  
Go‘zal odat – belboqqa kashta chatmoq,  
Bu belboqqa hadya solib jo‘natmoq.

Belbog‘ istab men ham uyda yig‘ladim,  
Belbog‘ olib o‘z belimga bog‘ladim,  
G‘ulomga bu belbog‘ni ko‘z-ko‘zladim,  
Fotma xola menga paypoq to‘qidi,  
Xon buvimni esga olib o‘ksidi.

Haydarbobo, Mirzamadning bog‘chasi,  
Bog‘chalarning nordon, shirin olchasi,  
Kelinlarning sep yoyilgan tokchasi,  
Hamon turar ko‘zlarimning rafida,  
Meni o‘rtar xotiralar safida.

Bayramlarda tilla kukun ezarlar,  
Naqsh beribon xonalarni bezarlar,  
Tokchalarga topganlarin tizarlar,  
Pista, bodom mo‘l kelinchak xonasi,  
Havaslanar onasi, qaynonasi.

Folbinlarning irim-sirim qog‘ozi,  
Sigirlarning bulamasi, og‘izi,  
Chorshanbaning qand-qursi-yu mayizi,  
Qizlar aytar: “Sochqingni soch, chorshanba,  
Oyna kabi baxtimni och, chorshanba”.

Tuxumlarni turfa rangga bo‘yardik,  
Urushtirib, singanlarin yeyardik,  
O‘yin bo‘lsa, uyga kelmay qo‘yardik,  
Ali menga yashil oshiq berardi,  
Irzo men deb boychechaklar terardi.

Navro‘zali xirmonda xo‘p hayardi,  
Don sovurib zap qo‘shiqlar aytardi,  
Tog‘da cho‘pon iti hurib yotardi,  
Eshak cho‘chib, yerdan uzmas oyog‘in,  
Toqqa boqar ding qilgancha qulog‘in.

Kechqurunlar biz podadan qaytganda,  
Mol-hollarni qo‘rada tinchitganda,  
Qir-adirdan qishloqqa yo‘l tutganda,  
Ulovlarini yaydoq minib chopardik,  
Zerikkanda turfa ermak topardik.

Bahor tuni daryo tinmay shovullar,  
Irmoq suvi kun nurida lovullar,  
Zulmat ichra bo‘ri ko‘zi porillar,  
Bo‘ri hidin olib itlar hurardi,  
Bo‘ri o‘zin jarliklarga urardi.

Qish kechasi qo‘ralarning so‘l-sog‘i,  
Suhbatlarning ko‘rinmasdi adog‘i,  
Ho‘l o‘tinlar jizillab yongan chog‘i,  
Qotgan noni, turshagi-yu jiydasi,  
Tinmas edi o‘yin-kulgilar sasi.

Shujo tog‘amizning Boku sovg‘ati,  
Tomda qurban samovari, suhbat,  
Yodimdadir chinor kabi qomati.  
Gunammaning to‘yi azaga do‘ndi,  
Sho‘rlik qizin baxti ham chil-chil sindi.

Haydarbobo, Onaqizning ko‘zlari,  
Raxshandaning shirin-shirin so‘zlari,  
Turku aytdim, o‘qisinlar o‘zlari,  
Bilsinlarki, odam o‘tar, ot qolar,  
Og‘izlarda yaxshi-yomon tot qolar.

Qish adoqlab, qorayganda dalalar,  
So‘ng bor qorto‘p o‘ynaganada bolalar,  
Kurakchilar qor kuragan pallalar,  
Mening ruhim chirqiraydi zor aro,  
Go‘yo kaklik botib qolgan qor aro.

Qari momo uzaytganda ishini,  
Yechganida quyosh bulut loshini,  
Bo‘ri qarib, takillatsa tishini,  
Suruv turib qir-adirdan oshardi,  
Govmishlarning suti oshib-toshardi.

Hojisulton tishin tishga qisardi,  
Mullabag‘ir tutoqardi, to‘zardi,  
Tandir yonib, uyni tutun bosardi,  
Chovgumimiz o‘choq uzra qaynardi,  
Qovurg‘alar qozon ichra o‘ynardi.

Dalamizdan hosil yig‘ib kuz chog‘i,  
To‘ldirardik omborlar-u qaznoqni,  
Tandirlarda pishirardik qovoqni,  
Mag‘zini yeb, urug‘ini chaqardik,  
Bo‘kib yerdik, uydan zo‘rg‘a chiqardik.

Varzigondan nok sotuvchi kelganda,  
Bola-baqra shovqin-suron solganda,  
Bu shovqinni biz eshitib qolganda,  
Toydek kishnab, irg‘ishlashib qolardik,  
Bug‘doyga nok ayrboshlab olardik.

Mirza Tog‘i bilan bordik daryoga,  
Men boqardim oy nur sochgan dunyoga,  
Olis bog‘lar cho‘mgan edi ziyoga,  
Nogoh “bo‘ri!” deya qo‘rqib qochdik biz,  
Bir lahzada qir-adirdan oshdik biz.

Haydarbobo, daraxtlaring yuksaldi,  
Ammo, afsus, yigitlaring keksardi,  
Qo‘ylar yemish topmay ozib-to‘zardi,  
Quyosh botdi, o‘chdi ko‘kdan izlari,  
Tun bag‘rida yondi bo‘ri ko‘zları.

Eshitgandim, yongay Olloh chirog‘i,  
Qaynar edi masjidlarning bulog‘i,  
Tin olardi yurtning kent-u qishlog‘i,  
Mansurxonning umri poydor bo‘lsin,  
Qayda bo‘lsa, Olloh unga yor bo‘lsin.

Haydarbobo, Mulla Ibrohim sog‘mi,  
Maktab ochib, qilgan ishi saboqmi,  
O‘rim payti to‘xtatmasmi saboqni,  
Mendan o‘sha mulla oxundga salom,  
Omon bo‘lsin hargiz malikulkalom.

Hoji Sulton amma ketdi Tabrizga,  
Bir xabar olgani kelmadi bizga,  
Derdi, barin qo‘yib qaytaylik izga,  
Eri o‘ldi, borish-kelish uzildi,  
G‘ariblikda azob chekdi, ezildi.

Haydarbobo, dunyo yolg‘on dunyodir,  
Sulaymondan, Nuhdan qolq‘on dunyodir,  
Farzandlarin dardga solg‘on dunyodir,  
Kimga neki bergen bo‘lsa, olibdi,  
Aflatunning faqat nomi qolibdi.

Haydarbobo, yor-u yo‘ldosh ketdilar,  
Meni bunda qo‘yib, qayga yetdilar,  
Chashmam qurib, quyoshlarim botdilar,  
G‘ussalarda kunduzlar oqshom bo‘ldi,  
Dunyo bizga xarobai shom bo‘ldi.

Do‘stim bilan borgan kecha Qipchoqqa,  
Oy nurida otlar tushdi suvloqqa,  
Oshib o‘tdik tirmashib tog‘dan toqqa,  
Mashmamixon bo‘z tulporin o‘ynatdi,  
Miltig‘idan gumburlatib o‘q otdi.

Haydarbobo, Qorako‘lning darasi,  
Xushkinobning yo‘li, toshlar orasi,  
Unda tushar chil kaklikning sarasi,  
Undan oshsak, yurtimizga yetamiz,  
Yurt yaxshi-da, bunda axir netamiz.

Xushkinobni yomon kunga kim soldi?  
Saidlardan kimlar o‘ldi, kim qoldi?  
Amir G‘affor tomin toshi yo‘qoldi,  
Buloq tag‘in qaynab, ko‘llar to‘larmi,  
Yoki qurib, bog‘-u chaman so‘larmi?

Amir G‘affor saidlarga bosh edi,  
Shohlar shikor etsa, u ko‘z-qosh edi,  
Nomardga yov, mardlarga yo‘ldosh edi,  
Mazlumlarning undirardi molini,  
Tang qilardi zolimlarning holini.

Mirmustafa tog‘a, baland bo‘y bobo,  
Soqol uzun, go‘yo Tolstoy bobo,  
Qilar edi azani ham to‘y bobo,  
Xushkinobning obro‘sni, nomus-ori,  
Masjidlarning, majlislarning sardori.

Majdussadot yashnardi bog‘lar kabi,  
Guldurardi bulutli tog‘lar kabi,  
So‘z og‘zida erirdi yog‘lar kabi,  
Qo‘li ochiq, yaxshi, odamning mardi,  
Ko‘k ko‘zlari doim chaqnab turardi.

Mening otam saxiy bir kishi edi,  
Elga madad bermoqlik ishi edi,  
Hamisha ezgulik qilmishi edi,  
Keyingilar ezgulikdan do‘ndi-ku,  
Mehr-oqibat chiroqlari so‘ndi-ku.

Mirsolihning goh tentaklik etishi,  
Mirazizning ibodatga ketishi,  
Mirmammadning qurib-qurib bitishi,  
Endi aytsak, hech kim ishonmas magar,  
Bari o‘tdi, qolmadi hech bir asar.

Mirabdulning oynakka qosh qoqishi,  
Chorcho‘plarning o‘ziga ham yoqishi,  
Tom-devordan ko‘cha tomon boqishi,  
Shoh Abbosning durbini yodimdadir,  
Xushkinobning xush kuni yodimdadir.

Sitor amma shirin kulcha yopardi,  
Mirqodir ham bu kulchani topardi,  
Bitta tishlab, toychoq kabi chopardi,  
Kulgilidir bu tirmizak, ko‘p chatoq,  
Ammamizdan yerdi nuqul shapaloq.

Haydarbobo, qaydadir Amir Haydar?  
Kelin hamon qaynatarmi samovar?  
Yo keksayib, tishdan qolmagan asar,  
Qulog‘i tom bitgan, ko‘zлari xira,  
Sho‘rlik amma, esi qolmagan sira.

Xonim amma Mirabdulning so‘zini  
Eshitganda burishtirar yuzini,  
Malkomida xush his etar o‘zini,  
Urush davri, ko‘chalarni bosgan qor,  
Qorinlar och, hamma parcha nonga zor.

Fizzaxonim Xushkinob guli edi,  
Amir Yahyo qo'shni qiz quli edi,  
Ruxsora artist, ko'p sevgili edi,  
Said Husayn Mirsalohga ergashar,  
Amir Ja'far g'ayratdan jo'shib-toshar.

Tong saharda podachilar kelardi,  
Qo'y-qo'zilar qo'ralarda ma'rardi,  
Ammajonim go'daklarin belardi,  
Tandirlarning tutuni o'rlar edi,  
Bosib ketar chor atrofni non hidi.

Kabutarlar ko'k yuzida charx urar,  
Kun chiqqanda oltin parda ochilar,  
Zarrin nurlar olam bo'ylab sochilar,  
Yashnab ketar tog'-u toshning jaloli,  
Yasharardi tabiatning jamoli.

Haydarbobo, qorli tog'lar oshganda,  
Kecha turib karvon yo'lga tushganda,  
Qayda bo'lmay, Tehrondami, Koshonda,  
Uzoqlardan ko'z o'ngimda namoyon,  
Xayol olib uchadi o'sha tomon.

Bir chiqsaydim Tomqoyaning toshiga,  
Bir boqsaydim o'tmishiga, yoshiga,  
Bir ko'rsaydim, nelar tushmish boshiga,  
Men ham uning qorlari-la yig'lardim,  
Qish muzlatgan yuraklarni dog'lardim.

Haydarbobo, gul-g'unchalar xandondir,  
Ammo, afsus, yurak-bag'irlar qondir,  
Tiriklik ham bir qorong'i zindondir,  
Bu zindonning eshagini ochgan yo'q,  
Bu tor joydan qutulgan yo'q, qochgan yo'q.

Haydarbobo, osmon yuzi tumandir,  
Kunlarimiz bir-biridan yomondir,  
Ajralmang bir-biringizdan, omondir,  
Yaxshilikni qo‘limizdan oldilar,  
Biz yaxshini yomon kunga soldilar.

So‘rab ko‘ring siz bu zolim falakdan,  
Nima istar domga tushgan yurakdan?  
Yulduzlarni bir-bir o‘tkaz elakdan,  
Oqib tushsin, yer yuzi xarob bo‘lsin,  
Bu shaytanat vayron bo‘lsin, yiqilsin.

Uchsam edi bu quyun, bu yellarda,  
Charx ursaydim tog‘dan tushgan sellarda,  
Yig‘lasaydim ayro tushgan ellarda,  
Bir ko‘rsaydim, bu hijronni kim soldi?  
O‘lkamizda kimlar ketdi, kim qoldi?


Men sen kabi toqqa soldim nafasni,  
Sen ham qaytar, ko‘klarga sol bu sasni,  
Buzilmasin boyqushning ham qafasi,  
Bunda bir sher iloj topmay bo‘kirar,  
Insonlarni muruvvatga chaqirar.

Haydarbobo, g‘ayrat qoning qaynarkan,  
Burgutlaring osmoningda o‘ynarkan,  
Qoyalarda goh uchib, goh qo‘narkan,  
Qo‘zg‘ol, manim elimni oq qorda ko‘r,  
Egilib boq, qomatimni dorda ko‘r.


Haydarbobo, tunda turna uchganda,  
Go‘ro‘g‘lining ko‘zidan xob qochganda,  
G‘irotini minib jangga tushganda,  
Men ham balki matlabimga yetmasman,  
Lekin Avaz kelmaguncha yotmasman.

Haydarbobo, mard o‘g‘lonlar tug‘ilsin,  
Nomardlarning og‘zidan qonlar kelsin,  
Daralarda bo‘rini tut, bo‘g‘ilsin,  
Qo‘y-qo‘zilar xatar bilmay o‘tласин,  
Qo‘ylaringning quyruqlari etласин.

Haydarbobo, sening ko‘ngling shod bo‘lsin,  
Bu dunyoda og‘zing to‘la tot bo‘lsin,  
Sendan kechgan, xoh tanish, xoh yot bo‘lsin,  
Aytsin, mening shoир o‘g‘lim Shahriyor,  
Umri faqat g‘amda o‘tgan chor-nochor.



## BAXTIYOR VAHOBZODA



*Ozarbayjon xalq shoiri, taniqli olim Baxtiyor Vahobzoda 1925- yil 16- avgustda Ozarbayjonning Shaki shahrida tug‘ilgan. Boku Davlat universitetining filologiya fakultetini bitirgan. Samad Vurg‘un ijodiy faoliyati tahliliga bag‘ishlangan nomzodlik ishini 1951- yilda, doktorlik ilmiy ishini esa 1964-yilda himoya qilgan. Zamonaviy Ozarbayjon adabiyoti hamda adabiyot tarixi bo‘yicha yirik mutaxassis. U 40-yil davomida universitetda talabalarga ana shu fanlardan saboq bergen.*

*Bugungi kunda Baxtiyor Vahobzodaning nomi va asarlari o‘z mamlakati hududidan tashqarida ham ma’lum va mashhur. U Ozarbayjon Parlamenti deputati, Ozarbayjon Fanlar akademiyasi muxbir a’zosi, adabiyot va fan sohasidagi yuksak mukofotlar laureati edi. 2008-yilda Bokuda vafot etgan. Asarlari dunyodagi ko‘plab xorijiy tillarga tarjima qilingan. O‘zbekistonda shoirning “Mening yo‘lim” nomli she’rlar kitobi 1981 yilda Jumaniyoz Jabborov tarjimasida chop etilgan.*

## YOSHIMIZ TENG

*Shu yil 23-yanvarda ustod Shahriyor bilan telefonda suhbatlashganim munosabati ila.*

Telefon simlari, sizga bu oqshom  
Hasratning naqadar ehtiyoji bor.  
Simning bu boshida men tayanmishman,  
Simning u boshida ustod Shahriyor.

Hamisha bir urgan yuraklarimiz,  
Evoхkim, yuz yildir – ko‘z ko‘zga muhtoj.  
Ovozim yetkazing Shahriyorga siz,  
Telefon simlari, so‘z so‘zga muhtoj.

Chehrasin ko‘rmadim men uning hamon,  
Armonga do‘ndirdi bu armon bizni.  
Biroq eng qadrdon do‘stdan, tanishdan  
Yaxshiroq taniymiz bir-birimizni.

Ko‘zimda aks etur g‘amgin ko‘zlarining,  
Hasratning zulmidan kosa to‘libdir.  
Dardlardan so‘z ochgan dardli so‘zlarining  
Ayriliq dardiga darmon bo‘libdir.

Ortidan ergashdik orzu, xayolning,  
Endi-chi, amalning zamoni keldi.  
Yaxlit bir tuproqqa haqqi bo‘lganning  
Sochdek bir tolaga gumoni keldi.

Men bir tola kabi qoqsaydim qanot,  
Sen bilan yuzma-yuz tursaydim koshki.  
O‘zimiz ko‘risha olmadik, ustod,  
Sasimiz ko‘rishdi, qalblar uchrashdi.

Sen mendan so‘radling: – Necha yoshing bor?  
Men aytdim yoshimni.  
Deding: – Ofarin.  
Dedim: – Ne olqish bu, ustod Shahriyor?  
Dedingki: – Mendan yosh ekansan, bag‘rim.  
Orzum ushalmadi, keksaydi yoshim,  
Ul go‘zal kunlarni sen ko‘r, qardoshim.

Ha, to‘g‘ri, teng emas bizning yoshimiz,  
Biroq yoshga yo‘yma o‘tgan yillarni.  
Axir, birga chekdik bu qayg‘uni biz,  
Barobar o‘rtadi hijron dillarni.  
Dardimning yoshidir mening o‘z yoshim,  
Ayriliq nishondir... Biz kurashdamiz.  
Sening ko‘z yoshingdir mening ko‘z yoshim,  
Dardimiz bir ekan, biz teng yoshdamiz.

Bizning hech kimsaga g‘arazimiz yo‘q,  
Biz og‘a-inimiz, bir onamiz bor.  
Bir buyuk tuproqning ikki o‘g‘limiz,  
Unda Shahriyorman, bunda Baxtiyor.

Biz o‘z haqqimizni talab qilmasak,  
Kim ham so‘ng manzilni bizga ko‘rsatur?  
Aytgan kunlaringga ucha bilmasak,  
Qaydan ilhom olib yozardik, axir?

Zamonning g‘aroyib o‘yinlari bor,  
Kecha tog‘ deganing kul bo‘lar bugun.  
Kecha man-man degan imperiyalar  
Kechagi quliga qul bo‘lur bugun.

Qudrati buyukdir elning, o‘baning,  
Fursat oqimidan ortda qolmadi.  
Ko‘p shamollar esdi... Haydarboboning<sup>1</sup>  
Boshidan bir tuk ham uza olmadi.

Kim ham aytolardi – qurigan og‘och  
O‘t olib yonajak kulning ichida?  
Ming yil g‘urur ila boshda kezgan toj  
Tuproqqa tushajak bir kun ichida?

Hamisha qorani oq degan qora  
Oqning qo‘li bilan dorga osilmish.  
Vaqt o‘zi do‘ndirar misni mismora,<sup>2</sup>  
Vaqtning yozdig‘ini kim buza bilmish?  
Tarix sabog‘idan zo‘rroq saboq yo‘q,  
Bizni toptadilar... tag‘in ko‘kardik.  
Agar o‘zimizga ishonmasaydik,  
O‘pqon-u jarlardan qandoq kechardik?

---

<sup>1</sup> Haydarbobo – Janubiy Ozarbayjondagi tog‘.

<sup>2</sup> Mismor – mix.

Ishonchdir yashnatgan bizni, ey ustod,  
U bizni asradi, biz-chi – orzuni.  
Ishonch o‘lmas ekan, tugamas sabot,  
Hayotning so‘ngidir ishonchning so‘ngi.

## QARIMAS

Qaritar insonni, qaritar zamon,  
Yurakning otashi, ko‘zi<sup>3</sup> qarimas.  
Tog‘larni, toshlarni qaritar zamon,  
Bilmayman, ne uchun o‘zi qarimas.

O‘tdi bahorimiz, yer qishga qoldi,  
Dashtlar qorga qoldi, yog‘ishga qoldi,  
Bizniki lol-u jim boqishga qoldi,  
Na iloj, orzuning ko‘zi qarimas.

Baxtiyor, tushundik hayotning sirin,  
Xayollar ulug‘vor, orzular shirin,  
Asl sa’natkorning, asl shoirning  
O‘zi qarisa-da, so‘zi qarimas.

## MEN SENDAN QOCHURMAN...

Men sendan qochurman... Yo‘qdir jur’atim,  
Naylayin?  
Chanqoqman, lablarim yonur.  
To‘lib ko‘zlarimga so‘ngsiz hasratim,  
Ko‘zimning ichidan senga bo‘ylanur.

Angladim, qarshimda ne bor?  
Al-amon,  
Bir – yo‘lning azobi, bir – sovuq yurak.  
Men sendan qochganda, o‘z yoshligimdan,  
Sevgimdan, hissimdan qochurman demak.

---

<sup>3</sup> К о‘з – бу орinda: cho‘g‘ ма’носida.

Men qayga qochurman, qayga, ey ko‘ngil,  
Kimga gina qilay men endi kimdan?  
Hasratdan og‘irdir, toledan yengil –  
Mening topganlarim yo‘qotganimdan.

Orsizlik qildim men, otdim orimni,  
Qalbimning xabari yo‘qdir o‘zimdan.  
Bu ezgin, bu tutqun boqishlarimning  
Boisin izlangiz yorning ko‘zindan.

Qaydadir pinhona qo‘llar ko‘rishur,  
O‘zimni yo‘qotib qo‘yurman birdan.  
Yelkamga na yomon ko‘lkalar tushur  
Idrok cho‘chitgan ul xotiralardan.

“Yo‘qotsang bu ishqni, naylarman?” deya  
Ichimda faryodga do‘ndi hasratim.  
Qo‘rquvga aylanib boqar olamga  
Endi muhabbatim, endi hasratim.

## SEVGI GINASI

Bilolmayman, to‘lin oyning  
Bu yuzimi, u yuzisan.  
Men hasratni chekib bo‘ldim,  
Sen hasratning to‘zimisan.  
Quloqlarim jaranglaydi –  
G‘iybat qilma so‘zimni san,  
So‘zimni san.

Istaymanki, tushimda ham  
Kelib seni olg‘on bo‘lsin.  
Visol to‘la ushbu tushlar  
Yolg‘on bo‘lsin, yolg‘on bo‘lsin!  
Menga qolgan xotiralar  
Unutilsin, talon bo‘lsin,  
Talon bo‘lsin!

Qo‘l-oyoqli og‘och edim,  
Butaldim men, chopildim men.  
Hamdam ketib, ko‘lkam yitib,  
O‘z-o‘zimga yopildim men.  
Ammo seni yo‘qotgan kun  
O‘zim uchun topildim men,  
Topildim men.

## **QATTIQ SOG‘INDIM**

Men seni sog‘indim yomon, ko‘p yomon,  
Men asir tushmisham o‘z istagima.  
Nafratni yashirmoq osondan-oson,  
Sevgini yashirmoq osondir dema!

Faryodlar qiladi bu ko‘ngil yana,  
Bu qanday faryoddir, bu ne oh-voydir?  
Bu jondan kechardim...  
Ko‘zim yo‘lingni,  
Qulog‘im sasingni sog‘inmasaydi.

Go‘yoki hech yerga yetmaydi qo‘lim,  
Men sarson qolmishman g‘am darasida.  
Tirilib yashaydi senli kunlarim  
Sensiz kunlarimning xotirasida.

Ko‘p qattiq sog‘indim...  
Bu nedir yana,  
Aqlim o‘ngga boqur, yuragim so‘lga.  
Yuragim aylanib titroq kaptarga,  
Qo‘nadi sen kelib-ketganing yo‘lga.

Ko‘p qattiq sog‘indim...  
Har oqshom chog‘i  
Orzumni nur bilan esh qilib o‘rdim.

Agar joiz bo‘lsa, men sog‘inmoqni  
Fursatning eng uzun mezoni derdim.

Tushlarimga kirding...  
Qochib bir kunjga  
Tanishdik...  
yel esdi...  
Taqadi dard-g‘am.  
Men bir ko‘lka edim seni ko‘rguncha,  
Sening shu’lang bilan yo‘q bo‘ldi ko‘lkam.

### **DEYMANKI, EHTIMOL...**

Cho‘llar, dalalarga qirov tushadi,  
Chashmalar jim qolur,  
Jimdir tog‘-dara.  
Men ham jim...  
Go‘yoki sariq shishali  
Oynakdan boqurman pichanzorlarga.

Gumburlab turguvchi o‘rlar, ungurlar  
Tumanga burkanib uyquga toldi.  
Deymanki, ehtimol, yam-yashil qirlar  
Qishning dahshatidan qo‘rqib sarg‘ardi.

Turnalar tark etdi bu kuz o‘lkasin,  
Vodiyning qo‘llari uzildi tog‘dan.  
Yashil og‘ochlarning qalin ko‘lkasi  
Qaygadir bekindi qo‘rqib sovuqdan.

Sasi hazin tortdi buloqlarning-da,  
Kuz bu – boshdan-oxir xayolot, fikr.  
Yalang‘och daraxtning butoqlarida  
G‘arib uyalarning ko‘zi yo‘l ketur.  
Tashlandiq juda tez unutilarkan,  
Vatanda uya ham g‘arib qolarkan.

Tog‘da cho‘qqilarga tushgan xol nadir?  
Qamchisini ko‘kda urib o‘ynatur,  
Sindirar xazonni  
Xazon yellari...

Cho‘llar sochlariiga xinomi qo‘ygan?  
Yoshimiz zamonning domiga tushdi.  
Manim sevgilimning bu kuzga yetgan  
Xinoli sochlari yodimga tushdi.

Davroni boshlanur g‘amning, g‘urbatning,  
Yoz – oppoq qog‘ozning dog‘i erur kuz.  
Ham inson umrining, ham tabiatning  
Kamolga yetishgan chog‘i erur kuz.

Yomon g‘animidir zamon insonning,  
Orzusiga bermas omon insonning.  
Dunyo dardi bilan to‘lgan insonning  
Ko‘ksidan bo‘shalgan ohi erur kuz.

## **TOPISH-YO‘QOTISH**

Bir enish bor so‘ngida –  
Har tepa,  
Har chiqishning.  
Yerga bir qo‘nmog‘i bor  
Uchib yurgan har qushning.  
Bu yo‘llar ravon emas,  
Fikr – davomi tushning.

Tentiraymiz dunyoda,  
Qo‘lda temir bir aso.  
Oyoqda temir choriq –  
Sudralamiz, chopamiz.  
Topgan qadar yo‘qotib,  
Yo‘qotgancha topamiz.

Biz gohida suv kechib,  
Goh o‘t kechib ziyoda –  
Qancha topsak, shunga teng  
Yo‘qotamiz dunyoda.  
Oxir quvonchga do‘nar  
Chekkanimiz azoblar.  
Yutqazganim – umrdir,  
Topganlarim – kitoblar.

Kuvini pishitmasang,  
Sut yuz olib yog‘ bo‘lmas.  
Nenidir yo‘qotmasang,  
Nenidir topmoq bo‘lmas.  
Har bir kelib-ketganni  
O‘lchar mezon – tarozi.  
Qilganimiz har safo –  
Bir jafoning evazi!

Qoziqning ikki uchi:  
Ham xayri, ham balosi –  
Yo‘llardagi g‘azolar –  
Sur’atning o‘z bahosi...

Iztirobsiz farah yo‘q,  
Ranjsiz rohat yo‘q zinhor.  
Hayotning qadri uchun  
O‘limdan qarzimiz bor.

Ko‘ngil tuymas sevinchni  
Toki zulm bo‘lmasa.  
Hayot bizni bezdirar  
Agar o‘lim bo‘lmasa.

Biz gohida suv kechib,  
Goh o‘t kechib ziyoda –  
Qancha topsak, shunga teng  
Yo‘qotamiz dunyoda.

## **YOLG‘ON DUNYO**

Goho boshimga dard solg‘on,  
Goh ilondek cholg‘on dunyo.  
Goh ko‘ksimga dog‘lar solg‘on,  
Goh ko‘nglimni olg‘on dunyo.

Goh buzilib, goh qurilgan,  
Goh ochilib, goho so‘lgan,  
Kelganlarni yo‘lga solgan,  
O‘zi boqiy qolq‘on dunyo.

Bir yonda ot, bir yonda o‘t,  
So‘li – quyosh, sog‘i – bulut,  
Quyonga – qoch, toziga – tut! –  
Degan ko‘hna g‘alton dunyo.

Ming rangi bor, ming to‘ni bor,  
Turli-tuman o‘yini bor,  
Na avvali, na so‘ngi bor,  
Yolg‘on dunyo, yolg‘on dunyo!

## **O‘Z ICHINGDADIR**

Sen qishni – qahraton, yoz – bo‘ston dema,  
Qishning dahshatlari yoz ichindadir.  
Chiqishda tushish bor, tushishda chiqish,  
Eng buyuk otash ham muz ichindadir.

Yuz tepa bo‘yi bor bir yuksak tog‘da,  
Tuqqandan yaqindir ba’zan uzoq-da.  
Nafrat-da, sevgi-da, qora-da, oq-da,  
Shu’la-da, zulmat-da ko‘z ichindadir.

Tosh ham oltin bo‘lar qo‘ldan ketganda,  
Malak ham sandadir, shayton ham sanda.  
Yaxshi-da, yomon-da, do‘st-da, dushman-da  
Sening o‘z ichingda, o‘z ichingdadir.



## RASUL RIZO



*Ozarbayjon xalq shoiri, tarjimon, publitsist-olim Rasul Ibrohim o‘g‘li Rizaev (Rasul Rizo) Go‘ychay (Ko‘ksoy) tumanida tug‘ilgan. Zakavkazye universitetida, Moskva Millatlar institutida tahsil olgan. O‘nlab she’riy kitob va dostonlarning muallifi.*

### YODIMGA TUSHDI

*O‘g‘lim Anorga*

Dengizda to‘lqinlar, tog‘da bulut bor,  
Kunda turna o‘tar ko‘kdan yuz qator,  
Boqdim ufqlarga hazin oqshomlar,  
Ul malul turmog‘ing yodimga tushdi.

Boq, yashil Qrimning so‘lar yaprog‘i,  
Go‘yo tabiatning qolmadi holi.  
Ma’yus-ma’yus to‘lib ko‘zlarining gohi,  
Yuzingni burmog‘ing yodimga tushdi.

Har kunim bir yildir sensiz, ey, bola,  
Ko‘rmayin, yo‘liqma hech bir zavola.  
Yumib ko‘zlarimni, toldim xayola –  
Ming o‘yin qurmog‘ing yodimga tushdi.

Tong chog‘i ochilib ko‘ylak yoqasi,  
Terdan peshonangda inju donasi,  
Uyg‘onganda xuddi qirning lolasi,  
Ul lo‘ppi yonog‘ing yodimga tushdi.

Otamga, onamga sevimli avlod,  
Onang alla aytsin, beshikda tinch yot!  
G‘oz bolasi misol sen qoqib qanot,  
Suvga talpinmog‘ing yodimga tushdi.

So‘rmang dardli qalbdan ahvolin hech ham,  
Men seni ko‘rgandim uyqumda kecha.  
Qayrilib qolguvchi o‘sanda picha,  
Zig‘irdak tirnog‘ing yodimga tushdi.

Ko‘nglim sensiz yig‘lar, sening-la kular,  
Ota bo‘lмаганлар qaydan ham bilar.  
Tutib chorpoyaning yonidan sahar,  
Oyoqqa turmog‘ing yodimga tushdi.

Ko‘pdan beri sendan kelmaydi so‘roq,  
Ul zolim onangning insofiga boq!..  
Bir go‘dak qo‘lini boyaga ko‘rgan choq,  
Jimjiloq barmog‘ing yodimga tushdi.

*Qrim-Yalta, 1938*

## SHE’R TILI

Har kim ne desa, desin!  
She’r tili oydindir.  
Istasang yoz sevinchdan,  
Gar istasang g‘amdan yoz.  
Shunchalar oydin bu til,  
Nodon yuz bor o‘qisin –  
Yana hech ne anglamas.

1958

## VATANDAN UZOQDA

Deydilar,  
Oqshom kadar keltirar.

Deydilar,  
Jon yonar qorong‘u tunda.  
Deydilar...  
Deydilar...  
Ne yorug‘ kunda?

Kunduzlar  
kutamiz sabrsizlik-la,  
bir oqshom bo‘lsin,  
bir kelsin tun-da!...

*Qohira, 1959*



## QOBIL



*Shoir QOBIL – Qobil Ollohberdi o‘g‘li Imomberdiev 1926-yilning 12-avgustida Bokuda temiryo‘lchi oilasida tug‘ilgan. 1944–1948-yillarda V.I.Lenin nomli Ozarbayjon Pedagogika institutining filologiya fakultetida o‘qigan. Adabiyotga 1944-yilda e’lon etilgan*

*“Kel, bahorim” degan she’ri bilan kirib kelgan. Eng katta asari bo‘lmish “Nasimi” she’riy romani 1976-yilda Ozarbayjon Davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan. Ozarbayjonda xizmat ko‘rsatgan sa’nat arbobi, Ozarbayjon xalq shoiridir. “Shuhrat” va “Istiqlol” kabi yusak davlat ordenlari bilan mukofotlangan. 2007-yilda Bokuda vafot etgan va 1-faxriy xiyobonga dafn qilingan.*

## MARSIYA

Kechani otash ila qirmizi qon ayladilar,  
Xalqim-u millatimi kullaboron<sup>4</sup> ayladilar!

Tutilib vahimadan nutq bu kun, til bu sahar,  
Absheronni bezabon qonli chechak-gul bu sahar,  
Boku faryod aylagay, ko‘zdan oqar sel bu sahar,  
Kemalar nola chekar, arshga chiqar zil<sup>5</sup> bu sahar,  
Kechani otash ila qirmizi qon ayladilar,  
Xalqim-u millatimi kullaboron ayladilar!

Bu qizil armiyaning yurtimiza qasdiga boq,  
Ustima tank yuritan fitnakorin shahdina boq,  
Ko‘zi qonim-la xumor dushmaniming mastina boq,  
Qora bayroqlariming gardishina, dastina boq,

<sup>4</sup> Kullaboron – o‘q yomg‘iri yog‘dirmoq.

<sup>5</sup> Zil – ehg baland ovoz.

Kechani otash ila qirmizi qon ayladilar,  
Xalqim-u millatimi kullaboron ayladilar!

O‘ldi yosh, o‘ldi bola, o‘ldi kelin-qizlarimiz,  
O‘lmadi! Shonli shahid bo‘ldi necha yuzlarimiz,  
Bu soat zaqqum erur totigan tuzlarimiz,  
Nega qon yig‘lamasin yuzlarimiz, ko‘zlarimiz?!

Kechani otash ila qirmizi qon ayladilar,  
Xalqim-u millatimi kullaboron ayladilar!

Kim ko‘rib bundoq marosim bo‘la milyonlar bilan,  
Boku inson oqimidan to‘la milyonlar bilan,  
Yozdi shahid nomlarin shon ila milyonlar bilan,  
Onalar-la opalar soch yula milyonlar bilan,  
Kechani otash ila qirmizi qon ayladilar,  
Xalqim-u millatimi kullaboron ayladilar!

Qabr aro yotgay shahid qip-qizil janda bilan,  
Oq kelinlik libosi qirmizi-ol lenta bilan,  
Xo‘sh, Kremlning nima farqi bor Xunta bilan?!

Bul g‘animning ne g‘ami xalq bilan, banda bilan?!

Kechani otash ila qirmizi qon ayladilar,  
Xalqim-u millatimi kullaboron ayladilar!

Tushdi tildan-tilga bu qatl-u bu motamgohimiz,  
Yetdi har o‘lkaga bu sharh-u bayon-u ohimiz,  
Ko‘rdi olamkim ayon jallodimizdir shohimiz,  
Barchamiz bir bandamiz-ku, bittadir Ollohimiz,  
Kechani otash ila qirmizi qon ayladilar,  
Xalqim-u millatimi kullaboron ayladilar!

Har qizil gulli mozor – bu bag‘rimiz dog‘i mozor!  
Egilur ustiga ko‘k qubbasingin tog‘i, mozor!  
Har mozor qonli beshik – allalari yig‘i mozor!  
Hali mushkul yovimizning, vahki, ketmog‘i mozor!  
Kechani otash ila qirmizi qon ayladilar,  
Xalqim-u millatimi kullaboron ayladilar!

Ey Vatan o‘g‘li, vatan avlodi, art ko‘z yoshingi,  
Qon qachon yerda qolur, egma yerga boshingi,  
Ko‘p kelib, Qobil, Ozarbayjonga ishg‘ol qo‘smini,  
Ko‘rmagan ammo hali bundoq jinoyat ishini...  
Yozdi xalq taqvimga qon birla bu Yanvar qishini,  
Kechani otash ila qirmizi qon ayladilar,  
Xalqim-u millatimi kullaboron ayladilar!

21-Yanvar 1990

### **UMID O‘ZINGDAN FAQAT...**

Cho‘ziladi suhbatlar,  
Imzolanur hujjatlar.  
Xaritada olamga  
Ko‘rsatilur sarhadlar...  
Dodimizga yetgaydir  
Dunyoning rahbarlari;  
Umid o‘zingdan faqat,  
Ozarbayjon askari!

Dumaloq stollarda  
Izi bor tirsaklarning...  
Oqilona suhbati,  
So‘zi bor dastaklarning,  
Yordam bermoqlik uchun  
O‘zi bor dastaklarning.  
La’l-javohir bo‘lsa ham  
Har yordamning samari...  
Umid o‘zingdan faqat,  
Ozarbayjon askari!

Diplomat janoblarning  
Har biri hurmatlidir.  
Shu maqomda o‘lkamga  
Tashrifi qimmatlidir.  
Hukmi tahsinga loyiq,

Hukmi adolatlidir.  
Bu ishdan chetda qolmish  
Ayt, kimlarning nazari?  
Umid o'zingdan faqat,  
Ozarbayjon askari!

Ishg'ol ostida qolur  
Tuprog'imiz-toshimiz,  
Nelar ko'rmas ko'zimiz,  
Nelar chekmas boshimiz.  
Qorishdi bir-biriga  
Bahorimiz, qishimiz.  
Chodir ko'rsatmoq faqat  
Har qochqinga peshimiz.  
Ko'rgazma bo'lmasin deb  
Bu Mil-Mug'on cho'llari,  
Umid o'zingdan faqat,  
Ozarbayjon askari!

Oliy mehmonlar kelur  
Dunyoning har yeridan.  
Dil o'rtanur, ko'z to'lur  
Shahid qabrlaridan.  
O'z-o'zimcha so'zlayman  
Bu dunyoning siridan:  
Intiqom ola olmas,  
Qonga qon ola olmas  
Mozorlarni bezagan  
Ehtirom chechaklari...  
Umid faqat o'zingdan,  
Ozarbayjon askari!

Muzokara cho'zilar,  
Natijasi yo'q hamon,  
Yangi hay'at tuzilar,  
Natijasi yo'q hamon.  
Muddat tag'in buzilar,

Natijasi yo‘q hamon.  
Yechilmas hali-veri  
Tuguni bu tuproqning.  
Xashak olov olurmi  
Yo‘qsa o‘ti chaqmoqning?  
Yildirimlardan aslo  
Kutma olov sarsari,  
Umid faqat o‘zingdan,  
Ozarbayjon askari!

Tinchlik uchun jon qurbon,  
Men ham qon istamasman.  
Yangi gullar qo‘yilgan  
Qabriston istamasman.  
Tuganar sabrim faqat,  
Muzokara,  
Tashriflar,  
Bayonotlar  
Kifoyat!  
Ziyofatlar  
Kifoyat!  
Ziyofat tumanida  
Nazokatlar kifoyat!  
Yurtsizlarga yurt bo‘lgan  
Biyobon istamasman!  
Yellansin sulh bayrog‘i,  
Ushbu bayroq yoqmagan,  
Bu bayroqqa beparvo  
Boqqan-u yo boqmagan –  
Badgumon istamasman,  
Xursand qilsin millatni  
Tinchlikning xush xabari,  
Umid o‘zingan faqat,  
Ozarbayjon askari!

## XATO TUSHGACH YERIMIZ

Tog‘larni to‘sgay tuman,  
Qiyomat bo‘lgay.  
Yo‘llarni bosgay tuman,  
Musibat bo‘lgay.  
Musibatda qolgaymiz,  
Xato tushgach yerimiz.

Ummon kemasi soyda  
Botgandir, suzmas!  
Soy kemasi tog‘ kabi  
To‘lqinga to‘zmas!  
Qolmas bizning sabrimiz,  
Xato tushgach yerimiz.

Mug‘on intiq yog‘ishga,  
Bulutlar xasis...  
Yomg‘ir yog‘ar Tolishga  
Behud, keraksiz...  
Keragi yo‘q bo‘ldik biz,  
Xato tushgach yerimiz.

O‘tmas pichoq jaranglar,  
G‘ichirlar faqat.  
Qilich qinida zanglar,  
Kir bosgan qat-qat...  
Hayf... biz ham zang bosganmiz,  
Xato tushgach yerimiz.

Oq bilakli gul qo‘llar  
Qadoqdan qotar.  
G‘ayratsiz meshqorinlar  
Atirgul sotar.  
G‘ayratsiz qolurmiz biz,  
Xato tushgach yerimiz.

Torni sozlab chertganga  
Bu jonlar qurbon!  
Pardani buzib qo‘ysa,  
Yomondir, yomon.  
Biz ham buzuq pardamiz –  
Xato tushgach yerimiz.

## KELTIRMA

Shundoq ham umrimning xazon chog‘idir,  
Xazonning ustiga xazon keltirma!  
Yurak yeldan bezgan gul yaprog‘idir...  
Uni uzmoq uchun to‘fon keltirma!

Shundoq ham behuda to‘lgan ko‘zimga  
Tinishni bilmagan layson keltirma!  
Shundoq ham nurlari so‘ngan ko‘zimga  
Zulmat keltirmagil, to‘ron keltirma!

Shundoq ham yoshlikning so‘ngandir o‘ti,  
Sovuq saroyimga bo‘ron ketirma!  
Tutqun osmonimning yo‘qdir hududi...  
Tutqun osmonimimga tumon keltirma!

Shundoq ham dillarni yoqqan bir nayman,  
Nay nola qilganda... kamon keltirma!  
Achchiq shikoyatman, hazin ginaman,  
Taskin bermoq uchun gumon keltirma!  
Shundoq ham kechikkan visolimizga  
Sen vaqt-u va’dasiz hijron keltirma!  
Qobilman, rahm etma ahvolimizga...  
Omonlik istamam... omon keltirma!

## MUHABBAT EMAS

Men seni ko‘rmakni odat qilganman,  
Odat muhabbat emas!  
Seni ko‘rmaganda hasrat qilganman,

Hasrat muhabbat emas!  
Men seni izzat-u hurmat qilganman,  
Hurmat muhabbat emas!  
Ko‘zingda porlagan mehr nuridan  
Hayratga tushganman,  
Hayrat muhabbat emas!  
Yolvoraman, sen  
Muhabbat kutma mendan.  
Majol yo‘q,  
Muhabbat to‘foniga ko‘krak kergan  
Yoshligimni  
Senga qurbon qilmoq uchun  
Ortga qaytaraymi?!  
Ortga qaytaraman...

### **SHAMOLLI HAVOLARDA, YOMG‘IRLI HAVOLARDA**

Shamol esar...sovqotar yana tosh-devor,  
O‘rindiqlar ustiga tushar tomchilar,  
Ko‘chalardan shoshib o‘tar olomon,  
Seni xotirlayman, qalbimda kadar –  
Biz ham shundoq kezardik,  
Shamolli havolarda, yomg‘irli havolarda.


Shamol esar, titraydi eshik-deraza,  
Yomg‘ir yog‘ar... shivalab yog‘ar shaharga,  
O‘zin panaga olar bir qiz, bir yigit  
Yomg‘irdan qochib.  
Biz ham shundoq qillardik  
Shamolli havolarda, yomg‘irli havolarda.

Shamol esar... sevgan kuyingni chalar,  
Yomg‘ir yog‘ar, u paytlarni yodga solar,  
Bir qiz o‘tar senikidek kamzulcha kiyib,  
Derazadan termulaman unga mung‘ayib,  
Seni ko‘raman...  
Shamolli havolarda, yomg‘irli havolarda.

Shamol esar, yallig‘lanar yuragim cho‘g‘i,  
Yomg‘ir yog‘ar, ko‘zlarimga to‘ladi yig‘i,  
Seni axtaraman, seni bor-yo‘g‘i...  
Boshqa payt hijronga chidardim, ammo  
Endi chiday olmasman  
Shamolli havolarda, yomg‘irli havolarda.

## SOAT

Umrimizning dalasini  
Chirt-chirt qilib  
Chalar soat.  
Chalg‘ida o‘t bichishlarni  
Aynan yodga solar soat...  
Chalg‘i dami toshga tegar,  
To‘mtoq bo‘lar yo kir bo‘lar.  
Soatning millari esa  
Umrimizni o‘rgan sayin  
Umr battar  
Keskir bo‘lar.



## ZALIMXON YOQUB



Zalimxon Yoqub 1950-yilning 21-yanvarida Gurjiston Respublikasi Bolnisi rayonining Kapanakchi qishlog‘ida tug‘ilgan. Ozarbayjon Davlat universitetining kutubxonachilik fakultetini tugatgan. “Soz”, “Ko‘kcha dar-di”, “Jovidon qiz farzandi”, “Shoir hayqirig‘i”, “Sizni qiynamayman”, “Vatan jarohatlari”, “Ko‘kchadan taralgan sadolar”, “Bo‘rchalida qolgan izlar”, “Yunus Imro dostoni”, “Ey Vatan farzandlari”, “Savollar”, “Adolat haqdir”, “Meni tani, Amerika”, “U qizning ko‘z yoshlari” va boshqa asarlar muallifi. U 2016-yil 9-yanvarda vafot etgan.

### PORTRET

Men bir tog‘ daryosi, tog‘ bulog‘iman,  
Goh jo‘sib, gohida ozaymog‘im bor.  
Tabiat farzandi, do‘st-o‘rtog‘iman,  
Bu yerda o‘z fe’lim, o‘z aymog‘im bor.

So‘zdan o‘z umrimga bir haykal yo‘nib,  
Go‘zallik oldida hayratdan do‘nib,  
Aridek chechakdan chechakka qo‘nib,  
Otam o‘chog‘idan cho‘g‘ olmog‘im bor.

Suvman – tomchi-tomchi toshdan chiqqanman,  
Ko‘zman, ko‘z yoshiman, yoshdan chiqqanman,  
Bir qorli, bo‘ronli qishdan chiqqanman,  
Tag‘in chechaklanib yoz bo‘lmog‘im bor.

Tuyg‘ular bog‘ida gullar undirib,  
Bir umr ichida ming umr surib,  
Shoirdek qo‘liga qalam qo‘ndirib,  
Baxshidek ko‘ksimga soz olmog‘im bor.

Xayolimiz o‘xshar uchgan qushlarga,  
Tarix baho berar oltin boshlarga,  
Ulug‘ qoyalarga, tilla toshlarga  
Qadim alifbodek yozilmog‘im bor.

## **SEN TOLIQMADING**

Yo‘llarga boqmoqdan ko‘zim toliqdi,  
Seni chorlamoqdan so‘zim toliqdi,  
Iroda toliqdi, to‘zim toliqdi,  
Mening e’tiqodim, sen toliqmading.

Yerlarga, ko‘klarga solding sas-sado,  
Yuksak cho‘qqilarni eslatding goho,  
Ufqlar bo‘lsa-da cheksiz, noado,  
Ey qo‘lim, qanotim, sen toliqmading.

Butun umrim bo‘yi yozding, yaratding,  
Orzularga yetding, matlabga yetding,  
Ruhim-u ko‘nglimni o‘zing zabit etding,  
Zahmatim, ustodim, sen toliqmading.

Dushman gulzorimga nuqul tosh otdi,  
Goho qattiq otdi, goh yuvosh otdi,  
Poklig-u halollik senga hayotdir,  
Mag‘rur iste’dodim, sen toliqmading.

## **KELMADI**

“Onam Qorabog” demakdan  
tilim bo‘ldi tilim-tilim.  
Mard yigitlar ketdi shahid,  
sog‘ ketganlar sog‘ kelmadi.

Kecha-kunduz qon yig‘ladi  
qalbim, ruhim, tuyg‘ulraim.  
Ne bo‘ldiki, yig‘lamoqdan  
ko‘zlarimga oq kelmadi.

Yaylov yetim, qishloq yetim,  
buloq g‘amgin, o‘choq so‘lg‘in,  
Qurib bitdi ildiz, butoq,  
gulzorimga tog‘ kelmadi.

Oylar kechdi, yillar kechdi,  
soch oqardi, umr o‘tdi,  
Ko‘zlarimga g‘amlar cho‘kdi,  
men ko‘zlagan chog‘ kelmadi.

Dil qadrsiz, qodirsizdir,  
maydonlarim chodirsizdir,  
Qandoq aytay, bu ko‘ngilga  
dog‘ ustiga dog‘ kelmadi.

## **ISTARMAN**

Yo‘lovchi toliqmas, yo‘llar tiganmas,  
Men shu ketganimcha ketmoq istarman.  
Yo‘llar qirg‘og‘ida daraxtlar kabi  
Yuksalmoq istarman, bitmoq istarman.

Oy o‘tar, kun kelar, bir sahar bo‘lar,  
Ufqlar alvon bo‘lar, shafaq zar bo‘lar,  
Mening eng sevganim nag‘malar bo‘lar,  
Umrim bo‘yi kuylab o‘tmoq istarman.

Nedir tilsim dunyo, sir-savol dunyo,  
Yuksakdan egilib boqar dol dunyo,  
Insonga nelar der ushbu zol dunyo,  
Sirlarning so‘ngiga yetmoq istarman.

## **OCHLIK**

Och kelganman, och keturnan dunyodan,  
Qismatimga tushgan ozdan to‘ymadim.

Bolaridek guldan gulga shoshdim men,  
Na tiyramoh, na-da yozdan to‘ymadim.

Jonni yoqdi ushalmagan armonlar,  
Tuproq bo‘ldi to‘kilib bu xazonlar,  
Mensimasdan kelib-ketdi jononlar,  
Na ishvadan, na-da nozdan to‘ymadim.

Qo‘sinq bilan yuragimni oldilar,  
Shirin-shirin xayollarga toldilar,  
Ming bir joyda ming xil navo chaldilar,  
Na baxshidan, na-da sozdan to‘ymadim.

## MEN BO‘LSAM HAM, BO‘LMASAM HAM

Dunyo har kun yuz ochadi,  
bekinadi,  
Dengiz har kun toshib kelar,  
chekinadi –  
Bu dunyoda men bo‘lsam ham,  
bo‘lmasam ham.

Ko‘klar har kun elak kabi  
elanadi,  
Tuproq har kun barakotga  
belanadi –  
Bu dunyoda men bo‘lsam ham,  
bo‘lmasam ham.

Quyosh har kun sochaverar  
o‘z nurini,  
Tog‘ ko‘z-ko‘zlar sabotini,  
g‘ururini –  
Bu dunyoda men bo‘lsam ham,  
bo‘lmasam ham.

Har qiyining, har mushkuling  
oson bo‘lsin,  
Bu dunyoning har bir ishi  
ravon bo‘lsin –  
Bu dunyoda men bo‘lsam ham,  
bo‘lmasam ham.

## GO‘ZALLIK

Nuroniydir, charog‘ondir, chiroylidir,  
Nurafshondir insonlarning eng go‘zali.  
Oydan olur, kundan olur shu’lasini,  
Boshga tojdir vijdonlarning eng go‘zali.

Hech tiganmas “Vatan – G‘urbat dostoni” bor,  
Qahramonlik, sevgi, hasrat dostoni bor,  
Har yurakda bir muhabbat dostoni bor,  
Muhabbatdir dostonlarning eng go‘zali.

Go‘zallikdir halol shuhrat, halol g‘oya,  
Shukronadir Yaratgandan tushgan soya,  
Suvsalar o‘pgach go‘zallahar sohil, qoya,  
Dolg‘a tug‘ar to‘fonlarning eng go‘zali.

Bu zol dunyo totli bo‘lur, shirin bo‘lur,  
Bir misolkim, oqar suvsalar sarin bo‘lur,  
Dengizlardan, daryolardan teran bo‘lur,  
Ko‘z yoshidir ummonlarning eng go‘zali.

Hayot unda, eng charog‘on kun undadir,  
Qo‘sish unda, ohang unda, un undadir,  
Insof unda, iymon unda, din undadir,  
Insonlardir irfonlarning eng go‘zali.

## **QARZIM BOR MENING**

Yaxshiliklar ko‘rdim yaqindan, yotdan,  
Yaqin-u uzoqdan qarzim bor mening.  
Ruhimni uyg‘otgan, allalar aytgan  
Beshikdan, qo‘ndoqdan qarzim bor mening.

Bir bolud darxti, mag‘rur chinordan,  
Olmadan, gilosdan, anjir, anordan,  
Ildiz chuqur ketgan shu ona yerdan,  
Mevali butoqdan qarzim bor mening.

Serhosil daladan, yam-yashil bog‘dan,  
Har bo‘liq sunbuldan, har yuksak tog‘dan,  
Chamandan, chechakdan, maysa, yaproqdan,  
Quyoshdan, tuproqdan qarzim bor mening.

Cho‘qqidir, adirdir, qirdir, daradir,  
Har ashyo jannatdan bir manzaradir,  
Dengizdir, daryodir, jardir, o‘radir,  
Har eldan, aymoqdan qarzim bor mening.

Haq o‘zi yaratgan rangdan, naqshdan,  
Bulutdan, chaqmoqdan, eldan, yog‘ishdan,  
Otashli yurakdan, o‘tli boqishdan,  
Nag‘mali dudoqdan qarzim bor mening.

Umrimning chiroyi bo‘lgan tuyg‘udan,  
Sevinchdan, g‘ussadan, shodlik, qayg‘udan,  
Yutganim havodan, ichganim suvdan,  
O‘pganim buloqdan qarzim bor mening.

Har so‘z bir matlabga, ma’noga bog‘liq,  
Har tosh bir go‘shaga, xonaga bog‘liq,  
Ollohga, otaga, onaga bog‘liq –  
Muqaddas o‘choqdan qarzim bor mening.

## NARIMON HASANZODA



Hasanzoda Narimon Alimammad o‘g‘li – shoir, dramaturg, 1954-yildan Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasining a’zosi, Ozarbayjonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi (1981), filologiya fanlari nomzodi (1965), Ozarbayjon Respublikasi Oliy Sovetining deputati (1990). 1931-yil 18-fevralda Ozarbayjonning Qozox rayonida tug‘ilgan.

H.Zardobiy nomidagi Kirovobod Davlat pedagogika institutining til va adabiyot fakultetini tugatgan (1949 – 1953). Moskva Gorkiy nomidagi adabiyot institutida tahsil olgan. “Adabiyot va injasan’at” gazetasining bosh muharriri (1978 – 1991), Davlat Matbuot qo‘mitasi raisining o‘rinbosari (1991 – 1993) vazifalarida ishlagan.

## SENDAN OLDIN, MENDAN OLDIN

Asli sevgan, Karam sevgan,  
U ko‘z yoshi, bu g‘am sevgan –  
Sendan oldin, mendan oldin.

Tong otadi, yer uyg‘onur,  
Zulmat bag‘ri shu'lalanur,  
Tong yulduzi ko‘kda yonur –  
Oydan oldin, kundan oldin.

Nega sevganlar yig‘lagay,  
Baxtga ko‘nglini bog‘lagay,  
Din bu qadim gunohdir, hay,  
Tangri mavjud dindan oldin.

## YERDA YER HASRATI

*Azizim, akademik Orif Poshoevga bag‘ishlanadi.*

Oyog‘im yerga tegdi,  
Senga shukur, Xudoyim!  
Ham aziz, ham muqaddas  
Yer emish, Yer, Xudoyim!  
Men haqning dargohida,  
Tilda mudom duoyim.  
Yerda shu yerdan bo‘lak  
Bir tangrim yo‘q, Xudoyim.  
Menga odim otmoqni  
Sen o‘rgatding, Xudoyim!  
Emaklamoq istadim,  
Qo‘ldan tutding, Xudoyim!  
Oyoq uzra turg‘azib,  
– Yur! – deding bo‘lib panoh.  
“Yugur” – deding, yugurdim,  
“Qoch!” – deding, qochdim, Olloh.  
Men beshik dunyosidan  
Endim yer dunyosiga.  
O‘sha kundan tushdim men  
Inson iddaosiga,  
Kattalik xulyosiga,  
Iskandar Zulqarnayn-u  
Prometey savdosiga.  
Yer, sen qulab tushganni  
Dast ko‘targaysan butun.  
Tarqalur qora tutun.  
Degaysan: – Hoy inson, tur!  
Menga suyan, ishon, tur!  
Tur, oyoqqa bosib tur!  
Men-ku poyingda yerman,  
Yerga bo‘l munosib, tur!

Ketsak, qaytmas joyimiz  
O‘zingdirsan yana, Yer!  
Hayotning bosh-oxiri –  
Ona Yerdir, ona Yer!

\*\*\*

Sochlarimning rangidadir kamzulim,  
yarmi bo‘zdir, yarmi qora, yarmi oq.  
Tabiatning izmidadir tanlamoq.  
Bu umrning fasllari qorishmish,  
yarmi bahor, yarmi kuzdir, yarmi qish.

Uzoqdirmi yo yaqinmi manzilim,  
toqqa chiqdim, men tog‘ oshgan insonman.  
Dunyo ko‘rdim, dunyolashgan insonman.  
Kulib boqdim yuz-ko‘ziga hayotning,  
kechasiga, kunduziga hayotning.

Bir oz muhlat so‘ragayman umrimdan,  
har balo-yu har qazoga biz shaymiz,  
bu dunyoni yashnatamiz, yashaymiz –  
har narsaga qalqon erur siynamiz.  
Hayot shirin, dunyo go‘zal, sen aziz...


\*\*\*

Bu dunyo bir narvondir –  
Chiqqanga mehribondir,  
Tushguvchiga yomondir...  
Uchrashdik pillalarda  
Yo‘lning teng yarmida biz.  
U chiqib borar tomga,  
Men tushardim xabarsiz.  
Uni orzular tomon  
Olib chiqardi narvon.  
Meni xotirot sari  
Endirardi  
Bu zamon.

Birimiz – kunchiqarda,  
Birimiz – kunbotarda...  
Endi chiqa olmasman,  
Na kuch bor-u na toqat.  
U esa tusha olmas,  
Bizlarga o‘z qudratin  
Ko‘rsatgandi tabiat.  
Koshki, koshki bu uchrashuv  
Tushmagaydi aroga.  
Yo u avval, yo men keyin  
Kelsak edik dunyoga.



## OTIF ZAYNALLI



*Otif Zaynalli 1927-yilda Bokuda tug‘ilgan. 1944 – 1949-yillarda Ozarbayjon Davlat universitetining Sharqshunoslik fakultetida o‘qigan.*

*1953-yilda Moskvada SSSR Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining aspiranturasiga kirgan. 1957-yilda nomzodlik, 1971-yilda esa doktorlik ilmiy darajasiga ega bo‘lgan. U uzoq yillar mobaynida Ozarbayjon Fanlar akademiyasi Nizomiy nomidagi Adabiyot institutida ishlab, umrining oxiriga qadar ushbu institutda ilmiy faoliyat bilan mashg‘ul bo‘lgan.*

*Otif Zaynalli shoир, dramaturg va adabiyotshunos sifatida nom qozongan. Uning qirqdan ortiq she’riy asarlari, ilmiy monografiyalari chop etilgan. Asarlari ko‘plab tillarga tarjima qilingan. Uning “Mammadali kurortga boradi”, “Meros”, “Narimon ota”, “Azamat” kabi dramatik asarlari Ozarbayjoning turli teatrлarida sahnaga qo‘yilgan.*

*“Dengiz farzandlari” (1963), “Muz qal’a” (1965), “Ko‘nglim sadosi” (1967), “Uch dengiz ortida” (1970), “Xazar, senga so‘zim bor” (1976), “Abadiyat” (1979) kabi she’riy kitoblari, “O‘tilmagan yo‘llar bilan” (1970), “Sulaymon Rustam” (1976), “Xalq shoiri Mammad Rahim” (1984) va boshqa ilmiy nashrlarning muallifidir. Otif Zaynalli tarjimon sifatida ham faoliyat yuritgan. XX asr Eron shoirlarining she’rlarini Ozarbayjon tiliga tarjima qilgan. Otif Zaynalli 1991-yilda Bokuda vafot etgan.*

## XAZAR MENGA AZIZDIR

Qora dengiz nahangdir,  
Qora dengiz qashangdir.  
Dolg‘alari tog‘ kabi,  
Sohilda to‘lqinlar  
Tunlarda ham olovrang –

Lovullar o‘choq kabi.  
O‘rmonlari, bog‘lari,  
Yam-yashil o‘tloqlari  
Zumrad erur qishda ham.  
Qahratonda ham go‘zal,  
Go‘zaldir yog‘ishda ham.  
Boy tabiatи bilan,  
Kuchi, qudrati bilan  
Qora dengiz, ehtimol,  
Bor azamati bilan  
Dengizlar orasida  
Eng birinchi dengizdir.  
Biroq so‘lim sohili  
Qumloq mening Xazarim  
Menga Qora dengizdan  
Milyon daf‘a azizdir!  
Milyon daf‘a azizdir!

1968

## NOMSIZ SHE’R

U bir nay emas,  
Tog‘ bag‘rida bo‘zlaydi,  
Fuzuliyim, Sobirimning qorachig‘idir.

U chechak emas,  
Dara-tepa o‘z boshiga ko‘tarar,  
Nigorimning, Hojarimning bir o‘rpagidir<sup>6</sup>.

U chaqmoq emas,  
Dushman ko‘ksin dog‘laydi –  
Bobakimning, Go‘ro‘g‘limning bilagidir!

---

<sup>6</sup> O‘rpak – kattakon ipak ro‘mol.

U shamol emas,  
Xazar kabi guvranar –  
Ja’farimning, Mushfiqimning yuragidir!

1969

## “QANCHALAR YARASHUR MUG‘ONGA JAYRON”

Maysani toptadim, gullarni ezdim,  
Keldi Oraz kabi tug‘yonga jayron.  
Vurg‘unni so‘radim, Vurg‘unni izladim,  
Boqdi hasrat bilan sayhonga jayron.

Har so‘qmoq shoirning oyoq izidir,  
Atrofi loladan qon dengizidir,  
Ulkim yuraklarning eng azizidir,  
Seni tashlab ketdi qayonga, jayron?

Ishqi daryo edi, yuragi tog‘dir,  
Ko‘ngli g‘azab ila kindan uzoqdir,  
Har kuz, har bahorda senga qo‘noqdir,  
Shodligi sig‘magan dostonga, jayron!

Qo‘sishqlar aytardi yangrab ovozi,  
Ko‘l siyohi edi, qirlar qog‘ozi,  
Hurkak boqar edi kelini, qizi,  
Ko‘rgan o‘xshatardi jayronga, jayron!

Jayron go‘yoki gul ko‘lida suzdi,  
Yoy kabi egilib, o‘q kabi o‘zdi,  
Vurg‘unning bu so‘zi hamon azizdir:  
“Naqadar yarashgay Mug‘onga jayron”.

1969

## MIL CHO‘LI UXLAR HAMON

Noz-adoli qiz kabi  
Bahor noz etar hali.

Havo esa muz kabi –  
Qor tizga yetar hali.

Eshiklarni qoqmoqqa,  
Ming‘irlab bir so‘kmoqqa,  
Bor g‘azabin to‘kmoqqa  
Shamol jon otar hali.

Qish Orondan ochsa ham,  
Quyosh shu’la sochsa ham,  
Boychechak yuz ochsa ham,  
Mil cho‘li uxlar hali...

1969

## XAVOTIR

Sozimning har bir tori –  
Xazarimning sevinchi,  
Orazimning g‘amidir,  
Chala bilarmikanman?

Quchib to‘fonni, selni,  
Ilhomimga xazridan<sup>7</sup>,  
Gilovardan<sup>8</sup> bir qanot  
Ola bilarmikanman?

Kezib qishloqni, elni,  
Bir go‘zal qo‘shiq kabi  
Yurtimning dudog‘ida  
Qola bilarmikanman?

1970

## MART, APREL VA MEN

Har kecha jon bera-bera,  
Omon chiqdim mart oyidan.

---

<sup>7</sup> Xazri – shimoldan esadigan sovuq shamol.

<sup>8</sup> Gilovar – janubdan esadigan iliq shamol.

Ajal meni urdi yerga,  
Yomon qo‘rqdim avzoyidan.

Aprelga ham yo‘qdir gumon,  
Ot o‘ynatur hali zamon,  
Quyosh chiqur, axir, qachon  
Zich bulutlar aroyidan.

Shamol, yomg‘ir bahonadir,  
Otif, yurak vayronadir,  
Sham so‘nsa – jon parvonadir,  
Uchar umr saroyidan.

1990

### MENGA BASMI?

Har kimsaning o‘z umri bor,  
Vujud jonga bir qafasmi?  
O‘zgarmas bu qat’iy qaror,  
Yalin-yolvor, yo‘q foydasi.

Obi zam-zam izlab ko‘plar,  
Ko‘zlaridan uyqu yitgan,  
Bor-yo‘g‘i ham qo‘ldan ketgan,  
Davlat faqat bir nafasmi?

Otif, faqa amal yitmas,  
Abadiydir, so‘ngga yetmas,  
Bu dunyodan, ayt, kim ketmas,  
Besh kunliging bas emasmi?

1990



## NUSRAT KASAMANLI



Zamonaviy Ozarbayjon adabiyotining eng mashhur va sevimli shoirlaridan biri Nusrat Kasamanli 1946-yilda Qozox tumanida tug'ilgan. Ozarbayjon Davlat universitetining jurnalistika fakultetini bitirgan. Talabalik chog'lari "Boku" gazetasida muxbir, keyinchalik, 1985-yilda Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasida adabiy maslahatchi, "Ozarbayjonfilm" kinostudiyasining bosh muharriri bo'lgan. Adabiy faoliyati 60-yillarda boshlangan. Ko'plab she'riy to'plamlar, hujjatli va badiiy filmlar ssenariylari muallifidir. Besh yuzdan ortiq she'riga qo'shiq bastalangan. 2003-yilda bevaqt olamdan o'tgan.

\*\*\*

Ismimni qalbingdan ota olarsan,  
Uzoq orzularga yeta olarsan,  
Menden yaxshisini topa olarsan,  
Meningdek sevganing aslo bo'lmagay!

Umringga bir sevgi kelar, bilaman,  
Sening-la u yig'lar, kular, bilaman,  
Kimir sevinchingni bo'lar, bilaman,  
Dardingga yonganing aslo bo'lmagay!

Bir kun so'nib bitar bu o't, bu o'choq,  
Kadar uyasidir bo'sh qolgan quchoq,  
Tizingga bosh qo'ygan topilar har choq,  
Parvonang, kuyganing aslo bo'lmagay!

Sevgi azobidan uzoqlardasan,  
Bir kun qatra-qatra erib oqarsan,  
Yonog'ingdan o'pguvchi ham toparsan,  
Ko'z yoshing artganing aslo bo'lmagay...

\*\*\*

Bu sevgidan sen qo‘rqasan, aybi yo‘q,  
Mayli, ikkimiz uchun men sevayin.  
Bu ishq uchun bir kun dorga tortsalar,  
Mayli, ikkimiz uchun men ketayin.

Ming azobdir sensiz kechgan har kunim,  
Unutdim men yaxshi-yomon farqini,  
Bu sevgining tog‘ eritgan dardini,  
Mayli, ikkimiz uchun men chekayin.

Gul deyman-u gul qalbing etdim bezor,  
Sen uchun bo‘lay tangri yozgan ash’or,  
Dudoqlaring aslo chekmasin ozor,  
Mayli, ikkimiz uchun men o‘payin.

Toleyimda so‘nggi ochilgan gulim,  
Suzib qora ko‘zlarining, qil tabassum,  
Bu sevgining oxiri bo‘lsa o‘lim,  
Mayli, ikkimiz uchun men o‘layin.

## DO‘STIM

Kel, meni do‘st kabi gapga sol, so‘zlat,  
Do‘st bilsin atrofdan qaragan bizni.  
Men degum: do‘stim, sen: tanishim, deb ayt,  
Zinhor bildirmaylik sevishimizni.

So‘zlashsak, kulishsak, yonma-yon kezib,  
Unda haqimizda so‘z deyolmaslar.  
Sirli uchrashuvlar qolsa sezilib,  
Deymiz, nahot do‘stlar ko‘risholmaslar?

Bir yigit suratin keltir yolg‘ondan,  
Hech kim demasinki, sevishganlarmiz.  
Istasang qo‘ltiqla ahyon-ahyonda,  
Xo‘sh, nimasi yomon, biz do‘st emasmiz?

Qo‘ng‘iroq qil, so‘z och darslardan go‘yo,  
Onangga de, bir do‘st, boshqa hech kimmas.  
Qo‘y, hamma “do‘st” bilsin bizni doimo,  
Deginki, hech mening sevar vaqtimmas....

Shunday yashiraylik biz mehrimizni,  
Boshqalar “do‘st”, onang o‘rtog‘i desin...  
“Do‘stlikka” o‘raylik hasratimizni,  
Kel, jindak sevinchdan ko‘nglimiz to‘lsin.

“Do‘stlik-la” ulg‘aysin muhabbatimiz,  
Hech boshqa ko‘rmaylik hasrat, ko‘z yoshi.  
Kel, avval hayotda o‘rtoq bo‘lib biz,  
Keyin-chi, bo‘laylik hayot yo‘ldoshi...

### MENSIZ QOLAR...

Mensiz qolib ketar bu dunyo bir kun,  
Kimningdir ko‘ziga kelar tomchi yosh.  
Mensiz qolib ketar bu dunyo bir kun,  
Tiklanadi mungli, qayg‘uli bir tosh.

Ismim kulgu misol so‘nadi labdan,  
Umr o‘tilgusi, poyonli yo‘ldir.  
Bexabar qolgandi gunyo kelganimdan,  
Ketishimdan ham balki xabari yo‘qdir.

O‘tib ketarman kunlar birida,  
Asta sabza urar o‘rnimda hijron.  
Kimningdir pinhoniy yon daftarida,  
Telefon raqamim ham jim beradi jon.

Qora hoshiyadan boqar suratim,  
Nursiz nigohimda oshyon topgay g‘am.  
Ko‘ksimda tuyg‘udek yotar qo‘llarim,  
Uyg‘onib so‘nggi she’rim yoza olmam...

## **OG‘AJA’FAR HASANLI**



1954-yilda Ozarbayjonning Lerik tumanida tug‘ilgan. Adabiyotga o‘tgan asrning 70 – 80-yillarida kirib kelgan. O‘ttizga yaqin she’riy va publitsistik kitoblarining muallifi. “Oltin kalima” va xalqaro “TURKSO‘Y” mukofotlarining sovrindori. Asarlari rus, ingliz, fransuz, fors, nemis, ukrain va boshqa tillarga tarjima qilingan.

### **MUZLAGAN QABR YERIMAN**

Bir yerda dunyoga keldim,  
Bu tuproqning bir yeriman.  
Har qarichin ma’bad bildim,  
Avliyo-yu pir yeriman.

O‘rlarda horimas tizim,  
Kun hech so‘ldirolmas yuzim,  
Yomg‘irlar yuvolmas izim,  
Tosh uzra izlar yeriman.

Taqdir meni hech egolmas,  
Oyog‘imdan-da chalolmas,  
Dalli shayton to‘r sololmas,  
Azaldan sirlar yeriman.

Quritdim manglay terimni,  
Shunda bildim had, yerimni.  
Anglamadilar qadrimni,  
Qadr-qiyatlar yeriman.

Men oshmagan sad qolmadi,  
Ko‘nglimda hasad bo‘lmadi,  
Menda jon-jasad qolmadi,  
Muzlagan go‘r, qabr yeriman.

## MENIM EMASMISH...

Ishonardimki, bu dunyo meningdir,  
Ko‘pirib, hayqirgan daryo meningdir.  
Har kuz meningdir, yoz chog‘i meningdir.  
O‘rog‘-u ketmon-u chalg‘i meningdir,  
Qarangki, hech biri menim emasmish.

Yomg‘irlar yog‘madi istaganimdek,  
Bulutlar qamradi lazzat, zavqimni.  
Shamollar qo‘ymadi boqib to‘ymakka,  
Qo‘limda so‘ndirdi titroq shamimni.  
Tunda oy to‘lmadi istaganimdek,  
Qarangki, hech biri menim emasmish.

Quyosh kunduzlari o‘z nurin sochdi,  
Kumush jilvasidan ufq voz kechdi...  
Sahroning yuziga kun tushganida,  
So‘z ochdi hamisha to‘kisligidan,  
Qarangki, hech biri menim emasmish.

Boshimni chalg‘itdi oila-ushoq,  
To‘zdim har jafoga men ko‘ngli yumshoq.  
Avlod shirinligi – bol shirinligi,  
Kazzob jigarning ayyor shirinligi,  
Sarqitga o‘chlik, yaloq shirinligi,  
Qarangki, hech biri menim emasmish.

Haromtomoqlarni yog‘ bosib ketdi,  
Halol non topganni qashshoqlik egdi.  
Ko‘p daraxt gerdaydi mo‘l bahrsasi-la,  
Boshi tanasiga og‘irlik etdi,  
Qarangki, hech biri menim emasmish.

Botdi kuragimga vaqtning ignasi,  
Malham – o‘t-o‘lanning dimog’da isi...

Bir tarafda qolsin dushman fitnasi,  
Dol etdi qaddim do'stning yaramasi,  
Qarangki, hech biri menim emasmish.

Xotira muz bo'ldi yoz havosida,  
Yo'qotdim o'zimni el orasida.  
Folchilar og'zim poylar qayta-qayta –  
Yurakdag'i sir-u asrorlarim-da,  
Hech biri, hech biri menim emasmish.

### **ISMING NIMA?**

Suluvsan, sen to'lin oysan,  
Sho'xliklari jo'shchin soysan,  
Bahoriy mayin sabosan,  
Qiz, sening isming nima?

Oshiqqan yering ma'lummi,  
Haq yo'lining avvalimi?  
Ishqimning ilk jadvalini –  
Buz, sening isming nima?

Kimga lutfingni asraysan,  
Elitib uyqu, esnaysan...  
Qay yo'ldan ketmak istaysan,  
Chiz, sening isming nima?

Bor, sevgilingni qarshila,  
Etagingga etgay sajda,  
Yuragimga bir boqish-la,  
Yoz, sening isming nima?



## **GANIRA PASHAEVA**



*Ganira Pashaeva – Ozarbayjon Respublikasi Milliy majlisi deputati, siyosatchi, shoira va jurnalist. U 1975-yil 24-martda tavallud topgan. Ozarbayjon Davlat Tibbiyot universitetining pediatriya fakulteti va Boku Davlat universitetining xalqaro aloqalar fakultetini tamomlagan.*

### **ONA**

Bu kecha uxlamadim, ona,  
36 yoshning vahimasi bor ichimda...  
Meni 37 yoshga ko‘chirgan kechaning  
tongida sovuqlik bor...  
Saharida qor.  
Sovuq qotyapman, ona!  
Tun bo‘yi sasing quloglarimda  
juda olislardan keladi ovoz:  
“Uxla, qizim,  
O‘z qizim,  
Damingni ol,  
Ulg‘aygin”.  
Mana, o‘sdim ham, ona,  
taqdirning eng beomon  
yillarida o‘sdim men.  
Dilimni ochdim, ona,  
bu hayotning eng qattiq  
yo‘llarida o‘sdim men.  
O‘ydim-chuqur yo‘llarda  
Yiqilib-turdim qancha.  
Yuragim ko‘p og‘ridi,  
Jonim ko‘p yondi, ona...  
Sen menga bu dunyoda  
vijdonsizlar borligi,

Ayol bo‘lish qiyinligi haqida  
Gapirmaganding-ku, onajon.  
Oyog‘ingning ustida turmoq,  
Nomus, ibo bilan yashamoq,  
Faqat haqiqatni so‘zlamoq...  
Onajon, buncha qiyin.  
Har narsaning badali bormish,  
Hammasidan ayol bo‘lmoqlig  
og‘irmish!  
Axir gapirmaganding-ku, onajon...

Ko‘rsatmadim hech kimsaga ko‘z yoshim,  
Ichimga yutishni o‘rgandim, ona.  
O‘zni baxtli qilib ko‘rsatdim,  
Azoblarni yengdim ro‘yi-rost.  
Yuragimni kaftimga olib,  
Boshlarimni ko‘tarib baland  
Yurmoqni o‘rgandim, onajonim.  
Meni sevmaganlar sevmasin, deb  
Yiqilmaslikni o‘rgandim,  
Ijro etdim baxtiyorlikni,  
Shunday ijro etdimki rolni,  
Asl baxtning nima ekanin,  
Baxtiyorlik nima deganin  
Unutdim...  
Bu kecha, yana shu kecha  
Sasing keldi qulqlarimga,  
Bir nimani tushuntirasan:  
“Yaxshilik hamisha g‘olib keladi”.  
Ammo, 36 yildir, ko‘rmadim,  
Kuzatmadim bunday holatni...  
Seni tingladim,  
“Bir bor ekan, bir yo‘q ekan...”  
Biroq, mening hayotimda  
“Yo‘q”lar juda ko‘p ekan, ona,  
Bugun ancha ulg‘aydim, ona,  
Endi u qiz emasman.

Senga juda yaqinman bugun.  
Ko‘z yoshlarda ulg‘aygan xotin...  
Xotirangdami, ona,  
Yo‘lda ketayotgandik,  
Pichirlab duo qilding.  
Kechirgin, birdan senga,  
“Kim uchun duo”, dedim?  
“Tushunasan, ona bo‘lsang”,  
deding menga jilmayib.  
Ammo...  
Men ona bo‘lmadim, ona.  
Lekin seni angladim ozroq.  
Ortimdan tosh otgan do‘stlarni,  
Yuragimni olgan sevgini  
ola qarashlaridan  
o‘rgandim, ona!  
“Hech kimim emassan”, dedi sevgilim,  
Besh daqiqa o‘tar-o‘tmasdan,  
“Sen mening hamma narsamsan,“ – deding, ona.  
Ammo, men noshud sening emas,  
Uning hamma narsasi bo‘lishni,  
Uning ko‘ngliga yo‘l topishni  
istayotgandim, ona.  
Buncha tez o‘tdi fursat,  
36 yil bo‘yi  
Sen men bilan yonma-yon.  
Kimdir meni yig‘latganda ham,  
Aldaganda va yana kimdir...  
Sevgi? Boshqa yo‘ldan o‘tib ketdi,  
Yaproqlar kabi uchib ketdi.  
Men sevgini tanlaganimda  
Sevgi mendan qochib ketdi.  
37 yosh bilan ko‘rishdim, ona,  
Otashi o‘t-olov Jannadan,  
Vatan uchun boshini tikkan To‘marisdan,  
Iskandarga saboq Nushobadan,  
Sevgiga qurban bo‘lgan Laylidan

Juda ko‘p yashadim, ona.  
Ammo, na To‘maris bo‘ldim,  
Na Janna,  
Na Nushoba bo‘ldim,  
Na Layli.  
Qancha yillar o‘tib ketsa ham,  
Hamma narsang bo‘ldim Sen uchun.  
Ona, meni qaytar bolaligimga,  
Baxt haqida aytib ber ertak.  
“Bor”lari ko‘p bo‘lsin ertakning,  
“Yo‘q”larini ot uzoqlarga.  
Yuragimni oldirib qo‘ydim...



## SO'NA VALIEVA



*1962-yilda tug'ilgan. Ozarbayjon Davlat san'at institutini bitirgan. 1999-yildan "Kaspiy" gazetasining ta'sischisi va rahbaridir. Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasining a'zosi, Ozarbayjonda xizmat ko'rsatgan jurnalist, falsafa fanlari doktori, ko'plab ilmiy hamda badiiy kitoblar muallifi. Asarlari Tehron, Istambulda fors, turk tillarida chop etilgan.*

## QOR YOG'AR

*(Kichkina Sattor uch kunlik ukasini erkabal, qor yog'ayotganini aytardi: "Tashqarida qor, sen qor nimaligini bilasanmi, mittivoy?")*

U qaydan ham bilsin, qor nima, o'g'lim,  
Ko'zlarida dunyo ona bag'ridir.  
Na qorni biladi, na sovuq ma'lum,  
Hayot bu sut isi, ona atridir.

Ruhiga bitilgan qadim yodnama,  
Yuvilib, yangidan yozilur endi.  
Gar aniq bor bo'lsa hayot u yoqda,  
Uyquda yig'latgan, kuldirgan kimdi?

Eshikda qor yog'ar, beshigi issiq...  
Tomlardan, dillardan chakka o'tmoqda.  
Arshning barakoti, tuproq ulushi,  
Bandaga savob-u gunoh to'kmoqda.

Sen uchun qor odam, qor to'pi bu qor,  
Mening hasratimga qorlar yog'ardi.  
Shushanining, Lochinning umidi so'nib,  
Yo'llar ko'zini ham oq qor bog'lardi.

Tuproq hasratining toleda aksi,  
Zirqiroq qalbimga asta qor yog'ar.

Bu yerda tinch hayot o‘limdek asli,  
U yerda bizsiz xarobalar yig‘lar.

Dunyo chayqalarkan beshigi chil-chil,  
Qori ham avvalgi qordek yog‘maydi.  
Musht haqiqat bo‘lar, haqiqat-chi, jim,  
Haqlining kuchini shayton yamlaydi.

Uyg‘ot xotirangni, qo‘yma mudrashga,  
Tor-mor tuprog‘ingga o‘zing tole yoz.  
O‘g‘il o‘z g‘ururin to‘sinq aylasa,  
Sarhadi buzilmas, yurti bosilmas.

Oppoq bir chechakdir bu qor tuhfasi,  
Tuproqning dardini avaylab o‘rar,  
Qor yog‘ar, birlashar bo‘lingan Vatan,  
Qor shunday yog‘arki, sarhad yo‘qolar.

Xandaqda askarning orzusi olam,  
Bayrog‘i Shushadan Ko‘ksoyga qadar.  
Qor yog‘ar kechaning qora yuziga,  
Zafar madhiyasi qalbimda yangrar.

Umidim yurakda so‘nggi tor, Alloh,  
Yetolmay qolishdan andog‘ qo‘rqaman.  
Qorabog‘ bag‘rimning qora sabridir,  
Qor yog‘ar, muzlasa, chatnar sabrim ham.

Sen uchun qor odam, qor to‘pi bu qor,  
Mening hasratimga qorlar yog‘ardi.  
Shushaning, Lochinning umidi so‘nib,  
Yo‘llar ko‘zini ham oq qor bog‘lardi.

## **HOY, ESHIK QULFLAGAN**

*(Taqdiri yopiq eshik orqasida hal etilgan millatlarga)*

Bu tarafda men ocharman,  
U tarafdan kim qulflagan?

Tangri qo‘li-la ochyapman,  
Shoshma, hoy, eshik qulflagan!

Kimgadir bir salomdir bu,  
Kimga manglaydagi yozuv,  
Qanday ozor, ne darddir bu,  
Yetar, hoy, eshik qulflagan!

Allakim bir bong-la ochdi,  
Boshqasi duo-la ochdi,  
Birov oh-fig‘on-la ochdi,  
Kimsan, hoy, eshik qulflagan?

Bu eshikning g‘ijirlashi,  
Ming yillik dil zirqirashi,  
Darband, Ganjaning ingrashi,  
Ochaylik, eshik qulflagan...

Bu eshik ko‘zim qovog‘i,  
Ichi Vatanim tuprog‘i,  
Yuragim toptadi yog‘iy,  
Sen ham ko‘r, eshik qulflagan.

Kirmadim eshik bo‘lsa-da,  
Dardi dushman chorasida,  
Tuproq eshik orasida,  
Jon berar, eshik qulflagan.

Och, ko‘raylik, qayda yo‘llar?  
Ovunsin g‘am o‘ynatganlar,  
Yuzimga yopiq qarsillab,  
O‘ldim-ey, eshik qulflagan!

U oq ro‘molli kim edi?  
Duolari Haqqa yetdi.  
Yomg‘irlar-la kalit endi,  
Olib och, eshik qulflagan.

## **DUOLAR, SEVGILAR**

*(Umr yoldoshining yuragi jarrohlik amaliyoti bo'lgan ayol tilidan)*

Tosh ostida qolgan qo'ldir umidim,  
O'z faryodimga botib, bo'g'ldim.  
Daqiqalar yildek, to'xtab qolgan vaqt,  
Dor yog'ochi kabi soat millari,  
Bardosh arqon bo'lar, osilib qolgum.

Na zamon, na makon o'lcovi ma'lum,  
Meni chetlab o'tar umid, sabr ham.  
Ko'rinmas palata eshik-oynasi,  
Ming bor o'laman bir lahza orasi,  
Sening tasallingga muhtojman har dam.

G'am-ahduh soyasi bag'rim tirnaydir,  
Sening og'rig'ingga belaniar, do'nar,  
Derdung, sen kuchlisan, balki shundaydir,  
Qollarim qo'lingda qolgunga qadar...

Hadsiz, o'lchamsiz bu qadrdonlikning  
Sirini Tangri ham bilolmay qolsin.  
Ulfating mo'jiza degay, ehtimol,  
Nomini mahbublar o'zлari topsin.

Quyosh issig'ida dovul, bo'ron bor,  
Icimda qahraton ayozi esar.  
Qo'llarim qovushar ko'ksim ustida,  
Qo'limni yuragim titrog'i ezar.

Tilim qulflanar, sozlamoq mushkul,  
Qo'lim yuragingdan so'rар, qandaysan?  
Cavobdan zirqirab ketar vujudim,  
(Bu kunimga qadar hech ne kutmadim).  
Qozonganiz bu dard bo'lsa faqat,  
Menim-la bo'lishib, baham ko'rgaysan.

Chorrahalar aro ketish, qaytish-la,  
Sen endi sevgining sinovidasan,  
Mudhish tushdir bugun boshdan o‘tganlar,  
Uringin uyqudan uyg‘onishga san.

Nomi g‘amxo‘rlikda erigan umrning,  
Ranj-u ozori ham sevihchmish dema.  
E’tirof, ehtiyoj qo‘sha madadkor,  
Yoqam qoldirmagil dard changalida,  
Meni tanholikka alishib ketma.

Duoli ko‘z yoshim – sevgi nomasi,  
Do‘ldek, yomg‘irlargek ko‘kni savalar.  
Tangri yo‘l ko‘rsatar kamalak ila,  
Umrimga qaytmoqqa yo‘llar yaralar.

### “ORAZBORI”

(*Ozarbayjon maqomlaridan “Orazbori”ni tinglaganda...*)

Oraz<sup>1</sup> bo‘ylab kimlar ko‘chdi?  
Mendan, sendan, undan kecdi.  
Ko‘z yoshini gullar bichdi,  
Yarmi bulbul, tikan yarmi –  
“Orazbori”.

Davrlarning sasi, uni,  
Soy ham haqsizlik surguni,  
Tangri qurgay ko‘prigini,  
Yarmi dard-g‘am, to‘sinq yarmi –  
“Orazbori”.

Yo‘llar chigal tushdi changda,  
O‘zim yetim o‘z icimda,  
Ne og‘ocdir bu bichimda,  
Mevasida hasrat ta’mi –  
“Orazbori”.

Noqis ruhim to‘kis qildim,  
Naqshlar-la xo‘b to‘qildim,  
Yozilmasdanoq o‘qildim,  
Tilka-pora yurak bag‘rim –  
“Orazbori”.

Go‘ycha, Shusha, Tabriz dardi  
Eskirarkan, yangilandi.  
Cho‘g‘imdan alangalandi,  
O‘tim boyimdan yuqori –  
“Orazbori”.

Ora qisqa, bu ham kadar,  
Yo‘l bir odim, qayga qadar?  
Oh, taqdir acciq na qadar?  
Qayda qoldi bahram-borim –  
“Orazbori”.

Yozilaman satr-satr,  
Ko‘k Tangrining, yer kimningdir?  
Meni boshiga qaytaring,  
Oraz nomli dardli yorning –  
“Orazbori”.

Yetti sasdan, yetti rangdan,  
Tiymay o‘zni ho‘ngoramakdan,  
Ko‘rinmas moviy tirkakdan  
Bitgan panjara, devorim –  
“Orazbori”.

“Shayx Safiy”<sup>2</sup> to‘qildi endi,  
Yer-u ko‘k o‘qildi endi,  
Qinidan ciqqan o‘q edi –  
Yonaldi naq siynam sari  
“Orazbori”.

Ohlarim yondirgay toshni,  
Toshga do‘ngan yor-yo‘ldoshi,  
Men tolening la’nat toshi,  
Dardim butun, tuproq yarim –  
“Orazbori”.

Uyim, o‘chog’im Tabrizdir,  
Motami, bazmi mensizdir,  
“Qorabog‘lar” kimsasizdir,  
Dard-alami ellar sari –  
“Orazbori”.

Bulut chulg‘ab, yog‘ar do‘llar,  
Osmon yer-la oshno bo‘lar,  
Oraz uzra kim dod solar,  
Yarmi inson, pari yarmi –  
“Orazbari”.

Tosh-devorsiz bandim zulm,  
Bo‘ynimda kamandim zulm,  
Suyakka tirandi zulm,  
Sensan har sirning ochari –  
“Orazbori”.

<sup>1</sup>*Oraz – daryo nomi*  
<sup>2</sup>“*Shayx Safiy*” – gilam turi



## TELLI PANOH QIZI



*Iste'dodli telejurnalist, shoira, publitsist. G'arbiy Ozarbayjonning Vedibasar tumanida dunyoga kelgan. Ozarbayjon Davlat universitetining jurnalistik fakultetini va Davlat Boshqaruvi Akademiyasini tugallagan. Uzoq yillar mobaynida Ozarbayjon Davlat televi-deniyesida ishlab keladi. "Umrning qo'sha izi", "Tangrim-la suhbat", "Sasingda oy shu'lasi bor", "Qatl kundasi" va boshqa ko'plab kitoblarining mualifidir.*

## BASIMDIR, BASIM

Na bir umidvorlik, na tasallim bor,  
Yolg'iz xush boqishing basimdir, basim.  
Istasang qoya bo'l, bitay bag'ringda,  
Bil, issiq og'ushing basimdir, basim.

Qor bo'lib elansang nogoh boshimga,  
Baxtiyor avzoda chiqsang qarshimga,  
Ishonsang soddadil aldanishimga,  
Jo'ngina olqishing basimdir, basim.

Yo'qmish bu dunyoning haqqi-karami,  
Hasrating soyada qo'ydi Karimni.  
Dilingning kaliti – "Kuygan Karimi",  
So'zingning bir naqshi basimdir, basim.

Qo'y, kelib dardingni olayin o'zim,  
Mayin sochlaringga gul-chechak tizgum,  
Nogahon buloqdek jo'sh ursa ko'zim,  
Yoshlaring yog'ishi basimdir, basim.

Sen bo‘lding doimo orzum, tilagim,  
Elanar bu umr, qolmas hech neyim.  
Kechikdi nolishim, ta’nam andog‘ kim,  
Allohning qarg‘ishi basimdir, basim...

### **SHUNDAY UZOQDASANKI...**

Shunday uzoqsanki... sasim ham yetmas,  
Shunday yaqinsanki... tuymaysan meni.  
Ko‘zlarining ko‘zimdan hech nari ketmas,  
Ko‘zingdan uzoqqa qo‘ymaysan meni.

Ko‘z qorachig‘imni zabit aylading sen,  
Sening ko‘zingda-chi, yo‘q mening joyim.  
Ko‘zlarim nuriga soya bo‘lding sen,  
Ayt, senga dunyomni qanday ko‘rsatgum?

Shunday uzoqsanki... tasalliga boq:  
Sen bu shaharni tark etmagansan-ku!  
Ayt, nega yo‘limiz kesishmas hech vaqt,  
Axir uzoqlarga ketmagansan-ku...

Shunday yaqinsanki... juda yaqinsan,  
Nafasing yuzimda kezar har kecha.  
Turib derazamdan boqay, balki san  
Birdan qaytasan sassiz, yashirinchha.

Manzilim topmasang, bir zanging yetar,  
Yelaman shaharning u boshiga man.  
Agar uzoq bo‘lsang... tasallim bitar...  
Agar yaqin bo‘lsang... so‘yla, qaydasan?

## MENI

Dardlar-la kurashga maydondir siynam,  
Bosh qo‘ydim siynangga, ko‘rdim siynang... nam.  
Ul kundan ko‘ksingga cho‘kib, sig‘dim man,  
Qo‘yma ko‘zlariningdan yiroqqa meni.

Ko‘ksingda otashing, qo‘ring, o‘tingman,  
Gulxanda yonmagan kuyuk o‘tinman.  
So‘nsam, yot o‘choqdan olov kutgum man,  
Turtmagil yoningdan uzoqqa meni.

Do‘l urib, gul so‘lsa, bundan ne changga,  
Tuman tushib, isi qorishdi changga.  
Tangri ham dardini berar chekkanga,  
So‘z bo‘lay, zor etma dudoqqa meni.

Jannat bo‘lar qahratonda yor bog‘i,  
Atrin sochar har guli, har yaprog‘i.  
Koshki bo‘lmasaydi bag‘rim yormog‘i,  
Tutmasaydi g‘ofil so‘roqqa meni.

Xo‘b chidadim sen chektirgan dog‘larga,  
Bo‘ron turib, qor yog‘ibdi bog‘larga.  
Demayman-ku, bor, suyangin tog‘larga,  
Solmagil yot yo‘lga, so‘qmoqqa meni.

Qiziq, kimdir oramizdag‘i tikan,  
Hovuz to‘la, nega yo‘qdir suv sepgan?  
Sof umrlar bosma qog‘ozdek ekan,  
To‘ymaski... singdirsang varoqqa meni.

Shamolmi, falakmi eshik bog‘lagan?  
Sen ham yuragingga bir tosh bog‘la, yon!  
Yo‘qotgan sevinchin topib yig‘lagan  
Qulingman... o‘xshatma qo‘noqqa meni.

## **QOLMADI**

Darding olay, chalma “Kuygan Karimni”,  
Andog‘ yondim, hatto kulim qolmadi.  
Ayozing so‘ldirdi tog‘da lolamni,  
Chamanda chechagim, gulim qolmadi.

Ko‘ksimning ustida bir o‘choq qurding,  
Torlarni eritar nolang, qarg‘ishing.  
So‘zimdan tilim ham kuyar, bilsayding,  
Bundan og‘ir yana bir zulm... qolmadi?

Yuz navo chalinur endi boshingda,  
Kuylaysan goh baland, goh past ohangda.  
Sensiz kunlarimning g‘am yomg‘irida  
Ko‘z yoshim sel bo‘ldi, selim... qolmadi.

Men ham xotirangning bir varag‘iman,  
O‘qisang ham rahmat, o‘qimasang ham.  
O‘zim ham o‘zimga endi yog‘iyman,  
Umrim yolg‘izlikda... yilim qolmadi.

Menmi sababkori chekkan bu ohning,  
Men bois bo‘ldimmi soching qoriga?  
Ham pinhona, hamda oshkor gunohing  
Men bo‘lsam... Azroil, o‘lim! Qolmadi?!

## **BO‘LAMAN**

Uzma ko‘zlariningni ko‘zimdan, Vatan!  
Yo‘qsa ko‘r bo‘laman, bemor bo‘laman.  
Meni tuban degay har yo‘ldan o‘tgan,  
O‘laman, yo‘qolib, tor-mor bo‘laman.


Boshimga tosh yog‘ar uzoq osmondan,  
Yashirar sirini, so‘ylamas nedan?  
Qalqonsan ko‘ksimda, ey ulug‘ Vatan!  
Qo‘risang, bir baland chinor bo‘laman.

Sen dengiz, men senda yolg‘iz orolman,  
Qum misol sovrilar jismim dunyoda.  
Ilondek qobig‘im qolgay piyoda,  
O‘zim sahrolarda shohmor<sup>1</sup> bo‘laman.

Na loyiq avlodman, na-da vatandosh,  
Sen ko‘zim, kiprigim, men bo‘lmadim qosh.  
Onamsan, otamsan, opam ham qardosh,  
Sensiz bir sohibsiz mozor bo‘laman.

Uzma ko‘zlaringni ko‘zimdan, Vatan,  
Yo‘qsa ko‘r bo‘laman, bemor bo‘laman.  
Meni tuban degay har yo‘ldan o‘tgan,  
O‘laman, yo‘qolib, tor-mor bo‘laman!

<sup>1</sup> *Shohmor – zaharli ilon turi.*



## FIRUZ MUSTAFO



*Mashhur dramaturg, tarjimon, faylasuf, professor. 1952-yilning 18-fevralida Ozarbayjonning Kedabek tumanida tug‘ilgan. Ozarbayjon Davlat pedagogika universiteti filologiya fakultetini tugatgan. Falsafa fanlari doktori. Ko‘plab ilmiy va badiiy asarlar muallifi. O‘tizdan ziyod asari Ozarbayjon va boshqa davlatlarda sahnalashtirilgan. Ja’far Jabborli nomli va “Humoy” kabi nufuzli mukofotlarga sazovor bo‘lgan. Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi dramaturgiya bo‘limining rahbari, “Toj” gazetasi va “Teatr” jurnalining ta’sischisidir.*

\*\*\*

Vaqt kelar, olamga cho‘kkan zimiston  
Sening ham qalbingga ilondek kirgay.  
O‘grilib, ortingga boqqanda bir on,  
O‘qli nigohingni ko‘zlarining ko‘rgay.

Ta’nali boqishlar qovurar seni,  
Kulingni ko‘klarga sovurar sening.

Yillar g‘alviridan o‘tkazar bizni,  
Tuyarmish barchani vaqt tegirmoni.  
Ko‘nglimga go‘zallik singdirgan ko‘zim  
Bir kuni bo‘z ko‘rgay moviy dunyoni.

\*\*\*

Faqir faqirlilikning tortar dardlarin,  
Badavlatga esa har tiyin g‘animat.  
Hali ham idroki yetmas ko‘plarning,  
Falokat keltirgay o‘zi-la sarvat.

Faqirlar hech nega solmas bad nazar,  
Sariq chaqaga ham shukr etar ming bor.

Ba'zisin kissasi to'la siym-u zar,  
Yayrab kula olmas yurakdan zinhor.

Bittasi to'qlikka borar yo'qlikdan,  
Boshqasi ochlikka borar to'qlikdan.

\*\*\*

Hech o'ziga tortmas meni mol-dunyo,  
Hasham turgan yerda ma'rifat bo'lmas.  
Gulgun chehralarga men doim shaydo,  
Ochiq yuraklarda xiyonat bo'lmas.

Dard-u hasratlarim menga boylikdir,  
Illo, faqirlikning o'zi ham davlat.  
Insondek yashamoq farovonlikdir,  
Insondek o'lmoq – bu beedad sarvat.

Ko'z-ko'z qilma menga mol-u davlatni,  
O'yab ko'r, ne-la lol etarsan meni?

\*\*\*

Saodat uyimning ichida ekan,  
Saodat burnimning uchida ekan.

Sening qadringni men bila oldimmi,  
Tuydimmi ko'nglingdan nelar kechganin?  
Oqqan ko'z yoshingni quritoldimmi,  
Quvdimmi yo'lingdan tumanni, changni?

Ba'zan mahv etadi yolg'on to'g'rini,  
Betavfiq oldida oqil cho'kar tiz.  
O'zimiznikining bilmay qadrini,  
O'zgalardan nedir axtaramiz biz.

\*\*\*

Tuproqning qandayin zilzilasi bor!  
Chaqmoq ham ko'klarning zilzilasidir.

Olamning buncha ko‘p vahimasi bor!  
Zilzila dunyoning faryod sasidir...  
Dengiz, daryoning ham zilzilasi bor,  
Oyning, quyoshning ham zilzilasi bor.

Yer bezor bo‘lsa-da zilzilalardan,  
Karaxt zehnlarga zilzila kerak.  
Bir dalli savdoning zilzilasidan  
Ko‘ksimda chatnasin, mayli, bu yurak.

\*\*\*

Menga yerda mozor qazimang, do‘stlar,  
Gar o‘lsam, dafn eting samo bag‘rida.  
Meni ko‘k yuzining bir burchi ko‘zlar,  
Axtaring siz meni osmon qa’rida.

Bulutlarga singib ketayin, qardosh,  
Sanchilay osmonga meteor misol.  
Oy tobutim bo‘lsin, Quyosh – qabrtosh,  
Yulduzlar ustimga yog‘sin qor misol.

Meni ko‘k yuzida dafn eting, otam,  
Gunoh-la limmo-lim bu yerning yuzi.  
Xudoyim, men yerga tamom yot odam,  
Xudoyim, dunyoga ko‘nikmas ko‘zim.

Ehtimol, osmonning yo‘qdir nomardi,  
U yoqning na saddi, na sarhadi bor.  
U yoqda na mozor, qabrtosh dardi,  
Ham na kafan dardi, mulla dardi bor.

U yerda malaklar qo‘nar qabrimga,  
Tangriga ozgina yaqin bo‘laman.  
U yerda shaytonlar kirmas qalbimga,  
Ko‘kda shaytonlardan qasos olaman.

## FIKRAT MURSAQULOV



*Iste'dodi shoir, jurnalist, publitsist Fikrat Yunus o'g'li Mursaqulov 1955-yilning 10-iyunida Gruziyaning Bo'rchali tumani Marneuli shahrida dunyoga kelgan. 1964 – 1975-yillarda ko'zi ojiz bolalar internatida, 1975 – 1980-yillarda Boku Davlat universitetining jurnalistik fakultetida tahsil olgan. 1989-yil 31-mayda bevaqt vafot etgan. 2007 yilda uning "Tassalli" nomli she'riy to'plami nashrdan chiqdi.*

### TASALLI

O'qib-o'qib,  
yozib-yozib,  
Nur alifbosin o'rgatmoqdaman  
barmoqlarimga.  
Xush ko'rdik, ko'zlarim,  
xush ko'rdik!

\*\*\*

Bebosh tuyg'ularim she'r lashganida,  
Badan zirqirog'i yodimga tushmas.  
So'z-so'z, misra-misra qorayar qog'oz,  
Jismim uvushtirar qora varaqlar.

She'r yoza-yoza, dard torta-torta,  
Ustma-ust chekishdan tutab ketaman,  
Horg'in yuragimning tugar madori,  
Boshimga qor yog'ar pastdan yuqori,  
Sochim oqartirar qora varaqlar.

Sillasi qurigan ojiz qalbimga  
Anduhning og'riqli yuklari to'lar.

Meni tiriklikda tuymaganlarga  
Ko‘nglimni tanitar qora varaqlar.

## XOTIRALARIM

Hammadan qadrdon, har nedan aziz,  
Hammadan yaqindir xotiralarim.  
Xotiralar ila qalbim limmo-lim,  
Demangiz, hech yo‘qdir xotiralarim.

Qurib ulgurmadi diydasin nami,  
Hali ham titraydi kiprikda yoshi.  
Ulardir qalbimning yaqin hamdamni,  
Ulardir qalbimning aziz sirdoshi.

Bol kabi shirindir, og‘udek achchiq,  
Nechun bunchalar tez yurak to‘libdi?  
Xotiralarimdir ko‘nglimning toji,  
Yaxshiki, qalbimda bo‘s sh yer qolibdi.

Hali necha shunday o‘tgan kunlarim,  
Xotiraga do‘nib, tanho qolajak.  
Hayotim-la bog‘liq ko‘p qahramonli  
Bir xotira nomli asar bo‘lajak.

\*\*\*

Taralgan kuylarning bir qo‘li kesik,  
Yuqori pardalar g‘am qanotida.  
Ul chaman safosi, osmon g‘ovuri  
Ho‘ngraydi ko‘ksimda qafas ortida.

Qorib alamiga umidini ham,  
Ko‘zlaydi qo‘shig‘i yorug‘ kunduzni.  
Bir on ko‘rsam, deydi, o‘limdan avval,  
Gulning g‘unchasini, ko‘kning yuzini.

## **KICHRAYGAN ZARRA**

Farqlay boshlaganda qorani oqdan,  
Atrofni kuzatmoq nasib bo‘lmadi.  
Xilqatning husniga, go‘zalligiga  
Bir juft ko‘z-la boqmoq nasib bo‘lmadi.

Ammo ko‘rligimdan yo‘q shikoyatim,  
Hayotni zakom-la ko‘rolganim-chun.  
Quyoshning zarrasi qolgan kichrayib,  
Ko‘zlarimning nuri yo‘qolgani-chun.

## **GUGURT CHO‘PI**

Jussasi mittidir gugurt cho‘pining,  
Aslida bag‘oyat azim kuchi bor.  
Yondirding... Chaqmoqdir avvaliga u,  
So‘ngra arshga qalqqan alanga bo‘lar.

Ko‘ngil, bu hikmatni gugurt cho‘pidan  
O‘rgan, bir soniya lov etmagil, yon,  
Avval chaqmoqdek chaq, so‘ng o‘tga aylan,  
Quyoshdek nuringga g‘arq bo‘lsin jahon.



## **GUNAY UMID**



*1984-yilning 26-aprelida Ozarbayjonning Lankaron shahrida dunyoga kelgan. Ozarbayjon Davlat sa'nat institutini tugatgan. Hozirda Boku Slavyan universitetining ijodiyot fakultetida tahlisil olmoqda. Oilali. Bir qiz, bir o'g'li bor.*

### **MENGA YOLG‘ON SO‘ZLA**

O‘yinchog‘i olib qo‘yilgan  
Go‘dak kabiman.  
Behudadir oqayotgan  
Ko‘z yoshim,  
G‘alabasizdir olishganim  
Hayot kurashi.

Menga yolg‘on so‘zla!  
Yelkamga yuklangan  
Ma’nosiz to‘g‘rilarning  
Yuzimga yopilgan  
Eshiklarida qolganman.  
Bu yolg‘onchi dunyoda  
Yo‘q narsani axtarib  
Umrimni o‘tkazganman.

Menga yolg‘on so‘zla!  
Qo‘y, minba’d qismatimning  
Ho‘ngragan kulishini  
Tuymayin.  
Oyog‘imni kishanla!  
Qo‘y, minba’d qadamimni  
Ilojsizlikka qo‘ymayin.  
Indamayman,  
Men ko‘naman.  
Sen menga yolg‘on so‘zla.  
Ag‘dargin mo‘rt ishonchimni

Yuragi tosh, yuzi xush  
Qoya yolg‘onlaring-la,  
Oq-qora hayotimni  
Bo‘ya yolg‘onlaring-la.

Ey hayot,  
Uydir yolg‘onlaringni,  
Ko‘z yoshlaring  
Sevinchdan degil menga!  
Kulishlaring  
Ich-ichdan degil menga!  
Orzularing to‘sqliarni  
yengar de!  
Bu hayot yashamoqqa arzir de!  
Yolg‘onlaringning shirin tili  
Inontirsin borlig‘imni,  
Jim turma....  
Chinlarimga qorish, jim turma,  
Yashamoq istayman,  
Menga yolg‘on so‘zla.

### **EPLAMADIM**

Avval o‘zimdan uyaldim!  
So‘ngra esa hislarimdan...  
Sevgimdan uyaldim,  
Uyaldim yuragimning  
Saslaridan....

Seni hislarimda bo‘g‘moqqa urindim!  
Yashirmoq istadim...  
Muz o‘ragan tuyg‘ularim  
Isinmoq uchun yondirgan  
Orzularda o‘rtandim.  
Eplamadim!

Seni hurkak dadilligimning  
Orqasiga yashirdim.  
Qo‘rquv tindirdi ko‘z yoshim,  
Hadik siypaladi boshim.  
Eplamadim!

Seni she’rlarimda  
Yashirmoqqa urindim!  
Har satrning ohida, faryodida,  
Har misraning gunohida  
O‘ldirmoq istadim seni,  
Ammo eplolmadim.

Seni yashirmoqqa urinarkanman,  
Kirib qalbimda yashirinding...  
Endi chiq qalbimdan!  
Chiq hayotimdan!  
Qalbimning butun borlig‘iga singgan  
Nolasi, ohi....  
Chiq umrimdan!  
Hayotimning eng pokiza gunohi,  
Chiq!  
Chiq umrimdan!

## **UL AYOL**

Ul ayol  
Ko‘pdan uloqtirgandi ko‘zlaridagi qo‘rquvni.  
Qo‘lidagi qadoqlar  
G‘azablanardi ko‘z yoshlariqa,  
G‘azablangan sari yuvardi yonoqlarini...

Dardini devorlar-la bo‘lmakni,  
Toleiga kulmakni,  
Kun-kunora o‘lmakni ham  
O‘rgangandi ul ayol!!!

Endi bir boshdan...  
Harir pardali tanholigi  
Ilgariroq joylashgandi to‘y chodiriga.  
Zo‘rlab qo‘liga taqqandilar qismatsizligini.  
To‘y musiqasi ham shunday yig‘lagandi...

Endi rangli tushlar ham ko‘rmasdi!  
Supurgan ko‘chalarining changi  
Bo‘g‘gandi orzularini,  
Endi orzulari ham unmasdi...  
Nafasini to‘sigan qiyiq ro‘mol ila  
Tovushini o‘chirgandi  
Isyonining...

Endi gunohkor ham axtarmasdi!  
Sovuq xonasida  
Qadamlari sasiga isinmakni ham o‘rgangandi,  
Xontaxta ustiga har kecha ikki bo‘sh likop qo‘yib,  
O‘zi-o‘ziga mehmon bo‘lib,  
Kechaning bag‘rini  
Kiprik-kiprik yulmoqni ham  
O‘rgangandi  
Ul ayol!!!



## AKBAR QO'SHALI



*1973-yilda Tovuz tumanida tug‘ilgan. Ozarbayjon Texnika universitetini, Ozarbayjon prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruв akademiyasini bitirgan. Dunyo yosh turk ijodkorlar uyushmasining rahbari.*

*“Yoshlar mukofoti”, Shahmar Akbarzoda nomidagi Xalqaro mukofot sohibi. 1998-yildan Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi a’zosi.*

\*\*\*

Oltoylardan yelgan otlar  
Ketgani ko‘k yo‘li edi.  
Oltoylardan kulgan oylar  
Biz chiqqanda to‘lin edi.

Oltoylardan yelgan otni  
Boshqa birov minmadi,  
Oltoylardan yelgan otlar  
Oq ko‘pikli dengizlarga  
Yetguncha churq etmadi.

Biz chiqqanda Oy to‘lgandi,  
Biz ketgancha Oy yo‘li  
Oyog‘imiz uzangida qayrildi,  
O‘q-yoyimiz sinib bitganda  
Oy samoda yoy misoli kerildi.  
Biz chiqqanda Oy to‘lgandi,  
Chiqdik, bo‘ldi yarim oy.  
Oy Olt soyda to‘lin oydir,  
Ovrupoda yarim oy.

Oltoylardan yelgan otni  
Yana, yana minarmikanman?!  
Oltoylardan yelgan otning

Oq ko‘pikli dengizzgacha  
Sokinligin ko‘rarmikanman?

Oltoylardan yelgan otlar  
Ovruponi qachon otlar?!

\*\*\*

Tuproq –  
og‘ir kunda qo‘lida bayroq,  
manglayi darddan bujmaloq,  
qaddi dol kishilarning  
qadamidan topgay  
huzur-halovat.  
Tuprog‘i  
har yerda  
shahid mozori ila  
muhrangan millatning  
bayrog‘i yashagay  
abadul-abad...

## QARDOSH

Xush kunim ko‘rolmading,  
O‘lsam, ko‘rarsan, qardosh.  
Menga uy qurolmading,  
Qabr qurarsan, qardosh.

Yuragimiz sof bo‘ldi,  
Yo‘limiz sof chiqmadi.  
Bahor ham sarob bo‘ldi,  
Bizga oftob chiqmadi.

Bir qorinda yotgandik,  
Bir qabrdha yotmaymiz.  
Bir odamning o‘g‘limiz,  
Bir hovlida qolmaymiz.

Menga uy qurolmading,  
Qabr qurarsan, qardosh.  
Qo‘y, men o‘lay, ko‘rmayin  
Nogoh o‘lganing, qardosh.

Qishimiz muzdan o‘tdi,  
Bahor bahor bo‘lmadi.  
Yozimiz o‘tdan o‘tdi,  
Kuzdan ko‘ngil to‘lmadi.

Bir onadan bo‘lgandik,  
Hech qayta tug‘ilmaylik.  
Bir ota o‘g‘li edik,  
Ketsak-da, ayrilmaylik.

Bunda bir kun ko‘rmadim,  
Unda ko‘rarman, qardosh.  
Qo‘y, men o‘lay, ko‘rmayin,  
O‘lsang, o‘larman, qardosh.

\*\*\*

Men  
toshlarni chechaklardan kam sevmadim,  
Toshlar bu dunyoda, ehtimol,  
Eng go‘zal xotiradir –  
Gultakin misoli.  
Toshlar Vatanga qardoshdir –  
Vatandosh timsoli.

## SHUKR

Tizlarim bukilgan vaqtda  
Kuch bergen g‘ayratga shukr.  
Nur yuzga har kun yangidan  
Yaralgan hayratga shukr.

Yaqinlarni uzoq bildim,  
Uzoqlarni ayoz bildim,  
Men bobom-chun yosh to‘kmadim,  
Tug‘ilgan Mahmudga shukr.

Umr turmas bir oqimda,  
O‘lim balki shu yaqinda.  
So‘zlamoqqa so‘z bor bo‘lsa,  
Shoирга ham she’rga shukr.

## BU OQSHOM TOG‘LARDA YOMG‘IR YOG‘AJAK

Bulutlar o‘zini otdi dengizga,  
Bu oqshom tog‘larda yomg‘ir yog‘ajak.  
Nima duo qilsang, yetar manzilga,  
Tangri eshiklarni kengroq ochajak.  
Bu oqshom... Bu oqshom yomg‘ir yog‘ajak,  
Insonlar qochajak falakka tomon,  
Bir telba ko‘ksini oolib qochajak,  
Qochajak eng yaqin yurakka tomon.  
Qoch axir, qoch axir, oylarga sari,  
Yaxshilik, go‘zallik bordir tog‘larda.  
Ketgan ham: “Tangri”, der,  
Kelgan der: “Tangri!”  
Devona yo‘llarni solar tog‘larga.  
Bu oqshom Tolishga yomg‘ir yog‘ajak,  
Dengizga bosh qo‘yib yotar bulutlar.  
Tangri eshiklarni kengroq ochajak,  
Go‘yoki dengizdan toshajak sutlar.

\*\*\*

Yillar kelar yosh olmoqqa,  
Qismat kelar yosh olmoqqa.  
Nega qo‘ymas yashamoqqa,  
Dunyo bizdan ne istaydi?

Sevinch kelar – yo‘lak olur,  
Malak kelar – falak olur.  
Bizdan kimlar o‘rnak olur,  
Dunyo bizdan ne istaydi?

Na ko‘zi, na so‘zi bilar,  
Ne istasang – O‘zi bilar.  
Dedim: “Shayton so‘zni bilar”,  
Demadim: “Yer ne istamas.”

\*\*\*

Yaxshi kun senda qolsin,  
Yomon kunda menga kel,  
Hech yo‘q suhbat etaylik  
Kel,  
Ey, kel,  
Sen.  
Kel,  
Ey, kel,  
Sen.

\*\*\*

Shoirlar yonar, ulg‘ayar,  
Yondi sham, yonar parvona...  
Subh o‘lar, oqshom tug‘ilar,  
Shamning to‘rt yoni parvona.  
Borar go‘yo sevgi yonib,  
Borar ming so‘zga aylanib,  
Qiyomatni aniq tanib,  
O‘ynarmi yangi parvona?  
Muammo ko‘p haqiqatdan,  
Dardim sig‘mas keng jahona.  
Parvonani yondirdi sham,  
Yondirdi shamni parvona.

## AHMAD O‘G‘UZ



*Karimov Ahmad Musa o‘g‘li, shoir, ssenariynavis. 1961-yilning 13-noyabrida Ozarbayjonning Kalinino tumanida ishchi oilasida tug‘ilgan. Ozarbayjon Davlat pedagogika institutining til va adabiyot fakultetini bitirgan. Nufuzli “Humoy” mukofotining sovrindori, 1993- yildan Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasining a’zosi.*

## OQ SAHRO

Yer yuzining kir-g‘ashligin  
Oppoq qor obdan yopibdi.  
Uniqqan ko‘ylagim kabi  
Ko‘k yuzi xira tortibdi...  
Qor – tiz bo‘yi, havo go‘zal,  
Men kimman – bir parcha sabiy.  
Soyamga maftun ketarman –  
Qo‘lim, oyoqlarim moviy.  
...Bu oq sahroning yuzida  
Na xushbaxtlik bor, na o‘lim.  
Zax yerdan silqigan suvdek,  
Qiziq, qayga ketar yo‘lim?  
Balki ketgan bu dunyodir,  
Turgan yerim toptayapman.  
Bo‘s sh izlarimni o‘q kabi  
Kuragimda his etyapman...

\*\*\*

Yana sarxush kabiman,  
Boshimda g‘urbat dami.  
Yellarda yurt atri bor,  
Bulutda Vatan nami.

Ko‘rfazdan ketgan kema  
Olib ketmaydi mani.

Tushimga tog‘lar kirar  
Ko‘zimni yumgan zamon.  
Alloh olmas jonimni,  
Avaylar meni hamon.  
Ildizlar qurib bitar,  
Ko‘zimda ingrar zamin.

...Nurab ketgan to‘rt devor,  
Kun qoqar derazamni.  
Qayga boray, nimam bor,  
Kimga yuklayin g‘amim...

Istamayman o‘lmakni,  
Bunday umr surmakni,  
Bumi Allah ko‘magi,  
Yo Tangrining sitami?..

## **AYRILIQLAR**

Suvimiz yana bulg‘andi,  
Ko‘r bo‘lsin ayriliqlari.  
Ko‘z yoshi-la tiniqlashsa  
Tinisin ayriqlari.  
Bu yoshgacha nelar ko‘rdim,  
Endi sevmak pesha bo‘ldi.  
Uloqtirgil shisha kabi,  
Qirilsin ayriliqlari.  
Meni chunon zirillatdi,  
O‘ydi, ichim zirqiratdi,  
Qayta sevmakni o‘rgatdi –  
Bor bo‘lsin ayriliqlari.

\*\*\*

Yomg‘ir yog‘ar, yetmas yerga,  
Faqat ko‘k yuzi namlanur.  
Ikki ko‘zim ko‘ra-ko‘ra  
Choyim zahardan damlanur.  
Karvonim yo‘q, ko‘chib ketgum,  
Oshayin ufqdan u yona.  
Bu dunyoga notanishman –  
Ruhing qaydadir, ey ona?  
Uzoq bir kadar-la to‘la  
Ko‘kda bulutlar tosh bo‘lur.  
Oh, yana bir oqshom keldi,  
Qaytadan zulmim boshlanur.  
Ko‘rinmas bir nurning uchi  
Qon tomur zimistonima.  
Hali o‘lmadim-ku, xoja,  
Boshimda Qur’on o‘qima.

## **TOG‘LARNING AYBDOR KUNI**

Ne edi, ona,  
qishlog‘imiz o‘sha tuman, changli kuni,  
ne edi, oq qo‘zimiz yo‘qolgan kuni  
hech kim yig‘lamasdi mendan boshqa.  
Shirin bir tush ila, ne edi,  
aldab, tinchitdi meni,  
u kechaning sahari  
tuman tarqaganda, chang ketganda,  
ne edi, devorimizdan  
aybdorlarcha mo‘ralardi  
qurt-qushni yashirgan tog‘lar,  
u “qal’am” tog‘lar,  
u “orqam” tog‘lar...

## **QASHAM NAJAFZODA**



*Qasham Najafzoda 1959-yilda tug‘ilgan. Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, Bolalar adabiyoti bo‘limi rahbari, “Ozarbayjon” jurnali she’riyat sho‘basi mudiri. Hozirgacha 24 kitobi chop etilgan.*

### **OLIB KETMANG MENI URUSHGA**

Olib ketmang meni urushga, yov qotili emasman,  
Menga qurol bermang, sotib kitob olaman.  
Menga yovni ko‘rsatmang, do‘st bo‘laman,  
She’r o‘qiyman askarlarga tongdan oqshomga qadar.  
Olib ketmang meni urushga...

Daf’atan okopdan chiqib qichqiraman dushmanlarga:  
Hoy, orangizda shoir bo‘lsa, kelsin bu yerga.  
Kimki kelsa yuz-ko‘zidan, soqollaridan o‘paman,  
yemak-ichmagini surishtiraman,  
Siz tomonda bolalar ham o‘ldimi deyman,  
Uzr so‘rab mayiblardan, bevalardan, yig‘layman...  
Muhorabani o‘yinga aylantiraman,  
Olib bormang meni urushga.

Oling qancha istasangiz qurol, beraman deyman,  
Issiq kiyimingiz yo‘q bo‘lsa, oling,  
yemak-ichmaginingiz oz bo‘lsa, oling...  
Bizda soat 3, sizda soat necha bo‘ldi?  
Aytining, soatimni to‘g‘rilab olay.  
Balki siz ham Viktor Gyugoning “Daydilar”isiz,  
Sizni to‘yimga aytaman, kelng...  
Ogoh qilib qo‘yay, qoching,  
Bu kecha sizlarni qiramiz.  
Keling, so‘nggi bor o‘pishaylik,  
Siz yashamog‘ingiz kerak, deyman!

Olib bormang meni urushga,  
Urushlarni kuldiraman.  
Urushni gugurt qutilaridan yasalgan uychadek buzib  
tashlayman.  
Urushdan ko‘zlarni uzaman,  
Istasangiz...  
Yo‘qsa,  
Yaxshisi, borib urushavering bemalol,  
Meni olib ketmang urushga...

## **HAYOTIM HAQIDA BIR NECHA SO‘Z**

Cho‘ntakdagi hujjatlarni metro poyezdlari ostiga uloqtirib,  
Borib bir gul yaprog‘i ostida yig‘lamoq istayman,  
Qo‘ymaslar,  
Derlarki, gullarni biz ekkanmiz.

Bokuning eng chekka kentlaridan biriga bosh olib ketib,  
Kichkina bir kulba solmoq istayman,  
Quvarlar,  
Derlarki, tuproqni biz yaratganmiz.  
Baliq tutmoqchi bo‘laman dengizdan,  
Devor olarlar.  
Cho‘milmoq bo‘laman,  
Pul so‘raydilar.  
Deydilarki, dengiz bizniki...  
O‘rmonda ko‘lkani ham sotarlar...  
Derlarki, bizning daraxtlarning ko‘lkasi.

Imkonlari bo‘lsa havoni ham ballonlarga to‘ldirib sotadilar.  
Bir marta nafas olmoq 10 tiyin,  
Bolalarga 5 tiyin,  
Keksalarga 3 tiyin,  
Yetim bolalarga 18 yoshgacha tekin...

Xudoyim,  
Menga gullar ber,

Menga o‘rmon ber,  
Menga dengiz ber,  
Menga uy ber,  
Menga havo ber...

## SURAT

Odam yaqinlarda emas,  
Uzoqlarda suratga tushar.  
Masalan, askarlikda –  
Yo xizmatning birinchi yilida...  
Yo yonboshlagan holda,  
Yo yugurgan holda,  
Yoki kulib turib suratga tushar...  
Shunday bir suratki, ming yil boqib to‘ymaysan.

Partiya biletlarining suratlari o‘z egalariga o‘xshamaydi.  
Chunki ular umrlarida faqat bir bor shundoq alfozda turadilar,  
Hatto farzandlari ham tanimas otalarini.

Partiya rahbarlariga bir taklifim bor,  
Otalar farzandlari bilan,  
Yigitlar sevganlari bilan,  
Bobolar nevaralari bilan  
Suratga tushib,  
yelimlasinlar birinchi betiga guvohnomaning.

Qaytib bormoq istayman  
Suratga tushgan joyimga,  
Suratga tushgan oyimga,  
Suratga tushgan yilimga.

Shundoq ham tushgan barcha suratlarimiz bizlardan uzoq bo‘lar,  
Shu qadar uzoqki, yetib bormaganmiz u yerga hali!

## **QIZIM, QALAMIM QANI?**

Otang shoir bo‘lmadi...

Qizim, sen topib keltirgan qalamim qani?

Sen ham yaxshi ko‘rarding uni, men ham,

Sen o‘yinchoq kabi, men shoir kabi

Ishlatardik ikkimiz bitta qalamni...

Otang shoir bo‘lmadi...

Men qalam so‘raganda darhol uychangni buzib qalamni keltirarding...

U qalam sening yiqilmog‘ingga arzimas...

Men sening uychangni nohaq buzdim, qizalog‘im,

Qalamning o‘yinchoq bo‘lishi yanada go‘zal ekan.

Bir qo‘lingda ko‘zoynak, birida qalam,

Yugurib yonimga kelganingda, ota, oling, deya,

So‘ngra esa hayron bo‘lib,

Mening ko‘zoynakni, qalamni qanday o‘ynashimga boqarding,

Men ham ko‘chadan topib kelgan bir beo‘xshov misra dardida  
bo‘lardim.

Boqib ko‘rardingki, yuzimdagи ajinlarni yozmoqdaman...

Bir gal degandimki, Yahudiy shoiri bo‘laman,

Ko‘zoynakli shoir...

Sen derdingki, o‘zimizning shoir bo‘l, ota!

Otang shoir bo‘lmadi...

Endilikda men

Sening uychangni buzganimdan itdek pushaymonman, qizim.

## **SENGA QISHKI KIYIM OLAMAN ENDI**

Aslo parvo qilma, qurbaning bo‘lay,

Inson boshqasini sevishi mumkin...

Inson sevganidan kechishi mumkin...

Bu yangi savdomas boshimga tushgan...

O‘zim o‘rgulay...

Inson seviladi, unutiladi,  
Borib boshqasini topmoqchi bo‘lar,  
Bir kun yodga tushar tashlab ketgani,  
So‘ngra pushaymon yeb qaytmoq bo‘ladi,  
Inson kechirar ham, kechirmaydi ham...

Hali yuz yil o‘tmay tashlab ketganing  
O‘rnidan turguncha uchib kelarsan,  
Ustini ochgancha boqib kularsan,  
Ko‘zini ochguncha chiqib ketarsan.

Aslo parvo qilma, qurbaning bo‘lay,  
Inson aldanar ham, pushmon chekar ham...  
Senga yolboraman, o‘zingni asra.  
Yurak yerga tushib birdan sinar ham,  
Nima qipti,  
Yurak sinmay nima ham sinsin?

O‘rnimdan turguncha,  
Ko‘rpamni otguncha,  
Ko‘zimni ochguncha  
Sen chiqib ketding,  
Nima qipti,  
Inson sevganini tashlab ketar ham...

Menga shuni yozkim,  
Uying issiqmi?

Mening fikr-u o‘yim shundaki,  
Senga qishki kiyim olaman endi,  
Nima qipti.  
Inson sovqotar ham, qizib ketar ham...

## QULU OQSAS



*Shoir. Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, "Sensan har yer", "Nuqtalar", "Shamol pochtasi" va "Nobron novellasi" kitoblari muallifi. "Yulduz" adabiy-badiiy jurnalining bosh muharriri.*

\*\*\*

Buni faqat senga aytaman –  
Yolg'iz bolamga.  
Qashshoq kulbasida yopilgan  
Sho'roba bankasidir otang.  
Og'zi ahyonda ochilar –  
bayramlardan bayramlarda.  
Sening dunyoga kelishing ham  
Bayramdir deya,  
Pand-u nasihatdan,  
o'gitdan,  
gina-guzoradan  
Xudo saqlasin.  
Balki qachondir dodingga yetdi  
mushkul kunda, og'ir damda.  
Qush qush bilan sayrashmas, jonim,  
Shoir shoir bilan tillashmas.  
Qush butoqda sayragay,  
shoir varoqda.  
Ayolga yolg'on aytmaslar,  
Albatta, erkak lozimdir ayolga.  
Erkakka rostin aytmaslar,  
yolg'on ko'proq ayolga o'xshar.  
Shu bois har erkak ko'nglidan  
totmoq o'tar yolg'on ta'mini.  
Tag'in unutma,  
Men kimsasizligimdan benazir bo'ldim,  
Sen, aftidan, otangga o'xshaysan.  
...Shunaqa, jonim.  
Kech bo'ldi, uxla. Qara, osmon qandoq mehribon,

tunning jarohatiga  
yulduzdan paxta qo‘yar...

## MEN VA U

Men

Uning og‘ushini sevintira olmadim.

U meni ota qilmadi.

Tangri ko‘rdi –

Tinch bandalarmiz,

bizga “bosh og‘rig‘i” ato qilmadi.

Men

Uni jon-jonimdan sevdim,

U meni imkoni qadar.

Har zamon bir mushak otamiz

oramizdagi sarhadga.

Men

Uni tashlab ketaman,

Nomim yomondir, biladi.

Boshin ko‘tarib so‘rayman:

– Qalaysan?

Ko‘zining yoshi bilan

Ko‘zoynagim artib qo‘yar...

\*\*\*

Ko‘rsangki, qorayib bormoqda olam,

Ko‘rsangki, kech tushgan...

parvo qilma.

Bir chala tush erur kechaning bo‘yi,

Imkoni boricha orom ol, uxla...

Qo‘qqisidan uyg‘otar bir shovqin-suron.

Tong – bir buvagidir tuqqan Quyoshning.

Uni ovutmoqqa shoshadi hamma,

Shundoq tushiralar tag‘in oqshomni.

Yangidan zulumot bosar dunyoni,

Qani buvak Quyosh?

Buvagi qani?

...Ko‘rsangki, har yondan qo‘ling kesilar,

Ko‘rsangki, qahraton...  
yondir o‘zingni...  
“O‘lyapman...” deb yozasan,  
Ming shukur, balli!  
Yaxshiki, sevgidan o‘lgan hamon bor.  
Erkakdan farishta chiqmaydi, axir,  
Xo‘sh, Azroyil bo‘lsa ne qipti.  
Bilmayman, dunyoning baxtiyorimi,  
Yo badbaxti deb atay seni.  
Xotiringga tegmoq istamasman, rost,  
Javob axtaraman ko‘pdan men senga.

Hech kim ostonamga qadam bosolmas –  
Ko‘nglimga qo‘riqchi bo‘lsa gar bolam.  
Mendan o‘tgan sevgi o‘tgan kundir, bas,  
Seni tamom qilar men yetkazgan g‘am.

Javob maktubimda so‘z ayqash-uyqash,  
Bir uchi bog‘lansa, biri uzilar.  
Qo‘rqaman – sen o‘lsang, sevgi sog‘ qolar,  
Qo‘rqaman – sen qolsang, muhabbat o‘lar...

\*\*\*

Ne ajab, bir tongda turib ko‘rasan,  
Tomlarga bu tusni Xalloq yozdirgan.  
Qish kuni sovuqdan o‘lgan daraxtning  
Motamiga hamal yaproq yozdirgan.

Jinday nafas ursang cho‘g‘i qizarar,  
Yoritmas, shunchaki, zo‘rg‘a bo‘zarar.  
Bitta aybi borki, ayyor ko‘zlarin  
Meni quchog‘ingga qo‘noq yozdirar...

Ming shukur ko‘klarda isming boriga,  
Shukur yomg‘iriga, shukur qoriga.  
Shukur, nomimizni o‘z qatoriga  
Ajal nomlashdan avvalroq yozdirgan...

## SALIM BOBULLO O‘G‘LI



*Salim Bobullo O‘g‘li 1972-yilda tug‘ilgan. Shoir, essenavis, tarjimon; she‘r va es-selari jahonning ko‘pgina tillariga tarjima qilingan. Kitoblari Turkiya, Eron, Gurjiston, Ukraina va Polsha kabi mamlakatlarda chop etilgan. Bir qancha milliy va xalqaro adabiy mukofotlarga sazovor bo‘lgan. Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, Badiiy tarjima va adabiy aloqalar markazining raisi.*

### OTAMGA

Sen mendan ancha ko‘rkamsan,  
Men sendan ancha asabiy...  
Sen – hassos,  
Men biroz ulfatkash,  
biroz isrofgar,  
o‘zidan rozi...  
Bir oz baxtsizman –  
ki, sen mendan norozi.  
Mening umidsiz xun ohlarim ko‘p...  
Sendan uzoqda,  
bu ma’nosiz ulkan shaharda  
Tentirayman – yuragim qiyma-qiyma,  
gunohlarim ko‘p...  
Tongda suratingga,  
oqshomlar ko‘zguga boqurman,  
bormoqdaman kundan-kun qarib,  
ko‘paymoqda sochlарimda oq...  
Ko‘p narsaga erisholding sen,  
yo‘qotmoqqa hech bir narsang yo‘q.  
Men hech narsa qozonolmadim,  
biroz o‘zimni yo‘qotdim,

qo‘ridim sening yaxshi nomingni,  
to‘rt xonali uyni qo‘ridim,  
kitoblariningni...

Sen juda ham yaxshi otasan,  
men – yomon o‘g‘il.

Ammo vaqtdan o‘zib ayta olurman:  
sen juda zo‘r bobo bo‘lasan,  
jumladan, men ham...

## ABSURD

Yuzimga jilmaygan sevinchni,  
boshimga tosh kabi tekkan o‘kinchni,  
eng so‘nggi bo‘lsa-da – o‘pishni  
sevaman...

Sevaman bu yo‘lning yo‘lchiligini,  
g‘am – raqibimni,  
Raqiblikning puchligini.  
Goho uyda o‘tirib tinglasang ichingni –  
hech qayga chiqmasdan,  
kadarga,  
qadarga  
parvo qilmasang,  
iching uchun  
ich-ichingdan  
bir to‘yib yig‘lasang,  
ko‘rasanki, yanada maroqli tuyulasan sen...  
Yangi so‘z yozsang,  
uning yangiliga ishonsang,  
so‘ng esa yangi so‘zlar o‘lmaydi deb  
kulsang-yig‘lasang,  
ko‘rasanki, yanada maroqli tuyulasan sen...

Shu qadar maroqlisanki,  
yuzingga jilmaygan sevinchni –

yig‘latganing kadarni,  
boshingga tosh kabi tekkan o‘kinchni,  
tushmagan qilichni  
va boshqa-boshqasin sevarsan...  
Chunki na ibtidosan,  
na-da intiho...

## **HAMIDA XONIMGA IKKI SHE’R**

1

Yo‘ling uzra yolg‘iz daraxt bo‘lib bitsam,  
ko‘lkamda tin olajaksanmi?  
Yo shox-butog‘imni kesib, o‘timga isinajaksanmi?  
Yomg‘ir bo‘lib sevalansam  
yoz jaziramasida,  
bu shov-shuvli, chang-to‘zonli shaharning ko‘chalariga –  
tuproq hidi anqib ketsa,  
hidimni tuproqdan olib hayratlanajaksanmi?  
Yo yomg‘ir shalabbo qilsa seni  
uyga shoshganingda,  
jiqqa ho‘l bo‘lib,  
pushaymon yeb,  
ko‘klarga la’natlar yog‘dirajaksanmi?  
Janubda qor  
ko‘p yog‘avermas...  
bir qish oqshomida gupillab yog‘sam,  
bolalarni davraga olib qorto‘p o‘ynayajaksanmi?  
Yo ulardan biri yiqilsa,  
yo nozik barmog‘isovqotib qolsa,  
ayt, gulim, g‘azablanajaksanmi?  
Bir oqshom daraxt bo‘lmoq, yomg‘ir bo‘lmoq,  
qor bo‘lmoq istasam,  
o‘limning yoqasidan tutib bahslayajaksanmi?  
Yo chiqib ketsam,  
yo‘ldosh bo‘lmoq uchun menga talpinajaksanmi?

Va bir kecha  
undoq-bundoq she'rlar bitib,  
uyqungni harom etib,  
seni uyg'otib  
o'qisam senga,  
rostini ayt, gulim, xushlanajaksanmi?

2

Endi sukut tez-tez kesar mening so'zimni,  
Avvalgidek qon qaynamas endi tomirda.

Ko'zgulardan opqochaman tez-tez ko'zimni,  
Nomimni ham yozmasman hech terli devorga.  
Qirqdan o'tgan bu umrimning, jonim sevgilim,  
Hech siqilma, shukur, charxi hamon aylanar.  
Bir sabuhiy savol bersang: "Qani sevgilim?"  
Ko'rarsanki, epkin esar, cho'plar silkinar.

Bir qush uni tumshug'ida olib ketadi,  
Mayin-mayin qanot qoqib qalqar yuqori.  
U qush cho'pni uyasida devorga o'rар,  
Qo'rimoq-chun o'zining jish jo'jalarini.


Davrangga ol, erkalatgin nevaralarni,  
Yuzlarida ko'zimni top, ismimni chaqir.  
G'ussani quv, yashir, gulim, sen meni kutgil,  
Bu safardan qaytar choling o'sha kechqurun.

### O'G'LIM BILAN SUHBAT

- Sen kimsan?
- Sening otang.
- Xo'sh, Faridning otasi kimdir?
- U yo'q.
- Nega?
- ...

- Sening kasbing nima?
  - She'r yozaman.
  - She'r bu nima?
  - Onang aytadigan Allaga o'xshaydi biroz.
  - Onam ham yozadimi?
  - Yo'q.
  - Unda sen nega yozasan, qo'shiq ayt, axir.
  - ...
- 
- Qayga ketyapsan?
  - Ishga.
  - Ish nima degani?
  - Sening poyabzaling, non-poning, aqchang va shu kabilar.
  - Balki ketmassan-a?
  - ...
- 
- Ota, Olloh kim?
  - U seni, onangni, otangni, buvingni, hammani yaratgan.
  - Seni hammi?
  - ...
  - Bir oz o'zingdan gapir.
  - Ne deyin, o'g'lim. Men ham sen kabi edim, sening bo'yingda, sening yoshingda. Sen kabi ko'pdan-ko'p savollar berardim har joyda, onamning quchog'ida, otamning tizi ustida, uyda, ko'chada, poyezdda...
  - Poyezd nima?
  - Poyezd sening aravangga o'xshar, temir yo'llar ustida yelar.
  - Ammo juda ulkan, ichida ko'pdan-ko'p bolalar bordir.
  - Men aravamni Faridga bermoqchiman.
  - ...
- 
- Ular nima qilishyapti, ota?
  - Tosh yig'moqdalar, o'g'lim.
  - Nega?

- Bir-birlariga otmoqchilar.
  - Nega?
  - Bir-biriga dushman ular.
  - Nega?
  - Bir-birlarin yoqtirmaydilar.
  - Nega?
  - ...
- 
- Ota, qaytishingda beshta muzqaymoq keltir.
  - Shoshma-shoshma, nega beshta? Biri senga, biri Faridga, biri onangga, biri menga... qolgan bittasi-chi?
  - Qushlarniki bo‘lsin u biri.
  - ...



## **YUNUS O‘G‘UZ**



*Yunus O‘g‘uz (Yunus Isaxon o‘g‘li Aliev) 1960-yil 22-iyunda Shirvon shahrida tug‘ilgan. 1983-yilda Rostov Davlat universitetining falsafa fakultetiga o‘qishga kirib, 1988-yilda uni bitirib chiqqan. Bir qancha ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, ilmiy, publitsistik kitoblar muallifi. Uning “Nodirshoh”, “Tahmosibshoh”, ikki jildli “Amir Temur”, “Malika va jodugar”, “Sulton Alp Arslon” kabi romanlari jahonning ko‘pgina tillariga tarjima qilingan.*

## **NARIDA**

Kiprigingda shabnam qator,  
Kipriging ko‘zdan narida.  
Yurakkinang sovuq qotar,  
O‘chog‘ing ko‘zdan<sup>9</sup> narida.

Bu dard seni o‘rtar takror,  
Goh so‘nib, goh yonursan, yor,  
Isrof etma so‘zni bekor,  
Tushganda so‘zdan narida.

Qoyadir tog‘ning tamali,  
So‘zdir insonning amali,  
Dalimisan, yo‘qsa dali  
Xatosi bizdan narida.

Ko‘z tan olmas, noz aylagay,  
Yonoqlari fosh aylagay,

---

<sup>9</sup> Ko‘z – bu o‘rinda: cho‘g‘ ma’nosida.

Chehrang o‘ziga chorlagay,  
Yonog‘ing yuzdan narida.

Yunus qilmas janjal-da’vo,  
Bu na jangdir, na-da g‘avg‘o,  
Men bunda, sen unda tanho,  
O‘zing o‘z-o‘zdan narida.

## **TO‘ZA-TO‘ZA**

Bu ajoyib ko‘lda so‘nam  
Noz aylagay yuza-yuza.  
Ko‘ngil berib, qalbim ovlar,  
Jonim olur suza-suza.

Bu olmaning qani yarmi,  
Ko‘ngil berdim, bo‘lgil yorim,  
Ishqim ummon, men sen sari  
Yo‘lga chiqdim keza-keza.

O‘rtanursan nega hanuz,  
Ko‘ngil, undan umidni uz,  
Ishq bog‘iga yog‘ildi kuz,  
Men qolurman to‘za-to‘za.

Vaqt barchasin otdi yelga,  
Yuz tutarsan yurtga, elga,  
Seni izlab tushdim yo‘lga,  
Dardlarimdan o‘za-o‘za.

## **CHEKIN, DUNYO**

O‘choq ko‘zidan ma’lum,  
Yigit so‘zidan ma’lum,  
Inson yuzidan ma’lum,

Chekin, jonio,  
Chekin, dunyo.

Daryoda tosh o‘ynagan,  
Tilda duo qaynagan,  
Tangri meni qarg‘agan,

Chekin, jonio,  
Chekin, dunyo.

Jonio zaminda qoldi,  
Ruhim ko‘kka yuksaldi,  
Darding azobga soldi,

Chekin, jonio,  
Chekin, dunyo.

Oqqan suvlar tiniqar,  
Qush oyoqdan ilinar,  
Bag‘rim g‘amdan tilinar,

Chekin, jonio,  
Chekin, dunyo.

Men bilganlar yolg‘ondir,  
Dard bostirib kelg‘ondir,  
Yurak tanho qolq‘ondir,

Chekin, jonio,  
Chekin, dunyo.

## **KO‘ZLARINGNING MAFTUNIMAN**

Ko‘zlarining maftuniman,  
Ko‘zlarining shaydosiman.  
Termulaman yonib-yonib,  
Ko‘zlarining adosiman.

Gulim, menga boqma bundoq,  
Kiprigingni qoqma bundoq,  
Ko‘zing bilan yoqma bundoq,  
Shu ko‘zlarning fidosiman.

O‘sma ketar, qosh qoladi,  
Kiprigimda yosh qoladi,  
Yurakda bir tosh qoladi,  
O‘shal toshning gadosiman.

## **O‘RTAMIZGA QOR TUSHDI**

O‘rtamizga qor tushdi,  
Qo‘llarimiz o‘rniga  
Yuragimiz uvishdi.

Endi meni uyg‘otmas telefon sasi,  
Ko‘nglim qulab tushgan yerga  
Oyoqlarim qaytib bormas.  
O‘rtamizga qor tushdi.  
Yozning jazirasida  
Qaydan tushdi bundoq qor?  
Tushlarimda so‘zlayman:  
Kela qolsa edi yor.  
Uyg‘onib termulaman,  
Tizza bo‘yi qor.  
Yuragimiz bu qorni  
Kechib o‘tolmas zinhor.  
Anglaganim shul erur –  
O‘rtamizga qor tushdi.  
Qo‘llarimiz o‘rniga  
Yuragimiz uvishdi.

## **ONASIZ BIR KELIN TERMULAR YO‘LGA**

Bir ohang ingranar, ko‘ngil titraydi,  
Qizlarning yuragi hasratga to‘lgan.

Bir ona uyiga kelin tushirar,  
Onasiz bir kelin termular yo‘lga.

Singlisi shivirlar gирgitton bo‘lib,  
“Zinhор g‘am chekmagin, baxtli bo‘lasan”.  
Onaning o‘rniga onalik qilib  
Shivirlar: “Yig‘lama, axir, yo‘ldasan!”

Barcha qotib qolar hayrat ichida,  
Keling, bu hayratni ko‘rgali keling.  
Yuraklar yig‘laydi hasrat ichida,  
“Onajon” kuyini chaldirar kelin.

Kelin qayg‘udadir, ko‘zлari namli,  
Yuragin g‘ussalar qiynaydi endi.  
Ko‘zлari kadarli, nigohi g‘amli,  
Onaning o‘rnida o‘ynaydi endi.

Lekin ko‘tarolmas nechun qo‘llarin,  
Onasiz o‘ynamoq mushkuldир, mushkul.  
O‘ziga bo‘ysunmas uning qo‘llari,  
Onasin hajrida yonib bo‘lgay kul.

G‘ussalar uchunmi, shodlik uchunmi –  
Ko‘zining yoshini asraydi kelin.  
Qizi ketganida yig‘laydi ona,  
Onaning o‘rnida yig‘laydi kelin.

Bir ohang ingranar, qo‘llar uzanar,  
Qizlarning yuragi hasratga to‘lgan.  
Bir ona uyiga kelin tushirar,  
Onasiz bir kelin termular yo‘lga...

## **FIKRLAR QABRISTONI**

Yuzma-yuz kelishdi ziddiyat, tazod,  
Ochildi yangi bir fikr maydoni.

Yotlar tug‘ma bo‘ldi, tug‘ishganlar – yot,  
So‘zlar jilolandi, misra uyg‘ondi.

Don Kixot men uchun yolg‘ondir, yolg‘on,  
Tegirmonga hujum galimdir manim.  
Miyam fikrlarning jang maydonidir,  
Mening fikrim erur yiqib-yoqqanim.

Tegirmon un qilar chekkanlarimni,  
Maydon qorga do‘ngan, fikrlar toqqa.  
Elakdan o‘tmagan fikrlarimni  
Tegirmon jo‘natgan qabriston yoqqa.

Fikrlar mozori, kechirgin meni,  
Senga joy qoldirmay yondirdim axir.  
Miyamda men bilan jang qilganlarni  
Ko‘ngilli askardek yo‘qladim bir-bir.

Miyamda qurilgan dor og‘ochidan  
Yuz daf‘a, ming daf‘a ostirdim seni.  
Menga hosil berdi mevali daraxt,  
Men-chi, tuproq aro bostirdim seni.

Yongan fikrlarning kullari uzra  
Bir payt tentirardim mozorda tanho.  
Ichimda mahv bo‘lgan fikrlarimni  
Endi izlagayman qabriston aro.

## BAXTINGGA KUN CHIQSIN

Baxtingga kun chiqsin, yo‘limga chiqma,  
Bu yo‘lda men axir qorlarga do‘ndim.  
Olov nigoh bilan qalbimni yoqma,  
Men endi ishq degan tuzoqqa ko‘ndim.

Baxtingga kun chiqsin, yo‘limga chiqma,  
Baxtimning g‘alviri ko‘kdan qor elar.

Sening yuragingda ishq gullaganda,  
Xilvatda men pinhon yig‘lagim kelar.

Ayro tushsin yo‘llar, shunisi avlo,  
Men senga ne yozsam, tersiga o‘qi.  
Sening yo‘llaringga peshvoz chiqsin baxt,  
Menga esa peshvoz chiqsin o‘z qizim.

Baxtingga kun chiqsin, chiqma yo‘limga,  
Behuda o‘rtanib yonmagil o‘tda.  
Belingga chirmashsin begona qo‘llar,  
Qizim esa mening bo‘ynimdan quchsin.

Bu qanday o‘rtanmoq, bu qanday ne’mat,  
Hamon bu yo‘llarda giryondir ko‘zim.  
Seni kutib turar o‘tli muhabbat,  
Meni esa uyda kutmoqda qizim.

## KELGAN KELSIN

Yor ko‘ksimni, ruhim chiqsin,  
Jonimni ol, Tangrim boqsin,  
Bu dardlarim tog‘ni yiqsin,  
Haqiqatga kelgan kelsin.

Shoh saroyi bog‘liq ekan,  
Oshiq ko‘ngli dog‘liq ekan,  
Visol bog‘i zog‘liq ekan,  
Muhabbatga kelgan kelsin.

Boshlab borgil rujni yo‘lga,  
Haq qolmagay sel-u do‘lga,  
Bir qal‘a soldim ko‘ngilga,  
Adolatga kelgan kelsin.

Nurga to‘la bog‘-bo‘stonim,  
Bu savdoda og‘rir jonim,

Yunus, yo‘lda bu karvonim  
Ma’rifatga kelsa kelsin.

## **OSHIQONA**

Yarashgandir ko‘lga so‘nam,  
Noz aylagay yuza-yuza.  
Ko‘ngil berib, dil ovlagay,  
Olar jonni suza-suza.

Jonon jonga o‘tlar yoqar,  
Noz-u ishva bilan boqar,  
Ko‘zin suzib, qoshlar qoqar,  
Bu ko‘nglimni buza-buza.

Yunus, undan olgin saboq,  
Teskari bu dunyoga boq,  
Siynasida ikki o‘ymoq  
Titrar xollar tiza-tiza.

## **KULA-KULA**

Kutmoqdasan sen bahorni,  
Bir kun kelar kula-kula.  
Shod aylagay sendek zorni,  
Boshing silar kula-kula.

Nurlarga to‘lgay ochuning,  
Chehrangdan ketgay ajining,  
Kelib bir kun yori joning  
Darding bo‘lar kula-kula.

Visol va g‘am orada tul,  
Yo rab, sirga to‘lmish ko‘ngil!  
Gul chehrangdan xijolat gul,  
G‘amdan so‘lar kula-kula.

## **ONA TILIM, OTA TILIM**

Ne hikmat bor bu tilimda,  
Ona tilim, ota tilim.  
Ot choptirar o‘z elimda  
Ona tilim, ota tilim.

Qancha qochmay, yonimdadir,  
Otimdadir, sonimdadir,  
Ruhimdadir, jonimdadir  
Ona tilim, ota tilim.

So‘z daryosin kechar tilim,  
So‘z sharobin ichar tilim,  
So‘z jumbog‘in yechar tilim,  
Ona tilim, ota tilim.

O‘q otdilar, xato ketdi,  
Sindirdilar, qayta bitdi,  
Ming yillik g‘ovlardan o‘tdi  
Ona tilim, ota tilim.

## **BUNCHALAR SEVMASAM SENI**

Daryodek oqib ketardim,  
Chaqmoqdek chaqib ketardim,  
Jimgina chiqib ketardim,  
Bunchalar sevmasam seni.

Yoqqan yomg‘ir sel bo‘lardi,  
Har nafasim yel bo‘lardi,  
Bosgan izim kul bo‘lardi,  
Bunchalar sevmasam seni.

Qurib qolar edi ko‘lim,  
Bog‘lanardi ko‘ngil yo‘lim,  
Meni topar edi o‘lim,  
Bunchalar sevmasam seni.

## VATAN

*Do 'stim Qulu Kangarliga*

Vatan:

Seni sevavermas har o‘tgan-ketgan,  
Birovi pul kabi boqadi senga,  
Birovi qul kabi boqadi senga.  
Yuragi yarali, Vatanni sevgan –  
Senga Vatan kabi boqadi, Vatan.  
Seni sevavermas har o‘tgan-ketgan.

Sen tiklagan g‘ov, devorni  
Mening g‘amim buzib o‘tdi.  
Bu hasrat bo‘lmasa,  
Bu kasrat bo‘lmasa,  
Xo‘sh, bu ishqmidir?  
Daryoni quritding,  
Dengizni ichding,  
Bu hasrat bo‘lmasa,  
Xo‘sh, bu ishqmidir?  
Bu ishqning haddi yo‘q, hududi yo‘qdir,  
Bu axir Vatandir, Vatan, jon Vatan!  
Seni sevavermas har o‘tgan-ketgan.

O‘kinchim, hasratim Vatandir, Vatan,  
Yuragim mehvvari Vatandan o‘tgan,  
Sen mening ruhimsan, hoy yitgan Vatan,  
Seni sevavermas har o‘tgan-ketgan.  
Bu sevgi bo‘lmasa,  
Bu ishq bo‘lmasa,  
Xo‘sh, bu nimadir?  
Vatan, jon Vatan...

## XAYOL RIZO



*Xayol RIZO shoir, jurnalist. Xalqaro turkiyzabon jurnalistlar uyushmasi, Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi va Ovrosiyo Yozuvchilar uyushmasining a'zosi. Besh kitob, uch she'rlar to 'plami muallifi. Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi matbuot xizmati rahbari.*

### SARIQ GULLI MOTAM BAYROG'I

Ertaga bir shamol esadi...  
Vido shamoli.  
Quritish uchun osib qo'yilgan  
Bir go'dak libosi tebranar dorda,  
Etagining gullari sariq.

Motam bayrog'iga o'xshatgan edi  
bundan o'ttiz uch yil avval  
bu libosni bir shoir...  
shudir shoirning  
rangin hayot haqidagi hikoyasining yakuni –  
sariq gulli go'dak libosi...  
hilpiragan motam bayrog'i...  
va boshqa... va boshqa...

Va yana  
Tor quduq –  
Osti zulmat, rutubat...  
Qayg'usiz, g'amsiz  
Jinday uxlamoqchi bo'lgan shoirni  
Abadiy uyquga jo'natdik bu dam...

Yoqing bu g'am ichidagi  
Chiroqlarni...

Ko‘taring bayroqlarni,  
Shoir... o‘ldi!

## TESKARI

Yo‘llar teskari...  
Umidlar, orzular teskari...  
Dard esa qat-qat,  
Botmon-botmon...  
Terilgan bir-birin ustiga...  
Bir o‘g‘lon lozimdir olib o‘tgali!  
Nafslar bichimga tushgan,  
Miyalariga  
Modern baxillik viruslari yuklangan...  
Taqlid raqobatga aylangan...  
Rusum bo‘lgan tovlamachilik,  
Birov birovning qasdida!  
Ko‘zlar o‘zin cho‘ktirgan,  
Tikilmaslar yo‘llarga endi...  
qo‘llar kuzatib qo‘yar,  
qullar quchoq ochmas kelganga.  
Yurak dukullab urmas,  
Bir ohangga mos kelmas endi...  
Kuya tushgan hirsiga!  
Shahar sa’jiyasi o‘zgargan,  
Yozi yoz emasdир, qishi qish emas,  
O‘zgargan romantik nigohlari ham,  
Boqishlari o‘zgacha endi!  
Endi odam bo‘lmoq ham mushkul  
Ushbu yozda, ushbu qishda...  
Ya’nikim, unga naqsh bermoq kerak.  
Tuxumi teskari kelgan  
Tovuqqa o‘xshar dunyo.  
Chiroq yoqib izlar odamni odam  
Kuppa-kunduzi, ayni tush payti.  
Hamma narsa boshqacha...  
Hammasi teskari...  
xo‘sh... o‘zimiz-chi?!

## JIMLIK

Ko‘zimda bir orzu jimdир,  
Yонib-yondirmоq istamas...  
Tilimda bir sevgi jimdир,  
So‘z ochib aytmoq istamas...  
Qo‘limda bir salom jimdир,  
Yetmoq yo qaytmoq istamas...  
Yuragimda umid so‘nar...  
Jim-jit! Ko‘z ochmoq istamas...  
Qo‘y boshingni g‘ussanинг  
Tizzalari ustiga...  
Jinday marhamat so‘ra,  
jinday muhabbat...  
So‘z bera ko‘rma unga,  
Dardlarini ochmasin.  
Yo‘ling o‘lchasa mayli,  
Bo‘yingni o‘lchamasin.  
Ayt, yuraging to‘liq bo‘lsa ham,  
Dunyo kissang kabi bo‘shdir!  
G‘ussalarga qo‘yma g‘ussani...  
Sen bilan birga bo‘lmoq  
Menga xush yoqar, deb ayt.  
Jinday tabassum qilgin,  
Jilmaygin o‘z g‘ussangga...  
Aytki, men yig‘lab bersam,  
Nima kelar qo‘lingdan?!  
Bir munosib o‘lim axtar,  
topilsa agar.  
Yuz-ko‘zingdan aylansin.  
Sen sevina olmading,  
Endi o‘lim sevinsin.  
Biroq u arzon bo‘lsin,  
Chunki sotib oladigan  
Narsalaring ko‘p hali.  
Hali qasos ham olmog‘ing kerak.  
Sotgali hech narsang bo‘lmasa hamki...

Bo‘lmasa ham hatto fursating!  
Na iloj...  
Taqdiring shu!

## **QIZIL**

Hasrat qora rangdadir,  
G‘ussa – bo‘z rangda...  
Umid – havorang,  
Ajib bir ohang...

Sariq – g‘ariblikdir...  
Oq – baxtiyorlik...  
Yashil – ishonchdir...  
Bir dasturxon yoz,  
Sham yoqib qo‘y.  
Sevgining rangi – Qizil,  
O‘ksinma,  
Bizni topib kelar o‘zi...



## AYOZ ARABACHI



Ozarbayjon adabiyotida o‘ziga xos o‘rni bor, taniqli, iste’dodli shoir Ayoz Arabachi 1967-yilda ziyoli oilasida tug‘ilgan. Tug‘ilib-o‘sgan qishlog‘i nomini o‘ziga adabiy taxallus qilgan. O‘rta maktabda o‘qib yurgan yillarida she’rlari “Ozarbayjon yoshlari” gazetasida, “Yulduz” jurnalida hamda radio eshittirishlarida e’lon qilingan. “Idrok” gazetasida bosh muharrir, “Diplomat” nashriyotining direktori, Ovrosiyo Universiteti ijro apparatining rahbari, “Xudofarin” jurnalining muharriri bo‘lib ishlagan. Bir necha she’riy kitoblarining muallifi. 1999-yildan Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasining a’zosi.

## INSON

G‘oyat buyuk yaratmish parvardigorum,  
Shuning-chun buyukdir ko‘zimda inson.  
Chekar dunyoning eng og‘ir dardlarin,  
Tog‘larga tenglashar to‘zimda inson.

Madadman yiqilsa, suyayman ming bor,  
To‘ymayman, u haqda so‘zlayman ming bor.  
Bu o‘t, bu o‘choqda yongayman ming bor,  
Alangam insondir, cho‘g‘im-da inson.

Bu nomdan mening ham o‘z yukim bor, o‘z,  
Achishar qalbimning yarasi jiz-jiz,  
Yarashmas har kimga, to‘g‘risi, bu so‘z,  
Tilimda insondir, so‘zimda inson.

Hech ne kutmagayman xayoliy nomdan,  
Muqaddasroq ne bor hayoli nomdan,  
Men qanday bezayin bu oliy nomdan,  
O‘zim-da insonman, o‘zim-da inson.

## SHUBHA

Yigit ont ichar xo‘b, tilar marhamat,  
Qur’ondan so‘z ochar u yuz martalab,  
Eshitmak istamas bir kalima-da,  
Qiz ikki soatki, tinmasdi so‘zlab.

Seni falon vaqtda ko‘rganlar bor, der,  
Boshqa birovni ham sevar ekansan.  
Yigit toqati toq, ich-etini yer:  
Qo‘y, bo‘lmagan gap, ishon Allohga san.

Unut bo‘ldi nogoh mehribonlik ham,  
Sevgan qalblarni qahr vayron ayladi.  
Zig‘irdek bitta cho‘g‘, behuda shubha  
Asl muhabbatni yolg‘on ayladi.

Hasadgo‘ylar bilan to‘lgan bu dunyo,  
Mish-mish uydiribdi qaysi nobakor.  
Ostin-ustin endi bir issiq oshyon,  
Qizning ko‘z yoshlari oqar shashqator.

Nikoh uzugin ham qadri qolmadi,  
Goh u, goh bunisi otdi necha bor.  
Olmoqqa hech biri kuch topolmadi,  
Ammo irg‘itmoqqa kuchlari bisyor.

\*\*\*

Sun’iy nafas berardi kuzga ba’zida oftob,  
Oyoqda bazo‘r turgan so‘lg‘in sahar chog‘idir.  
Odamlarning ortidan chopgan jajji bolakay –  
Bu shaharning eng arzon, kir-chir o‘yinchog‘idir...

Agar nogoh qoqlilib, chalishsa oyoqlari,  
Hech tap tortmasdan uni hammasi toptab, ezar.

Ketyapman... yuragimni teshib o‘tar o‘q kabi  
Bolaning yuzidagi o‘tinch, kadarli nazar.

Har kun yon-atrofidan o‘tar beparvo, ildam,  
Marhamatni unutgan o‘gay va yot boqishlar.  
Yarali xotirasin qonin hech yuva olmas  
Sahardan oqshomgacha sharros quygan yog‘ishlar...

Uniqib, to‘zib ketgan “pahmoq” ko‘ylak yengidan  
Naq tizzasiga yetar oriq, uzun qo‘llari.  
Saqich misoli chaynar churuk kalishlari-la  
Bizning eradan avval balchiq bosgan yo‘llarni...

Ustunlardan osilgan shoda-shoda chiroqdan  
Yorisha olmas aslo ko‘zlaridagi zulmat.  
Og‘zin suvin keltirar issiq oshxonalardan  
Taratib xushbo‘y isin turli xil noz-u ne’mat...

Sho‘rlik mudroq qushchani hamma quvar har yondan,  
Maydon nazoratchisi o‘shqirar qoni qaynab...  
Vijdonin yeb bitirgan mol-davlat sohiblari  
Yetim-yesir haqini yutadi ikki yamlab.

\*\*\*

Kuzning kechasida nargiz atri bor,  
Ufurib shoshqaloq ko‘klamdan keldi.  
Kel, hech bo‘lmasa sen so‘rma, qalbimga  
Sovuq havoda bahor qaydan keldi...

Ko‘nglim chechak ochar shabbodalardan,  
Ovozing yomg‘irdek singgar jonimga.  
Ilk ishqning sarg‘aygan maktubi kabi  
Chinor yaproqlari tushar yonimga.

O‘tdim bog‘ingizdan, oyna tagidan,  
Orzumning sarhadi, devori yo‘qdir.

Yuzimga ikki oy boqdi bu kecha,  
Bulut kipriklarning xabari yo‘qdir.

Mening so‘zlarimga lab burar eding,  
Boq, kuz ham bahordek bilar qadringni.  
Axir sendan boshqa kim keltirardi  
Bu kuz kechasida nargiz atrini.



## **IBROHIM ILYOSLI**



*1963-yilda Ozarbayjonning Qozox tumaniida tug'ilgan. Ozarbayjon Texnika universitetini tugatgan. 1990-yildan buyon Ali Karim nomli Sumgait "Poeziya" klubining rahbari bo'lib ishlab kelmoqda. Uch she'riy kitob muallifi, Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi, "Ulug'-chinor" adabiy jurnali tahrir hay'ati, Mahmud Koshg'ariy xalqaro jamiyati boshqaruvi a'zosi. Prezident stipendiyasi, Mahmud Koshg'ariy mukofoti bilan taqdirlangan.*

### **MEN BIR SO'Z BILAMAN...**

Men bir so'z bilaman – tilimga kelsa,  
Sadosi qonimga belaydi meni.  
Shohlar tars chatnagay yetti yeridan,  
Odamlar toshbo'ron aylaydi meni.

Men bir so'z bilaman – uni so'ylasam,  
Kofirlar gulxanga otarlar meni.  
Mo'minlar boshimni uzarlar, so'ngra  
Boshlaridan yuksak tutarlar meni.

Men bir so'z bilaman – tilimga olsam,  
Olimlar tilimni kesarlar mening.  
So'zimni osarlar eng baland dorga,  
Ustimda quyundek esarlar mening.

Men bir so'z bilaman – og'zimdan chiqsa,  
Oqillar nomimni dalli degaylar.  
Darvishlar u so'zga qolib hayronlar,  
Oshiqlar tan berib, "balli" degaylar.

Men bir so'z bilaman – ne qilay axir? –  
Daraxtda uyam bor, ichida bolam.

Hechneni bilmayman, ey do'stim, biroq,  
Men bir so'z bilaman – yaxshiki, lolman.

## **MENI BU QALAMDAN ASRAGIN, ALLOH!**

Alhazar kufrdan... Astagfirullah! –  
Senga intilaman, senga, Allohim!  
Shayton uya qurib vujudimizga,  
Hech qo'ymas kelmoqqa dinga, Allohim!

U yondan haydasang, chiqar bu yondan,  
Kor qilmas dag'dag'a, doim hozirdir.  
Kecha o'zim ko'rdim, xontaxtamda u  
O'tirib, o'rninga she'rlar yozardi.

Ishga yugurasan – u ish joyingda,  
Do'konda senga peshtaxtadan kular.  
Choyxonadan quvib qutulganingda,  
Masjidning yonida yuzma-yuz kelar.

Goh aziz do'st kabi tutar qo'lingdan,  
Goh dushman tarafdan to'pin o'qtalar.  
Goh daydi gadodek chiqar yo'lingdan,  
Goh badavlat qul qiyofasin olar.

Osmono'par saroy qurar bir qo'li,  
Bir qo'li choh qazir senga bildirmay.  
Ag'darib yetti qat avra-astarin,  
La'natlayman uni, boshqa ne qilay.

Andog' qamrabdiki bu yer kurrasin,  
Biror- bir burchagi qolmagan chetda.  
Sharqda asta yoqar jang alangasin,  
G'arbda esa u "sulhparvar farishta".

Soldi izmiga ko'p ixtiyorlarni,  
Mohiyat – ul iblis, zohir-ul jindir.

Shohlar – eng sevimli qo‘g‘irchoqlari,  
Qo‘lida fuqaro bir bo‘lak gildir.

Nahot bu gardishning yo‘qdir adog‘i,  
Qaytishning bir yo‘li yo‘qmikin, Alloh?!  
Bu she’rda bo‘lsa gar shayton barmog‘i,  
Meni bu qalamdan asragin, Alloh!

## HAZILNAMO

So‘rabsan sen – “qachon kelay,  
Tongdami yo namozshom?..”  
Shu ham gapmi, darding olay,  
Ham sahar kel, ham oqshom.

Kel, shunchaki ko‘ray seni,  
Ko‘zimga ko‘rin-u, ket.  
Hasratdan men yondim lov-lov,  
O‘timga o‘ran-u, ket.

Hech farqi yo‘q, kel yo choshgoh,  
Ertalab yo kechki payt.  
Sensiz saydan bilay, axir,  
Tunmi yo tong, o‘zing ayt?!

\*\*\*

Meni olamlardan ogoh bilursan,  
G‘aflatda g‘ofilman, xabaring yo‘qdir.  
Bilganlar qul derlar, sen shoh bilursan,  
Sargardon safilman, xabaring yo‘qdir.

Qarshingda aybdorman, budir ilojim –  
Oyog‘im yetgancha o‘zimdan qochgum.  
Ayrildim taxtimdan, olindi tojim,  
Talonda qoldim men, xabaring yo‘qdir.

So‘rmagil, ne uchun oshiqman senga,  
Najot tilab topindim etagingga,  
Sohib bo‘l telbangga, ol yetagingga,  
Asiring bo‘ldim men, xabaring yo‘qdir.

### **NAZARINGDA...**

Nazaringda aslo seni tuymayman,  
Nazaringda qalbim toshga aylangan.  
Go‘yoki har daf'a seni ko‘rganda,  
Tizlari titragan men emas ekan.

Ba’zan sayr etganda uzundan-uzoq,  
Na men so‘zlay oldim, na sen churq etding.  
Hali ham ko‘zlarim yulduzlar uzra,  
Bilsang, sen men uchun samodan ending.

Yillar bo‘yi sevdim, yashirin, beun,  
So‘zladi men uchun yurak zarblarim.  
Qo‘llarim qo‘lingni tutgan o‘shal tun,  
Qo‘llari qo‘yningda, ochdim saharim.

Har kecha sensizlik cho‘kdi qalbimga,  
Ingroq-la ko‘ksimni changallagandim.  
Esimda, otilib yarim kechada,  
Derazang ostida she‘r ham aytgandim.

Nachora... sirim yo‘q, lek aytay senga,  
Orqada umr bor, qarshida o‘lim.  
Tole ilk ishqimni ko‘p ko‘rdi menga,  
Sen menga o‘zingni ko‘p ko‘rma, gulim.



## OQIL KANGARLI



1972-yilning 1-sentyabrida Go'ychay shahrida tug'ilgan. 1995-yil Boku Davlat universitetini, 2002-yilda Ozarbayjon pedagogika institutini tugatgan. Ixtisosи tarixchidir. Go'ychay shahar 7-sonli o'rta maktabda tarbiya ishlari bo'yicha direktor muovini bo'lib ishlaydi. Yetti kitob, sakkiz yuzdan ortiq maqola muallifidir.

### QO'Y, SHUNDAY YOG'SINKI BU ABRI NAYSON...

Qo'y, shunday yog'sinki bu abri nayson,  
O'zi-la nur to'ksin, sevinch keltirsin.  
Yuvilib qalblardan nafrat-u armon,  
O'rnida gul unsin, chechaklar bitsin.

Qo'y, shunday yog'sinki bu abri nayson,  
Nopok xayollarning kiri to'kilsin.  
Birlashsin qardoshdek barcha yonma-yon,  
Mamlakatlar aro sarhad so'kilsin.

Qo'y, shunday yog'sinki bu abri nayson,  
Yerda g'alla o'ssin, boshoqlar duv-duv.  
Onalar to'kmasin ko'z yosh hech qachon,  
Go'dak chehrasida bo'lmasin qo'rquv.

Qo'y, shunday yog'sinki bu abri nayson,  
Balki orzularim nish urar yerdan.  
G'am-g'ussa ko'rmaylik, har qadam, har on,  
Nariroq bo'laylik darddan, kadardan.

Qo'y, shunday yog'sinki bu abri nayson,  
Odamlar muattal qolsin sasiga.  
Yuvilsin g'uborlar, poklansin dunyo,  
Balki g'usul bo'lar yer kurrasiga.

## **SEVMAY BO'LARMIKAN OZARBAYJONNI**

Har toshi, qoyasi muqaddas, aziz,  
Har o'g'li, har qizi bir jo'shqin dengiz,  
Nechalar jonimga jodir, bilsangiz,  
Uningsiz kechmagay umrim bir oni,  
Sevmay bo'larmikan Ozarbayjoni?

Cheksiz samosida bir qushman uning,  
Qo'ynida qanotim qoqmisham uning,  
Halol non-tuzini totmisham uning,  
Udir in'om etgan menga ot-nomni,  
Sevmay bo'larmikan Ozarbayjoni?

Hayqirib keldi bu yurtga yot ellar,  
Bo'zqurdga dag'dag'a qildi qashqirlar,  
Chidadi, egilmay so'ng nafasi qadar,  
Singdi bu tuproqqa pok shahid qoni,  
Sevmay bo'larmikan Ozarbayjoni?

Tarix sahifasin bir-bir varaqla,  
Xiyonat necha dard keltirdi xalqqa,  
Bir kuni otilib turgay oyoqqa,  
Yoqgay xoinlarni g'azab vulqoni,  
Sevmay bo'larmikan Ozarbayjoni?

## **SENING - LA UCHRASHDIK...**

Bahor oqshomi uchrashdik sening-la,  
Dudoqlar sukutda, so'ylar nigohlar.  
Hamma shod, sayr etar o'z jufti ila,  
Biz uchun visolni kuylar nigohlar.

Bu shundayin tole, shundayin qismat,  
Boq, qayda uchratdik bir-birimizni.

Boshqa choramiz yo‘q, bu ham bir fursat,  
Pindhona tutaylik pok sevgimizni.

Bir oz hayajonli, bir oz sevinchli,  
Seni mutaassir etdi uchrashuv.  
Hammadan yashirin, hammadan maxfiy,  
Shirin xotiramiz bo‘ldi uchrashuv.

Bizning o‘rtamizda qancha sad, devor,  
Yopib, to‘sib olgan butun yo‘llarni.  
Bizning qarshimizda ne-ne taqiq bor –  
Azaliy shariat aqidalari.

Bor-yo‘q ikki odim masofadamiz,  
Dunyoning ishlari xo‘b ajib ekan.  
Bundan yaqinroq hech kela olmaymiz,  
Oilalimiz har ikkimiz, erkam.

Ketishim kerag-u, yuragim der, qol,  
Bazo‘r qadam bosdim, g‘amgin, parishon.  
Jimgina turibsan, ko‘zingda savol,  
Yuzingda ma’yuslik, kadar namoyon.

Kel, mening azizim, vidolashaylik,  
Taqdir darig‘ tutdi visolni bizdan.  
Bu sir ishqimiz-la yonib yashaylik,  
Hasratni mahv etib xayolimizda.

## **BIR YO‘LDA YO‘LOVCHIMAN**

Bir yo‘lda yo‘lovchi bo‘ldim men ko‘pdan,  
Bu yo‘l poyonida ne bor, bilmasman.  
Ko‘rinmas bir ziyo, bir nur uzoqdan,  
Bu yo‘l poyonida ne bor, bilmasman.

Yutdi o‘z qa’riga xayollar meni,  
Shubhali, xo‘b chigal savollar meni,

Qaylarga yetaklar bu yo‘llar meni?  
Bu yo‘l poyonida ne bor, bilmasman.

Azaldan sir edi bu ajib olam,  
Bir yuzi sevinchdir, biri esa g‘am,  
Oxiri jannatmi yoki jahannam,  
Bu yo‘l poyonida ne bor, bilmasman.

Haq yo‘lin tanlabon ketarman albat,  
Qalbimda Tangriga so‘ngsiz muhabbat,  
Ko‘rdim yo‘l boshida alam, musibat,  
Bu yo‘l poyonida ne bor, bilmasman.



## OFOQ SHIXLI



*1969-yilning 25-iyunida Boku shahrida ziyoli oilasida dunyoga kelgan. Asarlari ing-liz, fransuz, rus, turk va boshqa tillarga tarjima qilingan. Moskva shahrida yashaydi. Ozarbayjon, Rossiya, Ovrosiyo yozuvchilar uyushmalari, Ozarbayjon jurnalistlar uyushmasi a'zosi.*

## ONALAR E'ZOZLANMOQ UCHUNDIR

(Onamga...)

Onalar  
bag‘irlarida bekinishimiz uchundir  
yolg‘izlikdan junjikkanda...

Onalar  
erkalanib, e’zozlanishimiz uchundir  
dunyodan ranjiganda...

Onalar  
qo‘llarida o‘zimizni,  
qalblarida yukimizni tutadilar...

Onalar  
erkak dadilligi ila  
ayol umrini yashab o‘tadilar...

Ko‘zlarining qo‘ri ila  
umrimizning chirog‘ini yoqadilar onalar.  
Soflikda, poklikda ko‘kdan tushgan malakni  
yodga soladilar onalar.

Mashaqqatlarda  
Nushoba, Hojar bo‘larlar,  
Xush kunda – Nigor...

Sut hidi,  
Alla sasi,  
ham muhabbat qoldirarlar yodgor...

Onalar

dono nigohlarida  
tiniqlashib, tozalanmoq uchundir!  
Onalar  
cheksiz muhabbat-la sevilib  
e'zozlanmoq uchundir!

### **BIR KUN KELAR...**

Vatanimsiz men chalajon kezaman,  
Yot yo'llarda yo'qotganman izimni.  
Yona-yona bu hasratga to'zaman,  
Bildirmayman qalbdagi jiz-jizimni.  
Gumonim yo'q, hech ne kelmas qo'limdan,  
Dardim misra-misra tomar tilimdan,  
Uzoqdaman o'z shahrimdan, elimdan,  
Kimga aytay suhbatimni, so'zimni?  
Qalbim qoldi tuprog'ida, toshida,  
Yel bo'lsaydim tog'larining boshida,  
Sel kuchi bor ko'zlarimning yoshida,  
Tuganmasdir yuragimning to'zimi.  
Bir kun kelar, g'urbat eldan qochaman,  
Sevinchimdan qanot yozib uchaman,  
Do'stlarimga yuragimni ochaman,  
Yot yonida sindirmasman o'zimni.

### **SIZDA TOG'OLCHA GULLABDI...**

Jon kadarga bo'yin egdi,  
Tole qalbim giryon etdi,  
Sizlarda tog'olcha qiyg'os,  
Bizda esa qor, qardoshim.

Hayot shunday g'urbat elda,  
Yular umidingni dildan,  
Ko'zlarimda bahor abri,  
Ko'ksim esa qo'r, qardoshim.

Dardga sirdosh bo‘ldi uyqum,  
To‘rt tarafim to‘la mardum...  
Bu qafasga siqqan ruhim  
Dunyolarga tor, qardoshim.

Hayotmidi o‘tib ketgan?  
Ko‘zim to‘lur bir jumladan...  
Unutmaki, ona Vatan –  
Davlat hamda or, qardoshim!

## **DO‘STLARIM, MENGA HAM BAHOR YUBORING**

Do‘stlarim, menga ham bahor yuboring,  
Chechakli, quyoshli bir bahor bo‘lsin!  
Keti uzilsin-ey sovuq kunlarning,  
Na bo‘ron, na ayoz, na-da qor bo‘lsin!

Behad uzoqdaman issiq oshyondan,  
So‘z oching menga ul qadrdon tomondan,  
Xalos bo‘lsin yurtim kulfat-u qondan,  
Uylarda saodat barqaror bo‘lsin.

Jigarlarni ko‘ray har on yonimda,  
Nag‘malar qaynasin yana qonimda.  
Chorlayman xush onim dasturxonimga,  
Har aziz ne’matdan bir-bir bor bo‘lsin.

G‘urbatda umringdan yulinar kunlar,  
Chehrang ochilmas hech, vujuding muzlar,  
Yozganda qismatni bunday yozsalar –  
Har inson elida baxtiyor bo‘lsin!

Olamni bulbullar sasi tutganda,  
Olsam edi so‘nggi nafasim bunda,  
Hammaga duoi salomlar mendan,  
Ofoq e’zozlagan Vatan bor bo‘lsin!

## **NILUFAR SHIXLI**



*1991-yilning 1-aprelida Boku shahrida tug'ilgan. Moris Torez nomidagi Moskva Davlat lingvistika universitetini, M. Lomo-nosov nomli Moskva Davlat universiteti-ning journalistika fakultetini bitirgan. Moskva shahrida yashaydi. She'r, hikoya va qissalari turk, ingliz, fransuz, rus tillariga tarjima qilinib, Ozarbayjon, Rossiya, Turkiya, Chexiya, Latviya matbuotlarida chop etilmoqda.*

### **KECHA O'YLARI**

Bir kechaning etagida  
Necha ko'zning uyqusi.  
Ko'kda yulduz naqshlari,  
Havoda gulning isi.

Oy suvlarga noz etarkan,  
Shu'la sochardi yuzi.  
Suvning sokin mavjlarida  
Ko'k yuzining egizi.

...Maftun bo'lib, qalamni  
Sochlaringga taqasan.  
Bir muhabbat filmi kabi  
Tabiatga boqasan.

Ruhing tark etib tanangni,  
Subhgacha raqs etgaydir...  
Ozodlikdan kafting ko'kda:  
“Qaydasan, kel, ketaylik!”

Sukunat seni rom etar,  
Na kecha bor, na bu kun.

(Ko‘p narsani o‘z nomi-la  
Xotirlamoq xo‘b mushkul!)

...Shu asnoda bitadi tun,  
Soyalar ham chekinar...  
Ol shafaqlar asta-asta  
yer yuziga sepilar...

Samo shundayin yorishar –  
Kitob kabi o‘qilur...  
Yaratganning o‘zi chevar,  
Sabohlarning sharafiga  
So‘zdan she’rlar to‘qilur!

## **SEVGI SHE’R BO‘LSAYDI...**

Sevgi nag‘ma bo‘lsaydi,  
Har satri sen bo‘larding.  
Tomib dudoqlarimdan,  
Yuragimga to‘larding.

Sevgi shamol bo‘lsaydi,  
Men qanotlar taqardim.  
Parvozda, xayolimda,  
Ko‘zlaringga boqardim.

Sevgi hayot bo‘lsaydi,  
Yashardim chin yurakdan,  
Qovushardik bir umr,  
Tuproq, quyosh, san va man!

Sevgi dengiz bo‘lsaydi,  
Sohilida kezardim...  
Sevgi she’r bo‘lsaydi,  
Uni senga yozardim.

## **SEVISHGANLAR OROLI**

Ketaylik bir orolga,  
Ummon unga tutashsin...  
Kulsak, qora bulutlar  
Oqarib, ko‘z qamashsin!

Ketaylik bir orolga,  
Maysadan kiyib libos.  
Har dardga, har alamga,  
Har qayg‘uga deylik, bas!

Ketaylik bir orolga,  
Hech kimni o‘ylamaylik.  
Har kun dengiz qushlari  
Sasidan uyg‘onaylik.

Bekinib kemalardan,  
Ko‘zdan g‘oyib bo‘lguncha,  
Ayrlimaylik bu yerdan,  
Umrimiz tugaguncha.

...Bizdan keyin qalblarga  
Xush sadosi yangrasin,  
“Sevishganlar oroli”  
Sevganlarni chorlasin.



## **AYTEN TAHMASIB**



*1987-yilning 13-iyulida Shomoxida dun-yoga kelgan. Turli adabiy tanlovlarning sovrindori bo‘lib, qator diplom, mukofotlar bilan taqdirlangan. Ozarbayjon Yozuvchilar uyusmasi hamda “O‘t parchasi” adabiy jamiyati a’zosi.*

## **TIZLARIN QUCHGAN AYOL**

Xonaning bir burchida  
Tizin quchgancha  
Yig‘lagan ayol!  
Nelar o‘yga toldirdi,  
andog‘ xo‘rliling keldi?!  
Aldanishdanmi?!

Bir vaqtlar sevganing  
Xushro‘y yigitning  
Yuzingga tushdimi soyasi?!  
Qalbing tilkalagan  
Oshiqona, teran  
Boqishlardanmi?!

O‘sha, sen sevmagan ering qo‘lidan  
Chiqib ketmakka joy topmadingmi yo?!  
Ich-ichingdan yig‘la, ho‘ngrab-ho‘ngrab,  
ko‘nglingni bo‘shat,  
tizlarin quchgan ayol!

## **YANA KECHIKAMAN**

Ruhim ko‘rishmak-chun kelajak.  
Umr karvonining so‘ng bekatida  
Uchrashaman sening-la.

Go‘zal ko‘rinmoq istagida  
Kechikaman yana.  
Ayollar mammundir  
Tengi topilmas bo‘lganidan.

Vaqt ham to‘xtab qoladi  
Senga yetgan zamoni.  
Yuragim vaqtdan ildam,  
Mendan avval senga yetar.  
O‘y-fikrimni shamollar,  
Ruhimni hur-g‘ilmonlar  
Uchirajak sen tomon.  
Men yana kechikaman.

## **AYOLLIK O‘LDI**

*(bir ayol tilidan)*

Menga sevgidanmas,  
Dahshatdan so‘zla.  
Tinglay hayajon-la, bo‘g‘ilib nafas.  
Dahshatlar sevgidan ancha maroqli.

Sevgini, bo‘salar nimas,  
Haqorat-u azobni sina.  
Zo‘rla butun sof tuyg‘ularni,  
So‘ngra qilaver gina.  
Yozg‘irki, ayollik o‘lgan.  
O‘lgan bokiralik, qizlik.  
Dunyoni qamrab olgan axloqsizlik.  
Kun tartibida jinsiy ozchilik.  
Xo‘p, mayli...  
Muvozanat barbod bo‘lgan shekilli.  
Qochdi suhbatning tuzi, mazasi.  
Qonmi, musibatmi –  
Parvo qilmaylik.

Ha!  
Nima deding?!


Boshlansin urush?!

Kadardan kulishga,  
Nigohlar ko‘rishishga,  
O‘pisha-o‘pisha.

Dudoq, siyna  
Yana... yana...

Lolalar ekdim dudoqlarim ila,  
O‘qlar tegib, chinnigul qo‘yilgusi siynangga.

Eh!  
Sevgini yerga urdik necha,  
Ayollik o‘ldi bu kecha.



## **ALAMDOR JABBORLI**



*Alamdar Jabborli 1980-yilda tug‘ilgan. Oltita she’riy, bitta hikoyalar to‘plami muallifi. Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi, 2014-yildan esa Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi Yoshlar kengashi a’zosi.*

## **OLLOHGA SHUKUR**

Xudoyim, bergen kuningga,  
Ne’mat-u ehsonga shukur!  
Olib turgan nafasimga,  
Sen baxsh etgan jonga shukur!

Charchadim nodon ichinda,  
Jon qon-u qurban ichinda.  
Shuncha olomon ichinda  
Bir nafar insonga shukur!

Shukur so‘zing bitgan qo‘lga,  
Shukur so‘zing aytgan tilga.  
Ko‘rganim avval-azalga,  
Kelar so‘ng zamonga shukur!

## **DUNYO SO‘ZGA QOLAJAK**

Dunyo inson ko‘nglini  
Buza-buza qolajak.  
Insonlar chor-u nochor  
To‘za-to‘za qolajak.

Ko‘p yo‘qotdi, oz topdi,  
Ilinj ortidan chopdi.

Dunyo it bo‘lib qopdi,  
Dardi bizga qolajak.

Bir tegirmon, doni yo‘q,  
Dardining darmoni yo‘q  
Va ketar zamoni yo‘q,  
Aksi yuzda qolajak.

Kim yaxshi niyat bilan,  
Kim kelar nafrat bilan.  
Avvali jo‘mard bilan,  
So‘ngi bezga qolajak.

Kim cho‘qqidan yer olgan,  
Kim o‘rada o‘ralgan.  
Dunyo so‘zdan yaralgan,  
Tag‘in so‘zga qolajak.

## **OLLOH G‘AZABIDAN QOCHGAN BANDALAR**

*Zilzila bo ‘lganda, Olloh g‘azabidan qochgandek,  
hamma har yoqqa qochar edi...*

Bilmaski, gunohi boshiga yetar,  
Tomi bosh ustidan uchgan bandalar.  
Kecha harom-xarish yuribon battar,  
Bugun duoga qo‘l ochgan bandalar.

G‘arib-g‘uraboni nazarga ilmas,  
Mol-dunyo – tangrisi, hech shukur qilmas.  
O‘zi ham qayoqqa qocharin bilmas –  
Olloh g‘azabidan qochgan bandalar.

O‘tkinchi dunyoning ortiga tushar,  
O‘z nafsin shamoli, bodiga tushar.  
Axir, Olloh qachon yodiga tushar,  
Axir, shukur qilar qachon bandalar.

## **KENGAYIB QOLIBDI, OTA, QABRISTON**

Kengayib qolibdi, ota, qabriston,  
Seni dafn etganda edi ancha tor.  
Bugun inson umri tuzdan ham arzon,  
Qabr uchun navbatda turishar qator.

Qayg‘u-alamlardan bu belim mayib,  
Dardimning davosi yo‘qdir, hoynahoy.  
Qabriston qolibdi ancha torayib,  
Olib qo‘y yoningdan menga bitta joy.

Dunyo ishlaridan hayratda qoldim,  
Quvonchdan asar yo‘q, g‘amlarim bisyor.  
Qabring qarshisidan uy solib oldim –  
To mendan hamisha bo‘lgan xabardor.

Kengayib qolibdi, ota, qabriston,  
Marhumlar butun bir qo‘shin bo‘lmishlar.  
Xudo xayrin bersin, hamqishloqlaring  
Kelib shaharga ham qo‘shning bo‘lmishlar.

Ruhingga baxsh etdim bul satrlarni,  
She’rmi, marsiyami, bir so‘zmi – qora.  
Ko‘nglimni bo‘shatib yig‘layin biroz,  
Ota, yengil tortsa dardlarim zora...

## **SABOH SENDAN ROZI QOLSIN**

Kelajakni shundoq qurkim,  
Saboh sendan rozi qolsin.  
Ko‘nglingni uzma Ollohdan,  
Olloh sendan rozi qolsin.

Har bir jangdan sog‘ bo‘lib chiq,  
Haqsizni yanch, haq bo‘lib chiq.

Har sinoqdan yuzing oq chiq,  
Sinoq sendan rozi qolsin.

Egilmasin boshing tokim –  
Kim bo‘lsa ham qarshingdagi.  
Shundoq yasha, boshingdagi  
Papoq sendan rozi qolsin.

## BIR RASVOYI JAHON ZAMON

Endi shayton amaliga  
Bandalar o‘ynagan zamon.  
Bir qozonda o‘n qo‘chqorning  
Kallasi qaynagan zamon.

Qon tomadi har bir qo‘ldan,  
Inson to‘ymas o‘ldir-o‘ldan.  
Bandalari to‘g‘ri yo‘ldan  
Ozgan-u aynagan zamon.

Dunyo a’molini unut,  
Siniq dilni aylagin but.  
Mayli, gunoh yo‘lini tut –  
Ollohimga ayon zamon.

Har ko‘chaga kirma giryon,  
Qolgani o‘zingga ayon.  
To‘g‘ri yur, dema, bu davron –  
Bir rasvoyi jahon zamon.



## **ANTIQA SAMANDAR**



*Yosh ijodkor. Matbuotda she'r va ma-qolalari bilan chiqib turadi.*

### **KIMSANKI, SENGA EGILSAM?!**

Toliqtirdi meni bu kaslar,  
Hovchimdan to'kildi duolar,  
Baxtim, jinday sabrli bo'l,  
Tag'in sevinch qaytib kelar.

Egilmoqni kim yoqtirar?  
Har kim o'zin yuksak sanar.  
Imkonini ko'kdan izlar  
Beli bukik qariya ham.

Mening endi hech ginam yo'q,  
Qalbim sevinchlarga to'liq.  
Yurmasman sen yurgan yo'ldan,  
Kimsanki, senga egilsam?!

### **XOTIRALAR**

Oh, o'sha zamonlar, o'sha zamonlar...  
Hayot rangin edi bola ko'zimda.  
Xotirga tushadi ul olis onlar,  
Bir sog'inch, orziqish, vola ko'zimda.

Murg'ak yuragimda buyuk bir niyat  
O'tdan olib o'tga solardi meni.

Olisda sen bilan barobar hasrat  
O‘zimning qo‘limdan olardi meni.

Ko‘zimda bor edi murg‘ak tabassum,  
O‘zimdan bexabar jilmayardim jim.  
Qo‘shilib men degan bir qizaloqqa,  
Aldanib qolardi sho‘rlik yuragim.

### **KUZ YOMG‘IRI**

Tinim bilmay kuz yomg‘iri  
Shivalab yog‘ar yerga...  
Shamsiyada pana bo‘lmoq  
Umrimda qolgan xotira.

Yo‘l qisqarar ko‘zlariningda,  
Manzilga yetging kelmaydi.  
Bor umringga tatirlik yo‘l,  
Aslo tark etging kelmaydi.

Shamollardan panoh topib,  
Xayollarga tolgan yigit.  
Kamzulini senga yopib,  
O‘zi nochor qolgan yigit.

### **QAYDAN BILARDIM**

Men qaydan bilardim sovuq shamollar  
Yoz payti ustimga qaydan esishin...  
Onamning tiganmas ul navozishi  
Yig‘lagan sherimning sasin kesishin...

Qaydan bilibmanki, axir, ul zamon,  
Bilganim dardimga darmon bo‘lishin.  
Qaydan bilibmanki, ichdagi tug‘yon  
Bo‘yim o‘smog‘idan nishon bo‘lishin!

Qaydan bilibmanki, shikasta taqdir  
Bu ravon yo‘llarda tutilganini.  
Sevgiga kechikar qalbim bir umr –  
Manglayga faqat shu bitilganini...

## YOZ MENI, DO‘STIM

Men ichimdan kichrayaman,  
Bo‘linaman hissalarga  
bo‘g‘in-bo‘g‘in.  
Singiyman so‘zlaringga,  
Yoz meni, do‘stim,  
varoq-varoq.  
Manglayimdan yerga tushib,  
Sinibdi yozig‘im chil-chil.

Seni tuymoq nima bo‘pti,  
Yuzingda yozilgan  
Taqdir senga ravo ko‘rgan  
bir umrlik azob.  
Seni ko‘rmoq ne bo‘ptiki,  
Ko‘zingda yashirin  
Taqdir sendan olgan  
lahzalik sevinch.



## BOLAYOR SODIQ



*Bolayor Sodiq 1965-yilda tug‘ilgan. Ilk she’ri 1983-yilda e’lon qilingan. Xalqaro Rasul Rizo mukofoti laureati. Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi va Ozarbayjon jurnalistlar uyushmasi a’zosi.*

## OLLOH TABASSUMI

Vaqt eshik qoqadi  
eski alifboda.

Yuziga Ollohnning tabassumi  
tushmagan so‘zlar  
ko‘cha o‘rtasida  
yirtar yoqasin...  
Nomus bilan vijdon  
sovqotgan yerlardan  
ketmoq vaqtidir.

Bu sahar  
so‘zlarni, suhbatlarni yuvdim  
xotira daryosida.

Umrni suvgaga emas,  
toshlarga aytdim  
daraxt tilida.

Sukutni otdim  
Ollohnning sabriga qo‘ngan  
Qushlarga.

Ko‘rdim, bir qush  
qanotidan yaralandi,  
tuki qilt etmadi vijdonning...  
Sevinchlar, g‘ussalar  
ko‘hna ashyoga aylangan  
yerlar atri dimog‘imda.  
Endi ketmoq vaqtidir,

Daraxtlar tik oyoqda  
turmoqni  
rad aylagan yerlardan  
ketmoq vaqtidir...

## QO'RQUV

Tiz cho'kib oldi,  
yig'lab bo'lmas, bu shahar vahimasi beayov.  
U ayolning ko'z yoshlari ham  
bir tomondan  
sabrimni ivitar.  
Ishontirib bo'lmas  
ko'chalarni  
haqiqatning fohisha ekaniga...  
Ko'k o'par binolar shahrida  
bo'yi ko'rinas ozodlikning  
Umidi o'lмаган.  
Kunlarning  
aksi tushar ko'lmakchalarga.  
Zamonning qadam tovushidagi  
qo'rquv  
rasmin chizmoq istayman,  
barmoqlaringni ber...

## VAQT

Kezib bo'lmas bu shaharda,  
yo'q, aslo...  
ko'chalar bo'g'zi qadar  
odamlar ichida  
odamlar bo'g'zi qadar ko'cha.  
Har ko'chaning boshida  
bir ko'cha yig'lar...  
Tunda tilangan ko'chaning  
ko'zlariga boqmoqdan  
uyalar o'lim,

Uyalmas ibodatidan  
neft burg‘ulari...  
Tangri qadar dengiz  
yaqindir bu shaharga, yaqindir...  
Azon tovushi minoralarni  
changdek qoqib tashlar ustidan,  
Dengiz qadar Tangridan  
uzoqdir bu shahar, uzoqdir...  
Ifloslik  
ko‘chalarni supurar umid so‘zi bilan...  
Ozodlik otahsin yondirib  
sigaret evaziga  
chekarlar ko‘chalarda.  
Qurigan imon daraxtlari,  
Haqiqat qushlari  
qo‘ngani joy topmas  
bu shaharda.  
Och hovuchingni, Olloh,  
hovuchingni och,  
agar vaqting bo‘lsa...

## **SOVQOTGAN YUKSAKLIK**

Qaytdim,  
uzoqlar bo‘shalib qoldi...  
daraxtlar so‘ylab bergen  
rangda toliqdim.  
Boqishimga tushovlangan  
Bulutlar.  
Xotiramning cho‘llari  
payhon bo‘lgan  
yashillikning tarovatidan...  
Tomirlarimda ma’ragan  
qo‘zichoqlarni varaqlayman  
bo‘ri tovushiga maktublar yozib...  
Meni unutibdi  
barcha raqamlar,

daraxtlar so‘ylagan rangda  
endi bir qo‘pol so‘zning  
ustiga chiqib,  
chapaqay bir haqiqatni  
yopmoq kerakdir,  
daraxtlar so‘ylagan rangda.  
Tag‘in ko‘tar qo‘llaringni  
bayroq o‘rniga  
va unutma,  
yuksalgan barcha bayroqlarning  
sovqotgani bir yuksaklik bor  
daraxtlar so‘ylagan rangda...

## BIR QADAMLIK HAQIQAT

Bir kun  
etagini yig‘ib  
bu shaharning ichidan  
kechadi bu dengiz,  
xiyobon raisining  
dod-voyiga tupurgancha...  
Tog‘usti xiyoboniga chiqar, ehtimol,  
bir oz havo olay deb.  
Manimcha,  
mazutli oyoqlarini sohilda yuvsa  
yomon bo‘lmas.  
Bilaman,  
mazutning hididan  
eng ko‘p nafratlangan  
shahidlar xiyobonidir.  
Bilaman,  
sen buni bilmassan,  
axir, u xiyobonda  
sovqotmading-ku...

## **MAHBUSLAR**

Mahbuslar!  
Qalqing bu kechaning ohiga.  
Uyqungizni to‘sang  
temir chorpojalar ustiga.  
Ichingizdagi  
so‘nggi umid ulushin  
sovuj suvdek hovuchlab  
seping horg‘inlikning yuziga.  
Mahbuslar!  
Bugun safingizga,  
yotog‘ingizga  
yuzidan-ko‘zidan  
qon siza-siza  
Ozodlik nomida  
bir mahbus kelur.  
Yoqangizdagi raqamni  
ilon po‘sti kabi  
so‘kib tashlang.  
Bu yoqasi raqamsiz  
mahbusning ko‘z yoshida  
ushbu g‘arib kechani yuving.  
Bu g‘arib kechani  
o‘lgan umidlarga  
qabrtosh qilib qo‘ying.  
Mahbuslar, mahbuslar!  
Mamlakat dor og‘ochidir,  
Davron umrimizga kundosh.  
Boshingiz omon bo‘lsin,  
ertan –  
Ozodlikning qatl kunidir.

## **KITOBI YOPILGAN YO‘L**

Kentimizga ketgan yo‘llarning  
kitobi yopilgan,

o‘qimoqqa hech kim yo‘q,  
yo‘llar kentni o‘qiydi endi.  
Kentimizning o‘qish havasini  
biz o‘ldirdik  
o‘qiganimiz kitoblar bilan...  
har kuni bir kitob ajradik  
kentdan,  
kentni kitobsiz qo‘ydik...  
Kitob va kent orasida  
osmono‘par o‘rmonlar,  
dengizlar, ko‘rfazlar,  
Qibлага jilmaygan  
sahro yo‘llari,  
Keksa Sharqning ko‘z yoshlarida  
yuvingan shayton tabassumi.  
Hukmdorlarning hokimiyat uchun qo‘rquvi,  
bir hovuch odam,  
bir qultum it, cho‘mdirilgan zamon,  
manglayini silagan Shusha,  
Ollohga yetmagan maktublar  
va men  
va mening ko‘zlarimdan  
to‘kilgan bu she’r  
va yana  
qarshimda kitobi yopilgan yo‘l.



## RUBOBA SOHIB



*Qosimova Ruboba Sohib qizi 1989-yilda Tovuz tumanida dunyoga kelgan. «Imzo» nomli she'rlar kitobi muallifi. Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.*

### TAG‘IN SOVQOTYAPMAN, NAFASSIZMAN MEN

Bitta navozish basdir yonmoq uchun,  
Bitta ertak basdir quvonmoq uchun,  
Sochlар bir-biriga chirmashmoq uchun  
Ham epkinim yo‘q, ham sansizman men.

Kechalar iforing tarar tabiat,  
Ochiq derazadan o‘qrayar xiffat.  
Sevgisiz dunyoning ismidir nafrat,  
Sensiz oyga, yilga havassizman men.

Yitmish dudog‘imning zamzamasi ham,  
Bahor yonog‘imning gul g‘amzasi ham,  
Ishqimning adoli andazasi ham  
Ruhimda bo‘g‘ilmish, yor, sassizman men.

Nafas ilitganni quyosh ilitmas,  
Hech narsa ozurda dilni ovutmas,  
Ishq yaxshi-yomoning farqiga yetmas,  
Tag‘in sovqotyapman, nafassizman men.

### OTAJON

Men bilan ulg‘ayar kadarim, g‘amim,  
Ba’zida issiqdan yonadi tanim,  
Bormi bir novdadан umid kutganim?  
Ilohim, to‘zim ber, to‘zim, otajon!

Tun-u kun, oh, mening ko‘zlarimda yosh,  
O‘ksik yuragimga cho‘kib qolgan tosh,  
Bu bir sinov deysan, aylagil bardosh,  
Nomingni takrorlar so‘zim, otajon!

Ko‘nglim Ka’basisan, tilmida Qur’on,  
Sen, ey qiblagohim, dilimda har on,  
Sening xizmatingga shaydirman, ishon,  
Boshingda parvona o‘zim, otajon!

## **QAYTA SEVISHAYLIK BIZ**

Yuragingda ming bitta isyon,  
Tinchlik bermas xayoling hamon,  
Yonganiz yetar, al’amon,  
Kelgin, qayta sevishaylik biz.

Chidab bo‘lmas sevgi dog‘iga,  
Chiqa ko‘rma mahshar tog‘iga,  
Ohim yetdi falak toqiga,  
Kelgin, qayta sevishaylik biz.

Sen bilandir orzum, murodim,  
Isming bilan bog‘liqdir otim,  
Sensiz ma’nosizdir hayotim,  
Kelgin, qayta sevishaylik biz.

Yoshlik-da bu, har xato o‘tgay,  
Kim ham oson rohatga yetgay?  
Ota, ona bo‘lmoq uchun, hay,  
Kelgin, qayta sevishaylik biz.



## DIYONAT USMONLI



1965-yilda tug‘ilgan. Boku Davlat universitetining jurnalistik fakultetini tugatgan. Uchta she’riy kitobi chop etilgan. She’rlari bir necha tillarga tarjima qilingan.

(“O‘z jonimni kuylagayman” turkumidan)

### ODAM O‘ZIN TANISIN

Yo‘lsiz bir sayyoohman,  
o‘z ko‘lkamni axtaraman.  
Qaddim kabi egik bir so‘roq  
ustimdan kuldirar zamonni rosa,  
qahri bilan meni yig‘latar,  
jannat va jahannam nomidan  
Tangridan hisob so‘rar.

Shoshaman manzilni tanlamay,  
intihosiz yo‘llar so‘ngiga yetsin.  
Hayot tirikni, qabriston o‘likni,  
odam o‘zini tanisin mozorda.

Tangriga tavsiyam bor:  
ming yillarning sinovida yutqizgan  
manglayimdagι ma’nosiz jumlaga  
qora bir nuqta qo‘ysin.

Ushalsin barcha umidlarimiz,  
bitsin bu sabrning tilsim azobi.  
Sen ming xil ta’birlangan so‘zingning,  
men sho‘rlik jonimning sohibi bo‘lay.

### O‘Z JONIMNI KUYLAGAYMAN

Ichib haqning sharobini,  
qayta uyg‘onolmasam,

uyg‘onib ruhimni sodiq,  
o‘zimni sog‘ ko‘rolmasam...  
Umrin ari dudog‘inda,  
atri qolmish qor chechagin.  
Uyimizning adog‘inda  
tanho daraxt butog‘idir  
so‘nggi manzilim ustuni.

Yarador yerimga boqib,  
sog‘ joyimni qonaturman.  
Taqdir kitobini yopib,  
O‘z jonimni kuylagayman.

Berk yo‘llarim ochilganda  
Yurgali holim qolmadi.  
Uchmoq payti yetib keldi,  
ammo qanotim chiqmadi.

Men ketaman,  
dardim qolar,  
tortar bo‘lsang,  
halol bo‘lsin.  
Boshtoshim yo‘q,  
bosh ustimda  
bitar bo‘lsang,  
halol bo‘lsin.

## HAYOT GAROVI

Tangri yetkazar, deya  
bayramlarni qarzga o‘tkazganlarning  
yagona orzusi ro‘zi barakot,  
bilsa ham orzulari ushalmasligin...  
har safar umid qilmoq  
obro‘sizlik dalili.

Muhtojlar ko‘p,  
umidlar xasis...  
Do‘s-t-yoronga qushning suti,  
jon dorisin ichirmoq,  
ochlarni bayram ta’tillari bilan sevintirmoq,  
bola-chaqaga harom yedirmoq kerak emish.

Muborak bayramlarga achchiqma-achchiq  
so‘nggi burdasini o‘ziga qiymagan insonning  
og‘zidagi nonni,  
tilidagi so‘zlarni o‘g‘irlamoq,  
muqaddas kitoblarning xavfli kalomlari bilan  
qurbanini afsunlamoqdir  
insondagi shayton axloqi.

Hatto insonning  
qolgan soatini sanab,  
tomirin tinglamak, olgan nafasidan  
g‘azablanmoq  
kimningdir hayotda qolmoq maqsadi.

Begim kunlarni bayram kabi nishonlaganlar,  
Vatan ishqida jondan kechganlar,  
Vatan ishqida tuproqni  
ag‘dar-to‘ntar qilganlar,  
o‘tmishning ko‘zi ichiga  
tupurganlar bo‘lmasa edi...

Tangrining keksa paytida  
insonlik uchun  
taqdir-nasibaning qoniga botirib,  
manglay yozuvini  
o‘zgartmoq ishqiga tushganlar bor.  
Hayot-mamot farmonida  
Tangriga sheriklik iddaosida bo‘lmoq  
va nonini ko‘z yoshi ho‘llaganlarning  
bayramini o‘rib olmoq  
zolimning garovi bo‘lmasa edi...

## **BUYURTMA**

Do'st dushmanni,  
nur zulmatni tanimas,  
o'choq o'z tutunida bo'g'ilur.  
Baxti qora tuproq uchun  
shahid bo'lgan bilan  
uni qabristonga chevrganning  
farqiga bormagan  
bir kunning o'rtasidaman.

Yashashdan bezmayin  
hamma kabi o'lganingda,  
seni bir mo'miyo kabi  
yuragimda asrashga urindim.  
Sira yodimga kelmas  
nima uchun, qaydan kelganman,  
qayda va kimning xizmatiga  
uyalmasdan suyanganman.

Bilmayman,  
tong kim uchun otadi,  
o'choqni kim so'ndirib ketgan  
va sen yuragimda nima qilasan,  
unda hayot bormi tag'in...  
Bir shoshilinch xabar jo'nat  
o'zingdan oldin,  
yo men vafosiz bo'lay,  
yo kutayin to bezguncha...

## **BIR KO'PRIK BOSHIMAN**

Tong otgan zahot  
qushlar uchib ketdi uzoq.  
Umr tugagan onda  
do'stlar bir-bir bezib ketdi,  
yodimda qolganlar ijara turar.  
Shamolda,

izg‘irin,  
jaziramada  
joni toblangan,  
hayot og‘ushida gunohkor  
bir ko‘prikboshiman.  
Karvonlar kechib ketdi,  
buzildi issiq uyalar  
chala tushlar singari.  
Qish eshikka tayanmay hali  
qalin qor yog‘di  
nokom orzularim ustiga...

Ajabo, omon chiqmasak  
bu yashash g‘avg‘osidan,  
yana tonglar otarmikan,  
ajabo, yana ko‘zlarimiz sevinarmikan,  
bir-birimizning tirigimizdan voz kechib,  
o‘ligimizni topgunga qadar...



## ELSHOD ARSHOD O‘G‘LI



*Elshod Arshod o‘g‘li 1986-yilda tug‘ilgan. 2007-yilda “Yorsang mening yuragimni”, 2010-yilda “Kalavaning uchi”, 2014-yilda esa “Ishq sari” she’riy kitoblari chop etilgan. 2009-yildan Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, Yoshlar kengashi raisi.*

### O‘Z ICHIDAN CHIRIB BORAR ODAMLAR

Na ona qursog‘i va na-da qabr,  
U dunyo boshqadir, juda go‘zaldir,  
Yig‘lab-yig‘lab o‘sha dunyodan kelur,  
Dunyodan jimgina ketar odamlar.

Ko‘pincha Azroyil jonini olmas,  
O‘lib ketganlarni sanab yetolmas,  
Umrin so‘ngigacha ko‘plari qolmas,  
O‘z ichidan chirib ketar odamlar.

Axir, yolg‘on so‘zlab, xayrin kutganlar,  
Aqlsiz kallalar, jonsiz badanlar,  
Insofingiz bo‘lsin, ta’rif etganlar,  
Qarang, axir, erib ketar odamlar.

Tili bilan dili boshqa-boshqadir,  
Yuragi boshqadir, ishqি boshqadir,  
Yashamas, ruhining toshi boshqadir,  
Quruq loshin surib ketar odamlar...

### SOCHLARINGDA CHECHAK OCHAR GULLARIM

Yana bahor keldi, ey mening umrim,  
Kun chiqar, tarqagay bu dardi sarim,  
Nafasimdan yonoqlaring ollanur,  
Sochlaringda gul ochadi qo‘llarim...

Kuzlarda sarg‘ayib-so‘lgan tabiat  
Yashillik libosin kiyar har bahor.  
Odamlarning qo‘llarida gul-chechak,  
Dillarida sevgi undirar bahor.

Qish uyqusi bug‘lanadi tuproqdan,  
Halizamon oy izidan kun chiqar.  
Chumolining qayg‘usi ham nish urar,  
Kapalakning gul tushlari chin chiqar.

Bahorning eng go‘zal nag‘makorlari...  
Tabiat ularning nag‘masin xushlar,  
Ishga tushib ketar chirildoqlar ham,  
Kechalar yakkaxon konsertin boshlar.

Qo‘ng‘izlar uxlagan hur chechaklarga  
Mushtariy ko‘z bilan boqar arilar.  
Har gulning boshiga nechasi qo‘nar,  
Salib yurishiga chiqar arilar...

Biz ham tabiatning bir parchasimiz,  
Uning ohangiga qorishganmiz biz.  
Bahor chechak ochar, kuz hosil berar,  
O‘tgan bahor kurtak yozgan sevgimiz...

Yana bahor keldi, ey mening umrim,  
Kun chiqar, tarqagay bu dardi sarim.  
Nafasimdan yonoqlaring ollanur,  
Sochlaringda gul ochadi qo‘llarim...

## **KICHRAYA-KICHRAYA YO‘QOLUR ODAM**

Boshqaning ichida yaralsa hamki,  
o‘z ichida tug‘ilur odam...  
Yashaydi...  
Havosi yetmas,

ham issiqdan,  
ham sovuqdan,  
bordan,  
yo‘qdan,  
sevgidan,  
sevgisizlikdan,  
g‘ussadan,  
sevinchdan...  
xullasi,  
ich-ichidan  
azob chekar,  
bo‘g‘ilar odam...  
Biroq  
yomon  
do‘stlarning,  
yaqinlarning sevgisidan yiqilur odam.  
Shundoq yiqilarki,  
chil-chil bo‘lib  
o‘z ichida yig‘ilar odam.  
Keyin  
o‘z bo‘laklarin  
to‘plamoqchi bo‘lar o‘z ichida.  
Harchand urinmasin,  
bir bo‘lagi kam chiqadi  
har safar.  
Har safar bitta bo‘lak  
bir hissa kamayar,  
hisobdan chiqarib tashlanar odam.  
Har safar biroz kichrayar,  
siqilar odam...  
Kamaya-kamaya,  
Nihoyat,  
bir kun tugaydi o‘z ichida...  
Shu tariqa  
yo‘q bo‘lar odam...

## **AYRILIQ – O'LIMNING MAJHUL SHAKLIDIR**

Inson bu dunyoda yashamas, ey do'st,  
Inson mangulikning dodini berar.  
U ham yaratuvchisidir yaratilmishning,  
Erkakning jonidan ayol yaratar.

Oq soch ko'lka solmas yuz oqligiga,  
Yillar zahmatining boshiga chiqar.  
O'zi hech ko'rmagan kunlarning rangi  
Ohista odamning sochiga chiqar.

Ayriliq – o'limning majhul bir shakli,  
O'lmoq yashamoqning hali yarmidir.  
Ajin nima bo'pti? Odam suvrati  
Siyratning olovi, o'tiga qorishar.

Nega tug'ilalar bu minglar, milyonlar,  
Oxir yaralgani BIRga aylansa?  
Yashamoq degani nasyachilikdir,  
Hamma o'zi kelgan yeriga qaytsa.

Eng hoziq hakim bu – Zamon hakimdir,  
Barcha bu dardlarning darmoni vaqtadir.  
Tomosha o'shanda, sahna o'shanda,  
Bu umr o'limga bir antraktdir...

## **SHU'LA**

Mayli-da, kechasi tug'ilgan bo'lsang,  
Shu'lani so'ngani qo'yma ichingda.  
U shu'la yashnatar seni, bilmassan,  
Shu'lani so'ngani qo'yma ichingda.


Bu ertak dunyoda itlarning sasi,  
Qiyin to'g'ri yo'lga solmoq bir kasni.

Qoplagan har yonni itlar hurishi,  
Shu'lani so'ngani qo'yma ichingda.

Ko'p shu'lalar zulmatlardan tug'ilar,  
Va ushbu zulmatda bir kun yo'qolar,  
Derlarki, zulmatda qurt-qush yig'ilar,  
Shu'lani so'ngani qo'yma ichingda.

O'zing o'z ichingda yitarsan birdan,  
O'zingga xiyonat etarsan birdan,  
Boshqa yo'lga ozib ketarsan birdan,  
Shu'lani so'ngani qo'yma ichingda.

Taqdiring osilgan o'sha shu'laga,  
Hayotingga ulgu ol ushbu shu'ladan,  
O'zingga hovli-joy sol shu shu'ladan,  
Shu'lani so'ngani qo'yma ichingda –  
Olloohni o'lgani qo'yma ichingda...



## EMIN PIRI



*Emin Piri 1986-yilda tug‘ilgan. Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi va Yoshlar kengashi a’zosi. She’rlari turk va rus tillariga tarjima qilingan.*

### BOLALIK YILLARIM OSON KECHMAGAN

Qiyin kechgan bolaligim,  
boshmoqlarim yirtildi  
kattarganda oyog‘im.  
Oyoqlarim kattarmasin deya  
duo qilganmisiz hech?!  
Bolalik yillarim oson kechmagan...  
Xiyla qiyin kechgan bolalik davrim.

Chegaraning  
tikanli simlari kabi tuyulardi  
qashshoq bolalarning ko‘ziga  
maktab bufetining eshigi.  
Bu sarhadni kechib o‘tish,  
ehtimol, hayotimizning  
eng buyuk inqilobi,  
manglay yozuviga qarshi  
eng buyuk isyon edi.

Onamning erta oqargan sochlarda  
ko‘rinardi  
ololmagan o‘yinchoqlari.  
Taqdir o‘yinchog‘iga aylangan edik.

Qayda edi o‘shanda  
Bolalarni sevgan Tangri?!

Hindu bo‘lmasak hamki,  
otamizning cho‘ntagiga ko‘ra

bizni bo‘lgan edilar  
Kastalarga.  
Dengiz suvlari ummon suvlariga  
Qorishmagandek,  
Bizni qorishdirmsadilar...  
Sevgani uchun yutmas  
Ummon baliqlari  
Dengiz baliqlarini.  
O‘ynaganda, ul boyvachchalar  
Bizni o‘zlaridan tutardi yiroq.  
Boyvachchalar ko‘zidan  
kiyimin yamog‘in yashirmoq edi  
qashshoq bolalarining o‘yini.

Erkak yig‘lamaydi der edi onam,  
men uchun ham o‘zi yig‘lardi.  
Ertak aytardi,  
ko‘kdan uch olma tushmasdi ertaklarida,  
bu ertakni aytmasdi onam –  
bolam olma so‘ramasin deb...

### **OMON QOLGAN BORMI?!**

Askar ko‘ksini izlar  
isinmoq uchun  
fevral qahratonidan  
sovqotgan bir o‘q.

Har askar tobuti  
bir oq kelin kabi ketar...  
askarni emas,  
sevgan qizning orzularin  
olib ketar  
har bir otilgan o‘q.

Pechning yonida  
yarim tunda bir qiz

maktub yozar urushga.  
Onasining uyqusirab  
“qizim, hali yotmadingmi”  
degan savolidan cho‘chib der:  
“Sovqotyapman, ona,  
pechkaga o‘tin qalayapman”.

Endi esa  
kechalari bedor o‘tirib  
pechning yonida  
maktub yozmoqqa,  
yolg‘ondakam sovqotib,  
pechgaga o‘tin qalamoqqa  
hojat yo‘q sira...  
Okopdan bo‘g‘ila-bo‘g‘ila  
ovozi yangrar  
bo‘linma komandirining:  
omon qolgan bormi?!

### **JON QARZI**

Kel, qoq eshigimni...  
uzoqdasan, bilaman,  
aziyat chekma,  
eshikning o‘zini eltaman,  
sen uni qoqqin  
yuraging qinidan chiqqudek.

Yashab kuluirolmadim  
seni rosa to‘yguncha,  
qo‘y, mayli o‘lay...  
to‘yguningcha yig‘latay seni.  
Tangrim, sening oldingda ham  
yolg‘onchi bo‘ldim,  
qaytara olmadim omonatingni.  
Senga bir jon qarzim bor mening,  
nasya daftaringga yozib qo‘y meni.

## O'LGAN DENGIZLARGA KIM YIG'LAR

Quyosh shu'lasiga, kema hushtagiga  
uyg'onib dengizdan chiqar baliqlar.

Bu sahar baxti to'rga ilingan baliqchining,  
qarmoqqa kelmaydi baliqlar.

"Xo'sh, qayerda  
yo'lga chiqqan baliqlar,  
yo'ldan qaytgan baliqlar.  
Pulli-pulsiz  
barchasi  
pulga ketgan baliqlar".  
So'kma bu dengizni, baliqchi do'stim,  
mayda qarmoqlarga kelmas  
har baliq.  
Bir bora o'pib qo'y qarmoqni,  
balki sevgiga aldanib  
bir baliq ilinar "to'ringga".

Baliqlar dengizni sevgani kabi  
dunyoda sevganing bir ayol bo'lsa,  
sen uning, u sening hayoting bo'lsa,  
otiblar ketarsan to'rni, qarmoqni.

Barcha "mening Tangrim" deya  
yolg'iz Olloohni  
o'zaro bo'la olmaganlaridek,  
yuz yillarki, bu dengizni  
bo'lar, bo'lar,  
bo'la bilmas odamlar.  
Shuncha to'rdan, qarmoqdan  
qanday omon qoldi dengiz,  
sira bilmas odamlar.

Dengiz xastalangan,  
neftchilar bel bog'labon  
qon olar bu dengizdan.

Ha, baliqchi do‘stim, shunaqa...  
na zotiljamdan, na-da tashnalikdan  
o‘lar bu dengiz...  
Qonsizlikdan o‘lmasa deb qo‘rqaman!  
O‘lgan dengizlar bor,  
O‘lik dengiz bor.  
O‘lgan dengizlarga, axir, kim yig‘lar?!.  
Bir kuni bu dengiz ustida  
yig‘ilib sochlarin yular bulutlar...

## N<sub>2</sub>O

Kuz...  
Xazon shivirlaydi  
daraxtning qulog‘iga:  
“Bahorgacha kut meni”.  
Sen ham kutgil meni  
boshqa bir ayoldan to‘yganga qadar...  
Barmoqlarim sochlaringda yellanar,  
halinchakda yellangan  
sho‘xchan bolalar kabi.  
Siynangdagi qo‘sh kabutar  
qo‘nadi lablarimga,  
og‘zimda don bor kabi.

Hali  
maktab yillari...  
kimyo darsida  
g‘uncha labingga boqib  
qurib qolsa tanglayim,  
sening qo‘llaringdan  
bir hovuch suv istagan  
yuragimni o‘qirding.  
Va...  
Lavhaga yirik harflar bilan yozarding:  
N<sub>2</sub>O...  
Bu kecha uyqum kelmadi...  
uyqum kelmas,  
koshki sen kelsang...

Biroq barmog‘ingda baxting sarg‘ayar,  
Hozir kuz emas-ku.

Miqyoslari kichik xaritadagi  
shaharlarimiz  
qo‘llaringdan ko‘ra yaqinroq menga.

To‘xta...  
kim bo‘ldi bu ko‘ksimda urgan,  
yuragim dukullab urmoqda.  
Xush kelibdi  
bu kelgan,  
sensizlikka o‘xshab ketar...  
Senga aytib edim-ku...  
Sensizlik  
“Sen” “Siz”ga aylanishidan boshlanar...



## FARG‘ONA MEHDIEVA



*Filolog. “Chekkanlarim yetar endi”, “Dunyo shirin deydilar”, “Kuz yonida kutasan meni” va “Ikkimiz sog‘insak” she’riy kitoblarining muallifi. Prezident mukofoti sohibi. Xalqaro Rasul Rizo mukofoti bilan taqdirlangan.*

## TANGRIDIR EGA CHIQQAN

Aslo bekor vaqt yo‘q,  
Lol-hayron qotar odam.  
Bozori kasod bo‘lsa,  
Odamni sotar odam.

Qo‘l tinmas, odim otar,  
O‘t tutib, sovuq qotar.  
Bas, nega bedor yotar,  
Bas, nega yotar odam?

Aytadi rost so‘zini,  
Yashirmaydi yuzini,  
Hammadan ko‘p o‘zini  
Shundoq aldatar odam.

Yuksakka to‘zib chiqar,  
Dunyoni kezib chiqar,  
Suvlardan suzib chiqar,  
Sayozda botar odam.

Tangridir chiqqan ega,  
Boriga shukur deya,  
Ichini yeya-yeya  
Qanday zavq totar odam?

## MENDAN ISHQIY SHE'RLAR SO'RAYDI QIZIM...

Boqib jilmayadi qizaloq chog‘i,  
Ajrata oladi qorani, oqni.  
Tushadi qo‘lidan kitob, varog‘i,  
Mandan ishqiy she’rlar so‘raydi qizim...

Bahordan zeb berib o‘zi o‘ziga,  
Qo‘llarini cho‘zib ko‘kning yuziga,  
Har kun necha bora boqib ko‘zguga,  
Mandan ishqiy she’rlar so‘raydi qizim.

Va’dalar qilaman, bu qiz istamas,  
Uzib beray deyman yulduz, istamas.  
Mol-u dunyoni-ku hargiz istamas,  
Mandan ishqiy she’rlar so‘raydi qizim.

Nafis yonog‘ida ochilar chechak,  
Ko‘zлari quyoshdan shu’la terajak,  
Ajabo, u kimga o‘qib berajak?  
Mandan ishqiy she’rlar so‘raydi qizim.

Bu yo‘l boshlab ketar qayoqqa, bilmas,  
Qayerdan chiqibdi bu toqqa, bilmas,  
Qo‘nibdi qush qo‘ngan butoqqa, bilmas,  
Mandan ishqiy she’rlar so‘raydi qizim.

Men, bas, bo‘ldi, desam, u, tag‘in deydi,  
Ayt o‘sha qadimlar ertagin, deydi,  
“Jon ona, otamga aytmagin”, deydi,  
Mandan ishqiy she’rlar so‘raydi qizim.  
Mandan ishqiy she’rlar so‘raydi qizim.

## TOSHTAROSH BILAN SUHBAT

Usta, savdong zo‘r bo‘lar,  
Bu qora ro‘zg‘or qursin.

Men yaxshiroq to‘lagayman,  
Bir yaxshi tosh menga tursin.

Qaydan keldim men bu yerga,  
Nahot o‘zga yo‘lim bo‘lmas?  
Hozir olib qo‘yay, balki  
Keyin mening pulim bo‘lmas...

Menga qarab turar u tosh,  
Sindirma uning ko‘nglini.  
Mana shuni olib qo‘ygin,  
Bosh ustimga yarashiq bo‘lsin.

Olmasam ham bo‘lar edi,  
Bu shunchaki havas edi.  
Qabrim uzra qo‘ymak uchun  
Boshimga yoqqan tosh bas edi!

Birin tanla, chiqib ketay,  
Boshqaga kerak bo‘lmasin.  
Qanday mahzun bir kasbing bor,  
Kasbing muborak bo‘lmasin!

Yo‘ngan bu qabr toshlaring  
Senga dard, ozor bermasin.  
Hoy xaridor ko‘zlaganim,  
Olloh bozoring bermasin!

## **QOG‘OZNI JONSIZ DEMAGIN**

Ko‘nglingga tegdi balki,  
Bu yangi dardim senga.  
Hozirgina oldirgan  
Suratim jo‘natdim senga.

Bemahal kelgan mehmon –  
Ko‘rganlar ne deydi endi.

Suratim och, bilaman,  
Umrin ni ul yeidi endi.

Ko‘zlarimga yaxshi boq,  
Qara, qanday sarg‘aygan.  
Balki uyqusi kelgan,  
Olisdan horib kelgan.

Bu qog‘oz jonsiz dema,  
Harorati, o‘ti bor.  
Shuncha ko‘p dard chekkanki,  
Binafshaning oti bor.

Orqaga qayta olmas,  
Har tomondan yo‘li bog‘liq.  
Balki shuning uchun ham  
Qaddi bukilib qolgan.

Ko‘ngling tog‘adir balki,  
Bu toza dardim senga.  
Hozirgina oldirgan  
Rasmim jo‘natdim senga.

## **YUTQIZISHDAN QO‘RQIB O‘YNAMADIK**

Duch kelganga aytmadim,  
Dardim ichimda qoldi.  
Men sen tomon boryapman,  
Bir muyulish, bir ko‘cha qoldi.

So‘zga botdim tizzagacha,  
Ne qilsang ham chidayman.  
Yotmay chiqdim tonggacha,  
Hovuchimda kecha qoldi.

Eh... na yaqin, na uzoq,  
Qayerga boray bu choq?  
Yutqazishdan qo‘rqdik andoq,  
O‘yinlar chala qoldi...

## FARID HUSAYN



*Farid Husayn 1989-yilda tug‘ilgan. “Kaspiy” gazetasi ilovasining muharriri. “Alifbo tartibi”, “Chidash uchun mashq” (she’rlar va esselar), ”Kishan ko‘rmasin” (xotiralar) kitoblari chop etilgan.*

## JIM QOLOLMAYMAN

*Lev Tolstoyga bag‘ishlanadi*

Vijdonli insonlar to‘rt tarafga o‘t sochar endi,  
hamishaki kabi yongan bu jondir.  
Bu xudkushlik emas, Lev Nikolayevich,  
shunchaki “xaloskorlar”ni rad etmoqdir.

O‘limni kutmoqdamiz o‘z hujramizda,  
tortarlar oyog‘imiz uzangisini.  
Tindira olmaydi yangi tug‘ilgan chaqaloq chinqirig‘i  
hujramizga yaqinlashgan jallodning oyoq tovushin.

Tayanch erur kursilar  
podshohga, dumaga, kalisoga.  
Bizga yurmoqni o‘rgaturlarkim,  
to har kim o‘z oyog‘i bilan borsin o‘limga.

Jallodlar uchun xamirdan qil sug‘urmoqdir ov degani,  
qurollar ham balki bunga shohiddir.  
Menga qolsa, aytardim:  
faqat haqiqat yo‘lida o‘lganlar shahiddir.

“Jallod portretini chizmoqchi bo‘lgan  
rassom qochganidek” – qocharmiz haqiqatdan.  
Men endi holimizga mos qaysi tashbehni yozay –  
to yolg‘on qichqirmasin menga ko‘zgudan?

Lev Nikolayevich, aslida Iso o‘zi chormixga chiqqankim,  
biz – vijdon liliputlarini tomosha qilgali.  
Biz esa hayotga cho‘mila-cho‘mila qo‘shiqlar aytgan  
ayol baxti bilan kelib,  
O‘lgan o‘g‘li tushlariga kirmagan  
ona intizorligi bilan  
bu umrga qilamiz ta’na.

### **TANTANALI MA’YUSLIK**

Mustabidlarni olqishlaganlarning qo‘llaridan uchgan  
tantanali ma’yuslik tovushidek kechdi umrim.  
Holbuki, o‘qilmagan kitoblardagi bir-ikki  
arzirli she’r kabi ham yashay olardim.

O‘g‘li jasadini qamoqxona oldida kutgan onaning  
changga belangan etagini unutish singari unutishi  
lozim edi hayotni va uning yo‘l ketgan ko‘zlaridagi  
noma’lumlik o‘rnini topmog‘im shart edi so‘zlarda,  
biroq men xotini ko‘rishga kelmagan mahbusning  
bulutli havoda hasrat-la quyosh chiqishin kutayotganini bildim.  
Unga qadar esa kitoblardan o‘qigandim ushbu jumlanı:  
“Inson hech qachon butkul badbaxt bo‘lmas”.

Ko‘rdim, Olloh ko‘rsatganlarining barini ko‘rdim,  
Shuhratning ham ipi boshqaning qo‘lida bo‘lgan  
ilon varrak ekanin,  
sevilmagan aktyorlik jasorati,  
nafrat qozonishin payg‘ambarlikning,  
ishqiy qo‘shiqlarning motor tovushiga aylanganin ham,  
saodatmand xotiralarning ichimda  
oskolka kabi aylanib yurganin ham ko‘rdim,  
so‘ng esa havoning amridan chiqmaydigan daraxtlardek  
taqdirning bir gapin ikki qilmadim.

## **1937- YIL, FARID HUSAYNNING TERGOVCHIGA AYTGANLARI**

Tergovga ma'lum qilamankim:  
yashasam, ko'kda quyoshni unutmayman.  
Haqiqatni aytishga ont ichaman:  
shiftlar bulutlardan ko'p narsalarni o'rgangan.  
Dalil keltiraman:  
Yashamoq – fotodagi bolalik suratimizning bo'yidir faqat.  
Javobimda qat'iy qolaman:  
haqiqat mening enagam bo'lgan.  
Yaxshi bir reputatsiyasi yo'qdir  
o'limning hayot oldida.  
Fosh etaman o'zimni o'zim:  
xotiralarim kundaliklarimga xabar  
qildilar ko'rganlarimni.  
Tunlari yashirin uchrashar edik  
Xayollar-u fikrlar bilan.  
Manzilini ayta olaman:  
haqiqat so'zlarda yashiringan.  
Bilaman, sir yashirmoq jinoyatdir –  
bir gal haqiqatni sevib qolgandim.  
... Tasdiqlayman o'z imzom  
bilan peshonamga yozilganini.

### **ENG GO'ZAL NAFASIM**

Men Havvo tishlagan olmaman,  
saodatim Odamga uzatilmoqdir...  
ehtimol, baxtiyorlik jannatda qo'sha qarimoq emas,  
jahannamga qo'sha quvilmoqdir.

Nuhning kemasidir mening yuragim,  
Bir senga azob bergan, bir o'z azobimdan olib ketadi –  
Azoblarim qayrilib boqar  
senli kunlarning suvlarga g'arq bo'lishiga...

Men chormixga qoqilgan gulmix ovoziman  
yuguraman so‘nggi nafasim tomon...  
qattiq gunohlarimdan ulgu olib  
ichimdagi shaytonni toshbo‘ron qilaman...  
eng go‘zal nafasimni  
o‘g‘limning pufagini damlamoqqa asrayman...

## MUHORABA

Xotinim o‘lganda  
barcha o‘q tovushiga yashringan edi –  
o‘zim yuvdim,  
kafan kiydirdim,  
tuproqqa topshirdim.

Uyga qaytsamki, u yo‘q,  
chopib borib daryodan so‘radim:  
– Yig‘lasam, toshasanmi?  
Indamadi u...

Yuz tutdim yobonga,  
so‘rdim paxtadan:  
– Unga kafan yarashdimi?  
Lol edi u...

Keldim tuproq yoniga, boqdim –  
xotinim shunda ekan...  
o‘q tovushi esa yo‘q edi...

Uyga yetganda qarasam, o‘g‘lim  
o‘q tovushiga yelka berib yig‘lab turgan ekan...  
ko‘z yoshini artib qo‘ydim tuproqning...

## GIYA PACHXATASHVILI



*Giya Pachxatashvilining millati gurji bo 'lsa-da, ozarbayjon tilida she'rlar yozadi. Ko'zi ojiz bo'lgan bu inson saraton xastaligiga yo'liqib yotib qolgan umr yo'ldoshi Lamaraga boqib g'ussali she'rlar bitdi, uni yo'qotgandan keyin bu qayg'u yanada kuchaydi. Biroq bu she'rlarda sevgi, vafo, inson matonati, hayotga muhabbat, fonyi dunyoga faylasufona nazar yaqqol sezilib turadi.*

## LAMARANING GULLARI

Qishni sabot bilan kechirardilar,  
Umiddan yashil to'n bichirardilar,  
Bahorni yurakka ko'chirardilar –  
Lamaraning gullari...

Tongning shabnamida cho'millardilar,  
Quyoshdan miriqib nur emardilar,  
Oyning shu'lasiga ko'millardilar –  
Lamaraning gullari...

Pinhona ariga noz otardilar,  
Kapalaklarga so'z otardilar,  
Xush iforlar taratardilar –  
Lamaraning gullari...

Sevgili yurakdan suv olardilar,  
Bokira qiz misol ollanardilar,  
To'ylar, bayramlarga yo'llanardilar –  
Lamaraning gullari...

Qaychini ko'rganda injimasdilar,  
Huda-behudaga ranjimasdilar,

Lamara ishqida tinchimasdilar –  
Lamaraning gullari.

U ketdi... egasiz qoldi bu gullar,  
Yetimdek sarg‘ayib-so‘ldi bu gullar,  
Mozori tomon yo‘l oldi bu gullar –  
Lamaraning gullari...

Angladilar bu dunyo, ushbu olamni,  
Men bilan teng bo‘lishdilar alamni,  
Sog‘indilar ul mehribon sanamni –  
Lamaraning gullari...

Yig‘ladilar so‘lgan gulning jismiga,  
Marsiyalar kuyladilar ismiga,  
Aylandilar Lamraning rasmiga –  
Lamaraning gullari.

## SEVGILIM

“Qasirg‘a bo‘l, es”, – deding,  
“G‘am uyini buz”, – deding,  
“Tonglar turib kez”, – deding,  
Eplolmadim, sevgilim.

“Daryolarda suz”, – deding,  
“Ellik emas, yuz”, – deding,  
“Mendan ko‘ngil uz”, – deding,  
Eplolmadim, sevgilim.

“Dunyo bir shohmot”, – deding,  
O‘limni “hayot” deding,  
“Kutmagin najot”, – deding,  
Eplolmadim, sevgilim.

“Oq sochlim, qo‘yko‘z”, – deding,  
“Doim shirin so‘z”, – deding,

“Mensizlikka to‘z”, – deding,  
Epolmadim, sevgilim.

“Hoy qalbi dengiz”, – deding,  
“Bardoshi tengsiz”, – deding,  
“Qoldirgin bir iz”, – deding,  
Epolmadim, sevgilim.

“Yo‘l olgin Qohga”, – deding,  
“Qulama chohga”, – deding,  
“Qolma oh-vohga”, – deding,  
Epolmadim, sevgilim.

“Yaqinlashar yil”, – deding,  
“Umrim bitar, bil”, – deding,  
“Buzmagil ko‘ngil”, – deding,  
Epolmadim, sevgilim.

“Ko‘rgani kelma”, – deding,  
“Men bilan o‘lma”, – deding,  
“G‘am nedir – bilma”, – deding,  
Epolmadim, sevgilim!  
Epolmadim, sevgilim!..

## O‘LIMGA

Dildorimni yomon xabar kutgaydir,  
Umri dori-darmon bilan o‘tgaydir,  
To tonggacha bedor bo‘lib yotgaydir,  
Chidolmaydi og‘riq degan zulmga.

Umr bergin bevaqt so‘lgan gulimga,  
Sevinmagin mening qolgan kulimga,  
Asli odam quli bo‘lgay hayotning,  
Men sho‘rlik qul bo‘ldim ajal, o‘limga.

Lamaradan nigohingni ol, o‘lim,  
Evaziga meni ola qol, o‘lim,  
Bu ko‘nlimga o‘zing umid sol, o‘lim,  
Nur to‘shalsin bu qorong‘i yo‘limga...

\*\*\*

Motamiga el yig‘lar,  
Dudoq yig‘lar, til yig‘lar.  
Qabrni qazib turib,  
Cho‘kich yig‘lar, bel yig‘lar...

\*\*\*

Sen boqursan sham osha,  
Men boqurman g‘am osha.  
Qandayin tugar ekan  
“Qismat” degan tomosha...

\*\*\*

Ko‘z olaytma bu yora,  
Ko‘nglimga solma yara.  
Ajal, undan qo‘ling tort,  
Bo‘lma bekor ovora...

\*\*\*

Ayrilur gul chamandan,  
Qutulmadim bu g‘amdan.  
Na er kabi er bo‘ldim,  
Na hamdam kabi hamdam...



## HAYOT SHOMIY



*Hayot Shomiy “Tokchadagi gul” degan ilk she’rini to‘qqiz yoshida yozgan. Uning uchta she’riy, ikkita tarjima kitobi chop etilgan. Ko‘pgina jahon shoirlarining asarlarini ozarbayjon tiliga tarjima qilgan.*

## SUNAMI

Gohida  
chiqaman shahardan...

Xazarning oldiga boraman,  
Kestiraman oyog‘i ostini.  
U ham daryodir, ham bitta tomchi...  
qalqib yuzimga suv urar ba’zan.

Seni so‘rayman,  
Endi tegmas menga,  
aqli kirgan, der...

So‘nggi bor sunami bo‘ldi,  
yuvib ketdi hamma narsani:  
seni va meni...  
sening sevmagan telefoningni,  
mening sevimli aravamni,  
qulog‘imdan dudoqlaringni,  
toshimni, xotiramni,  
fikrlirimni,  
o‘y-xayollarimni...  
Shu qadar yengil tortdimki,  
bor-yo‘q narsam Sen eding...

Ozod bo‘ldim bu dunyodan,  
Sendan va mendan...  
yo‘q bo‘ldik...

Turib uyga qaytdim,  
qarasam, uydasan...

Voy-dod!!!  
sunami bo‘lsin  
bu Sevgiga!

## **SENGA YANGI SHE’RLARIM BOR**

Senga yangi she’rlarim bor,  
Kecha bir bola – qo‘lda o‘chirg‘ich –  
Kel, ko‘z yoshing artayin, dedi.

Tungi soat 10 larda  
bir avtomobil falokatga uchradi  
aeroport yo‘lida...  
ichida yo‘lovchi ham bor edi,  
najot edi oti...  
eshitdim,  
yuragim yorildi.

Bugun havom yaxshi bo‘ladi,  
efirda ko‘rdim seni.

Bor umidlar uzildi...  
Ertaga men bo‘lmayman...  
Bugun ham o‘tdi...  
Uchrashmaganimizdan beri!

## **YODINGDAMI**

Ko‘cha-ko‘y chirog‘i o‘chgani zamon  
Onamdan olganing sham yodingdami?  
Sen uyatchan rassom, men bir bilag‘on,  
Jimgina chekkaning g‘am yodingdami?

Tutimiz devordan ketgandi oshib,  
Sen bog‘ni kezarding to‘lib va toshib,  
Tut yerdik ikkimiz tortib-talashib,  
Urib sindirganim jom yodingdami?

Bahor kelsa yashnab ketar edi kent,  
Bolday tuyulardi oddiy non va qand...  
Qo‘qqis ko‘zing bilan otib bir kamand,  
Xotirga olganing dam yodingdami?

O‘rtada quridi daryo, Quruqsoy,  
Limmo-lim suv oqmas, xijil turur soy,  
Birga bo‘lolmadik... qurg‘ur g‘ururday  
Ruh siniq... ko‘zdagi nam yodingdami?!

Qani o‘sha qishloq, qani yoshliging?  
Tinib-tinchimagan ul bevoshliging...  
Vatan, Ona, Tuproq degan uch so‘zning  
Otidan yozganing shon yodingdami?

Ketding... ruhing qoldi. Yo‘q! Oting qoldi,  
Vatan, Ona, Tuproq, bir xotin qoldi...  
Xo‘jali degan bir faryoding qoldi,  
yerda qolmadi qon!.. qon yodingdami?

Men seni sevaman, ey qahramonim!  
Senga qurban bo‘lsin bu aziz jonim...  
Suyganim, kuyganim – Ozarbayjonim  
Yo‘lida bergenning jon yodingdami?

## **SHUSHADA OTILGAN VERTOLYOT**

Yuraging yondimi, kuydimi iching,  
Oloving chiqdimi, chiqdimi ruhing,  
Kuling qoldimi yo otigana yoding,  
Shushada otigana vertolyot.

“Bola” edim unda,  
Bo‘ylari baland,  
Sen qulab tushasan o‘sha balanddan,  
Ko‘rib,  
mushakbozlik deb o‘ylagandim,  
Shushada otilgan vertolyot.

Bilardingmi xolis “Xabarchi”  
E’lon etishini ushbu xabarni,  
Xabaring bo‘ldimi o‘zingdan,  
Shushada otilgan vertolyot?

Ruhing chiqdi olov shaklida,  
Uchib ketdi sen uchgan ko‘klarga.  
Viqorli ko‘klar,  
Yomg‘irli, qorli ko‘klar,  
Otilgan vertolyotlarning  
Dardida zorli ko‘klar.  
Shusha tog‘larida,  
Shusha tumanida,  
qizil chakmonida,  
yashil belbog‘ida,  
yashil tumog‘ida,  
Ozod bo‘lish ishtiyoqida  
Shushada otilgan edi  
Shushada otilgan vertolyot.

Majnun bo‘lib qarich-qarich  
ochding Shusha sevgisini,  
yonib-kuyib qochding ko‘kdan,  
qocha-qocha tushding ko‘kdan  
Olma kabi...

Shushada otilgan vertolyot,  
Men ham shul kun otildim  
yuragimdan...

## YOZILMAGAN SHE'R

Avval umr bo‘yi chiza olmagani  
bir surat oldida tosh qotib qoldi  
sochlarining uchiga qadar...  
Tosh qotdi uning rassom qo‘lidan to‘kilgan bo‘yoqlar,  
so‘ngra mayin-mayin yoqqan yomg‘ir shalabbo qildi.  
U suratdan uzoqlashdi qadamba-qadam.

Bu hayratdan uyg‘onmagan  
sevgili yigitini  
tinib-tinchimas bir  
qiz bilan ko‘rdi  
ko‘chadan o‘tgan zamon.  
U juft ko‘zdan g‘oyib bo‘lguncha,  
yomg‘ir tinguncha  
tosh qotib turaverdi  
turgan joyida.

O‘tdi ko‘chadan,  
O‘tdi yomg‘irdan,  
O‘tdi sevgidan.

Sezmadi buni “Torgoviy”ning inson dastidan  
diqqinafas bo‘lgan tor ko‘chasi ham.

O‘zi hech qachon kiyina olmaydigan  
bir kiyim oldida  
to‘xtab qolib, ichkari kirdi.  
Qalbi yo‘q maniken kibrlanardi  
Ustdagi libosdan zavqlanib.  
“More expensive” deya tashqari chiqdi.  
Ko‘chalar toshga do‘ngan edi,  
Binolar toshga do‘ngan edi,  
Oyog‘i ostidagi tosh toshga do‘ngan edi.  
Oyoqlarini tuproqqa omonat bosgan bu qahramon

tuymadi toshlarning toshga aylanishini...  
qo‘l cho‘zdi ikki oyoqlilarga – yuraklar toshga do‘ngan edi!!.

Shundan so‘ng  
qochmoqchi bo‘ldi o‘z ko‘rganlaridan,  
Qochdi, qochdi, qochdi, qochdi u ko‘chadan.  
Shundoq qochdiki, soyasi ham yeta olmadi unga.  
Qanchalik qochsa ham, na o‘sha surat,  
na o‘sha yigit, na o‘sha kiyim, na o‘sha nogirondan  
uzoq keta olmadi.  
Hech kim yoza olmaydigan  
bir she’r yozdi o‘sha kun.



## **HIJRON HUSAINOVA**



*Hijron Husainova 1970-yilda tug‘ilgan. Boku Davlat universitetining jurnalistik fakultetini tugatgan. Yozuvchilar uyushmasi a’zosi. “Yulduz” jurnalida bo‘lim muharriri bo‘lib xizmat qiladi.*

## **KULRANG QAYIQ**

Seni ko‘ryapman, kulrang qayiq –  
uyda, ko‘chada, kitoblarim orasida.  
Jonli-jonsiz odamlarning jonli-jonsiz so‘zlari,  
turfa odamlarning turfa qayqlari ichida.  
Yodimga tushasan, kulrang qayiq.  
Yodimga tushadi kechagi,  
ertangi kunlarim.  
Hozir ham tushasan yodimga,  
yodimga tushar,  
seni har kun ko‘rsam-da, unutmoq istayman.  
Seni ko‘raman, kulrang qayiq, sassiz,  
so‘zsiz orzularimning qayg‘usiz dengizida...  
Orzuyim neligini-da bilmayman,  
bilmaymanki, istagim nima,  
ko‘zlarimni o‘yib olaman seni ko‘rmaslik uchun!

## **ODAMLAR O‘LAR BUNDA**

Odamlar o‘lar bunda –  
shundoq ko‘zim oldida,  
shundoq quchoqlarimda.  
Aksari juda ham yosh,  
aksari ko‘p cho‘zilgan  
og‘ir xastalikdan so‘ng.  
Ko‘zlarini yopib bo‘lmas,  
qovushmaydi sira kichik qo‘llari,  
qip-qizil tillari,

yuragi esa tingan allaqachonlar.  
Aldanib jannatning nomiga,  
o‘zini o‘ldirgan odamlar,  
endi qiyin tirilmog‘ingiz,  
tuproq yumar ko‘zingizni,  
quloqlaringizni ham bir “rahmatlik” so‘zi,  
va bundan so‘ng tirilmoq yo‘q.  
Bilaman, sen nedan o‘lding,  
seni ham bilaman,  
do‘stim, seni ham,  
seni ham, seni ham.  
Sensan o‘lik tug‘ilgan o‘lik otadan,  
Onadan, bir kun ham yashamading –  
tug‘ilgandan tilingda edi qabr, kafan.  
...Odamlar o‘lar bunda,  
Shundoq ko‘zim oldida,  
shundoq quchoqlarimda.  
Biri o‘lik tug‘ilar,  
biri o‘zin o‘ldirar,  
birini o‘ldirar o‘liklar!  
Odamlar o‘lar bunda,  
qo‘llarim jasadga to‘lgan...

## NEKBIN SHE’R

Bir kun bu kun ham o‘ladi  
Boshqa o‘lgan kunlari kabi.  
Yuragingni siqma bundoq –  
barcha tug‘ilganlar o‘ladi.  
Bir kun o‘ladi bu kun ham,  
o‘lib kechaga aylanar  
yoki buyuk, shonli tarixga,  
yoxud kichik bir xaritaga,  
nima farqi bor buning?  
O‘ldi, qutuldi bu kun!  
O‘lguncha yashaylik faqat,  
kel, shoshmaylik ertaga.

O‘ltirib to‘yguncha boqaylik  
bu shan, g‘ussali tongga.  
Eng go‘zal so‘zlarni tanlaylik,  
boqaylik eng go‘zal ko‘zlarga.  
Gohida jim, sassiz turaylik –  
Farishtalar o‘tsin o‘rtadan.  
Cho‘zilsin bu kunning umri...  
nima bo‘pti bitta kun o‘lsa,  
biz dunyoga kelganmiz-ku  
“bugun”ni keltirmoq uchun!

## DUR DONASIGA

Uzun-uzun sochlaringni qo‘li bilan taroqladi –  
tarog‘i yo‘q edi...  
Turmaklamoq bo‘ldi zerikkanidan,  
sanjog‘i<sup>10</sup> yo‘q edi... Qaradi o‘ng-u so‘liga –  
u yo‘q edi, bu yo‘q edi...  
Yuragida shu’la bor edi –  
yuziga tushdi...  
Bir shirin jilmayib qo‘ydi –  
ko‘zi, ko‘ngli, sasi to‘q edi.

## MEN HALI YOTGANIM YO‘Q

Suv oqar, ko‘zim boqar...  
Oqib hech tolmas suvlar.  
Qarab to‘ymas ko‘zlarim,  
Tiniqa qolmas suvlar.  
Boqib ranjir ko‘zlarim...  
Suvlar to‘xtab qolgan kun,  
Tip-tiniq tus olgan kun  
Ko‘zlarim seni kutar...  
Bormisan, ayt?  
...Yillar o‘tar,

---

<sup>10</sup> S a n j o q – bu o‘rinda: soch to‘g‘nog‘ichi (*mapxic.*)

Kipriklarim yoshlanar.  
Ko‘zlarimning rangi tushar suvlarga,  
Suvlar pushtilashar,  
Tag‘in tiniqmoqni bilmas.  
...Yillar o‘tar,  
Suvlar oqar,  
Qovushar asabiy kipriklarim,  
Qovushar ovozsiz tomchilar.  
Ishonmangiz, oqar suvlar,  
Kipriklarim yolg‘on aytar,  
Men hali yotganim yo‘q...



## **IRODA OYTEL**



*Iroda Oytel (Alieva Iroda Ramazon qizi) bir necha she'riy kitoblar muallifi. Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi, Ozarbayjon Jurnalistlar uyushmasi, Xalqaro Faol san'atkorlar uyushmasining a'zosi, www.kultur.az veb jurnalining bosh muharriri.*

## **ONA, AYTING**

Ona, ayting, qismatdagi  
Dardni ham sevar bo'ldim.  
Ko'zimdan dardni uqqan  
Mardni ham sevar bo'ldim.

Ona, ayting, ajal ham  
Mendan yuz o'giribdi.  
Ko'ksimning taxti bo'lgan  
Otashlar ham so'nibdi!

Ona, ayting, bahorga  
yetmayman!  
Hatto qishga.  
Ona, ayting, arzirmanmi  
Meni kechir deyishga,  
Ona, kechir deyishga!

## **ATIRGUL**

Yuragimda tugilgan bu dardimni  
Aytmagayman... aytmagayman, Atirgul!..  
Hasratimning gina to'lgan yo'liga  
Qaytmagayman... qaytmagayman, Atirgul!

Bo‘ylanaman bo‘y bo‘libon bo‘yingga,  
Hayronman bu taqdir degan o‘yinga,  
Men bir kunlik yor bo‘libon qo‘yningga  
Yotmagayman...  
yotmagayman, Atirgul!

Yonginangda tog‘lar qorga qorildi,  
Visol kutib ko‘zim yo‘lga zor bo‘ldi,  
Desang, dilga bir vafodor yor bo‘ldi,  
Buni bovar etmagayman, Atirgul!

## **SENI KUTMOQDA**

Binafshang ko‘zlarini  
Ochmay seni kutmoqda.  
Bahor bo‘lsa-da, atrin  
Sochmay seni kutmoqda.

“Uyg‘on”, der tong yeli ham,  
Yuragida harir g‘am,  
Bargingdan tomchi shabnam  
Ichmay seni kutmoqda.

Yot qo‘llardan zahmi bor,  
Qovjirashdan vahmi bor,  
“Kelgay, deb, so‘z bergen yor”,  
Ko‘chmay seni kutmoqda.

## **BILASANMI**

Seni sevdim qor ustidan  
don izlagan qush kabi.  
*Romiz Ravshan*

Bilasanmi, Uni sevardim qandoq,  
Ona farzandini sevgani kabi.  
Chumchuq qor ustida donni sevgani,  
Ari asalini sevgani kabi.

Bilasanmi, u – nihonim, u sirim,  
U sirni yashirgan qal'a bo'ldim men.  
Yolg'iz qovjiradim, g'amda qoldim jim,  
Lolasi to'kilgan dala bo'ldim men.

Bilasanmi, unga intiqman qandoq,  
Yot elda yurti deb entikkan kabi.  
Yorin urush olib ketgani kundan  
Kelinlar yo'llarga ko'z tikkan kabi.

Bilasanmi, usiz yonurman qandoq,  
U kecha Xo'jalim yongani kabi.  
Sahro kechasida bamisli chiroq,  
Olisda ajalim yongani kabi.

Bilasanmi, bog'bon o'rtanur qandoq,  
Bog'da suvga tashna qolganida, bas.  
Bilasanmi, inson o'rtanur qandoq  
Sochiga tekkanda begona nafas.

Bilasanmi, u deb so'nganman qandoq,  
Bolam deb onaning so'ngani kabi.  
Bilasanmi, unga singganman qandoq,  
Qo'shig'im tuproqqa singgani kabi.

Bilasanmi, Uni sevardim qandoq,  
Ona farzandini sevgani kabi.  
Chumchuq qor ustida donni sevgani,  
Ari asalini sevgani kabi.  
Bilasanmi, Uni sevaman qandoq...

## **ONALAR VA URUSH**

Xo'jalida yuzlab bola okopga keltirildi,  
Yuzlarcha onaning ko'ksi dog'landi!  
Suriyada minglab bola qatl etildi,  
Minglab onalarning faryodi arshga yetdi!

Sonamida yuzlab go‘dak ochlikdan o‘ldi,  
Yuzlab onalarning noni bo‘g‘zida qoldi.  
Iroqda,  
Falastinda.  
G‘azzoda...  
Son-sanoqsiz go‘dak o‘tga otildi.  
Son-sanoqsiz ona bag‘ri o‘t oldi!  
Yuzlab askar “qotil” bo‘ldi,  
Yuzlab ona “qotil” bo‘ldi!  
Minglab harbiy shahid bo‘ldi,  
Minglab ona “shahid” bo‘ldi.  
Son-sanoqsiz boshlar kesildi,  
Son-sanoqsiz onalarning nafasi kesildi!  
Minglab go‘dak boshpanasiz qoldi,  
Minglab ona uy-joyida muzlab qoldi.  
Son-sanoqsiz bola xastalikdan o‘ldi,  
Son-sanoqsiz ona davosiz dardga yo‘liqdi.  
Minglab inson qo‘l qo‘ydi urushga,  
Surishga,  
So‘qishga.  
Minglab onaning ichida urush boshlandi,  
Surish boshlandi,  
So‘qish boshlandi.  
Minglab kishi odamdan odamni qo‘rimoqqa,  
Vatandan Vatanni qo‘rimoqqa,  
Yigit ketdi,  
Askar ketdi,  
Shahid ketdi.  
Minglab onaning orzulari yigit yetdi,  
Askar bo‘ldi,  
Shahid bo‘ldi.  
Minglab miltiq o‘qtaldi  
Minglab yigitga,  
Askarga,  
Shahidga.  
Minglab o‘qlar tegdi onaga!  
Onaga!

Onaga!  
Olloh, o'zing asra! –  
Degan onalarning siynasida  
Olloh shundoq o'qqa tutildiki,  
U onalar dinni unutdi,  
Tilni unutdi,  
Irq-u millatni unutdi,  
U onalar dinni la'natladi,  
Tilni la'natladi.  
Irq-u millatni la'natladi,  
Bolam!  
Bolam!  
Bolam! – dedi.



## NORINGUL



*Noringul (Boboyeva Noringul) ikki she'riy va  
ikki nasriy kitob muallifi. Ozarbayjon Yozuvchilar  
uyushmasida xizmat qiladi.*

## ODAMLAR

Endi qaytmagayman hargiz,  
Otdingiz o'tga, odamlar.  
Kelib meni uyg'otmangiz,  
Qolay g'aflatda, odamlar.

Zirvalarning boshi edim,  
Tog'ning qattiq toshi edim,  
Yengilmagan qo'shin edim,  
Berdingiz bodga, odamlar.

Ustimga yaproq to'kilsin,  
Men qolay, tuproq to'kilsin,  
Kimdir unga xabar bersin,  
U aytsin vido, odamlar.

Mendan uzoqqa tushdingiz,  
Ketdingiz yotga, odamlar.  
Baliqlarga salom aytинг,  
Dengizda ado odamlar.

## YO'L XOTIRIGA

Ko'nglim bir hosilsiz tuproqqa o'xshar,  
Daraxti qurigan, gullari so'lgan.  
Kechmoqda boshimdan bu kuz qo'llaring,  
Qalbimdan ketganlar qaytmagan, o'lgan.  
Mendan necha odam u tomondasan,  
Necha odam yitdi, ayt, oramizda?

Yulduzlar o‘t olib yondi osmonda,  
Bir hovuch kul keltir, sep yaramizga.

Sen daydib yurgan bir oyning shu’lasi,  
Sendan yuz o‘girmoq kelmas qo‘limdan.  
Bu sevgi toshini uzoqqa otma,  
Keltir, bu toshni ham os yuragimdan.

Tun bilan kunduzning nima farqi bor,  
Zulmat cho‘kib ketdi tunning siriga.  
Yana yo‘lni to‘sdi devor sevgilar,  
Yana hijron tushar yo‘l xotiriga.

## **TABASSUM**

Hayotga tabassum bilan boq, derlar...  
Bahor sochlarimga to‘qingay.  
Sarhadsiz dengizlardan  
Bir qultum ichaman,  
Quyoshni qo‘limda o‘ynatib  
Ketaman.  
Men – beparvo odamman,  
O‘zimni inkor eta olaman.  
Oh, qancha yozmaganim she’rlar bor.  
Yozmaganim she’rlarni  
Yashamaganim hayot qaygadir opketar.  
Ketaman.  
Oyog‘im ostida toptalgan o‘tlar  
Ma’sum qo‘zilarning  
Tutashuv nuqtasi.  
Hayotga tabassum bilan boq, derlar...  
Asfalt ko‘chalardan, metin jonimdan  
o‘zimni to‘plab  
tabassum qilaman hayot yuziga.  
Hayotning yuziga kulaman.  
Hayot esa  
Ko‘rsatadi kemshik tishlarin.

## **SENGA**

Senga  
Hislarimni olib keldim.  
Bas, kutganing abasdir.  
Bir ayolni yutqizmoq –  
Bir ayollik havasdir.

Senga  
hislarmni keltirdim –  
Qadim inson sasidir.  
Yuragimni qon qilgan  
Bir vahshiy sevgisidir.

Senga  
hislarimni keltirdim –  
uni anglab, bo‘lib bo‘lmas.  
Barcha mubham narsalar  
buyuk tuyulgaydir, bas.

Senga  
hislarimni keltirdim –  
to siypalab, o‘rasan.  
Menda hech vaj qolmadi,  
Ko‘zingni yum, ko‘rasan.

Senga  
hislarimni keltirdim.  
Sen biroz ehtiyot bo‘l!  
Men qolurman nogahon  
xotiraga aylanib.  
Bu so‘nggi imkoningdir,  
Yo‘qsa, zumda menga ham  
aql kirib qoladi...

## **QOLMADI**

Jon berdim men jon deganga,  
Undan uzoqroq yo‘q menga,  
Ketdi olis bir surgunga,  
Tark etdi, ko‘chi qolmadi.

Ko‘nglimni olmoqchi edi,  
Nozli-yu aldoqchi edi,  
Besh kun yashamoqchi edi,  
Besh kundan uchi qolmadi.

Xursand kezardi bu odam,  
Yomon go‘zaldir bu odam,  
Dardga to‘zardi bu odam,  
Egdilar, kuchi qolmadi.

Qaylargadir nihon bo‘ldi,  
Bosh xam, yuraklar qon bo‘ldi,  
Qaytmog‘i ko‘p gumon bo‘ldi –  
Sarag-u puchi qolmadi.



## NURONA NUR



*Nurona Nur Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasining a'zosi, Prezident stipendiyasi sohibi.*

## FOTO

Nima kerak edi ko‘zlaridan kelajakni o‘qimoqning,  
O‘tmishini xotirlamasa edi,  
Bundoq yaqin turmasa edi,  
Nimanidir uydirmasa edi...  
O‘zidan yashirinmasa edi bu nigohlar.  
Xayollar bo‘shatmas o‘z og‘ushidan  
Bu tirmizak bolani.  
Qo‘yib bersa, toqqa tirmashar.  
Xastalanib yotib qolsa bu tirmizaklar,  
Onalari yolvorishar Ollohgaga,  
Tezroq tuzalsin,  
Mayli, uyni ko‘tarsinlar boshlariga.  
Yaxshi ko‘rgan, asrab kelgan narsalarini beradilar bolalariga.  
Men ham shunday dil bergandim o‘sha yigitga,  
Faqat o‘zim bilaman,  
Eng yaxshi surati –  
Umr bo‘yi chekkanlari bu yigitning.

## ASLIDA

Birov birovni tark etmas aslida,  
Yolg‘izlik – fursatning ishidir.  
Shoirlarning bo‘lisha olmagan bad duosini,  
Har kuni yonidan kechib o‘tganing  
qush uyasini  
bugun ko‘rmoq payti.  
Bo‘y otdi yana so‘zlar –  
ushalmagan sevgilarga yozilgan she’rlar qadar...

Bo‘y otdi yana sevgilar  
nigohing yulduzlarni so‘ndiradigan qadar...  
Uryon bir faslda zamonning oyoqlariga tiz cho‘kmoq,  
Yalinib-yolvormoq,  
Mumkin bo‘lsa, oppoq libos kiyangan qadar...  
Yolg‘izligini bosib bag‘riga,  
Bu shaharning eng qorong‘i ko‘chasida  
Yashrina olmaslik saharga qadar...  
Engil-boshdan tozalamak sevgilarni,  
Ustida bitta umid ham ko‘karmagan  
Kelajakka ko‘ngil bermoq o‘lgunga qadar...

## **BU KECHAGA**

Bu kechaning zulumoti,  
Shu zulmat qolur menga.  
O‘ydim tun ko‘zini,  
Yirtdim yulduzlagan qornini,  
O‘t qo‘yib so‘ndirdim ayozini.  
Bu kechaning har misrasi  
Ertak tusli arvoh emish.  
Osmonga dasturxon yozdim,  
Ishtahasi ochildi bulutlarning,  
Tushlarning-chi, qorni to‘q edi.  
Izladim to tongga qadar,  
Bu kechaning  
Jini bor, chirog‘i yo‘q.

## **JASORAT**

Odam tug‘ilmaydi jasorat bilan,  
Ulg‘aymas, yashamas jasorat bilan.  
Jasoratni o‘rgatmaslar odamga.  
Unga erisharlar.  
Yaldoqlarning, nodonlarning,  
johillarning qarshisida jim qolib,  
umrimiz burnimizdan chiqquncha erishamiz.  
Havvo jasoratga ta’na qilamiz ming yillardan beri,

o‘sha daraxtni, o‘sha nafsn ni yaratganga ta’na qilmaymiz.  
Biz faqat o‘limga jasorat bilan boramiz,  
Chunki undan juda zaifmiz.  
Ilk jasoratimni eslayman men –  
Halinchakdan uzgan edim qo‘llarimni.  
Oxirgisini eslay olmayman.

## YO‘L BER

Misralar ne qilsin,  
Qofiya topmayman senga qaytgali.  
So‘zlar qaydan bilsin,  
Yangisin izlayman senga aytgali.  
Yo‘llar qaydan bilsin,  
Yangisini izlashimni – o‘lchanmagan, yurilmagan.

Xotirimga tekkan shamollar,  
Yam-yashil o‘tlarni tiz cho‘ktirib,  
Havoni eggan shamollar.  
Havoning oyog‘i uzilar yerdan.

Umrini Quyoshga bag‘ishlagan kunlarga  
Ont bo‘lsin!

Balki...  
Ming daf‘a, mingta yo‘l axtarmassan  
Quchish uchun o‘sha lahzani,  
Quchog‘ini topmagansan.

Endi esa...  
Qo‘llaring axtarar seni,  
O‘z bo‘yingga osilish uchun.  
Seni yo‘lga bag‘ishladim,  
Chekin yo‘limning ustidan,  
Yo‘l ber senga yo‘llanmoq uchun.

## **ONOR AMIN**



*Quliyev Onor Abdulla o‘g‘li (Onor Amin) 1984-yilda tug‘ilgan. Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasining a‘zosi. 2014- yilda “Ottaqadan Oqpoychaga” nomli ilk she’riy to‘plami chop etilgan.*

## **BARCHA AYRILIQLAR...**

Fikr bokiradir,  
uni zo‘rlab bo‘lmaydi.  
Barcha ayriliqlar fikr ayrilik‘idan boshlanar,  
fikr ayrilik‘idan.  
Ayriliq.  
Nomingni zulmatda,  
seni yorug‘da yo‘qotdim...  
Axtaraman.  
Qachondir bir kun  
seni topgayman,  
biroq nomingni-chi?..

## **QO‘LLARIMDA... TIYRAMOH**

Qishda sovqotaman,  
Bahorda bo‘y otaman,  
Yozda bog‘da  
kitob o‘qib yotaman.  
Atrofim yam-yashil,  
qo‘llarimda... tiyramoh.  
Oyoqlarim ostida Osmon,  
Bosh ustimda yer,  
xayolimda o‘sha qiz...

## **DUNYODAGI ENG KATTA AZOB...**

Dunyodagi eng katta azob  
balki vijdon azobidir;

vijdoni uyg‘oqlar biladi buni.  
Vijdoni uyg‘oq bo‘lgan xotinim so‘radi:  
– Nima bo‘ldi senga, Onor Amin?  
– She’r yozishni istayman.  
Ishondi, aldandi, uxladi..  
Mening esa vijdonim bezovta...  
Ayollar yolg‘izlikdan qo‘rqqani kabi  
Men yolg‘izlikdan qo‘rqaman, Xudoyim,  
xotinim oldida meni ma’zur tut...

## **G‘ASHLANGANDAN G‘ASHLANAMAN...**

Sahar oyog‘imga,  
peshin qornimga,  
oqshom boshimga tusharkan,  
g‘ashlangandan g‘ashlanaman...  
Har gal engil-boshimni  
yuvib dorga osarkan, onamdan jahlim chiqar –  
butun tuqqan o‘g‘lini u  
parcha-parcha qilib osar...

## **MUHORABALAR**

Muhorabalar  
oppoq xonalardan,  
qora kulbalardan boshlanar...  
Dunyo ota-onalarga bo‘lingan,  
Otalar urush olib boradilar...  
Ayollar – nishon,  
erkaklar – tortilgan kamon.  
Bolalarni o‘zing asra,  
al’amon, Ollohim, al’amon!..



## **PARVIZ SAIDLİ**



*Parviz Saidli Idris o‘g‘li 1992-yilda tug‘ilgan. She’rlari turli jurnal va almanaxlarda chop etilgan. Yangi roman ustida ishlamoqda.*

### **DERAZA OYNASI**

Yuzin sepkil bosgan xunuk bir ayol  
Suyangan deraza kesakisiga,  
Noyabr yomg‘iri yosh to‘kar oqshom  
Bokuning kimsasiz ko‘chalariga.

Yo‘llarga tikilib qoladi uzoq,  
Mashinalar tinmay o‘taveradi,  
Yuziga mashina shu’lasi tushar,  
Ko‘lkalar yuzini o‘pib o‘tadi.

Bir xunuk, ko‘rimsiz ayolning dardi  
Aylangan kuz faslin tanholigiga.  
Jimgina yig‘laydi tangri o‘zini  
Yaratgani uchun ko‘rimsiz qilib.  
Yuragi bo‘m-bo‘shdir xonasi kabi,  
Kimsasiz ichiga ko‘z yoshi oqar,  
Ko‘zlari oynakdan tashqariga boqlsa-da,  
Balki bu ko‘zlar uning tashqarisidan ichiga  
boqayotgandir.

Bir issiq kechani ko‘rmagan hali,  
Sevgidan xabarsiz xonasi sovuq.  
Ko‘ksiga tegmagan go‘dak nafasi,  
Bo‘sadan xabarsiz dudog‘i sovuq.

Men ham bir tubanman o‘zgalar kabi,  
Na seni yoqtirdim, na seva bildim.

Balki sen rajirsan tasalli uchun,  
Men senga rang berib she'rimga soldim.

## MOYBO‘YOQ

Bu yig‘lagan kim bo‘ldi?!  
Axir, kimning xotini?!  
Bekitgancha yuzini  
Mayin-mayin yig‘laydi.  
Shabparakdek tinglayman  
Ko‘z yoshining shivirin.

Bu yig‘lagan ayol kim?!  
Axir, kim buning eri?!  
Qo‘l tekkaymi sochlariغا?!  
Sovqotmasmi kechalari?!

Ko‘zlari bir moybo‘yoqmi?  
Kipriklari mo‘yqalammi?  
Ko‘z yoshlari yonog‘iga  
Surat solar, naqsh bitar.  
Yig‘lagan bu ayol balki  
Sog‘ingandir kulgilarni.  
Shu boisdan yig‘lab turar.

Bu yig‘lagan sho‘rlik ayol  
Ro‘zg‘orimning ayoli.  
Bir shoirning xonasini  
Bo‘lishmoq ham oson emas.

Shirinmikan, sho‘rmikan,  
Ko‘z yoshining ta’mi qandoq.  
Ko‘z yoshidan bir choy damla,  
Yig‘layverasan keyin.

## **YAKKAXON TOMOSHA**

Tomoshasi kecha o‘tgan teatr afishasi kabiman,  
Ko‘zlarimda osilib turar tomoshaning tarixi, vaqtি.  
Soat nechada, qayerda  
Yakuniy sahna o‘ynaldi yomg‘irli kechada,  
Sizlarning ko‘chada.  
Men sening derazangga, sen derazadan uzoqlarga.

## **TERMULGANCHA**

Sovigan qahvamdan bir qultum ichib,  
Bu tug‘ma maskanda qarayman senga,  
Doim sen bu yerga kelganining uchun  
Ushbu sokin kafe azizdir menga.  
Sochlaringni, ko‘zlariningi, chehrangning har chizgisini  
Yoddan o‘tkazaman birma-bir.  
Sen qarshi stolda kitob  
**VARAQLAGANCHА**  
Yoza bilmaganim she’rlarimda sen,  
Yozganlarim bilan senga haykal qo‘yaman.  
Yuz bora yozsam ham, buzsam ham,  
So‘zning muqaddasligini sen aytgan qadar tuyaman,  
O‘paman sukunat peshonasidan,  
Sen JIM TURGANCHA.

Bu qish Bokuni injabel balerinaga  
o‘xhatib qo‘ydi qor zarralari.  
Akapella kabi yangraydi qorning g‘ichiri,  
Sen yurgan sari.  
Tikilaman. Anglashga urinaman...  
Sen axir kimsan?!  
Oq sochli onammi?! Sadoqatli ayolmi?!  
Ko‘kdan tushgan malakmi?! Tantiq qizaloqmisan?  
Ko‘klar sochlaringga qor  
**ELAGANCHА.**  
Derazaning qarshisida

Sokin kafelarda  
Bu qorli yo‘llarda ho‘llanamiz, gulim,  
Men SEVGANCHА  
Sen SEVGANCHА...

## **QOR VA JAZ**

Mayin-mayin qor yog‘ar  
Derazadan bo‘ylanar  
Kalta sochli bir qizning  
Dengiz kabi ko‘zлari.

Mayin-mayin qor yog‘ar  
Derazadan termular  
Rassom qo‘lida boda  
Eski lappakda bir kuy  
Chalar Mustafozoda.

Mayin-mayin qor yog‘ar  
Adib tinmayin yozar  
Nuqul tamaki tortar  
Sigaret bilan to‘lib  
Tutab yotar kuldoni.

Mayin-mayin qor yog‘ar  
Yo‘taladi tul xotin  
O‘ylaydi faqat erin  
Qor yog‘adi qabrga  
Sovuqmasmi tuprog‘i.

Mayin-mayin qor yog‘ar  
Yo konyak, yo oq sharob  
Fahmiyning g‘azallari  
Tugaydi unutamiz  
Uch-to‘rt soat dunyoni.  
Mayin-mayin qor yog‘ar

Hazin-hazin qor yog‘ar  
Og‘ir-og‘ir qor yog‘ar.

## **HORG‘INLIK**

Jimgina o‘lasan ushbu kechada  
Izlarining ko‘chaning yodida qolar  
Boshingda bo‘lma gay tug‘ishganlaring  
Keksaygan umidlar boshingda qolar.

Yomg‘irlar sen uchun qo‘sishiq aytadi  
Shamollar sen uchun suratlar chizar  
Yorug‘ kun ko‘rmading tirikligingda  
O‘lganda ko‘rarsan oq-oppoq kecha.

Seni tanimagan bir ayol kelar  
Ko‘z yoshlari to‘kib, surtar ustingga  
Egnidan yechadi ko‘hna plashin  
Yig‘lagancha yopar sening ustingga.

Ustingga yopilgan ushbu plashdan  
Sevganining ayolning atri keladi  
Va nogoh qo‘llaring cho‘zasan ko‘kka  
yerdagi ayolni ko‘kdan topasan.

Choying yoningdadir o‘zing uydasan  
Na plash na ayol na-da o‘lim bor  
Bu arqon bu qandil bu esa sensan  
Hali ham kech emas balki ketarsan...



## QILMON IMON



*Qilmon Imon 1986-yilda tug‘ilgan. Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi a’zosi. Asarlari bir qator tillarga tarjima qilingan.*

\*\*\*

Safarimiz uzoq bo‘lgay,  
Manzilga yo‘limiz yetmas.  
O‘zimizni tasdiqlovchi  
Imzoga qo‘limiz yetmas.

Sirtmoq dorlarga ilindi,  
O‘lim arqonda silkindi,  
Sotganimiz umr endi,  
Olmoqqa pulimiz yetmas.

Ko‘rdik dardlarning battarin,  
Dunyoning qazo-qadarin,  
“Bo‘l”dik asli o‘lmoq uchun,  
Va o‘ldik, “bo‘l”imiz yetmas.

\*\*\*

Yashadik dunyodan bo‘lib umidvor,  
Maosh olganimiz ish o‘rni kabi.  
Umrimiz ichida shunday kunlar bor –  
Torttirib tashlangan tish o‘rni kabi.

Hoy bulut, yig‘lama, yig‘lab bo‘lmaydi,  
Yig‘lasang, bu yoshni saqlab bo‘laydi,  
Olloohni bu qadar dog‘lab bo‘lmaydi,  
Osmonlar qoraygan shish o‘rni kabi.

Nisbiydir zulm ilaadolat so‘zi,  
Dunyodan baxt topgan bormi hech o‘zi?

Bizsiz onalarning yo‘l ketar ko‘zi –  
Sayyora qushlarning bo‘sh o‘rni kabi.

\*\*\*

Shu osmonning osti – uyim,  
Usti-chi, eshik kabidir.  
Yulduzlari – o‘yinchog‘im,  
Kechalar beshik kabidir.

O‘yindir, o‘yin bu hayot,  
Beshikdan ol, mozorga sot.  
Biz keshikchi, jon omonat,  
Dunyo ham keshik kabidir.

G‘aflat ketmas loshimizdan,  
Darak yo‘q quyoshimizdan!  
Suvlar to‘kar boshimizdan,  
Osmoning teshik kabidir.

\*\*\*

Yuragimdan kechgan narsa  
Kelib ko‘nglimdan oshadir.  
Sevinch sevinch bilan hamdam,  
Zulm zulmdan oshadir.

Yonmadi oy jo‘natgan sham,  
Qachon tongga yetar oqshom?  
Ko‘prik soldim, o‘tgil, oshnam,  
Cho‘lim ko‘limdan oshadir.

Umr yetganda qazoga,  
Chora yo‘qdir bu jazoga,  
Bu dunyodan u dunyoga  
Barcha o‘limdan oshadir.

\*\*\*

So‘rasalar savobimni,  
Botdim gunohga, azizim.  
Yo‘l yo‘q na ortga qaytgali,  
Va na sabohga, azizim...

Rostlik yo‘q dunyo rostida,  
Har bir lahza – jon qasdida,  
Men bundaman – yer ustida,  
Qulayman chohga, azizim.

Momolardan qolgan chaman –  
Go‘dakni shod qilmas ekan,  
Ko‘kdan tush, yo‘qsa aytaman  
Arzim Ollohga, azizim.

\*\*\*

Dunyoga arzon kelganlar  
Ketmoqni arzon istamas.  
Qo‘y, boshingni egib turma,  
Qullikni sulton istamas.

Tiriklar osilib dordan,  
O‘liklari bezgan go‘rdan,  
Hech kim rozimas taqdirdan,  
Insonni inson istamas.

Bu dunyoga sotilganlar,  
Aysh-ishratga qotilganlar,  
Ollohdan ta’ma qilganlar –  
Ollohga qurbon istamas.



## **RAMIL AHMAD**



*Ramil Ahmad 1994-yilda tug‘ilgan. Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi va Yoshlar kengashi a’zosi. 2015-yilda “Zamon tuneli” nomli she’riy to‘plami chop etilgan.*

## **NEKBINLIK**

Yulmangiz  
Qoqio‘tning gunohsiz gulbarglarin,  
Qiynamang ayni savollar bilan uni:  
– Sevadi, sevmaydi...

Javobini o‘zingiz bilgan  
savollarni boshqadan so‘rmang.  
Chechaklar bolalar kabitdir,  
yolg‘on gapirolmaydilar...  
Jo‘natmangiz xol-xol qo‘ng‘izni  
sevganingiz ortidan,  
tushuning.  
Ehtimol, barmog‘ingiz uchidagi qo‘ng‘iz  
kelgandir sizni ham olib ketmoqqa...

## **UCHTASI BITTADA**

Bir ayol bormoqda –  
qornida homilasi,  
yelkasida oyog‘ini yo‘qotgan eri,  
suyagiga yopishgan teri.  
Qiyomat qo‘pdimi?  
Ilohiy komediya,  
bashariy fojea,  
shaytoniy san’at!

Meni yosh deb o‘ylamang,  
u ayolni yaxshi taniyman,

yelkasidagi erkakni,  
qornidagi homilani,  
zohirida umidsiz umidlarini,  
botnida orzularin tashigan  
Maryam xolani.

Ko‘chamizda ko‘raman har kun:  
Dante mavzesi,  
Balzak ko‘chasi,  
66-uy, 1-xonodon.  
Bir paytlar asrardi shu erkakni o‘z ko‘lkasida.  
Endi nima qilib turibdi u yelkasida?  
Ayol so‘l qo‘li bilan qornini silab,  
nimalardir deydi shayton bolasiga.  
O‘ng qo‘lini erining qo‘lida unutgan,  
Olloohni unutgan kabi...

Erkak uyaladi yo‘q oyoqlaridan,  
yo‘qlar borlardan ko‘ra ko‘proq uyaltirar kishini...  
Ho‘ngrashi to‘kilar ichiga,  
yig‘laydi aftodahol,  
ho‘l bo‘lar ayol,  
ho‘l bo‘lar homila,  
ho‘l bo‘lar kecha,  
ho‘l bo‘lar dengiz,  
ho‘l bo‘lar ko‘cha...

Bir ayol bormoqda –  
qornida homilasi,  
yelkasida oyog‘ini yo‘qotgan eri...  
Bormoqda bir ayol,  
qornidagi bola ham  
odim tashlar otasining o‘rniga...  
Ayloning jonida yashirin titroq:  
– Ertaga aytmaslarmi,  
bu bolaning oyoqlari kimdan deb?

Ayol  
bordi... bordi... bordi...  
bormoqda... bormoqda... bormoqda...  
boradi... boradi... boradi...  
Va so‘ngra bu ayol,  
qornidagi bola,  
yelkasidagi erkak  
sho‘ng‘ib ketar tun og‘ushiga.  
– A’lohzrat Tarix domla,  
uch kishilik joyingiz bormi  
changli bir kunjida ag‘anagani?  
– Borlikka borku-ya,  
ammo sizning Maryamingiz  
Bu gal Isoni emas,  
Yahudoni tug‘adi!

## METAMORFOZA

Turib qolar yo‘l kanorida  
har kun bir bola.  
Har kun bir bola  
turib qolar yo‘l kanorida.  
Ko‘zlariga surtar yo‘l gardin,  
duch kelgandan so‘rar otasin.  
Bilmaganlar “ko‘rmadim” derlar,  
bilganlar bosh tebratib o‘tar...  
Otasining boshmoqlarini  
kiyib yugurgan bu bola  
mashinalardan ham o‘zib ketaman deb o‘ylaydi...  
Bog‘lay olmagani boshmoq chilviri  
chuvaladi oyoqlariga –  
yiqilib tushadi yuztuban,  
qulab tushar otasizlikka.  
G‘arib har kun otasiga maktub yozar  
harfsiz bir alifboda.  
Tangri-yu farishtalardan boshqa  
hech kim bilmas bu alifboni.

Yolg‘iz qoldi deguncha  
bir burchakka kirib olib  
xol-xol qo‘ng‘izlarni jo‘natar  
otasining ortidan:  
“Uchib bor, haydar, otamni qaytar”.  
Tosh ustiga chiqib olib  
ko‘kka qo‘l cho‘zgan bola  
Olloh etagiga qo‘lim yetar der.  
Barmoqlarin cho‘zaveradi  
oyog‘ining uchida turib!  
Ammo tag‘in yetmaydi qo‘li,  
qo‘llari yetmas Unga...

Cho‘chib tushadi bir kun  
qo‘ltig‘idan o‘sib chiqqan  
oppoq parlarni ko‘rib...  
“Ota! Ota!” – deb qichqirar.  
Qichqirar qo‘ltig‘iga  
par chiqargan farishtalarga.  
O‘zin otar qanotlari uchidagi hasratdan,  
na o‘ligin ko‘rgan bor, na tirigin:  
yer yuzida bitta bola kamayar,  
ko‘k yuzida ortadi bir farishta...

## AMERIKA

Har bir ayol badani  
erkak uchun yangi bir qit’a...  
kashf etilur  
oza-oza, keza-keza,  
o‘pa-o‘pa, suza-suza.  
Hamma kishi Kolumbdir balki?  
Sevgi – ishonmoqdir o‘lganga qadar.  
O‘lganga qadar  
Bilmakdir Amerikani Hindiston deb.

## URUSHDAN SO'NG

Urushda qo'l-oyoqlarini  
yo'qotgan kishilardan qo'rqib qochardik hamisha...  
Nogoh tushimga kirdi ibtidoiy odamning changak qo'llari,  
tutib bo'g'ardi meni.  
Katta bolalar  
o'lim nima ekanini bilganlari uchun ham  
anglardilar otalari o'lganligini.  
Yashirardi onalaridan  
Ko'chada yegan kaltaklarini.  
Yog'ochdan to'pponcha yasar edilar  
otalar qasosin olmoqlik uchun...

Yolg'izoqlar Qorabog'da qoldi,  
har biri qo'lida bir hovuch tuproq,  
og'zida bir qultum suv,  
ko'kragida bir yutum havo olib keldi u yerdan.  
Va'dalashgan qizlar yigitlarini  
yo'qotdilar qoch-ho-qochlarda.  
Har shahid umidi edi bir onaning,  
xushxulq qizlar, do'mboq bolalarning otasi edi...  
Kattartib ishlangan askar surati  
qoldi har xonadonda  
va qizlar tug'dilar shu suratga boqib...  
bu go'daklar –  
suratdagi otalarining  
o'gay bolalari edi...  
Na qo'ni-qo'shnidan bir xabar bor,  
na xesh-tabordan.  
Necha kunkim, bolalari och qolgan beva Surayyo  
deraza oldidagi ustunga suyanib  
tez yordamni kutgani-kutgan...  
Qurtlagan jigar, qoraygan go'sht,  
hidlangan yurak sotuvchi qassob G'ulom der edi:  
“Bu uch yetmini qandoq boqadi,  
balki bizga aytmay yuragin sotgan?..”

Jajji qizaloq  
bekinmachoq o‘ynardi –  
ko‘zini ochganda otasini topmoq uchun...  
Surayyo der edi:  
“Bo‘yi uzun buroy qizim,  
sochi uzun suroy qizim,  
Uch kecha uxlab tursang, so‘ngra otang keladi”.  
U uch kecha tamom bo‘lmadi,  
sanamoqni bilmasdi qizcha...



## SAHAR AHMAD



*Sahar Ahmad 1972-yilda tug‘ilgan. “Ko‘z-larimning ichiga boq”, “Ruh nafasi”, “Ko‘nglim ko‘chalar” va “Uchrashmagunimizcha” nomli she’riy to‘plamlar muallifi. Esse va lavhalari bilan davriy matbuotda doimiy chiqib turadi.*

\*\*\*

Barcha dardlar bitganda  
To‘zim ham tugab bo‘lar.  
Daraxtlarga, qushlarga  
So‘zing ham tugab bo‘lar.

O‘shanda  
Maktablar nomini,  
Ko‘zgular yuzini unutganingda  
Ishqiy she’rlar kabi bahorni  
Ruhing o‘qiy olmagay.  
Ayriliq kunini anglatmagay kuz,  
Qishdan o‘lim hidi ufurmas.

Ko‘klardan to‘ygandek ruhing  
Yillar o‘tgan sari o‘limdan to‘yar.  
Bir paytlar sevmaganing hayotni  
Telbalarcha sevmoq kechar ko‘nglingdan.

\*\*\*

Mavsumlar qayg‘u kabi  
Aylanar tegramizda.  
Yangi sahfa ochmoq uchun  
Joy yo‘q xotiramizda.

Uyg‘onib bir ko‘rsakki,  
Yoshimizga yarashmas.  
Umr motam namoyishidek  
O‘tganda qarshimizdan.  
Mayin-mayin xazon yog‘ar,  
So‘lar ust-boshimiz-da.  
Qorto‘p o‘ynaydigan yo‘q,  
O‘tgan bu yoshimizdan.

Suratini chekmoqchi bo‘ldim  
hayotning.  
Sevinchning, umidning,  
hayajonning.  
O‘ltirib yolg‘izlikning  
rasmini chizdim.  
Hasrating chang bosmish yuzingda  
uzun bir ko‘z yoshining shakli.

\*\*\*


Uzoq safardan  
uyimga qaytgan kabi  
qaytdim iztiroblardan.

Qarasam, hamon barcha  
yo‘llarga ko‘z tikib turibdi.  
Qarasam, hamon barcha  
Kutmoqda o‘z orzusin.  
Angladimki, bu hayot  
o‘tib bo‘lmagan hali.

– Oxiri kim? – deya,  
uzun bir navbatda turib  
yashamoq istadim hayotni  
yangidan...

\*\*\*

Na bahorni sevdim  
Va na chechakni,  
Na-da osmonni.  
Men odamlarni sevdim,  
Birini bahor o‘rnida,  
Birini chechak,  
Birini osmon o‘rnida.  
Bahorda uni sevganlarni esladim,  
Kuzda so‘lib ketganlarni.  
Oqshomlar yolg‘izlarga yig‘ladim,  
Achindim bor ayriliqlarga.  
Hech narsa sinmadi ichimda,  
O‘limlarga og‘rindim yashagan sari.  
Hech kim tushunmasa hamki sevgimni,  
Sevganlarimni sevdim o‘zimdan ko‘proq.



## SAXOVAT SOHIL



*Saxovat Sohil 1982-yilda tug‘ilgan. “Har zamon va hech vaqt” she’riy to‘plami (2009), “Isoning xotini” (2013) va “Isoning qaytishi” (2015) romanlarining muallifi. Avangard.net adabiyot portali va “Avangard” adabiy-badiiy jurnalining bosh muharriri.*

### ISO QO‘LLARINI XOTIRLAGAYMAN

Yaproqlari to‘kilgan  
anor butog‘ida  
yetim qoldi qush uyasi –  
Isoning boshidagi  
tikanlarni xotirlagayman.

Chumchuq cho‘qilagan yerdan  
tomchi-tomchi oqar anor shirasi –  
Isoning qo‘llarini xotirlagayman.

Yaproqlari tillaga aylanib  
xiroj bergen anor daraxti  
kutar bahorni –  
Isoning ko‘klarga tikilgan  
ko‘zlarini xotirlagayman.

Anordan sizilgan sharobni  
lazzat-la simirar yosh bir hukmdor,  
sharob mening qonimdir –  
Isoning so‘zlarini xotirlagayman.

## **ANOR DARAXTINING TANTAL<sup>11</sup> AZOBI**

Kuz yelining ohanglarida  
sarg‘aygan anor yaproqlari  
to‘qingancha bir-biriga  
qo‘shiq aytar.

Titray boshlar yaproqlar  
anorzorga qo‘rquv tushar –  
Isrofilning suri kabi  
yoyilar o‘lim sadosi.

Bu yam-yashil yaproqlarga  
ayriliqning rangi cho‘kar,  
novdalari uryon qolar,  
bo‘zarib ketgay tanasi.

To‘shagay oyog‘iga  
anor o‘z yaprog‘ini.  
Yolvorar, nido chekar,  
tebranar xazon-xazon.

Anor azoblar chekar –  
qo‘llari yetmas yerga;  
zolim shamol omon bermas  
yaproqning qaytishiga.

## **ANOR DARAXTINING O‘LIM RAQSI**

Gullagan anor daraxti  
raqsga tushar  
qora yelning qo‘shig‘iga,  
butog‘ini o‘ynatarkan shamollar,  
mug‘anniyga ko‘z-ko‘zlangan

---

<sup>11</sup> Т а н т а л – қадимий юнон мифологиясида худолар томонидан абадий қийноққа ҳукм қилинган қаҳрамон (*таржс.*).

choyshaqa kabi  
sochiladi chechaklar.

Parvoz qilar yel qanotida  
inidan qulagan chumchuqchasimon,  
ucha olmas uzoqlarga,  
ezilar, toptalar,  
parchalanar chechaklar.

Esaverar qora yel  
o‘ng-u so‘lga pul sochib,  
bebiliska pullardek  
uchib yurar chechaklar,  
mening umrim misoli  
nasib etar tuproqqa.

## AVE MARIA

Kurtaklagan anor uzra  
chumchuqcha qo‘sishiq aytar:  
mujda beray ilgaridan,  
quvon, quvon, anoriginam.  
Xudo senga farzand berar,  
quvon, quvon, anoriginam.

Gul ochadi novdalaring,  
ulg‘ayib anor bo‘ladi.  
Yam-yashil yaproqlar aro  
senga farzand yor bo‘ladi.

Kattalashar, qontalashar,  
yetiladi mening poyim,  
sog‘inaman, tez kelsaydi,  
tez kelsaydi avgust oyi.

## **QORA ANOR**

Uzilmagan anor qolmish  
uryon butoqda,  
qizarmagan,  
cho‘g‘dek bo‘lib bo‘zarmagan.  
Kech ochilgan anor guli –  
qarg‘a tumshug‘icha ham kelmaydi endi.

Uzilmagan anor qolmish  
uryon butoqda,  
diydidar yetim kabi  
bir mehribon qo‘lga zor bo‘lib.

Chechagi bo‘g‘zida  
qolmish bu anorning –  
vo ajab, qanday dard  
o‘ldirmish uni.

Bir battarin bola kelib  
tosh otsaydi, qulatsaydi  
bu anorni,  
qutqarsaydi qop-qora tanholigidan.

Uzilmagan anor qolmish  
uryon butoqda,  
xuddi mening umrim kabi  
qop-qora anor.

## **AYOL KABI**

Kuz tongida  
to‘lib turgan bulutlar  
bahona izlar.

Yetimdek tikilar anor daraxti  
to‘kilgan barglarinsovurar shamol,  
ayol kabi to‘shida qizarar bir juft anor.

Hurkak bir chumchuq qo‘nar  
uryon butoqqa.

Emizikli buvakdek  
anorni so‘radi bu temirqanot,  
qon kabi qizarar sariq tumshug‘i...

## **ANOR QIZ**

Dudoqlaring  
shirinligidan  
yaltiragan anor kabi qizarar –  
go‘yo meni chorlar o‘ziga.

Qo‘llaring  
anor novdasi kabi  
uzun va nozik –  
chirmashsaydi bo‘ynimga koshki.

Sochlaring  
anor ostidan chiqqan  
mayin novdadek bir taqim –  
bolaligimda hammadan qochib  
bekinardim anorning  
shu novdalari ortiga.

So‘zlaring  
anor butog‘ining tikanlaridir ,  
yuragim ilma-teshik.

Ko‘p yillik anor sharobi kabi  
meni mast etgan anor qiz,  
ko‘r, qanchalar sarxushman,  
o‘lamан o‘zimgа kelmay,  
endi meni tuproq kutar.

## SOLMON ARUZ



*Shoir. Asli janubiy Ozarbayjondan. Hozir Bo-kuda yashaydi. Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasida xizmat qiladi.*

### YO'LLAR SENGA YAQIN KELAR

Yo'llar senga yaqin kelar,  
ammo hali xo'rozlar jim.  
Polis mashinlar anglamas  
bizning sevgimizni, gulim!

Anglamas, mahbus tushasan  
qafasda gul undirgali...  
tuproq aro qorishasan  
bir dasta gul undirgali...

Ko'chalardan uy kunjiga  
surgun bo'lgan odamlarmiz.  
Anglamaslar, qabrimiz ham  
ayri bo'lgan odamlarmiz.

Anglamaslar, charchaganmiz  
yengiltak bu kafelardan.  
Hijrondan so'ng, vaqtin bo'lsa,  
kelib turgin biz tomon ham.

Sen va mening visolimiz...  
Sohil bog'ining kadari...  
Rafiq Tog'i qabri uzra  
yutindim men bu shaharni...

Ishqiy she'rlar berma menga,  
bu hayot sinov baytidir!  
Uzoqdan bir poyezd kelar,  
ayni suiqasd paytidir...

Biz sovrilgan orzularmiz,  
chala qolgan hikoyatmiz.  
Ul muqaddas kitoblardan  
ko'chib kelgan rivoyatmiz...

## **SHU QADAR SOTDIKI OTASIN O'G'LI...**

Ollohim, tor-u tang uylarimizda,  
Ne ajab, qabrdek siqilib o'lsak.  
Vatan solgani yer bermading, loaqal,  
bir qarich yer berkim, yiqilib o'lsak...  
Chekib o'tiraman uzoq tunlari,  
Bu rangin shaharning nomi poytaxtdir.  
Toliqqanman yolg'iz bo'ri singari,  
"Xudoyim, naqadar qo'ylar xushbaxtdir!"

O'zingga ma'lumdir bari, Xudojon,  
Hech kim emasman-da, nazar solmassan!  
Qalbimda g'azab bor, manglayimda ter,  
Sho'rlik, sen tunlari uxlay olmassan...

Meni qay naslga qilmish daxldor  
bu farishtalaring, aytgin, yo Xudo?  
Butun bu yo'llarning so'ngida "hech" bor,  
ketganlar ortiga qaytmagay aslo!

Favoralar bog'i, Qiz qal'asida  
Tabrizni o'ylamak... g'aroyib xayol...  
Bu ellik qulochlik bayroq ostida  
vatansiz titramoq yurakka malol...

Bizning chekimizga bitmis haqorat  
bir gala “ziyoli”, daydigan sayoq!  
Bir hovuch vatani bo‘lmagan qushlar  
bir hovuch don uchun titkilar tuproq...

Shu qadar sotdiki otasin o‘g‘li,  
Ont ichmak istadi, topmadi tuproq.  
Uch olma tushirdi Tangri osmondan,  
yemadi, u seni o‘yladi ko‘proq.

Ajib narsalar bor sen anglamagan,  
Taqdirdan qocholmas bu bani bashar...  
Ko‘changda mirshablar turganin ko‘rsang,  
Bilkim, yuragingda ozodlik yashar...

## **OLTMISH MILYON BO‘SH KALLA, BO‘SH QO‘L...**

Sevgilim, kel, mening qalbimga dard sol,  
Kel, meni tashlab ket, qolayin tanho.  
Kel, menga tikilgin, men ko‘zlarining  
Qa’riga cho‘kibon bo‘layin daryo!

Mayli, ta’nalar qil, yetkazgil alam,  
Inson shod bo‘lganda vatansiz qolgay!  
Ishongil, men kulib turganimda ham  
G‘ussalar yurakka chirmashib olgay.

Sen kelib-ketib tur, bu ko‘chamizda  
ahyonda tangrining izlari qolsin!  
Xayollar o‘z naqshin topsin bu izda,  
yuzimda falakning ko‘zları qolsin!

Kel, tupur yuzimga, aytkim, hoy ahmoq!  
Nimani izlading! Erkmi yo vafo?

“To‘ylar” o‘lkasida shodlik yo‘q mutloq,  
Seni tushunmaydi ichi bo‘sh qovoq.

Menga nima kerak bu uy, bu o‘choq?  
Ushbu oltmisht milyon bo‘sh kalla, bo‘sh qo‘l.  
Bizning shodligimiz o‘tkinchi, o‘rtoq,  
Shamoldir, manzilga topolmagan yo‘l.

Kelgin, qalamimni sanch yuragimga,  
Sevgi ham, qayg‘u ham kerakmas endi.  
Men bu dardlarimni aytayin kimga,  
Qog‘ozlarim yondi, qalamim sindi.

Mayli, ta’nalar qil, men kimman, axir!?  
Sultonmi, qirolmi, qanaday mashhur zot?  
Bu shodlik, bu farah mendek bir faqir  
Vatansiz insonga yarashsa nahot?!

Vatan deganimda o‘rtanur yurak,  
Bitta so‘z aytmoqqa tillarim tugun.  
Men nahot shu yo‘lni o‘tmog‘im kerak,  
Aytgin, kimlar uchun, ayt, nima uchun?

Kelgin, bu tuproqdan oyog‘imni uz,  
barcha bu qayg‘ular, qo‘y, manim bo‘lsin.  
Ustimga tort uni, zotan bu tuproq  
vatanim bo‘lmadi, kafanim bo‘lsin...

## **KOSHKI NOMI BO‘LSAYDI, SEVGILIM, SOG‘INMOQNING**

“Koshki nomi bo‘lsaydi, sevgilim, sog‘inmoqning”,  
Chaqirardim, bilarding nomi nadir dardimning.  
Bu yigirma birinchi asr taloto‘vida  
Manifesti, maqsadi, komi nadir dardimning.

Koshki tili bo‘lsaydi, aytar edi dardini,  
Bu temir dunyosida nima istar xor bu tan?  
“Ismi a’zam” ortidan bosib o‘tdik yo‘llarni,  
Tangri madadkor bo‘ldi, ulush berdi qudratdan.

Och-nahor bu ishchining ko‘zidagi qonman men,  
Nima deb aytay, axir, aytsam, kim ham biladi?  
Kim kelib Nitshe kabi horg‘in bir falsafaning  
ko‘zidagi g‘ussani sal bo‘lsa ham siladi?

Bir vagon dardim keldi, bo‘shatgani hech kim yo‘q,  
shunda bildim, dard nedir, vatan nedir, shahar ne...  
Ko‘chada hushtak chalib, sayr etsang toq-u tanho...  
ko‘zingdagi yosh nadir, ozingdagi zahar ne...

Koshki bir “oh” bo‘lsaydi sog‘inmoqning mantig‘i,  
bitta oh urmoq bilan tugatardik bu dardni.  
Balki taskin bo‘lardi shu she’rlarim ham menga,  
Dardimdan ildiz otib qalam ham ko‘karardi.

Yozganimcha yozardim, hayotga ne ishim bor,  
yaproq kabi uzilsam, mamotga ne ishim bor?  
hayotning mukofoti o‘lim emas-ku, axir,  
yo‘qsa 35 yillik bisotga ne ishim bor?

Yashash go‘zal dedilar, biz ham hayotga keldik,  
Ko‘z berdilar ko‘rmoqqa, boqib hayratga keldik.  
Til ochgandan dedilar, go‘zaldir bu koinot,  
Jim, dedilar! Biz esa borho qudratga keldik...

Bobom bir kovush izlab ketdi uzoqdan-uzoq,  
ololmasdan qaytdi u, oyog‘iga bosh urdim.  
Bir yo‘l ko‘rdim olisda, hech kim yurmagan so‘qmoq,  
Oyoqlarimga mindim, shu yolg‘iz yo‘lga kirdim...

Shunda bildimki, nega kelganmiz biz dunyoga,  
Hayrat bo‘lib kelganmiz tongga ham, zulmatga ham...  
Balki shuning uchundir, ozurda yuragimda  
bir muhabbat yashaydi insonga ham, itga ham...

Zanjirning bir halqasi bo‘ldi qo‘llarim, uni  
insonga kishanladim, ocha olmayman endi...  
Sog‘inaman... va lekin bu halqani sindirib,  
bilgisiz tomonlarga qocha olmayman endi...

## **GUNOHSIZ UZUMLAR**

Mastni o‘z holiga qo‘yarlar, ammo  
Gunohsiz uzumni osarlar dorga.  
Falakning gardishi shunaqa, do‘stim,  
Gunohsizlar qolar yomg‘irga, qorga...

Yurakda kattarib borar jarohat –  
Ozod insonlarning o‘yiga tengdir.  
Uzum jarohati tengdir ustunga,  
Mastning jarohati bo‘yiga tengdir.

Qochgancha ochasan hansirab, horib,  
Rostlab olmoq uchun nafasing qolmas.  
Holdan toydirarlar insonni andoq,  
Hatto o‘z-o‘zingga havasing qolmas...

## **SOG‘INMOQNING VATAN TUSI**

Xudoyim, bu nedir, axir,  
Bu vatanda sog‘inmog‘im?  
Bu shodlik, bu surur ichra  
Sog‘lom tanda sog‘inmog‘im?

Yor kelganda sog‘inmog‘im,  
Yor ketganda sog‘inmog‘im.

Hatto uni sevishimni  
Eshitganda sog‘inmog‘im.

Bu qandayin sovuq bo‘ldi,  
Odamlarning ko‘zi sovuq.  
Oyoq bosgan shu vatanning,  
Shu tuproqning yuzi sovuq.

Sovqotganda yaproq... libos,  
Sovqotganda tuproq... libos.

Bu yalang‘och vatanimga  
Men topayin qandoq libos?

Sovqotyapman, hoy Nasimiyl,  
Kel, teringni bergil menga.  
Sovqotyapman, hoy vatanim,  
Bayrog‘ingni ek ustimga.  
Bizni tirik sevmagaysan,  
O‘ldir, maqbar tik ustimga.

Xudoyim, bu nedir, ko‘kdan  
yerga qarab shaylanmog‘ing?  
Inson nomli bir qotilning  
Xudosiga aylanmog‘ing?

Yosh-u keksa ham qotiling,  
Soqol, ko‘sa ham qotiling.  
Qaytmagaysan hech bu yo‘ldan  
O‘lib ketsa ham qotiling...

Xudoyim, nedir bu kadar,  
Ushalmadi fotihalar,  
Ko‘zlar bog‘liq, tillar tugun,  
Orzular suvda bo‘g‘ilar...

Nadir bu qarg‘ish, bu duo,  
Tuproq nadir, nadir samo?  
yerga tushmoq mumkin, yerdan  
Ko‘kka bir yo‘l bormi, ayo?..

Ko‘p gunohlar qildik yirik,  
Biz o‘likmiz... o‘zing tirik...  
Shafqatingga sarhad yo‘qdir,  
Qudratingga yo‘qdir sherik...



## VUSOL NURU



*Vusol Nuru – Quliev Vusol Viloyat o‘g‘li 1981-yilda tug‘ilgan. 2007 -yildan Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi a’zosi. Hozirda Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasining organi bo‘lmish “Yulduz” jurnallingan nasr va she’riyat bo‘limi mudiri va zifasida ishlaydi. “Yomg‘ir tomchisiman” she’rlar to‘plami, “Nogironlar oroli”, “999”, “Prezident qizi”, “Do‘rontog” romanlarining muallifi.*

## JAHANNAM QO‘SHIG‘I

Yog‘ar boshingga oy shu’lasi,  
egningdan ko‘lkang tushar.  
Sug‘rilib tushgandek joning,  
qo‘rqasan,  
farishtalar senga kulishar.

Tushar o‘lim vahimasi,  
devorlarga uriladi duolar.  
Yuzini bir kunjga burib  
ichingda tebranar ruhing,  
ravvin kabi  
iltijolar qilar:  
Eloxa!  
Eloxa!  
Hoy inson,  
sen bir sinagog kabisan!  
Shamdonda yonar hislaring.  
Sevging ikonalashar Yahudo shaklida.  
Og‘zing kalisoning zangidir go‘yo,  
soxta marhamating bong urar.  
Ichingda yangraydi jo‘rovoz nafrat:  
Haliluya!  
Haliluya!

Hoy inson,  
sen bir kaliso kabisan!

Qonda tahorat olib,  
imoning namoz o‘qir ichingda.  
Jannat xulyolari ko‘zingni yopar,  
g‘azabing bosh kesar har muyulishda.  
Tilingda:  
Ollohu akbar!  
Ollohu akbar!  
Hoy inson,  
sen bir masjid kabisan!  
Ichingdan husn olgan jahannam,  
Shayton qo‘rqr chiroyingdan.  
Mahkam tut egningda ko‘lkani, sho‘rlik!  
Qoch, qoch, qoch,  
bekingin oy shu’lasidan!

## **JAHANNAM POYEZDI**

Eshiklar ochildi.  
Poyezdni tark etdi odamlar  
Meni tashlab ketganing kabi.  
Eshiklar yopildi.  
Yolg‘iz bir men qolganman,  
yolg‘iz bo‘m-bo‘sh o‘rindiqlar.

Qop-qorong‘i tunel, surat...  
Men qulagan o‘pqonga o‘xshar.  
Ahyonda yalt etar derazam.  
Oynadagi aksim  
sarmastga o‘xshar.  
sochlaram taralmagan,  
yumilib ketar ko‘zim.  
Quloqlaram ostida bir qiz  
bir naqarot kuylaydi nuqul:

“Dunyo bir kun bizga kulib boqadi yana,  
Meni tashlab yo‘llar sari ketmas ko‘zing.  
Yuraklarni bitta sevgi yoqadi yana,  
Qalbimizdan qayg‘u-hasrat topmas to‘zim”.

Yolg‘on aytar,  
yolg‘on aytmoxda bu qiz.  
Dunyo bo‘shab qoldi sen ketgandan so‘ng,  
zamon chayonlari xezlanar.  
Ochilmaydi sen yopib ketgan eshik.  
So‘zlarining cho‘kib yotar dahlizda  
tuman kabi.  
Iforing xonamda bulutdek kezar.  
Xotirang surati devorni bezar.  
Yumsam,  
ko‘z oldimda o‘zing namoyon.  
Ko‘zguda aksing qolgan,  
xonada nafasing.  
Quloqlarimda sasing:  
“Seni sevmayman,  
sevmayman endi,  
seni sevmayman!”  
Qalbimga ko‘chadi dunyo hasrati,  
Insonlar o‘lgan.  
Dunyo bo‘shab qolgan bir poyezd kabi.  
Yolg‘iz bir men qolganman,  
yolg‘iz bo‘m-bo‘sh o‘rindiqlar.

Qop-qorong‘i tunel, surat...  
Jahannamga ketmasmi poyezd.  
Men gulxanga tushgandekman.  
Qo‘lim qon,  
pichog‘im qon,  
ko‘ksim qon!  
Jahannamga chipta olgan kabiman.

Ketaman,  
ketaman jahannamga.  
Ketmoq qanday bo‘lishin ko‘r,  
ko‘rib qo‘ygin tark etmoq,  
tashlab ketmoq,  
ayrilmoq qanday bo‘lishin.  
Na sen qaytara olursan meni endi,  
na-da boshqa birov.  
Yolg‘iz bir menman,  
yolg‘iz bo‘m-bo‘sh o‘rindiqlar.  
Quloqlarim ostida bir qiz  
bir naqarot kuylar nuqul:  
“Dunyo bir kun bizga kulib boqadi yana,  
Meni tashlab yo‘llar sari ketmas ko‘zing.  
Yuraklarni bitta sevgi yoqadi yana,  
Qalbimizdan qayg‘u-hasrat topmas to‘zim”.

Qop-qorong‘i tunel, surat...  
Qop-qorong‘i tunel...  
Qop-qorong‘i...  
Qop-qora...

## KUN PORTRETI

Xiyobonda portretga aylanar  
bu kun.  
Sohilda odamlar suzar,  
dengizda sayr etar baliqlar.  
Sohilda uchib yurar  
chag‘alayga o‘xhash yaproqlar.  
Chag‘alaylar dengizga to‘kilib tushar,  
Daraxtlar sohilga langar solgan.  
Dengizga cho‘kkan kemalar.  
Dengizda  
quyosh bor bugun,  
Sohilda  
quyoshi botgan bir odam.

## **YOLG'IZLIK UVERTYURASI**

Chiroqni o‘chirgin,  
pardani bir chetga tort.  
Lang ochib qo‘y derazani.  
Zulmatda sevishgan shabparaklarni  
ichkari kiritgin, ichkari.

Senga  
quyoshni sevmoqni o‘rgatsin ular,  
zulm-u zulmat og‘ushida.

Sen  
quyoshga boqqanda ko‘zlarining yumasan, axir.

Shamni yoqqin,  
chorla ozod ruhlarni.  
Ruhlar o‘limning hididir,  
O‘lim hidi bilan  
xonangni to‘ldir.

Senga  
yashamoqni o‘rgatsin ular  
o‘la-o‘lguncha.

Sen  
ko‘klardan jannat tilarsan, axir.  
Unut

senga bosh eggan farishtalarni.  
Zulmatda yuzingga ko‘zgu tut.  
Duo qil Iblisga,

yolvorgan, yolvor.  
O‘zidan ham battariga bosh egmaslikni  
o‘rgatsin senga  
alayhila’na Iblis.

Sen odamsan –  
qo‘lingni qon bilan yuvarsan, axir.  
Derazadan bo‘ylangan oyga,  
qarich-qarich bo‘lsin tishlaring,  
yirtib chiqsin sholvorni duming,  
uvilla,

bo‘riga aylanib uvilla.  
Barcha derazalar boqsin sen tomon  
hayratga tushib.  
Sen  
shu qadar odamlar ichida  
har kecha yolg‘izsan, axir.  
So‘ngra bekit derazani,  
pardani tort,  
chiroqni yondir!

## YO‘QLIGING QADAR

Yo‘qliging qadardir bu shahar,  
Odamlar sukunat tashiydi.  
Men seni kutganim ko‘lkalarda  
endi bir kechikkan zamon yashaydi.

Sigaret qoldiqlarin uchirar shamol,  
yolg‘izligim shaklidagi bu ko‘chalarda  
ko‘zoynakli qizlar  
unuttirar ko‘zlariningi,  
kaptarlar cho‘qiydi xayollaringni.  
Odamlar o‘z ko‘lkasi bilan  
izlaringni silab o‘tadi.  
Na muyulish, na yo‘lkadan chiqib qolmassan,  
Derzasi ko‘zga aylangan  
binolarning ko‘zi senga to‘rt.  
Mozoringga do‘ndi bog‘lar, xiyobonlar,  
o‘sha kundan buyon  
ustingga ekilar yangidan-yangi gullar.  
Yo‘qliging qadardir bu shahar...



## AKIF AHMADGIL



*1960-yilning 26-fevralida Ozarbayjonning Tovuz tumanida tug‘ilgan. M.V. Lomonosov nomli Moskva Davlat universitetining jurnalistik fakultetini bitirgan. Ikki she’riy va o‘ttizga yaqin tarjima kitoblarining muallifi, Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasining a’zosi. She’rlari turk, ingliz, rus, qozoq, makedon tillariga tarjima qilin-gan.*

### O‘LIMNING QARDOSHLIGI

*Qorabog‘ urushida shahid bo‘lgan Ozarbayjonning milliy qahramoni Allohberdi Bag‘irovga.*

Shahid bo‘lgan qardoshin koyigandi bir zamон,  
Abad dard toshi bo‘ldi endi gina-o‘gitlar.  
O‘z kenja qardoshini tuproqqa topshirgan on,  
O‘lim-la qardoshlikni har nedan ustun tutar.

Yelkalarda tobuting kiygaymi ol-qirmizi?  
Haqning hukmi bor bo‘lsa, so‘roq-savol ne kerak?  
Shirin jon bu tuproqning qarichiga arzirmi?  
O‘lim ishqqi muqaddas, o‘limimiz muborak!..

Qalbin esankiratgan qardoshining ruhimi?  
Turar botib qon-terga, polapondek talpinar.  
Dafn aylabon nafsi, daf aylabon qo‘rquvni,  
U o‘lim-la ont ichar, u o‘limga topinar.

O‘z kenja qardoshini koyigandi bir zamон,  
Zirqiratar ko‘ksini so‘z dog‘i, hech tuzalmas.  
Endi tushunib yetdi, hayotning azobidan,  
O‘limning qardoshligi azaliy va muqaddas.

## **CHANOOQQAL'A, KECHIRGIL, MEN SHUSHADAN KELGANMAN**

*(Chanoqqal'a urushining yuz yilligiga)*

Chanoqqal'a, kechirgil, men Shushadan kelganman.  
Ko'ksingga bitildi qahramonlik dostoni.  
Bilaman, hech kechirmas to'kilgan shahid qoni –  
U dostonni unutdim...  
O'z yurtimda qochqinman.  
Chanoqqal'a, kechirgil, men Qal'adan kelganman,  
Qaytar meni Qal'aga – qaytar meni Shushaga.  
Chanoqqal'a – qal'amsan! Yubor meni urushga!  
Bir zamonlar der eding: Chanoqqal'a egilmas!  
Bas, Xo'jali, bas, Shusha  
Qandayin zabit etildi?  
Botirlar qirildimi, odamlar kichraydimi?!

Umidlar parcha-parcha, umidlar singan shisha.  
Chanoqqal'a, kechirgil, huzuringga kelgandim.  
Boshimgacha gunohim aybimdan ham kattadir...  
Yurak berolmas bardosh  
Qorabog' ingrog'iga.  
Huzuringga kelgandim,  
Oq fotiha ber menga, qabul et tuprog'ingga.  
Ber g'alaba darsini!  
Suvingdan qo'sh suvimga,  
Qoningdan qo'sh qonimga!  
Tur oyoqqa, mudrama!  
Boshimni tik tutayin, qo'y, qorishsin qon terga!  
Men ham aytay so'ng karra...  
Chanoqqal'a, kechirgil, men otlandim urushga,  
Men otlandim Shushaga!..  
Gunohimni yuvishga...

## **YOMG'IR YOG'AR DENGIZGA...**

Chatnab-chatnab yorilibdi dudog'i  
Suv sizlikdan to'lqinlangan dengizning.

Suvsizligi bo‘lib hazin bir nag‘ma,  
Bulutlarga yetishibdi so‘rog‘i,  
Yomg‘ir yog‘ar dengizga...

Bulutlar ham boqar suvda aksiga,  
Yulduzlarning ko‘kda soni ozayar.  
O‘yinqaroq baliqlar ham oz qolar,  
Suzib ketsin bu yomg‘irdan aksiga.  
Yomg‘ir yog‘ar dengizga...

Poygakroqda to‘lqinlardan tosh qo‘yib,  
Kuzatsam bir sohibjamol ortidan.  
Uyqum kelsa, to‘ysam uyquga obdan,  
Moviy suvlar bolishiga bosh qo‘yib.  
Yomg‘ir yog‘ar dengizga...

Bir baliqchi ko‘kka otdi qarmoqni...  
Sabr ila u umidvor tikilar,  
Yomg‘ir suvi balki baliq keltirar.  
Ko‘kda ko‘zi, dod-faryodi qalbida,  
Ko‘zlasa ham... baliq yog‘mas, befoyda...  
Yomg‘ir yog‘ar dengizga...



## VAFO MURSAL QIZI



*1981-yilda Sumgait shahrida tug'ilgan. Ozarbayjon Pedagogika universitetini bitirgan. Bir qator adabiy tanlovlardan g'olib. Prezident stipendianti, uch she'riy va bir publitsistik to'plamlar muallifi, Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.*

### ONA HASRATI

Bir kichkintoy qo'lllarida hasratni,  
Tutib ketar, tashlamoqqa yeri yo'q.  
Sochlarini silab-siypab, erkalab,  
Yuragini ovutguchi biri yo'q.

Hovuchlab dard ta'min totgandan beri,  
Ko'rsa ham hovchida holva, ishonmas.  
Boshqa bolalarga ayting ertakni,  
Endi u ertakka hech parvo qilmas.

Ona qo'llarining taftini izlar,  
O'zgalar kokilin o'rgandan beri.  
Murg'ak chehrasida kadar soyasi,  
Bu dunyo yuzini ko'rgandan beri.

Jajji yelkasida og'ir yuki bor,  
Ona hasratidan zirqirar axir.  
Bir issiq po'stinni qizg'anmang undan,  
Sovuqdan to'rt fasl diydirar axir.

Izlar bekinmoq-chun ovloq joy ba'zan,  
Qizcha bolalarga qo'shila olmas.  
Sochini kim, qanday tarab, o'rsa ham,  
Ko'zguga boqqanda hech ma'qul bo'lmas.

Axir qaylardadir yashar onasi,  
Undan ancha nari, undan uzoqdir.  
Naylasin, na ranjir, na bor arazi,  
Birgina tasalli – onasi sog‘dir.

Ey ona, qaydasan, eshitgil, hayhot,  
Xayolda yetishsa senga farzanding,  
Surating ko‘ksiga bossa dilbanding,  
Sen uxbay olasan xotirjam, nahot?!

## GO‘ZAL AYOLLARNING BAXTI CHIRKINDIR

Sen meni sohibsiz qo‘yma, azizim,  
Qizg‘an begonadan, yaqindan meni.  
Sohibsiz ayollar xo‘b nochordirlar,  
Tashlama, sadog‘ang ketayin sening.

Qo‘ygan tuprog‘ingda qolarmi ayol,  
Axtar, mozorining yeri topilmas.  
O‘sha ko‘p deganing benomuslardir,  
Xudoyim, qidirsang biri topilmas.

Sen meni sohibsiz qo‘yma, g‘aribman,  
Goh sochim atrini tuysang kifoya.  
Meniki emassan, yaxshi bilaman,  
Kunda bir bor yo‘qlab qo‘ysang kifoya.

Adolatsizlarning tili uzundir,  
Bundaylar hamisha dag‘al, ters bo‘lar.  
Alloh haqqi, meni yolg‘izlatma hech,  
Hurib, hamla qilar itlar, shoqollar.

Mening sendan boshqa yaqinim bormi?  
Barcha odamlarning nomi hech kimdir.  
Men go‘zal ayolman, afsus, ming afsus,  
Go‘zal ayollarning baxti chirkindir.

## **QURBON BO‘LAYIN**

Bir o‘yin o‘ynading, sevgi o‘yini,  
Tushdim bu o‘yinga, qurban bo‘layin.  
Sen, sevaman, deding, men ham ishondim,  
Ishondim, bo‘yingga qurban bo‘layin.

Sevdim zulmingni ham, g‘uboringni ham,  
Sevdim sochlarimda barmog‘ingni ham,  
Sevdim ko‘zlarining xumorini ham,  
Qoshingning yoyiga qurban bo‘layin.

Yongan yurak bo‘ldi, dilroz aytdi til,  
Qalbim chechaklari sindilar chil-chil,  
Ko‘zim yo‘lda qolib, kunim bo‘ldi yil,  
Yilingga, oyingga qurban bo‘layin.

Voz kecha bilmadim bu ishqidan, netay,  
Boshim qayga uray, qaylarga ketay,  
Men qandoq borayin, men qandoq yetay,  
Chaqirsang to‘yingga, qurban bo‘layin?



## **IRODA ALILI**



*1965-yilning 20-aprelida Ozarbayjonning Sobirobod tumanida tug‘ilgan. Boku Davlat universitetida tahsil olgan. Hozirda mazkur universitetda muallima bo‘lib ishlaydi. Ozarbayjon journalistlar uyushmasi a’zosi, 40 dan ortiq maqola, 8 kitob muallifi.*

### **EY, SARIQ YAPROQ**

Derazamga tushgan, ey, sariq yaproq,  
Bilsayding, nelarni yodimga solding.  
Yolg‘onchi sevgimning shohidi bo‘lgan  
O‘scha kuzni eslab, xayolga toldim.

Nega derazamga tushding, bu ne hol,  
Uyg‘ondi qalbimda mudragan dardim.  
Buncha beayovsan, darddan qaddim dol,  
Sevgidan so‘ng xazon gulini terdim.

Toleim ham o‘zi bir sariq yaproq,  
Nasibam taqdirdan achchiq iz menga.  
Sevdim, andog‘ sevdim, bilmadim biroq,  
Bu sevgi za’faron so‘nggi kuz menga.

O‘tmishning bu qaytmas xotiralari  
Yomg‘ir loyqalatgan bir toshqin daryo.  
Bitar so‘zlarim, lek qalbim torlari  
Mudom hasratlardan chekadi faryod.

### **NABIRAM**

Yonimga kel, aziz nabiram,  
Senga bir oz o‘git aytayin.  
Ham vasiyat, hamda nasihat,  
Orzularim bayon etayin.

Bilki, Ona nomli Vatan bor,  
Sevging ila uni chulg‘ab ol.  
Yo‘latmagil yog‘iy nafasin,  
Zinhor g‘anim ko‘zlar boqmasin.  
Yomonlikning chop ildizini,  
Oqla onang non-u tuzini.  
Uni asra o‘zingdan ko‘proq,  
Avaylagin ko‘zingdan ko‘proq.

Zurriyodim, aziz nabiram,  
Ona nomli Vatan bor senda.  
U bo‘lmasa, so‘nar o‘chog‘ing,  
Usiz bo‘lmas bir sevinch chog‘ing.  
Ruhing birov erkalay bilmas,  
Sas-uningni tuygan topilmas.  
Vataningsiz yo‘q jismingda jon,  
Usiz urmas tomiringda qon.  
Bilki, usiz hech ne, bir xassan,  
Sen Vatan-la bir jon-u tansan.

Qarog‘im, sen saqla yodingda,  
Bobakimni, To‘marisimni!  
Dushmanlarni yerparchin etib,  
Shahid ketgan Muborizimni!

Unutmagil so‘zim hech qachon,  
Onadir senga Ozarbayjon!

## ONA

Terdim sen sevganing – alvon gullarni,  
Xontaxtam ustiga jim qo‘ydim, ona...  
O‘tishi qiyindir sensiz kunlarning...  
Sensizlikdan to‘ydim, men to‘ydim, ona...

Bugun har galgidan qo‘msadim ko‘proq,  
Singib ketgim keldi qaynoq ko‘ksingga...

Siypashingni istab sochimda titroq...  
Nafasingni tuygim keldi bir zumga...

Qo‘msab ketdim «bolam» degan tilingni...  
Dardlaring quyilib, tirnar dilimni...  
Kadar qadar oqdim, dard bo‘ldim qadim,  
Yig‘ladim, lek yoshdan taskin topmadim...

Seni toparman deb chunon izladim,  
Sog‘inch ado etdi, giryon izladim,  
Men sensiz parishon... men sensiz bejon,  
Kel, ona, umrimga qaytgil, onajon...

## ISTADIM

Istadim – qushlardek bir uya qurgum,  
Singdirib sevgimni devorlariga.  
Unutdim umrimga g‘am hamrohligin,  
Orzular olganda qanotlariga.

Istadim, chin dildan sevmak istadim,  
Kulgan saharlarni xushxabar, deya.  
Ko‘zingdan qalbimga otash tiladim,  
Qalbim dunyolarni sig‘dirar, deya.

Umrinning kuz chog‘i anduh hamdamim,  
Seni erkaydi orzu og‘ushi.  
Qish qahratonidek kechar har damim,  
Falakdan yog‘ilar dard-g‘am qarg‘ishi.

Seni gul bahorim, degandim, axir,  
Kuzda ko‘klamni men so‘roqlamayman!  
Sevgi ko‘rfazida ko‘priklar yopiq,  
Endi men orqaga aslo boqmayman!

## KAMOLA ABIEVA



*Ozarbayjonning Astara tumanida muallim oilasida tug‘ilgan. Ozarbayjon Davlat pedagogika universitetini bitirgan. Beshta badiiy kitob, o‘nlab ilmiy maqolalar va qo‘shiqlarning muallifi.*

## BALKI

Uyalib hammaga inson demakka,  
Xilma-xil nomlarni o‘ylab topamiz.  
Balki nelarnidir yashiray deya,  
Har kimni turli nom ila ataymiz.

Hammaga ayni ot qo‘ysak agarda,  
Merovni ziyrakdan ajratib bo‘lmas.  
Qiy nab qo‘yamiz-ku biz o‘zimizni,  
Nodondan oqilni ayirib bo‘lmas.

Har kimning qiymatin bila olsaydik,  
Nomlar ham ehtimol kamroq bo‘lardi...  
Faqat loyiqlarga INSON desaydik,  
Qiziq, nom olmagan qancha qolardi?

Vaqtida ozgina o‘ylab ko‘rsak gar,  
Ololmaymiz hech ne foniy dunyodan.  
Shunday yashaylikki, so‘ngra desinlar:  
Inson kelib... ketdi oliy dunyoga.

## MENGA ERTAK SO‘ZLA...

Menga ertak so‘zla, ertak, jon ona,  
Uxlay bu dunyodan bir oz xabarsiz.  
Uxlay tushlarimda ertaklar ko‘rib,  
Uxlay go‘dak misol g‘amsiz, kadarsiz.

Menga ertak so‘zla, aybi yo‘q, ona,  
Mayli, unda dushman, xoinlar bo‘lsin.  
Oq oti o‘g‘lonlar kirib maydonga,  
Dushmanga g‘alaba do‘lini chalsin.

O‘ynatib qilichin jasur yigitlar,  
Yog‘iy lashkari-la yuzma-yuz kelsin.  
Yurtin qo‘riqlasin, so‘ngida ellar  
Qirq kun bazm qurib, sevinsin, kulsin.

Menga ertak so‘zla, ertak so‘zlay qol,  
Kechaning zulmati meni siqmasin.  
Ul Semurg‘ qushini chaqir, chorlay qol,  
Bir nurli dunyoga u meni eltsin.

Devlar suluvlarni ossin sochidan,  
Quduqqa otsinlar Malikmamadni.  
Sohibijamollar qutulib dordan,  
So‘ngida tanisin mardni, nomardni.

Menga ertak so‘zla, ishonay senga,  
Qo‘rqmayin, onajon, olabo‘jidan.  
Ishonay ezgulik g‘alabasiga,  
Bilay, xalos etar dunyoni darddan.

Menga ertak so‘zla, onajon, degil,  
O‘tgan kunlarimiz ertak-da, bolam.  
Yaxshilik-la tugar har bir ertagim,  
Naqadar qo‘rinchli, mudhish bo‘lsa ham.

Menga ertak so‘zla, ertak, jon onam,  
Dunyomiz ham xuddi ertakdek bo‘lsin.  
Menga ertaklar ayt, afsonaginam,  
Bir oz ertak bo‘lay, aqlim ham to‘lsin.

## **SENGA ZORLIGIM**

Boqma ko‘zlarimdan oqmagan yoshga,  
Uni quritmoqqa kuching yetmagay.  
Bir umr mening-la yo mensiz yasha,  
Senga zorligim hech qachon bitmagay.

Esgan shamolni ham sevaman, bilsang,  
Qaydadir sochingni silaydi, deya.  
Yog‘gan yomg‘irni ham sevaman, bilsang,  
Sen nomli qo‘shiqni kuylaydi, deya.

Ey sen, chin xayolim, zumrad ko‘zligim,  
Dunyom ko‘zlaringga joylashib oldi.  
Ayta olmagan son-sanoqsiz so‘zim –  
Bedor yuragimda yig‘ilib qoldi.

Har yerda, har doim, bil, yonimdasan,  
Yaqinmi, uzoqmi, farqi bormikin.  
Mening ko‘zlarimda yashamoqdasan,  
O‘sha, SEN ularni tark etarmikin.

Sensiz o‘tgan yillar menga na darkor,  
Senli bir onning ham o‘rnin bosmagay.  
Ehtimol, ko‘zlarman bir umr tanho,  
Senga zorligim hech qachon bitmagay.

## **ISHONMADIM**

Ona, seni qo‘msadim,  
Ona, seni ko‘zladim....  
Yo‘lda qoldi ko‘zlarim,  
Bu yo‘l borsa-kelmasdir,  
Hech qachon u hech kimni  
Orqaga qaytarmasdir.  
Bir vaqtlar sen menga  
ertaklar anglatarding.

Ertaklarda borsa-kelmas yo‘llar bo‘lardi.  
Ularda ketganlar ortga qaytib kelardi.  
Balki umid berarding.  
Ehtimol umidlarning  
U borsa-kelmaslardan  
Qaytishini istarding,  
Men esa ishonardim....  
Ulg‘ayganda angladim  
Ertaklar onalarning uydirgan umidlari,  
Umidlar onalarning uydirgan ertaklari...



## MAMAD QODIR



*1960-yilda Ozarbayjonning Xachmaz shahrida tug‘ilgan. To ‘rt she’riy to ‘plam, qator qo ‘shiqlar muallifi, Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasining a’zosi.*

## GILOS DARAXTI

Assalom alaykum, giros daraxti,  
Yuraging nechukdir, nechukdir boshing?  
Ey, menga bobomdan meros daraxtim,  
Butog‘ing nechukdir, nechada yoshing?  
Bag‘ring yonmoqdamni naf keltiray deb,  
Bobom, momomga ust-bosh bergen daraxt,  
Bizlarga soyangda jannat yaratib,  
Urug‘-aymog‘imga osh bergen daraxt.  
Tutding, tirmashganga bahrang ilinib,  
Na bezding, na ketdi hafsala-mayling,  
Shoxlaring kesilib, tanang tilinib,  
O‘z o‘tingda pishdi murabbolaring.  
Hosil bergen sayin unib-o‘sarsan,  
Egil, qulog‘ingga bir sir aytayin.  
Turgan-bitganining chin saxovat ekan,  
Bundan buyon noming men pir atayin...

## ARG‘IMCHOQ

O‘tganlar kirdi tushimga,  
Unda onang hayot edi,  
Bolalarimning onasi  
Shirin qizaloq edi.

Arg‘imchoqda uchirardim,  
Yel ham senga oshiq edi.

Qahqahangdan titrab novda,  
Gul ham senga oshiq edi.

Har gal ortga qaytganida,  
Quchog‘imda bir to‘xtarding.  
Kelganingda uxlab qolib,  
Ketganingda uyg‘onardim.

...Uyg‘ondim, ota, ona yo‘q,  
O‘tmishda xush damlarimiz.  
Endi o‘scha arg‘imchoqda  
Uchardi farzandlarimiz.

– Rostini ayt, sevardingmi?  
Bu bir tush, kim ham biladi?!  
Uyqudan uyg‘otma meni,  
Uyg‘onsam, onang o‘ladi....

## AYOL

Nega sevging ila jon berding menga?  
Kimimsan, nimamsan, go‘zalim ayol?!

Umrimga chiroqdek nur taratasan,  
Chiroq-la izlanib kezilgan ayol.

Chechak yuzin to‘sar gul nafasingdan,  
Qalbim parvoz etar shirin sasingdan,  
Umrimning, kunimning oyinasindan  
Oy yog‘dusi misol sizilgan ayol.

Bulbulin chorlar gul parda ortida,  
Suzar malak misol ishq qanotida,  
Ko‘ksida sevgining haroratidan  
Qadamlari yerdan uzilgan ayol.

Bu sensan, uy qurib, ko‘ngillar tikkan,  
Evazga g‘am-qayg‘u, azoblar chekkan,

Sahro yuraklarga chechaklar ekkan,  
Sochiga binafsha tizilgan ayol.

Bahorni tang etdi tarovati-la,  
Faxrimdir oqqushdek sadoqati-la,  
Dillarni zabt etdi muhabbati-la,  
Hur-u malaklardan tuzilgan ayol.

Yomonim yashirib, xo‘b xayr aylading,  
Xoja aylading sen, sen pir aylading,  
Meni bir devona shoir aylading,  
Sha’niga kunda she’r yozilgan ayol...



## MAORIF SULTON



1956-yilning 10-aprelida Ozarbayjonning Ismoilli tumanida muallim oilasida dunyoga kelgan. Moskvadagi M. Gorkiy nomli Adabiyot institutining poeziya bo‘limida tahsil olgan. Bugungi kunda “Gobuston” san’at majmuasida bosh muharrir muovini hamda hozirgi zamон shoirlarining asarlaridan iborat bo‘lgan “Poeziya kuni” majmuasining tuzuvchisi va muharriridir. Ilk she’rlari 1973-yilda Ismoilli rayonining “Zahmatkash” gazetasida chop etilsa-da, jiddiy ijod bilan 1976-yildan buyon shug‘ullanib keladi. Asarlari Respublika va Sobiq Ittifoq respublikalari matbuotida muntazam e’lon qilib boriladi. She’rlari ko‘plab qardosh tillarga tarjima qilingan. Bir qator ijodiy seminar-mushoiralar va xalqaro adabiy tadbirlarning ishtirokchisi. Ko‘pgina adabiy mukofotlarga sazovor bo‘lgan. Rus adiblari asarlaridan tarjimalar qilgan. “Dunyo nur bilan to‘la”, “Dunyomga ochilgan eshik” kitoblarining muallifidir.

Deydilar,  
vaqt keladi...  
U Vaqt qay vaqt keladi?  
Bir ko‘klam saharimi –  
quyosh kulib boqqanda?  
Bir zimiston kechami –  
kadar meni bo‘g‘ganda?  
Nastarin faslidami,  
Umrim sevgi chog‘imi?  
Hozirdan isitaymi  
balki xonadonimni –  
kelganda sovqotmasin...  
Xayollarga botmasin:  
Kutmapti-ku, deb, meni –  
sevgili mehmonini.  
Uni qarshi olmoqqa

balki vaqt topolmadim –  
ish-la andarmon edim.  
U Vaqt qay vaqt keladi?  
U Vaqt qaydan keladi?  
Uzoqlardan keladi.  
Yulduzlarning yonidan,  
Kelajakdan keladi!...  
U Vaqt qachondir meni  
Albatta solgay yoda.  
Bexos kelib, ko‘rsaki –  
Men...  
yo‘qman bu dunyoda...

## KARVON

O‘tar tuya karvonlari...  
Sarbonlari qumlarga bota-bota...  
Karvonlarda uxlagancha  
go‘dak bolalar kechar...  
Ichilmas suvlardan ichar,  
Kechilmas cho‘llardan kechar.  
Ko‘char u eldan bu elga,  
Ko‘char u qo‘ldan bu qo‘lga...  
Necha qasrdan o‘tar,  
Necha asrdan o‘tar.  
Falastindan o‘tar,  
Misrdan o‘tar...  
O‘tar tuya karvonlari...  
Sarbonlari qumlarga bota-bota...  
Karvonlar ketidan  
tanklar, nayzalar o‘tar...  
Tank sasin bosib ketar  
tuya qo‘ng‘iroqlari.  
O‘tar tuya karvonlari...  
Bir titroq tutar qo‘rquvdan meni,  
Uyg‘otar tunlari uyqudan meni.

\*\*\*

Ayrildik,  
Ayriliq tushdi oraga...  
Ayriliq mavridi sovuq bir o‘pish...  
O‘zi uchrashgandik ayrilmoq uchun –  
G‘alati tasodif, ajib ko‘rishish...  
Xo‘b qiziq, bilolmam, bilolmam nechun  
Men seni hali ham yodga olaman,  
Men seni hali ham unutolmayman...

Manzil ham olmadik bir-birimizdan –  
Qalbimiz, tuyg‘umiz tosh edi xuddi.  
Bunchalar begona, bunchalar sovuq,  
Dushman ham dushman dan ayrilmagandi.

Bu ham bir ko‘rgilik, bir qismat ekan...  
Mening ham yuzimga baxt kularmikan?  
Ko‘zlasam umrimning oxiri qadar,  
U karvon ortga qaytib kelarmikan?

Demasman, ko‘ksimda zirqirar yaram,  
Demasman, men sensiz tosh bo‘lib qoldim.  
Shunchaki bilolmam, bilolmam, nechun  
Men yodga olaman seni hali ham,  
Men seni hali ham unutolmadim...

Umrdan nechalab odamlar kechar,  
Ko‘rdingki, yodingda biri ham qolmas.  
Naq o‘tingdan kirib, kulingdan chiqar,  
Ayrilar, hech qanday o‘rni ham qolmas.

O‘zi uchrashgandik ayrilmoq uchun...  
Xo‘b qiziq, bilolmam, bilolmam nechun  
Men seni hali ham yodga olaman,  
Men seni hali ham unutolmayman...

\*\*\*

Yuksaklarda ko‘rdim seni sevganda,  
Gulim, manim uchun bu ham kadardir.  
Mening hasratimning, g‘amimning yoshi –  
O‘sha sevgimizning yoshi qadardir.

Aylanding men uchun xayolga endi...  
Oh, seni quvarman, tuta olmayman.  
Shu qadar yuksakda ko‘rdimki seni,  
O‘zim u cho‘qqiga yeta olmayman.

\*\*\*

Ko‘p narsa o‘rgatdi hasrating menga...  
O‘z-o‘zimga so‘ylamoqni o‘rgatdi,  
Yolg‘izlikka ko‘nikmoqni o‘rgatdi.  
Mahzun-mahzun kuylamoqni,  
Bedor tong ottirmoqni,  
Yulduzlarni sanashni,  
Senga umidli maktublar bitishni,  
Seni ardoqlashni, erkalashni,  
Seni ahyon-ahyonda aldashni o‘rgatdi.  
Ko‘p narsa o‘rgatdi hasrating menga...

\*\*\*

Seni chiziyapman...  
Yuzingni o‘xshatyapman,  
Ko‘zingni o‘xshatyapman,  
O‘zingni o‘xshatyapman,  
Qo‘ling, barmoqlaringni,  
Yongan yonoqlaringni,  
Otash dudoqlaringni,  
Qoshingni o‘xshatyapman,  
Yoshingni o‘xshatyapman...  
Hasratingni chiziyapman...  
Seni chiziyapman...

Qalbingni chizyapman....  
Qalbingdagi mensizlikni,  
Hayotimdagи sensizlikni chizyapman...  
O‘xshata olamanmi?..

## ESHIK

1

Yuzimga yopilgan eshik,  
Ochil endi, ochila qol!  
Ochilgil bir nurli kunga,  
Baxtiyor tongni qarshi ol!  
Yuzimga yopilgan eshik,  
Qachondan beri mushtlayman.  
Seni tepkilab, urib,  
Savalab, so‘kib-so‘zlayman.  
Yuzimga yopilgan eshik,  
Qismating achchiq bunchalar,  
Bir yuzingda men turibman,  
U tarafda kimlar turar?  
Yuzimga yopilgan eshik,  
Holim ko‘rgan dil dog‘ladi.  
Kimlarda sening kaliting,  
Seni kim bunday bog‘ladi?  
Yuzimga yopilgan eshik,  
Na seni ocha olaman.  
Na seni urib, sindirib,  
Na sendan qocha olaman...

2

Mening o‘zim ham bir eshik,  
Dard-u alam mendan o‘tar.  
Sevinch minib saman otga,  
Chopgancha naridan o‘tar.  
Mening o‘zim ham bir eshik,  
Ochilaman, yopilaman.  
Ba’zida ko‘zga ilinmay,

Ba'zan esa turtilaman.  
Mening o'zim ham bir eshik,  
Hamma bosib o'tar meni.  
Biri o'tar silab-siypab,  
Mingi kelib so'kar meni.


3

Ochil endi, yopiq eshik,  
Bir ko'ray, u yoqda ne bor.  
Umrим ham bo'lmoqda ado,  
Bir ko'ray, u yoqda ne bor.  
Bu azim bir g'am dengizi,  
To'lqin uloqtirar bizni,  
Bu azobdan qutqar bizni –  
Bir ko'ray, u yoqda ne bor.  
Hasrat changallar qo'limni,  
Ham o'ngimni, ham so'limni,  
Sen ham to'sding-ku yo'limni,  
Bir ko'ray, u yoqda ne bor!

4

Yuzimga yopilgan eshik,  
Sendan u yoqda, narigi tarafda  
Balki qabrim qazilgandir,  
Qabrtoshim yozilgandir?  
Mozorim tomonga o'tkazib yubor!  
O'tiray bo'sh qabrim yonginasida  
Otamdan, onamdan, opamdan avval  
O'zimga o'zim bir yig'lab olay.  
Yuzimga yopilgan eshik,  
Balki peshonamga yozilgan baxtim  
Turib u yog'ingda menga mahtaldir.  
O'tkaz meni, o'tkaz u taraflarga –  
Bir oydin kechaga,  
nurli kunduzga,

Lola to‘la, uyur to‘la dalaga!  
Balki u tarafda pora, xiyonat,  
O‘g‘irlik, baxillik yo‘qdir, kim bilsin...  
Balki u tarafing tamiz ekanmi,  
Balki u tarafing Tabriz ekanmi?!  
Yuzimga yopilgan eshik,  
Ochil endi, ochila qol!  
Ochilgil bir nurli kunga,  
Baxtiyor tongni qarshi ol!



## NIZOMIY ZO‘HROBIY



*Turkshunos, shoir, publitsist, tarjimon Musaev Nizomiy Zo‘hrob o‘g‘li 1955-yilda Ozarbayjonning Yordimli tumanida dunyoga kelgan. Mirzo Fatali Oxundov nomli Ozarbayjon Davlat rus tili va adabiyoti pedagogika institutini tugallagan. Jahon xalqlari Yozuvchilar uyushmasining a’zosi, ushbu jamiyatning Ozarbayjondagi Bosh vakili hamda Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, o‘nlab tarjimalar, tarix va madaniyatga oid maqolalar, uch tarixiy poema muallifi. 2016-yilda vafot etgan.*

## SO‘RAGIL OYOG‘ING IZIDAN MENI

Ko‘rmadim to‘yguncha bir zavq-u safo,  
Nechun nari etding o‘zingdan meni?  
Hijroning chektirdi bunchalar jafo,  
O‘tkazar ignaning ko‘zidan meni.

Ko‘nglim yor dastidan dod solib yig‘lar,  
Qalandi tog‘ misol ko‘ksimga dog‘lar,  
Ketmas xayolimdan qaymoq dudog‘lar,  
Ayirding totidan, so‘zidan meni.

Toleimga chizgan naqshlarining mudhish,  
Qoldi na o‘sha qalb, na o‘sha boqish.  
Bahorning o‘rniga keldi qorli qish,  
Osding yuragingning muzidan meni.

Sensiz Oyim botdi, so‘ndi Quyoshim,  
Qoldi zimistonda bu mushkul ishim.  
Sig‘dira bilolmas ruhimni loshim,  
Siqadi qabr misol bu zindon meni.

Ko‘rmadi parvona mendayin bir sham,  
Ishqim doston etdi dunyoga pesham,  
U gul yonog‘ingda bo‘sа bo‘lmisham,  
O‘chira olmassan yuzingdan meni.

Oshiq bo‘ldim senga nihol yoshingda,  
Kechsa-da zamonlar, umring qishida  
Ko‘rsang – o‘choq yonur bir tog‘ boshida,  
Tani olovidan, cho‘g‘idan meni.

Tortarsan zulfiq-la meni dorga sen,  
Ketarman ortingdan ketsang qayga sen,  
Bir kun rahming kelib meni izlasang,  
So‘ragil oyog‘ing izidan meni.

## **KELIN**

Kuzatdim chang, g‘ubor ichra  
Xo‘b guliruxsorni, kelin.  
Sayladim ming zebo ichra  
Men seningdek yorni, kelin.

Qadding nozik, beling inja,  
Tiling novvot, labing g‘uncha,  
Ko‘rmadim seni topguncha,  
Bundayin dildorni, kelin.

O‘xshading o‘t ham to‘fona,  
Kul bo‘ldimku yona-yona,  
Ishq bog‘idan men devona  
Uzguncha gulnorni, kelin.

Ta’birlab taqdir imzosin,  
Chalding sen ko‘nglimning sozin,  
Ko‘rmading, debon, chek nozim,  
Men umri abgorni, kelin.

Kipriklaring hozir qasdga,  
Qasding kormi mendek mastga?!

Tunlar yoyib soching asta,  
Qo'y ko'ksimga morni, kelin.

Men ovingman, tole sanda,  
Bag'rim yoqqan kokil sanda,  
Men so'nmasman, elasang-da  
O't ustiga qorni, kelin.

Ovga bir boq, o'qqa kelur,  
Boshin egib, cho'qqa kelur,  
Qoni oqa-oqa kelur,  
Qadami sen sori, kelin.

Qiynab meni, qalbim dog'la,  
Tog' ustiga tog' bos, dog'la,  
Ochgil yaram, ko'rib yig'la,  
Yuv shabnam-la zorim, kelin.

Yonmoq azaliy peshammish,  
Bunday hayot naqadar xush,  
Samandarman, bir yonar qush,  
Xushlamayman sorni, kelin.

Safsar – Zo'hrobiyning yori,  
Hayot – bol, sen-chi – bolari.  
Bo'lsang, axir, ne qilardi,  
Bir umr bedorim, kelin.



## **ODILA NAZAR**



*Odila Hasan qizi Nazarova, Naxchivon Muxtor Respublikasining Sharur tumanida tug‘ilgan. Filologiya fanlari doktori. Besh she’riy, ikki ilmiy kitob muallifi. Ozarbayjon Respublikasi Tahsil masalalari institutida katta ilmiy xodim lavozimida ishlab kelmoqda.*

### **ORZULARIM BOR EDI...**

Orzularim bor edi –  
Qo‘l ushlashib kezsaydik.  
Ruhimning odamidek,  
Bir jonga jo bo‘lsaydik.

Etsaydik visolni toj,  
Armonlilar xotiriga.  
Chulg‘asaydik dunyoni  
Muhabbatning atriga.

Xush sayr etib, xush kezib,  
Hayot gashtin sursaydik.  
Hasratdan nari bo‘lib,  
Biz qo‘sha qarisaydik.

Koshki sen-la bir umr  
Davr-davron sursaydik.  
Ayni kunda jon berib,  
O‘limni o‘ldirsaydik.  
Orzularim bor edi...

### **BIR SHE’R YOZAMAN**

Bir she’r yozaman bu kecha senga,  
Lek kunduz o‘qima, qurban bo‘layin.  
Junjikib qolaman sovuq to‘shakda,  
Sevsang, to‘g‘ri emas, o‘qi mendayin...

O‘qi, tush kechaning siri-sehriga,  
Xayol bo‘l tumanli boshim ustida.  
Titroq qo‘llaring-la siypala sochim,  
Bo‘shliq ezar meni, ko‘nglimni ista.

Seniki bo‘lsin Oy, yulduz bas menga,  
Uni ham sen bilib, chiroq aylayman.  
Misralarga tizib barcha yaxshini,  
Yomonni o‘zimdan yiroq aylayman.

Yopig‘liq qutida saqlayman yig‘ib,  
Toleimga bo‘lgan shikoyatimni.  
Bir she’rga bitaman bor tuyg‘ularim,  
Ishqqa taslimlikning hikoyatini.

Sig‘dira bilmasam hijolarima,  
Bu ishqni bag‘ishla kechalarima.  
Bir she’r yozadirman bu kecha senga,  
Lek, qurbon bo‘layin, kunduz o‘qima.

\*\*\*

Kuz hokim bo‘libdi g‘azallarimga,  
Yozganim varaqda sarg‘ayib so‘lur.  
Mendan ranjibdi, deb asti o‘ylama,  
Sukunat ba’zida hasratdan bo‘lur.

Bahor tabiatning maylidan kechdi,  
Tabiat anduhdan xastalanibdi.  
Bulutlardan mening ko‘zim suv ichdi,  
Xayollarim qayta dastalanibdi.

Umid behad kuchli, bardoshli kuzga,  
Oshib o‘tar qishning muz-ayozidan.  
Bir sevgi tortqilab yetaklar meni,  
Kechirar hijronning tor bo‘g‘ozidan.

Hali yetadi bu nijronga tobim,  
Tunlarim ulayman saharlarimga.  
Vaqt kelar, yozaman ko‘klamdan, hanuz  
Kuz hukmron erur g‘azallarimga...

## **EGILIB KO‘NGLIMGA BOQ**

Umrning kuz chog‘i ko‘rishdik yana,  
Endi senga so‘zim yo‘qdir degani.  
Yuzdan yaxshi tanimassan, ehtimol,  
Egilib sen ko‘nglimga boq, sevganim.

Bahor edim, chechak edim, soz edim,  
Oshiq eding mendagi sarv turishga.  
Yillar o‘tdi, yoyga do‘ndim, ko‘zladim,  
Menman hanuz sensizlik-la kurashgan.

Dunyo ayni, sevilganlar, sevganlar...  
Boshqachadir hikoyasi, farqlidir.  
Bobosan sen, nabira bor, muqarrar,  
Hayotingning ular mazmun, rangidir.

Men-chi, yolg‘iz, xayollarga tolaman,  
Ularga men sening isming qo‘ygandim.  
Yuzdan yaxshi tanimassan ehtimol,  
Egilib sen ko‘nglimga boq, sevganim.



## OYBENIZ ALIYOR



*1980-yilda Ozarbayjonning Shabran shahrida tug‘ilgan. Hozirda Shabran shahri Xoqoniy nomli She’riyat uyining rahbari vazifasida ishlaydi. Oilali. Ikki farzandi bor. Besh she’riy kitob muallifi, Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasining a’zosi.*

## KO‘ZLARIN BOG‘LAGAN GO‘DAK

*(Xo‘jalida bir go‘dak yuzini qo‘lchalari bilan pana qilgancha jonsiz yotardi)*

Ko‘zlarin bog‘lagan go‘dak,  
Onam deb yig‘lagan go‘dak,  
Yurtingga yukmish kulishing,  
Tuproqqa yukmish yurishing,  
Olamga yukmish boqishing.

Ko‘zlarin bog‘lagan go‘dak,  
Qalblarni dog‘lagan go‘dak,  
Ustingga tuman keldimi?  
Onang sochlarin yuldimi?  
Alloh senga yod bo‘ldimi?

Ko‘zlarin bog‘lagan go‘dak,  
Pokligin saqlagan go‘dak,  
Yotishing shirin buncha ham?  
Axirsovqotasan, bolam...  
Tur, yopib ol yerni, erkam.

## AYRILIQ

Alloh, bundoq ham ayriliq bo‘larmi?  
Yo‘llarga to‘shalgan xazon ayriliq.

Har kecha bir she'r yozdirur menga,  
Ishvali ayriliq, tannoz ayriliq.

Kimgadir uzangan yo'llar boshqa bir  
Kimsaga tolemi, qismatmi, nadur?  
Pokiza sevgilar bo'lganda ado,  
Butun ayriliqlar bir bahonadur.

Ayriliq nomi-la chiqibdi yo'lga  
Yana bir hayotning g'am-ozorlari.  
Oq kokillar aro yig'ib asrayman  
Ayriliqdan tushgan oh-u zorlarni.

Sevgilar andog' kim, oddiy va siyqa,  
Sevganga hammaning kulgisi kelar.  
Eng uzun ayriliq shu bo'lsin deya,  
Odamning til tortmay o'lgisi kelar.

\*\*\*

Hamma sening qoshyingga, ko'zingga,  
dudoqlaringa termuladi,  
Yuragingni ko'ra oluvchi kimsa  
hech topilmagay...  
Hamma sening qo'lingga, kokillaringga,  
oyoqlaringa termuladi,  
Yuragingni ko'ra oluvchi kimsa  
hech topilmagay...  
Eng alamlisi nedir, bilasanmi?  
Yuragingni bergen odaming ham  
Uni ko'rolmagay....

## O'N YILDIR

Yana yo'lim tushdi qabriston tomon,  
So'zsiz turibmiz, men hamda qabrlar.

Ko‘z yoshim oqmaydi anchadan buyon,  
Ko‘kdan Alloh ko‘rur, yerda qabrlar.

Bir go‘dak qabriga tikildi ko‘zim,  
Bundan o‘n yil avval bag‘rimda edi.  
Qanday shirin edi u jajji qo‘zim,  
O‘n yilki, shu mitti qabrda endi.

Issiqmikan mening bag‘rimdek qa’ri,  
Yangi uyi bo‘libdi ko‘hna qabriston.  
O‘n yildir, sovqotar lo‘ppi qo‘llari,  
Qulog‘i ham og‘rir, hoynahoy, yomon.

Gohi seskanaman birov urgandek,  
Ustimpaning qamchisi ketmas.  
Tuproqning to‘sidan emar sutini,  
Oh, mening siynamning sanchig‘i bitmas.

Hech meni tark etmas o‘y-xayollarim,  
Derlar, o‘tdi-ketdi, ezilma buncha.  
O‘n yil – taramayman ipak sochlaring,  
Ehtimol uzayib qolgandir ancha.

Bilmadim, beladi u kun seni kim,  
Bu fikr yetaklab keltirdi meni.  
O‘rning sovuqmikin, taging nammikin,  
Keldim, o‘zim ochib, belayin seni.



## RASMIYA SOBIR



*Rasmiya Sobir (Ashrapova Rasmiya Sobir qizi) 1973-yil 5-noyabrda Ozarbayjonning Massali tumanida tug'ilgan. Inshoot muhandislari universitetida iqtisodchi-muhandislik ixtisosligi bo'yicha ta'lim olgan. Iqtisod fanlari doktori.*

*Rasmiya Sobir Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi a'zosi. "Qamalgan sukunat", "Rangsiz ko'z yoshlar", "Unutding meni", "Sohilsiz odam" nomli she'riy kitoblar muallifi. Shoiranining she'rlari xorijiy mamlakatlarda chop etilgan. Uning ijodidan namunalar o'zbek tilida ilk marotaba e'lon qilinmoqda.*

## SUVLAR KO'ZIMDA TIN OLAR

### UYQUDADIR

Bu dunyodan oqib ketgan  
Suвлar ko'zimda tin olar.  
Chertma qalbimning eshigin,  
Yotgan umidlar uyg'onar.

Uyg'onib qolar tilaklar,  
Sevgi sendan olar o'chin.  
Muhabbat g'am dengizidir,  
Istaklarim och baliqchi<sup>12</sup>.

Tashqarida shamol esar,  
Gul-u chechak qo'rquvda.  
Bu hayotda ko'rganlarim –  
Hamma narsa uyquda...

---

<sup>12</sup> Chag'alay qushlari nazarda tutilmoxda.

## **AYOL QO'LLARI**

O‘xshar har bahorda  
Daraxtda bo‘rtgan yaproqqa  
Ayl qo‘llari.  
G‘ij-g‘ij gullar,  
Yaproq yozar  
Va to‘kilar tuproqqa.  
yer yuzining ayblarin berkitar  
Ayl qo‘llari.  
To‘kilar tuproqning yuziga,  
Bu holdan yoyilib kuladi tuproq.  
Har bahor insonlarning soddaligidan  
Kulib yuboradi tog‘.

## **BIR NUQTADA**

Bir nuqtada birlashadi  
Hamma narsa –  
Bori orzu,  
Bor xayollar,  
Bori sevgi.  
Shu bir nuqta eng so‘nggi bekat,  
Istasang, qishloqqa bor,  
Yo istasang, yerga bot.  
Bir nuqtadan boshlanib,  
Bir nuqtada bitajak hayot.

## **HECH NARSA**

Hech bir narsa qilmaslik kerak,  
Na sevmoqlik,  
Na nafrat etmoq.  
Hech bir narsa qilmaslik kerak,  
Na yod etmoq  
Va na unutmoq.

Hech bir narsa qilmaslik kerak,  
Na yashamoq  
Va yana o'lmoq.  
Faqat yolg'iz ko'kka uzanib,  
Sayr etmoq  
Va yana kerak...

Sog'inmoq,  
Sog'inmoq,  
Sog'inmoq...

### **OG'OCH PARCHASI**

Ikkimizni ham yondirar  
Sevgi otli bir o'choq.  
Mening dardkashim o'tindir,  
Sen og'och kabi yonding.  
Men esa odam kabi.  
Tutunda ham ruhimiz birga,  
“Olov va suv birlashgan kabi”.  
Kul qolmoqda sendan bir hovuch,  
Mendan esa bir hovuch tuproq.  
Go'zal yondik qaysi birimiz,  
Ey og'ochning mitti parchasi?

\*\*\*

Bilsang edi, yo'qligingda  
Nelar bo'lganin, onam.  
Ikki ko'zim – ikki chashma,  
Quridi sog'inchim ham.  
Qaytishni bilmagan yo'llar  
Sabrimizni yorib chiqdi.  
Qop-qora shamollar esdi,  
Yurt ichida bir o'choqning  
Sensiz ko'zi so'ndi chak-chak,  
Teskari aylandi falak.

Bunday aytilmasdi o‘lan,  
Sen to‘yimda bo‘lmading, onam.  
Men esa baxtli bo‘lmadim.

## QO‘RQUV

Har bir o‘tin xotirasida  
Qo‘rquv bor,  
O‘chmoq qo‘rquvi.  
Har bir ketgan yo‘lning so‘ngida  
Qo‘rquv bor,  
Qaytmoq qo‘rquvi.  
Har bir tanholikning jonida  
Qo‘rquv bor,  
Suyanmoq qo‘rquvi.  
Har bir qo‘rquv ichkarisida  
Qo‘rquv bor,  
Uyg‘onmoq qo‘rquvi.  
Har bir boshlagan ish so‘ngida  
Qo‘rquv bor,  
So‘ngiga yetmoq qo‘rquvi.  
Mening jon-jonimda  
Qo‘rquv bor,  
Avval seni,  
So‘ngra o‘zimni  
Yo‘qotib qo‘ymoq qo‘rquvi.

## O‘TAR

Ko‘p quvonma bu yozlarga,  
Umr so‘nggi qishdan o‘tar.  
Daqiqalar, kunlar, yillar  
Hammasi bir yoshdan o‘tar.  
Bu dunyoni sen ham tani,  
Iloji yo‘q, o‘lim tutar.  
Bu falakning bor farmoni –  
Ne qilsang-da toshdan o‘tar.

## MEN SHU YERDAMAN

Men shu yerdaman –  
Bo‘lishim kerak yerda.  
Falakdan keladigan  
Har turli baloni kutyapman.

Men shu yerdaman –  
yerning ustida,  
Qayg‘ular ortidan  
“Ko‘p shukur” deyman.  
Men shu yerdaman –  
Umidlarim-la  
Ming bir tilak bilan ovvora.  
Men shu yerdaman –  
Umr ismli  
Bir qo‘rquvning ichida  
Sarflayapman sevinchlarimni,  
Va sizlarga qichqiryapman  
Siz, Siz qayerdasiz,  
Yashamagan go‘zal kunlarim?!

## QOLMADI

Yillarimni kuzatdim,  
Na yoz, na qish qolmadi.  
Nima bo‘lsa – xarjlab bo‘ldim,  
Umrimda yosh qolmadi.

O‘ldirib, so‘ng dafn etdim,  
So‘ngra o‘zni ovutdim.  
Kechir, seni ham unutdim,  
Eski darddoshim qolmadi.

Ko‘zimdan ham qochdi uyqum,  
Ko‘kda bulut yig‘lar yum-yum.

Osmonlarga chiqdi ruhim –  
yerda ishim qolmadi.

## DARD BOG‘CHASIDIR BU YURAK

Umrim – kunim qush qanotli,  
Qismatim ham ba’zan totli.  
Kelmas edim Hayot otli –  
Teatrga boqib ketsam.

Dard bog‘chasi bu yurakdir,  
Ham qattiqqa’l, ba’zan ipak,  
Ayrilarkan jon na kerak –  
Qo’lllarini siqib ketsam.

O‘limni saqladi ko‘z-qosh,  
Ketayotgan umr talosh.  
Bo‘ynimga taqib xarsangtosh,  
Suvda og‘ir oqib ketsam.

Umrim bo‘yi o‘ylayapman,  
G‘am libosin kiymayapman.  
O‘lim kelsa bilmayapman –  
Qay tarafdan chiqib ketsam.

## KO‘K YUZINING TOSHI OG‘IR

Bu yosh ko‘zimga sig‘maydi,  
Ko‘zlarimning yoshi og‘ir.  
Falakka changi chiqmaydi,  
Hayotimning boshi og‘ir.

Ichi quruq, cho‘l-u tashim  
Ko‘z yoshimdan namlanishim.  
Taqdirdan maktub olishim –  
Bu umrning qishi og‘ir.

Yo‘lim qara, bu tosh nima?  
Bu bahor ne, bu qish nima?  
Falak saqlashni bilmadi,  
Ko‘k yuzining toshi og‘ir.

### **HAYOT – IKKINCHI RAQAMMISH**

Uzoqdan boqqan falakning  
Ko‘zi yolg‘iz menga tushdi.  
Nechun o‘zining dardini  
Mening ust-boshimga bichdi?

Yeb-ichganim faqat g‘ammish,  
Yarmi quruq, yarmi nammish.  
Hayot – ikkinchi raqammish,  
Jahonimni siqib ichdi.

Na umidim, dil to‘lmadi,  
Ekkanimni yer o‘rmadi.  
Ko‘zlarim boqib ko‘rmadi –  
Umr qay tarafdan o‘tdi.

### **DUNYONING HAR TARAFIDA**

Dunyoning har tarafida  
Bulutlar bir xildir,  
Yomg‘irlar boshqa.  
Dunyoning har tarafida  
Quyosh bir xil,  
Issig‘i boshqa.  
Dunyoning har tarafida  
Ko‘k yuzi bir xildir,  
Yulduzlar boshqa.  
Dunyoning har tarafida  
Taqdirlar bir xil,  
Sevinch boshqadir.

Dunyoning har tarafida  
Zamon bir xil,  
Vaqt boshqa-boshqa.  
Dunyoning har tarafida  
Vatan bir xil,  
Vatandosh boshqa.  
Dunyoning har tarafida  
Onalar bir xildir,  
Avlodlar boshqa.  
Dunyoning har tarafida  
Savollar bir xil-u,  
Javoblar boshqa.  
Dunyoning har tarafida  
Bir xillik bir xildir,  
Farqlilik boshqa.

\*\*\*

Vaqtning ortidan qarayman,  
Yuk tashir charchagan kemalar –  
Bu sohildan narigi sohilga.  
Horg‘inman men ham –  
Yelkamda dard yuki og‘ir.  
G‘urbatga ketgan kema,  
Mening tug‘ma dard yuklarimni  
Tashib berasanmi tushirmay –  
Bu sohildan narigi sohilga.



## RAFIQ HUMMAT



*1965-yil 13-fevralida Gruziyaning Bo‘rchali tumanida dunyoga kelgan. Tbilisi Davlat pedagogika universitetini tamomlagan. Prezident stipendiyasi sohibi. Asarlari matbuot sahifalarida muntazam e’lon qilib boriladi. Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi Gruziyadagi bo‘limining rahbari. 2001 yilda “Salom, dunyoning egasi” kitobi nashrdan chiqqan.*

### SEN KETDING...

Abri nayson misol yog‘ar ichimga,  
Qaylarga sig‘diray bu kadarni man?  
Ko‘chalar nogahon qoldi huvillab,  
Sen ketding, naylayin bu shaharni man?

Yulduzlar botmasdan jonim chiqsaydi,  
Koshkiydi ko‘rmasam bu saharni man.  
Qo‘qqisdan zimiston qa’rida qoldi,  
Sen ketding, naylayin bu shaharni man?

Nafasi siqilgan bemordek tentib,  
Ketaymi saqlab dilda bu qahrni man?  
Uff... men bu shaharni qanday sevardim!  
Sen ketding, naylayin bu shaharni man?

Bunchalar zaifman, Alloh!..  
Yashadim...  
Shu kichik hasratda bir mahsharni man.  
Shimol o‘rmonidek qahraton har yon,  
Sen ketding, naylayin bu shaharni man?

Dallidek kezarmen bo'sh ko'chalarda,  
Ishqning tilanchisi, bir sarsariman.  
...Qaytgil, ko'ksimga sen uch chinnigul qo'y,  
Qayt, yana sevayin bu shaharni man...

## HAR SAHAR YANGIDAN SEVAMAN SENI

Har oqshom, har kecha, har sahar, har kun  
Yangi oq sochimda... sevaman seni.  
Har kecha bo'larman uyquga surgun,  
Har sahar yangidan sevaman seni.

Men bir ishq quliman... qudratim yetmas,  
Sultonlik taxtidan yiqolmam seni.  
Har kecha uyqu ham meni elitmas,  
Har sahar yangidan sevaman seni.

Yuz dard-u g'amming-la rassom misoli,  
Dardimni bezagin... sevaman seni.  
Har kecha qolmaydi ruhim majoli,  
Har sahar yangidan sevaman seni.

Muqaddassan menga...  
Hozirman, gulim,  
Seni atamoqqa ehrom-ma'badim...  
Har kecha sukutdan lol bo'lur tilim,  
Har sahar yangidan sevaman seni...

## SEN UCHUN

Bir oz aqlim ila, ham devonavor,  
Naylayin, men bunday sevaman seni.  
Ikki farzandingni sen qanday sevsang,  
Men ham xuddi shunday sevaman seni.

Bir oz himoyaching, bir oz shohingman,  
Ishqing qarshisida qulday titray man.  
Sen ikki bolangga qanday titrasang,  
Men ham sening uchun shunday titrayman.

Ishqimni umringga saroy etganman,  
Kerila olmasman mol-davlatim-la,  
Sen ikki bolani avaylagandek,  
Men seni qo‘riyman duolarim-la.

Oylarim yil bo‘ldi. Va... angladimki,  
Umrimning tayanchi, o‘zagisan sen.  
Bu ellik yoshimning ostonasida  
Bu shoir umrimning bezagisan sen.

## **MENI QO‘MSAGAN BOR... SENMI QO‘MSADING?**

Yotsam, unutaman va... otadi tong,  
Ko‘zimni ochganda sen-la to‘laman.  
Sen ham sahar uyg‘onganda uyqudan,  
Ilk yodingga tushgan menmi bo‘laman?

Yo‘l yursam, qarshimdan chiqqan ayollar,  
Negadir hammasi senga o‘xshaydi.  
Senga ham ro‘baro‘ kelar odamlar,  
Ayt-chi, u odamlar menga o‘xshaydi?

Ranjisam hammadan, kuysam dunyodan,  
Oddiy xayoling ham orom baxsh etar.  
So‘yla, mening bir juft qo‘lim tegmasdan,  
Kimdir seni suyib, siypab erkalar?

Har yutum choyimda sening totинг bor,  
Har boqqan yerimda – sening ko‘zlarиг.

Qo‘limda sigaret ko‘p so‘nar bugun –  
Meni qo‘msagan bor... senmi qo‘msading?

...To‘g‘ri, qing‘ir ko‘z-la boqmasdim, ammo,  
Mening bo‘lmasang ham seni sevardim.  
Tonma, xudo haqqi, yashirma aslo,  
Men shoir bo‘lmasam, meni sevarding?..



## SAGIF QORATURPOQ



*1963-yil 26-oktyabrda tug‘ilgan. “Husayn Orif” adabiy uyushmasi rahbari, bir qator she’-riy to‘plamlar muallifi, Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasining a’zosi.*

\*\*\*

Yashil yaproq edim,  
Qolmadi mador,  
Yo‘lingga ko‘z tikib  
Rangim za’faron.  
Yulindim butoqdan,  
Shamolsovurar  
Bu ojiz tanamni  
Goh u, goh bu yon.  
Yomg‘irlar quyadi,  
Qish qahratonda  
Junjikarman men  
G‘arib, notavon.  
Otilib, urilib  
devordan devorga  
Tentirman sarson,  
bekordan-bekorga...  
Eh... sen...  
Balki buning hech senga  
Yo‘q bir zarracha farqi.  
Har kun bosib o‘tarsan jim  
Oyog‘ing ostida ingragan bargni...

\*\*\*

Qanday kirding yuragimga,  
Men bexabar qoldim-ku.

Ko‘zimni ochdim-u ko‘rdim,  
Ming yillik joyingdir u...  
Axir, kim o‘rgatdi senga  
Bu joduni, afsunni?!  
Sen kelib anglatding menga  
Ishqdek go‘zal fusunni.

Shunday uvushib qoldim,  
So‘z topmadim demakka.  
Men senga qandoq “ket” degum,  
Joying bormi ketmakka?!

\*\*\*

Hech kimni o‘ylamadim  
men umrimda bu qadar.  
Qiziq, nechun qadrdon  
menga bu g‘am, bu kadar?  
Oh, nechun titrar yurak  
sendan darak kelganda.  
Bu ne sir, sevinaman  
sen ozgina kulganda.  
Qanday kelding, bilolmam,  
Jonimda, qonimdasan.  
Uzoqlarda bo‘lsang ham,  
Doimo yonimdasan.  
Bilsayding zorligimni  
qo‘llaringdan tutmoqqa...  
Ming yilki, sargardonman  
axir senga yetmoqqa.  
Oh... men endi naylayin,  
O‘z ohimdan yonaymi?  
Yo o‘zimni unutay,  
Yo bu ishqdan tonaymi?!

Qiziq, buni bilganda

Namlandimi ro‘moling?  
Na hasratning so‘ngi bor,  
na ayriliq poyoni...

\*\*\*

Esiz, ranjib ketyapsan,  
Arazing dilga ozor.  
Ko‘z yoshlaram sel bo‘lar,  
Yuvib izlaring zor-zor.

Ketarsan, lek qaytmoq-chun  
So‘zga joy qoldir bir oz.  
Gar birdan shunday ketsang,  
Qaytmoqqa yuzing bo‘lmas.

Bilaman, sen ketasan,  
Kelmog‘in ketmog‘i naqd.  
Iltimosim unutma,  
Ayriliqqa salom ayt...

\*\*\*

Ko‘hna o‘choq joyidir  
yuragim sen ketgandan.  
Nechun cho‘g‘ni so‘ndirib,  
kulni titkilayapman?

Yig‘ishtirib tugunin,  
turnalar uchdi ko‘pdan...  
Men kuzga o‘xshab qoldim  
yo‘lingga ko‘z tikmakdan.

Hamma jimgina ketdi...  
to‘xtatmadim hech kimni.

O‘z qalbimga dafn etdim  
o‘z qo‘lim-la ishqimni.

Xabaring yo‘q... ko‘ksimda  
g‘arib, tanho mozor bor.  
Bir juft binafsha bitar  
sensiz unda har bahor.



## SALOM SARBON



1966-yilning 10-avgustida Ozarbayjonning Jalilobod tumanida dunyoga kelgan. Shoir o‘zi haqida bunday deydi: “...O‘rta maktabda barcha fanlarni yaxshi o‘zlashtirardim, ammo riyoziyatga mehrim bo‘lakcha edi. Hatto ba’zan menga shunday tuyulardiki, bolalikda so‘zlashishni so‘zlar bilan emas, raqamlar ila o‘rganganman”.

## MEN KELAR BO‘LMADIM, YO‘LNI QARSHILA

Manglay yozuvida imzo yeri bo‘sh –  
qatl farmonidir, qo‘llamoq bo‘lmas.  
O‘sha nafratlangan oyog‘ingni ham  
Bir qadamdan uzoq tashlamoq bo‘lmas.

Bir daqiqa to‘xtab, “yo‘q” degil menga,  
har kecha uyqumga kirayotgan qiz.  
Odamni orqadan chetlab o‘tarlar,  
Hoy, mening qarshimdan o‘tib ketgan qiz.

Endi bu qish umrda sirpanmoq kerak,  
Bizni qor kuzatar, do‘llar qarshilar.  
Bu esa mendan eng oxirgi noma:  
Men kelar bo‘lmadim, yo‘lni qarshila.

## KOKILING QO‘LIMDA TASBEH O‘RNIGA

Kokiling qo‘limda tasbeh o‘rniga...  
tepangda duomni o‘qidim, uyg‘on.  
Sening muhabbating mening ko‘zimda  
tersiga yo‘yilgan tush edi, uyg‘on.

Endi sen men uchun hech ne emassan,  
endi na nash'amsan, na dardim, ayol!  
Men seni sevmayman, sening bag'ringga  
sendan bekinmoq-chun kirgandim, ayol...

Hali zimdan asta yemirib seni,  
gohi tosh tashiyman, goh qum tashlayman.  
Seni tashlamayman, sendan qochmoqqa  
umr uzunligida lahim tashlayman.

## **KECHIR, XONADONIM CHORDEVOR ENDI**

Uyam tumshug'imda kezарман hali,  
Sensiz yer ham yo'qdir darbadar menga.  
Kelgil, kel, uzilib bir chetga tushgan  
Ul shox-butog'imdan meva ter menga.

Bilmayman kechirgum qaysi holingni –  
O'ynaymi to'yingga, yo aza libosi?..  
Har kun necha maktub yozib, yirtaman,  
Yirtib to'ldiraman... xabar qutisin.

Ko'zlamakdan ko'zim ichiga cho'kdi,  
Ko'r, hech so'raysanmi, bu ne cho'kindi?  
Senli xotiralar quladi uyga –  
Kechir, xonadonim chordevor endi.

## **SEN HAM BORGIL, JAZONGNI OL**

Uchni uchgа, necha bo'lar?..  
Senda nedir to'g'ri kelmas.  
Turib degaysan, ey Alloh,  
Bas, ne uchun to'qqiz bo'lmas.

Sen ham borgil, jazongni ol –  
sen ham qo'shil hammamizga:

Tangri o‘lim hukmi yozgan  
tug‘ilish gunohimizga.

Chalsang hamki g‘amgin navo,  
g‘amlar o‘ynamas, hoy bola.  
Odam ko‘z yoshlari aro  
kema o‘ynamas, hoy bola.

## **DEYMANKI, G‘URBATDANMAN**

Xo‘sh, nima, shu vatandanman,  
shu qishloq, shu makondanman.  
So‘rasalar, qaylardansan,  
deymanki, g‘urbatdanman.

Bu ruh bu jon-da birgadir,  
bu suyak, bu teri ila...  
O‘tgan umrga qo‘l silkir  
Soat o‘z kapgiri ila.

Og‘ir halokatga tushdik,  
bir kunda, bir soatda –  
kim g‘ildirak ostidadir,  
kim Allohin ostida.



## SAODAT ALAKBAROVA



*Alakbarova Saodat Muzaffar qizi 1971-yil 24-fevralda Ozarbayjonning Ganja shahrida tug‘illgan. OzR Qishloq xo‘jaligi akademiyasini tugatgan. Asarlari davriy matbuot sahifalarida muntazam e’lon qilib boriladi. “Turk dunyosi shoirlari” antologiyasi (2013), “Turk dunyosi Oltin qalamlar” antologiyasi (2014) hamda 2015-yilda “Qorabog‘noma” she’rlar antologiyasida she’rlari chop etilgan.*

### MEN HAYOTDAN KO‘CHGANDA

Istamayman men hayotdan ko‘chganda,  
Armonli orzular yurakda qolsin.  
Istaymanki, baxt yulduzim o‘chganda,  
Allohim ruhimni huzur-la olsin.

Bir olam sevinchni baxsh etsin o‘lim,  
Sevinch bulog‘iga cho‘mib, yuvinay.  
Bo‘lib chaqaloqdek begunoh, ma’sum,  
Gunoh libosimni men uloqtiray.

Kechganda ustimdan o‘lim karvoni,  
Malak qanotida ko‘kka ketayin.  
Chalinsin umrimning nozik torlari,  
Rabbim sevgisi-la men jon berayin.

So‘ralmasin bahorimning yillari,  
Yozimning qish isi ichimda qolsin.  
Zeb-ziynatsiz, befayz o‘tgan kunlari  
Yig‘ilib, qalbimning burchida qolsin.

## **MAKTUBLAR**

Maktublar topardi so‘nggi manzilin,  
Tortinchoq savdoning saroyi kabi.  
Maktublar ichida uchgan onini  
Tuyardik qalblarning faryodi kabi.

Kelgan maktublarda sirli sevgilar  
G‘arib ishqlariga qo‘noq bo‘lardi.  
Goho satrlarda mahzun yuraklar  
Bir o‘choq o‘tiga chiroq bo‘lardi.

Ularda dillarning hayqiriqlari,  
Ularda insonning viqori bordir.  
Sirli umidlarning nozik izlari,  
So‘zlarning ma’sumlik gunohi bordir.

## **BIR SHE’R YOZAMAN SENGA BU OQSHOM**

Bir she’r yozaman senga bu oqshom,  
Sevging yuragimda, sen-chi, uzoqda.  
Gar desam, seni men hech sog‘inmadim,  
Tutaydi bu ko‘ngil, yonar varaq-da.

Bir she’r yozaman senga bu oqshom,  
Oltin satrlarda so‘zlaydi umrim.  
Yillarni hasrat-la oylarga o‘rab,  
Eriqan sham kabi so‘nadi umrim.

Bir she’r yozaman senga bu oqshom,  
Yulduzlar fikrimni chalgisi kelar.  
Oy ham kulimsirab ko‘kning yuzidan,  
Mendan saodatni olgisi kelar.

Bir she’r yozaman senga, ey umrim,  
Xayol yaproqlarin ochar so‘zimda,

Qalblarga yo‘l topsa bahor umidim,  
Dunyoning xushbaxti bo‘lgum ko‘zimda.

Bir she’r yozaman senga bu oqshom...

## KETDI

Bu bahorda savdolar  
Chaqmoqdek chaqdi ketdi.  
Yolg‘iz qolgan sevgilar  
Yurakni siqdi, ketdi.

To‘fon ko‘tardi ohlar,  
Yarim ko‘ngil hayqirar.  
Xotira qolgan chog‘lar  
Ufqdan chiqdi, ketdi.

Bulut to‘lar yosh ila,  
Umr kechar goj ila,  
Hijroning ko‘z yoshi-la  
Ko‘zlardan oqdi, ketdi.



## **SOBIR SARBON**



*1956-yilning 5-martida Ozarbayjonning Pirhasanli qishlog‘ida tug‘ilgan. Ozarbayjon Davlat madaniyat institutini bitirgan. 1996-yildan hozirgacha Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi Sumgait shahri bo‘limining raisi bo‘lib ishlab kelmoqda. Bir necha she’riy kitoblar muallifi.*

## **O‘LGAN MING DAF’A TIRILDI**

*Mavlono Jaloliddin Rumiyga*

Yo‘qoldim dunyo ko‘zidan,  
Ko‘zdan u yonda  
Men borman.  
Eng birinchi ham eng so‘nggi  
Izdan u yonda  
Men borman.

Dema, qubbasi qurildi,  
O‘lgan ming daf’ a tirildi.  
Yuz bekinmoq-chun berildi,  
Yuzdan u yonda  
Men borman.

Ruhimning binosi yo‘qdir,  
Turarga xonasi yo‘qdir,  
So‘zdan u yonasi yo‘qdir,  
So‘zdan u yonda  
Men borman.

## BIR CHUMOLI OZOR CHEKSA

Do‘llar tuysa bir chamanni,  
Manim chechagim undadir.  
Tog‘ni kesib, toshni yoray,  
Manim cho‘ragim<sup>1</sup> undadir.

Qoradir baxtimning yuzi,  
Manglayda shum taqdir izi,  
Ko‘r bo‘lsin osmonning ko‘zi,  
Manim falagim undadir.

Yigit o‘ngdan ortga tushsa,  
Bir chumoli g‘ovga tushsa,  
Qayda haqqa ko‘lga tushsa,  
Manim yuragim undadir.

<sup>1</sup> Cho‘rak – non


## O‘ZIMNI SO‘ZGA O‘RADIM

Yotmadim saharga qadar,  
Yaramni tuzga ko‘chirdim.  
Uvalarni tog‘ga eltib,  
Kuzini yozga ko‘chirdim.

Bu g‘o‘r o‘jar keldi qaydan,  
Dunyo qildi zaharxanda.  
Oq bo‘yin hushim olganda,  
Ruhimni sozga ko‘chirdim.

Fonyida umr surardim,  
Ortdan ishimni ko‘rardim,  
O‘zimni so‘zga o‘radim,  
So‘zni qog‘ozga ko‘chirdim.

## SULAYMON HUSAINOV



*1949-yilning 19-sentyabrida Ozarbayjonning Lenkoran rayonida dunyoga kelgan. Ozarbayjon Neft va kimyo institutini hamda Moskva Xalq xo‘jaligi akademiyasini bitirgan. Qator kitoblari ozarbayjon va rus tillarida Ozarbayjon va Rossiyada chop etilgan. Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasining a’zosi, xalqaro “Qilich va qalam” mukofotining sovrindori.*

### QAYDASAN

O‘zgardi zamona, boshqadir davron,  
Qachondan halolga qo‘sildi harom,  
Osiyning qo‘liga tushibdi Qur’on,  
Qaydasan, qaydasan, haqning qilichi?!

Jondan to‘ydirganda g‘am-dard shoirni,  
Sut ko‘lida suzar saroy shoiri,  
Yulduzga do‘nibdi, axtar shoirni,  
Qaydasan, qaydasan, haqning qilichi?!

Buncha shirin bo‘ldi yolg‘onchi tillar,  
Yashirdi atrini chechaklar, gullar,  
Uy yiqrar bir vaqtlar uy qurgan qo‘llar,  
Qaydasan, qaydasan, haqning qilichi?!

Men qondan qo‘rqsam ham, ko‘rurki Alloh,  
Dunyoni ol rangga bo‘yadi gunoh,  
Seni chorlagayman, sendadir panoh,  
Qaydasan, qaydasan, haqning qilichi?!

\*\*\*

Jimib ilhom parim, ko‘zi ko‘r bo‘ldi,  
Oqarib sochlarim, oppoq qor bo‘ldi,  
Sensiz dunyo menga zulmat go‘r bo‘ldi,  
Hasrating eshigim qoqqandan beri.

Ayira bilmasman do‘st ila yotni,  
Tilimdan qochibdi nonimning toti,  
Dard ko‘ksimga enib, bag‘rim qonatdi,  
Hasrating eshigim qoqqandan beri.

Visoling qo‘limdan uchgan qush emish,  
Bilmadim, yuraging qandog‘ tosh emish!  
Ko‘zlarim sen ketgan yo‘lda qolibmish,  
Hasrating eshigim qoqqandan beri.

Hayotda hammadek bir inson edim,  
Yuragi ishq to‘la Sulaymon edim,  
Hasrating o‘tida shamdek eridim,  
Hasrating eshigim qoqqandan beri...

\*\*\*

Seni ne deb atay, o‘zim ham bilmam,  
Mash’um qismatmi yo kechikkan baxtmi?!

Hatto bilolmasman o‘z nomimni ham –  
Adashgan dalli yo sho‘rlik badbaxtmi?!

Yoshim qaytgan chog‘da kelding qoshimga,  
Endi o‘t elanar ko‘kdan boshimga,  
Bir senga qarayman, bir-da yoshimga,  
Zimiston qamradi ishq degan taxtni.

Deya olmaymanki, sensiz o‘lyapman,  
Sham misoli erib, men mum bo‘lyapman,

Ba'zan tentakdek noo'rin kulyapman,  
Bir kimsa anglamas bu qorabaxtni.

Mening menligimni qo'limdan olding,  
Qalbimni chorasiz bir dardga solding,  
Bu dard-la yuzma-yuz, tanho qoldirding,  
Ozdirdi yo'llarda zamon baxtimni,  
Hasratdan o'rtanib yongan baxtimni...

### **QANDOQ YASHAYIN**

Boqishingdan yuragimga o't tushdi,  
Dudog'ingdan dudog'imga tot tushdi,  
Yuraging ishqimdan uzoq, yot tushdi,  
Sensiz bu hayotni qandoq yashayin?!

Soching atri qoldi titroq qo'limda,  
Jahonga sig'magan isming tilimda,  
Xudoyim, hasratdan afzal o'lim-da,  
Sensiz bu hayotni qandoq yashayin?!

Bilaman, bu savdo voqe bo'lmaydi,  
Yuragim visolga yeta olmaydi,  
Undan hech kechib ham keta olmaydi,  
Sensiz bu hayotni qandoq yashayin?!

Samoga boqaman, seni ko'raman,  
Yo'llarga chiqaman, seni ko'raman,  
Yo'limda tumanni, changni ko'raman,  
Sensiz bu hayotni qandoq yashayin?!

Seni yozg'irmoqqa yo'q ixtiyorim,  
Sensiz endi yo'q bir on ham qarorim,  
Yolg'iz sen dunyoda davlatim, borim,  
Sensiz bu hayotni qandoq yashayin?!

Aytgil, axir qaydan chiqding qarshimga,  
Ne savdolar tushdi mening boshimga?!

Sevgim gar urilsa daxma toshiga,  
Sensiz bu hayotni qandoq yashayin?!

...Rasmingga tikilib, jonim o‘rtanar,  
Hushim boshdan uchar, borliqdan tonar,  
Bir ko‘ngil visolda, kular, shodlanar,  
Biri-chi, hasratdan lovullab yonar,  
Sensiz bu hayotni qandoq yashayin,  
Bu dardim yuki-la qandoq yashayin?!



## SULTON MERZILI



*Shoir, noshir, tarjimon, adabiy tanqidchi. 1948-yilning 1-iyulida Tog‘li Qorabog‘ning Xojavand tumanida tug‘ilgan. Ozarbayjon Davlat universitetini bitirgan. Bir necha she’riy kitoblar muallifi, Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi, Shoirlar va publitsistlar assotsiatsiyasi a’zosi. Hozirda Moskva shahrida ya-shaydi.*

## IKKI YO‘L ORASI

Bilsaydim xushbaxtlik nadur,  
baxtli bo‘lardim.  
Xushbaxt bir olamga tushib qolardim.  
qo‘ng‘iroqgulmi yo  
bir qadah misol,  
Ichimga xushbaxtlik quyib, to‘lardim.  
Xushbaxtlik pul bo‘lsa,  
men pul bo‘lardim,  
Xushbaxtlik yo‘l bo‘lsa,  
men yo‘l bo‘lardim.  
Bilsaydim xushbaxtlik sening ishingdir,  
Senga do‘sit bo‘lardim yo qul bo‘lardim.  
Tole yozmishini bilmagan kasga,  
Hech yoqmas, handasa ters kelib qolsa.  
Xushbaxtlik Allohnning maxfiy siridir,  
Inson tushunmas, gar jo‘n banda bo‘lsa.  
Jarliklar ustida bir taxt tiklan mish,  
Tepadan sel bosar, ostdan esa vaqt.  
Ikki yo‘l o‘rtasi – arosatdaman,  
Bilmam, baxtlimanmi yoki  
bir badbaxt?!

## **YASHATAR MENI**

Bu kuz yomg‘iridan bo‘salar oldim,  
Xotirlatdi sening ko‘z yoshlaringni.

Har daf'a yangidan dunyoga keldim,  
Yuzimda tuyganda boqishlaringni.

O‘p meni, o‘p meni, yomg‘ir tomchisi,  
Umr deganlari bu bir tomchi suv!  
Mening muhabbatim yurakdan kelur,  
Qurit yoshlirimni, ko‘zda qolmasun.

Ol yuragimni, bir yaproqqa o‘ra,  
Isming muhrlangan dudoqqa o‘ra.  
Men seni ishqimga vatan bilganman,  
Sen uni bir siqim tuproqqa o‘ra.

Yuvar yuz-ko‘zimni bu kuz yog‘ishi,  
Malak navozishli bir qiz boqishi,  
Kuzdan meni olgil, yetkaz bahorga,  
Unutay hasratni, unutay qishni.

Yaproqlar to‘kilib, to‘zg‘itar meni,  
Tomchilar tomchilab muzlatar meni,  
Bu begona yurtda o‘lib ketardim,  
Sening muhabbatig yashatar meni!

## **BIR HOVUCH TUPROQ**

Sayyoohlар derlarkи,  
Tushsang g‘urbatga,  
Unda g‘ariblar bor – hasratda ado.  
Tengdir ziyyaratga,

Tengdir turbatga,  
Keltirsang Vatandan bir hovuch tuproq.

Olib bor,  
Ming karra badal olasan,  
Birov oltin berar,  
Birov la'l-gavhar.  
“Bir hovuch” ... aytishga naqadar oson,  
Ona tuproq behad og‘ir, birodar...

Hovuchim to‘ldirdim,  
qo‘llarda titroq,  
Vaqt misoli oqib, to‘kildi tuproq...  
Kaftimda Kur ila Oraz shiddati,  
Ko‘zimda Savolon rostladi qaddin.

Ko‘rdim, bir dunyokim, sig‘maydi kaftga,  
Uningdir umidim, orzum, rizq-ro‘zim.  
Men undan bir siqim qandoq olayin,  
Axir bir siqim xok qarzdorman o‘zim?!

\*\*\*


Hasratimga o‘xshar dengiz,  
bir sohili ko‘zlarimda,  
bir sohili  
ko‘rinmas.

Umidimga o‘xshar daraxtlar,  
qo‘llari ko‘kda,  
oyoqlari tuproqda,  
bahorni ko‘zlar.  
Sevgimga o‘xshar tuproq,  
o‘lmaquncha,  
ko‘zlarimga sepilmas.

## **BAHOR KELUR...**

Bahor nafasidan gul socha-socha,  
Mudroq dala-dashtga yana sas solur.  
Bahor shuning uchun go‘zadir balki,  
Har kimning qalbiga bir havas solur.  
Dengiz ham shunchalar moviyashurki,  
Ufqlar qa’riga singar batamom.  
Dunyoga xuddi bir olov tushurki,  
Oshiqlar visolga  
shoshar har oqshom.  
Goh salqin shabboda,  
Goh mayin yomg‘ir,  
Qalbimdan bahorga eshik ochilar.  
Bahorda hammani sevarlar, demak,  
Meni ham, meni ham sevgan topilar.

## TOFIQ NURALI



1953-yilda Qo‘noqkent tumanida tug‘ilgan. N. Narimonov nomli Ozarbayjon Tibbiyot institutini imtiyozli diplom bilan bitirgan. Turli tibbiyot idoralarida rahbar lavozimida ishlagan. Ilk ommabop “Shafqat”, hozirgi “Tib gazeti”ni ta’sis etib, bosh muharriri bo‘lgan. To‘rt she’riy kitob muallifi. She’rlari Tabriz, Moskva shaharlari hamda Turkiyada chop etilgan.

\*\*\*

Istamayman endi, qaytsin u kunlar,  
Yurak olovlangsın, qalblar isinsin.  
Sen qo‘y u kunlarning yaxshisin, gulim,  
Eng yomoniga ham men degum esiz.

Esiz o‘shal kunlar, seni sevgandim,  
Afsuski, aldandim men ham hayotda.  
Afsus, unutgandim, eng tik daraxtning  
Egri ildizi bor tuproq tagida.

Saodat bilardim u vaqt har neni,  
Dunyo – ko‘zlarimda o‘yin-o‘yinchoq.  
Afsuski, kech tuydim, kech ko‘zim ochdim,  
Sevgi ham saodat emasmish biroq.

Yurakni aldamoq, ko‘zni bog‘lamoq,  
Ko‘ringki, sevgida bir odat ekan.  
Esiz o‘sha kunlar, endi bilaman,  
Muhabbat yolg‘onchi saodat ekan.

Minba’d istamayman – qaytsin u kunlar,  
Qaytgan saodatdan qalblar isinsin.  
Sen qo‘y u kunlarning yaxshisin, gulim,  
Eng yomoniga ham men degum esiz.

\*\*\*

Ranjima dunyodan, injima mendan,  
O‘tgan turnalarga qo‘l silki yana –  
Kuz osmoni ila ketgan turnalar  
Eng so‘nggi maktubim o‘qiydi senga...  
Unda yozilganki, ko‘zlariningni art,  
Meni ham qalbingdan yul –  
yula bilsang....  
Men uchun sen nomli bir go‘zal bo‘lgan,  
Senga juda o‘xshar,  
U sen emassan...  
Meni ham dunyoda ruhim yashatar...  
Cho‘kkan bir orolman, xun bo‘lgan dengiz...  
Sochlар oqarsa ham, ko‘ngil so‘nsa ham,  
Ko‘ryapsan, yashay olmasman sensiz...  
Mening maktubimdir turna sadosi...  
Bu sasdan ko‘nglingda qalanar o‘choq...  
Intihosi yo‘qdir bu maktublarning –  
Qolar uzuq-yuluq... yarim qolajak...  
Ranjima dunyodan, injima mendan,  
O‘tgan turnalarga qo‘l silki yana –  
Har kuzda... har kuzda o‘tgan turnalar  
Chala bir maktubim o‘qiydi senga...

\*\*\*

Sarg‘ayib-so‘ligan chaman ichida  
Uzoqdan ko‘rinar bir dasta chechak...  
Bunchalar umidli, barra edilar –  
Tuyularmidiki, bahor kelajak?  
O‘ylaydilarki, hayot oldinda...  
Bitmas-tuganmasdir saodat, farah...  
Kuz quyoshi ila isinolmagan  
Tuman bosib kelur har yonni faqat...  
Ming bir azob ichra so‘lajak ular...  
Hech ne anglamasdan, hech ne bilmasdan...  
Sochim qirovi-la umrim bu chog‘i,  
Bir kuz chechagiga o‘xshayman men ham...

Hayot tumanlarda o‘tdi shundayin,  
Bitta-bitta so‘ldi umrim kunlari....  
Qamradi to‘rt yonni kadarli tuman,  
Tumanning ostida kuzning gullari...

\*\*\*

G‘amli bir nag‘madir hayot ko‘zimda,  
Kelib mening bilan qo‘sish kuylaydi.  
Achchiq tabassumim qolar yuzimda,  
Mening yuragimda boyqush sayraydi.  
O‘lgan savdolar-la to‘ladir inson,  
Qulagan orzular qumtepalikdir.  
Mening yuragimni yaxshi topibsan,  
Bilsangki, yuragim xarobalikdir.  
Jonsiz orzularning kechdim yonidan,  
O‘lik umidlarni ko‘mdim birma-bir...  
O‘lgan bir sevgimning hayajonidan  
Bir zamon yuragim titrardi zir-zir...  
Taqdir tez o‘stirdi balolarimni,  
Qismat boshim uzra yulduz oqizdi.  
Men belgilab qo‘ygan qal’alarimni  
Tole to‘pga tutdi, qulatdi,buzdi.



## **ULVIYA VOHID**



*1978-yilning 28-noyabrda Boku shahrida tug‘ilgan. Oliy ma‘lumotli. Bir farzandi bor. Badiiy adabiyot, she’riyatga qiziqishi juda erta boshlangan. She’rlari ko‘plab gazeta va jurnal sahifalarida e’lon qilib boriladi. Turli yillarda yozgan she’rlari bugungi kunda ham o‘quvchilar tomonidan iliq qarshilanmoqda.*

### **YIG‘LAYDI YOMG‘IR...**

Osmonning ham ko‘zi to‘libdi yana,  
Mening oyinamda yig‘laydi yomg‘ir.  
Sokin, mayda-mayda, yanada og‘ir,  
Ko‘ngil oyinamda yig‘laydi yomg‘ir.

Nedan u ranjidi, nedan g‘amlidir,  
Havo ham o‘zgardi, tuman, changlidir.  
Yog‘yaptimi, demak, yana dardlidir,  
Ko‘ngil oyinamda yig‘laydi yomg‘ir.

Har umrning o‘zgacha naqshi bo‘larkan,  
Yo‘l so‘ngida gohi yoshlар to‘karkan,  
Kulgan ko‘zlar ham bulutdek to‘larkan,  
Ko‘ngil oyinamda yig‘laydi yomg‘ir.

Yuragimdan tomchi-tomchi sizilar,  
Kiprigimga munchoq kabi tizilar,  
Bevaqt yog‘ar, qalbim muzlab izillar,  
Ko‘ngil oyinamda yig‘laydi yomg‘ir.

### **SO‘YLA...**

Ne uchun bunchalar sen jimsan, gulim,  
So‘yla, sof qalbingni nolitgan nedir?  
Shundoq ham dunyoga mehmonmiz, gulim,  
Seni bu hayotdan sovutgan nedir?!

Qish ko‘klamdan xafa, quyosh hiloldan,  
Yo‘l izdan arazda, dengiz daryodan,  
Kim ne anglar qalbingdagi faryoddan,  
Seni bu hayotdan sovutgan nedir?!

Tole o‘yini goh shafqatsiz bo‘lur,  
Sevimli chechaklar ham vaqtsiz so‘lur,  
Bu go‘zal ko‘zlarining nechun tez to‘lur?  
Seni bu hayotdan sovutgan nedir?!

Oh, yana sovuqdir nozik qo‘llaring,  
Tikilar menga ma’noli ko‘zlarining,  
Nega jimsan, ayt dildagi so‘zlarining,  
Seni bu hayotdan sovutgan nedir?!

Seni bu hayotdan sovutgan nedir...

## **AYRILIQ**

Ketyapman... endi vido paytidir,  
Inon, so‘zlamoqqa so‘zim qolmadi.  
Bordir sabrning ham saddi-sarhadi,  
Ortiq alamlarga to‘zim qolmadi.

Ma’sum hislarimning qotili sensan,  
Ularni beshikda sen nobud qilding.  
Dunyoga kelganlar o‘lsa bir daf‘a,  
Sen-chi, azoblab ming daf‘a o‘ldirding...

Sevishim eng og‘ir gunohim ekan,  
Jazom – bir umrlik mash’um ayriliq.  
Ilohiy adolat seni kutmoqda,  
Mahv etajak seni bir shum ayriliq.

## **SEVGI ERTAGI**

Bir sevgi ertagi aytib ber menga,  
Unda hasratlardan so‘z ochilmasin.  
Baxtiyor sevgilar yorti qolmasin,  
Bir sevgi ertagi aytib ber menga.

Unda ham saodat, ham vafo bo‘lsin,  
Sevinch yoshlari-la diydalar to‘lsin.  
Yashalgan har sevgi bir o‘rnak bo‘lsin,  
Bir sevgi ertagi aytib ber menga.

Majnunlar Layli-chun hasrat chekmasin,  
Farhodning azobi zoye ketmasin,  
Zulayho Yusufsiz g‘amga cho‘kmasin,  
Bir sevgi ertagi aytib ber menga.

Azroil eshikni bevaqt ochmasin,  
Fariza ishq uchun kafan bichmasin,  
Sevgilar hech qachon bunday bitmasin,  
Bir sevgi ertagi aytib ber menga.

Ishonchli tog‘larni qorlar bosmasin  
Xiyonat degan so‘z yodga tushmasin,  
Visolning yo‘lini hech ne to‘smasin,  
Bir sevgi ertagi aytib ber menga.

Ertak olamiga mehmon bo‘lsam ham,  
Bir kun bu hayot-la vidolashsam ham,  
Endi ertaklarga ishonmasam ham,  
Bir sevgi ertagi aytib ber menga.



## TARLON ABILOV



*1968-yilning 20-iyulida tug‘ilgan. Ozarbay-jonning Lenkaran shahrida yashaydi. “Ziyoratga ketgan nafas”, “Yashil yog‘duda bitgan yo‘l” nomli ikki she’riy kitob muallifi, Prezident stipendianti, Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi a’zosi.*

### XARITA

Yuzi dardning, g‘amning xaritasidir,  
Har yoni ajinli yirik bir o‘lka.  
Kezarman yuzining ajinlarini,  
Deyman, kezmakka hech arzimas balki...

Ko‘zlari oroldir, yashil bir orol,  
Yashili quruqlik, oqi tamom suv.  
Uning ko‘zlarida yashamoq menga  
Endi bir qo‘l yetmas orzudir, orzu.

Tikilgan sukutning ko‘zlari yerga,  
Kel endi, uning ham tomirini tut.  
Balki men bilmasdum, bu yer yuzida  
Inson shaklidamish eng buyuk sukut.

Uning ko‘zlarida, uning yuzida,  
Eh, necha dengizning bor to‘fonlari.  
Uning yuragining sarhadlarini,  
Insonmas, tanisa bir U tanirdi.

Kezarman, kezarman bu xaritani,  
Barmog‘im xuddi bir toshga tegadi.  
Bilmadim, ne gunoh sohibimanki,  
Qo‘lim toshdan oqqan yoshga tegadi.

Yo bu xaritadir tosh bo‘lgan mensiz,  
Yoki men tosh bo‘ldim, toshga aylandim.  
Yoki o‘sha, bir vaqt ota deganim,  
Ul toshning ko‘zida yoshga aylandim.

Osganman ko‘zimdan bu xaritani,  
Balki bir ajini o‘ygay meni ham.  
Boshimga uraymi shoirligimni,  
Gar bu xaritaga tusha olmasam.

## JUDA HAM O‘RGANDIM BU TANHOLIKKA

Bilmadim, aybim ne, meni sevganlar  
sevib ham umrimdan hamon chekinur.  
Yuzimga do‘sst kabi kulganlar mendan  
dushmandek qayrilib, yomon chekinur.

Qiziq, sabab nedir, besh-olti so‘zmi,  
yo‘qsa bu dunyoga yondashma tarzim?  
Meni yuksaltmoqqa urinma, Alloh,  
o‘zim bilmasam gar hali kimman, kim?

Juda ham o‘rgandim bu tanholikka,  
yopildim, yopildi o‘zimga ko‘zim.  
Qalbim shoshilsa-da sening yoningga,  
Qalbimga yetmadi, hayallab ko‘zim...

Hayallab ko‘zlarim, hayallab qo‘lim,  
o‘zdi, o‘zdi mendan ko‘z yoshlарim-da.  
Yo Rabbiy, ko‘k yuzi biram sirpanchiq,  
yiqilsam, yopishma ko‘z yoshlарimdan.

Bezdi, bezdi mendan sevgan ayolim,  
bezdi tug‘ishganlar, kim bo‘lsa, bezdi.  
Dunyoning suvtekin o‘limlari ham  
mendan uzoqlashdi, bir chetda kezdi.

Juda ham o‘rgandim bu tanholikka,  
bekindim, ko‘zgular yuzimdan tushdi...  
Chopdim, yetolmadim ko‘z yoshlarimga,  
ul ko‘z yoshlarim ham ko‘zimdan tushdi....

## YONG‘IN

Oftob tark etadi derazamizni...  
Qorong‘ulik  
butoqlarning orasida yaproqlarning tili ila  
nelardir pichirlaydi,  
ammo ne?..

Sen sukutdasan...  
Pardalanur kipriklaring-la ko‘zlarin...

Men bahona izlamayman –  
butun bahonalar ichida  
birga,  
bir tortinchoqlik yashirinsa ham...

Sen to‘silgan ko‘zlarin ortidan  
Yoqasidan torta-torta  
Ko‘ksini mushtlaysan  
Menga atalgan sevgingning.

Telefonimdan o‘qiganing  
sevgi xabarlarining ostida  
qulqlaringda saslanarkan  
hech vaqt sasini eshitmaganing,  
yuzini ko‘rmaganing bir qizning sasi.



## SHOHMAMAD TOG'LAR O'G'LI



Sultonov Shohmamad Nurulla o'g'li 1956-yili Ismoilli tumanida tug'ilgan. 1991-yilda Novosibirsk Xalq xo'jaligi institutini iqtisodchi-muhandis ixtisosligi bo'yicha bitirgan. 2005-yilda bir yillik jurnalistika kursini tamomlagan. Besh kitob muallifi. She'rlari "Turk dunyosi shoirlari antologiyasi" va boshqa almanaxlardan o'rinn olgan. 2014-yildan o'zi ta'sischisi bo'lgan "Ismoilli yozuvchilari" adabiy-ijtimoiy uyushmasining rahbari, 2008-yildan boshlab nashr bo'layotgan "Ismoilli xabarlar" gazetasining ta'sischisi va bosh muharriri. Ozarbayjon Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.

### ONADIR

Sen uchun jonim fido bo'lsin, Vatan,  
Sen va onam menga bir jon-u bir tan,  
Yurakdan, yurakdan, sof, chin yurakdan  
Ul men sevgan inson onadir, ona.

Sochlarda qirov farzand yo'lida,  
Yosh o'tgach panadir qiz-u kelindan,  
Aylanay men uning shirin tilidan,  
"Jonim bolam!" degan onadir, ona.

Allasi yoqimli buloq kuyidan,  
Tuyib, bahra olar farzand bo'yidan,  
Orziqib kutilgan o'g'lin to'yidan  
Gohida so'z ochgan onadir, ona.

### SO'YLAYDI

"O'chmas hech bag'rimdan sen chekkan zahmat", –  
Bu so'zni chamanim, gulim so'ylaydi.  
"Zahmatni sevmagan insonga nafrat", –  
Bu so'zni dudog'im, tilim so'ylaydi.

Hayotda xo‘b qiyin kunlar ko‘rmisham,  
Ammo har zARBaga ko‘ksim kermisham,  
“Kuchim, quvvatimni elga bermisham”, –  
Bu so‘zni qadoqli qo‘lim so‘ylaydi.

El meni sevsA gar bir shoir qadar,  
Bo‘lmoq istamasman besar, darbadar,  
“Intil, o‘tmasin kun bekor, besamar”, –  
Bu so‘zni oyLARim, yilim so‘ylaydi.

## **MAHZUN TUYG‘ULAR**

Go‘zallar ichinda sendan go‘zalni,  
Kimki ko‘rdim desa, men ishonmasman.  
Kuydirib kul qilsin alangalaring,  
Hech kimning dardida buncha yonmasman.

Umrning kuz chog‘in haroratin ko‘r,  
Gul ochmoq istaydi ko‘hna orzular.  
Dunyoning eng baxtli ayollaridir –  
Onaizorim va men sevgan dilbar.

To‘ymoqqa, tolmoqqa bormikan haqqim,  
Barchasin sevmakka yuragim tayyor.  
Mening azizlarim, jigargo‘shamdir,  
Kim ishq-muhabbatda pok va vafodor.

Hayotning negizi, mag‘zi sevgidir,  
O‘lmakka hozirman sevmagan kunim.  
Dunyoda so‘nggi nafasim qadar  
Qul bo‘lay sevgiga bag‘ishlab umrim.

Quyoshdan o‘rganing qanday sevmakni,  
Oyning nurida ham sevgi bor, biling.  
Tirikman mehrli insonlar-la men,  
Gar o‘lsam, sevgi bor yerda dafn eting.

## QALAM-LA SUHBAT

Men:

Qalamim, onaga bir she'r yoz sen ham!

Qalamim:

Sohibim, madhiga ojizdir qalam!

Men:

Sermazmun ash'or yoz ota haqida.

Qalamim:

Ollohimga ayon, yo'q undek ota.

Men:

Balki vasf etarsan, nedir oila?

Qalamim:

Ollohdek, onadek nodir oila.

Men:

Hech bo'lmasa bildir, men kim bo'l misham.

Qalamim:

Yongancha kichrayar nur ulashgan sham.

Men:

O'lsam, qabrtoshimga nelar yozasan?

Qalamim:

Qiyin yashasa-da, jon berdi oson!

\*\*\*

Endi binafshalar ko'zin ochsaydi,  
Gul oshig'i – kapalaklar uchsaydi,  
O'lkamizning qishi bor-yo'q uch oydir,  
Nechun bunday kechikmoqda bu ko'klam?

Tog' daryosin jo'shib oqar chog'idir,  
Yuraklarning qaynab-toshar chog'idir,  
Sevganlarning dilin ochar chog'idir,  
Nechun bunday kechikmoqda bu ko'klam?

Chug'urchuqlar uyasizdir hali ham,  
Kechikmoqda bu bahorning gali ham.  
Bilgan bormi, javob bersin bizga ham,  
Nechun bunday kechikmoqda bu ko'klam?

## ELMON TOVUZ



1961-yilning 10-aprelida Ozarbayjon Respublikasi Tovuz tumanining Shixhaybat qishlog‘ida tug‘ilgan. Ozarbayjon Xalq xo‘jaligi institutini (hozirgi Iqtisodiyot universiteti), ayni vaqtda jurnalistika (kechki) fakultetini bitirgan. 1998-yilda og‘ir avtomobil halokatiga uchrash natijasida mehnat qobiliyatini yo‘qotgan. Oilali, Boku shahrida yashaydi. Talabalik chog‘laridan ijod qilib kelmoqda. Asarlari Ozarbayjon matbuotida muntazam e’lon qilib boriladi.

*Yozuvchilar uyushmasi a’zosi, besh she’riy kitob muallifi.*

\*\*\*

Mening she’r kitobim varaqlagan qiz,  
Taassuf, sen aslo sevinmagaysan....  
Bir visol nag‘masin so‘roqlagan qiz,  
Yuz hasrat nolasin sen tinglagaysan.  
Yozgan ash’orlarim fig‘onli, dog‘li,  
O‘qisang, muzlatar misoli ayoz.  
Yarador burgutman – oyog‘i bog‘li,  
Sen-chi, qaldirg‘ochdek etarsan parvoz.  
Ohim samo bag‘rin yorib o‘tsin deb,  
Men dardni kuylayman har kecha, har kun.  
Bir qoni qaynoqqa ma’qul bo‘lsin deb,  
Sen she’r axtaryapsan “xotira” uchun...  
Kadar uyum-uyum, g‘am to‘da-to‘da,  
To‘fon-u sellar-la bitgandim g‘azal.  
Sening izlaganing yo‘q bu kitobda.  
Alloh haqqi, meni avf etgil, go‘zal.  
Hali vaqt keladi vasfing kuylashga,  
Ey visol nag‘masin so‘roqlagan qiz.  
Dard berding,  
Qo‘ymading ozayishiga,  
Kitobim beparvo varaqlagan qiz.

## YURAGIMDA

Menga “toshjurakli” degan baxtiyor,  
Bilsayding, nelar bor kosh, yuragimda.  
Sening kaklik ishqing uya quribdi,  
O’sha, cen aytganing tosh yuragimda.

Bilmadim, mendagi bu shoshish nedan,  
Bahor ko‘zlarga qish ko‘rinish nedan,  
Hijronga bunchalar xush yoqish nedan –  
Chekkan dog‘laring ham xush yuragimda...

Avvalgi Elmonman, toshmi yoki qish,  
Joizmikan tangri izniga nolish?!  
Suzsin deb sen – ko‘nglimdagi oqqush,  
Oqqancha ko‘l bo‘ldi yosh yuragimda...

Bildingmi nelar bor “tosh yuragimda”?!

\*\*\*

Egni-boshim yangilanmas anchadan,  
Dardim kunda yangilanur shekilli.  
Yo‘qsa meni azizlamoq gunohmi?  
Shunda dardim azizlanur shekilli...

Tug‘ilganda ko‘z ostiga olibmi,  
Chorasini topmoqqa kech bo‘libmi?  
Bir ilmog‘in barmog‘imga ilibmi,  
Kalavadek chulg‘ab olur shekilli.

O‘ylarkanman vujudim o‘rtar ohim...  
Kimga aytsam, dudog‘ida “evohi”.  
Bekinmachoq o‘ynar boladek gohi,  
Bu dard meni mazax qilur shekilli....

## SHUKR

Ozga qanoat qil, ko‘p ozdan bo‘lur,  
Ozga ham shukr qil, ko‘pga ham shukr.  
To‘qning ochligi bor, ochning to‘qligi,  
Ochga ham shukr qil, to‘qqa ham shukr.

Bir qo‘l bo‘sh bo‘lmasa, boshqasi to‘lmas,  
Olguvchi bo‘lmasa, qum ham sotilmas,  
Biri tortilmasa, biri otilmas,  
Yoyga ham shukr qil, o‘qqa ham shukr.

Osmon bulutlimi – yerda qor bo‘lar,  
Qorlar eriganda buloqlar bo‘lar...  
Sinoatni ko‘rgil, yo‘qdan bor bo‘lar,  
Borga ham shukr qil, yo‘qqa ham shukr.

\*\*\*

Chidadim, sendan ne kelsa,  
Yana ber, chekarman, Alloh.  
Orzularim qabri uzra  
Gullar ham ekarman, Alloh.

Ko‘nglim saroy, qashshoq xonadon...  
Kim “balli” der, kim “notavon”.  
Ichimda sulton-u xoqon,  
Sirtimda navkarman, Alloh.

Qo‘y, o‘zimni erkin ko‘ray,  
Qatra yomg‘ir, bir kun ko‘ray...  
Bir ish topshir, men ham ko‘ray,  
Anchadan bekorman, Alloh.

\*\*\*

Gulimning guldoni emas quchog‘im,  
Hech bunday guldronni gulim ham sevmas.

Quridi niholim, zahil yaprog‘im,  
Ko‘zim sevmaganni ko‘nglim ham sevmas.

Bo‘zdir ko‘ksimdagi tog‘larning boshi,  
Bu qo‘sha buloqning tinibdi yoshi...  
Sovrilib tuprog‘i, uvalib toshi,  
Yanchilgan o‘ngimni so‘lim ham sevmas.

Isitmas jonioymi o‘t-da, o‘choq-da,  
Uvushdim bu sovuq temir quchoqda,  
Olardi jonioymi, tursam oyoqda,  
Hotavon, beholni o‘lim ham sevmas.



## MUNDARIJA

So‘zboshi: <i>SamirAbbosov</i> .....	3
Said Muhammadhusayn Behjatiy Tabriziy (Shahriyor). <i>Usmon Qo‘cqor tarjimasi</i> .....	6
Baxtiyor Vahobzoda. <i>Usmon Qo‘cqor tarjimasi</i> .....	20
Rasul Rizo. <i>Shahlo Qosimova tarjimasi</i> .....	31
Qobil. <i>Usmon Qo‘chqor tarjimasi</i> .....	34
Zalimxon Yoqub. <i>Usmon Qo‘chqor tarjimasi</i> .....	43
Narimon Hasanzoda. <i>Usmon Qo‘chqor tarjimasi</i> .....	49
Otif Zaynalli. <i>Usmon Qo‘chqor tarjimasi</i> .....	53
Nusrat Kasamanli. <i>Shahlo Qosimova tarjimasi</i> .....	58
Og‘aja’far Hasanli. <i>Shahlo Qosimova tarjimasi</i> .....	61
Ganira Pashaeva. <i>Samodil Norqobilova tarjimasi</i> .....	64
So‘na Valieva. <i>Shahlo Qosimova tarjimasi</i> .....	68
Telli Panoh qizi. <i>Shahlo Qosimova tarjimasi</i> .....	75
Firuz Mustafo. <i>Shahlo Qosimova tarjimasi</i> .....	80
Fikrat Mursaqulov. <i>Shahlo Qosimova tarjimasi</i> .....	83
Gunay Umid. <i>Shahlo Qosimova tarjimasi</i> .....	86
Akbar Qo‘sali. <i>Shahlo Qosimova tarjimasi</i> .....	90
Ahmad O‘g‘uz. <i>Shahlo Qosimova tarjimasi</i> .....	95
Qasham Najafzoda. <i>Usmon Qo‘chqor tarjimasi</i> .....	98
Qulu Oqsas. <i>Usmon Qo‘chqor tarjimasi</i> .....	103
Salim Bobullo o‘g‘li. <i>Usmon Qo‘chqor tarjimasi</i> .....	106
Yunus O‘g‘uz. <i>Usmon Qo‘chqor tarjimasi</i> .....	112
Xayol Rizo. <i>Usmon Qo‘chqor tarjimasi</i> .....	122
Ayoz Arabachi. <i>Shahlo Qosimova tarjimasi</i> .....	126
Ibrohim Ilyosli. <i>Shahlo Qosimova tarjimasi</i> .....	130
Oqil Kangarli. <i>Shahlo Qosimova tarjimasi</i> .....	134
Ofoq Shixli. <i>Shahlo Qosimova tarjimasi</i> .....	138
Nilufar Shixli. <i>Shahlo Qosimova tarjimasi</i> .....	141
Ayten Tahmasib. <i>Shahlo Qosimova tarjimasi</i> .....	144
Alamdor Jabborli. <i>Usmon Qo‘chqor tarjimasi</i> .....	147
Antiqa Samandar. <i>Usmon Qo‘chqor tarjimasi</i> .....	151

Bolayor Sodiq. <i>Usmon Qo‘chqor tarjimasi</i> .....	154
Ruboba Sohib. <i>Usmon Qo‘chqor tarjimasi</i> .....	160
Diyonat Usmonli. <i>Usmon Qo‘chqor tarjimasi</i> .....	162
Elshod Arshod o‘g‘li. <i>Usmon Qo‘chqor tarjimasi</i> .....	167
Emin Piri. <i>Usmon Qo‘chqor tarjimasi</i> .....	172
Farg‘ona Mehdieva. <i>Usmon Qo‘chqor tarjimasi</i> .....	178
Farid Husayn. <i>Usmon Qo‘chqor tarjimasi</i> .....	182
Giya Pachxatashvili. <i>Usmon Qo‘chqor tarjimasi</i> .....	186
Hayot Shomiy. <i>Usmon Qo‘chqor tarjimasi</i> .....	190
Hijron Husainova. <i>Usmon Qo‘chqor tarjimasi</i> .....	196
Iroda Oytel. <i>Usmon Qo‘chqor tarjimasi</i> .....	200
Noringul. <i>Usmon Qo‘chqor tarjimasi</i> .....	205
Nurona Nur. <i>Usmon Qo‘chqor tarjimasi</i> .....	209
Onor Amin. <i>Usmon Qo‘chqor tarjimasi</i> .....	212
Parviz Saidli. <i>Usmon Qo‘chqor tarjimasi</i> .....	214
Qilmon Imon. <i>Usmon Qo‘chqor tarjimasi</i> .....	219
Ramil Ahmad. <i>Usmon Qo‘chqor tarjimasi</i> .....	222
Sahar Ahmad. <i>Usmon Qo‘chqor tarjimasi</i> .....	228
Saxovat Sohil. <i>Usmon Qo‘chqor tarjimasi</i> .....	231
Solmon Aruz. <i>Usmon Qo‘chqor tarjimasi</i> .....	236
Vusol Nuru. <i>Usmon Qo‘chqor tarjimasi</i> .....	244
Akif Ahmadgil. <i>Shahlo Qosimova tarjimasi</i> .....	250
Vafo Mursal qizi. <i>Shahlo Qosimova tarjimasi</i> .....	253
Iroda Alili. <i>Shahlo Qosimova tarjimasi</i> .....	256
Kamola Abieva. <i>Shahlo Qosimova tarjimasi</i> .....	259
Mamad Qodir. <i>Shahlo Qosimova tarjimasi</i> .....	263
Maorif Sulton. <i>Shahlo Qosimova tarjimasi</i> .....	266
Nizomiy Zo‘hrobiy. <i>Shahlo Qosimova tarjimasi</i> .....	273
Odila Nazar. <i>Shahlo Qosimova tarjimasi</i> .....	276
Oybeniz Aliyor. <i>Shahlo Qosimova tarjimasi</i> .....	279
Rasmiya Sobir. <i>Samodil Norqobilova tarjimasi</i> .....	282
Rafiq Hummat. <i>Shahlo Qosimova tarjimasi</i> .....	290
Sagif Qoraturpoq. <i>Shahlo Qosimova tarjimasi</i> .....	294

Salom Sarbon. <i>Shahlo Qosimova tarjimasi</i> .....	298
Saodat Alakbarova. <i>Shahlo Qosimova tarjimasi</i> .....	301
Sobir Sarbon. <i>Shahlo Qosimova tarjimasi</i> .....	304
Sulaymon Husainov. <i>Shahlo Qosimova tarjimasi</i> .....	306
Sulton Merzili. <i>Shahlo Qosimova tarjimasi</i> .....	310
Tavfiq Nurali. <i>Shahlo Qosimova tarjimasi</i> .....	314
Ulviya Vohid. <i>Shahlo Qosimova tarjimasi</i> .....	317
Tarlon Abilov. <i>Shahlo Qosimova tarjimasi</i> .....	320
Shohmamat Tog‘lar o‘g‘li. <i>Shahlo Qosimova tarjimasi</i> .....	323
Elmon Tovuz. <i>Shahlo Qosimova tarjimasi</i> .....	326

## Qaydlar uchun

## **Qaydlar uchun**

## **Qaydlar uchun**

*Adabiy-badiiy nashr*

**ZAMONAVIY OZARBAYJON  
SHE'RIYATI ANTOLOGIYASI**

Muharrir *Y. Inog'omov*  
Sahifalovchi *Z. Ubaydullayev*

Nashriyot litsenziyasi AIN№ 277. 15.07.2015.  
Bosishga ruxsat etildi 28.12.2016. Bichimi 60x84<sup>1</sup>/<sub>16</sub>  
Ofset bosma. «Times New Roman» garniturasi.  
Nashr. Tab. 21. Bosma tab. 19,9. Adadi 500.

Original-maket «Extremum-press» MChJ nashriyotida  
tayyorlandi. 100053, Toshkent sh, Bog'ishamol ko'chasi, 3.  
Tel: 234-44-05. E-mail: Extremum-press@mail.ru  
Bahosi shartnoma asosida.

MChJ «SHIDASP» bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent sh, Taxtapul Darvoza ko'cha, 344  
Tel: +99895 170-61-48